

Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi
mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari



XALQARO ILMIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

TOSHKENT-2024

UDK: 894.375

BBK: 83.3 (50`z)

X 14

“Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anası” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.

To‘plamda Ganjaviyning xamsachilik an’anasiga asos solishi, Nizomiy Ganjaviy ijodining Alisher Navoiy ijodiga ta’siri hamda o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi, Ganjaviy obrazining badiiy adabiyotda tasvirlanishiga oid olimlarimizning maqolalari o‘rin olgan.

Tahrir hay’ati:

Q.Qahramonov – f.f.d., prof., M.Omonova – f.f.f.d.(PhD), dotsent.,

M.O‘razbayeva – f.f.f.d.(PhD), dotsent.

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

M.O‘razbayeva, G.Atabayeva, H.Rajabova

Taqrizchilar:

I.Yakubov – filologiya fanlari doktori, dotsent

X.Hamroqulova – filologiya fanlari doktori, dotsent

Mazkur ilmiy to‘plam Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Ilmiy kengashining 2024-yil 31-yanvar 6-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

SO‘Z BOSHI

O‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik rishtalari va qardoshlik, madaniyatlar, tillar hamda an’analar mushtarakligi qadim davrlardan davom etib kelmoqda. Ozarbayjon adabiyotining buyuk mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy o‘z asarlari bilan Sharq xalqlari, xususan turkiy xalqlar va uni bir qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Qo‘lingizdagi kitob ayni shu mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, 2024-yilning 25-yanvarida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” nomli xalqaro ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan. To‘plamda Ganjaviyning xamsachilik an’anasiga asos solishi, Nizomiy Ganjaviy ijodining Alisher Navoiy ijodiga ta’siri hamda o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi, Ganjaviy obrazining badiiy adabiyotda tasvirlanishiga oid olimlarimizning maqolalari o‘rin olgan.

To‘plamda o‘zbek, ozarbayjon, qozoq, rus, ingliz tillaridagi chet ellik va respublikamizdagi yetakchi olimlar, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning ishlari joy olgan.

BIRINCHI BO'LIM

***NIZOMIY GANJAVIY VA
O'ZBEK ADABIYOTI***

NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY

Abdug'affor Kirgizbayev,

Nizomiy nomidagi TDPU rektori

tarix fanlari doktori, professor

Ozarbayjon va o'zbek xalqlari turkiy olamning bir ildizidan unib chiqqan xalqlardir. Xalqlarimiz qadim davrlardan boshlab bir-birlari bilan barcha sohalarda, jumladan adabiy hayotda ham hamkorlik qilib yashab kelmoqda. Ozarbayjon adabiyoti deganda Nizomiy Ganjaviy ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, Nizomiy Ganjaviy ozarbayjon xalqining timsolidir.

Buyuk ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviy turkiy millatning benazir mutafakkiri sifatida jahon adabiyotidagi noyob poetik hodisa – xamsachilikni boshlab berdi. Ulug' shoirning "Panj ganj"ida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgani ma'lum.

Dunyo adabiyotshunoslari Nizomiyning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasini yuksak baholaydilar. Uni o'ta ravon she'riy nutq va o'ziga xos she'riy uslub yaratgan buyuk shoir sifatida e'tirof etganlar. Nizomiy she'rlarining xalq orasida keng tarqalishi sababi ularning sodda, samimiy va ravonligi, tavsif va tasvirlardagi aniqlik, tabiiylikdadir.

Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa"chilikni boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy 5ta dostonini 1170-1204-yillar oralig'ida birin-ketin yaratgan. XV asrda esa Hirot adabiy muhitida xamsanavislik alohida o'rin egalladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy Nizomiy "panjasiga panja urmoq" oson emasligini o'z asarlarida ta'kidlaydi. Hazrat Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida buyuk Nizomiyni shayxlar qatorida zikr etib, Nizomiyda "...zohiriy ulum va rasmiy istilohotdin bahrai tamom..." mavjud bo'lganini ta'kidlab, uni ustoz maqomida ulug'laydi. Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyning shoirlik salohiyati va qudratiga, u yetgan darajaga erishish mushkul ekanini ta'kidlab: "...ko'p abyoti alfoz jazolatidin va ma'noyu tarkib salosatidin desa bo'lurki, e'joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas...", deb yozadi. Ulug' o'zbek mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy esa "Xamsa"si bilan Nizomiy Ganjaviy boshlagan poetik an'anani yangilash barobarida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, hazrat Alisher Navoiy o'z xamsasini yozishda mutafakkir Nizomiy Ganjaviyni o'ziga ustoz deb bilgan.

Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar muallifi professor Almaz Ulvi Binnatovanning yozishicha, Alisher Navoiy Nizomiy an'alarini izchil davom ettirish bilan cheklanmay, turkiy adabiyotning taraqqiyot darajasini yanada yuksaltirdi. Zero, Navoiy "...butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olgan, unga buyuk hurmat bilan qaragan".

Nizomiy hamda Navoiy Xamsasi, ikki ijodkor asarlaridagi adabiy-estetik qarashlarining mohiyati adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ganjaviy va Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Ikki buyuk shoir ham o'z zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga olganlar.

Ozarbayjondagi Nizomiy Ganjaviy muzeyida Toshkentda chop etilgan hazrat Alisher Navoiyning "Xamsa"si Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si bilan yonma-yon qo'yilgan. Go'yo ikki buyuk shoir yonma-yon turgandek...

Bundan bir necha yil oldin Navoiyning "Xamsa"si ozarbayjon tiliga to'liq tarjima qilingani biz uchun quvonchli yangilik bo'lgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, ozarbayjon adabiyotshunosligida xamsachilik tarixini o'rganish, navoiyshunoslik hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlamoqda. O'zbekistonda va Ozarbayjonda har yili Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlab ilmiy seminar, adabiy kecha va Xalqaro konferensiyalar har yili muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasining Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti, Z.Bunyodov nomli Sharqshunoslik instituti, Fuzuliy nomli qo'lyozmalar institutida Navoiy ijodiy merosi keng tadqiq etilmoqda. Ozarbayjon oliy o'quv yurtlarining til va adabiyot bo'limlarida "Turkiy xalqlar adabiyoti" fani orqali Alisher Navoiy asarlari yoshlarga puxta o'rgatilmoqda.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ham Nizomiy Ganjaviy ijodi muntazam ravishda o'rgatilib, targ'ib qilib kelinmoqda. Jumladan "Turkiy xalqlar adabiyoti" va "Navoiyshunoslik" fanlari doirasida Ganjaviy asarlari o'qitilib, talabalarning ma'naviy -badiiy tafakkuri yuksalishiga xizmat qiluvchi sarchashma vazifasini o'tamoqda.

NIZOMIY IJODI TALQINIGA DOIR

Qurdosh Qahramonov,

Nizomiy nomidagi TDPU professori

Annotatsiya: Maqolada so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida buyuk ozar shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy ijodini o‘rganishga qilingan e’tibor, Nizomiy Ganjaviy asarlarining so‘nggi davrlarda qilingan tarjimasi, yutuqlari, ba’zi bir yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar haqidagi olimlarimizning qarashlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Nizomiy Ganjaviy, Xamsa, adabiyotshunos, tarjima, shoir, adabiyot, davr

О ТОЛКОВАНИИ ТВОРЧЕСТВА НИЗАМИ

Курдош Кахраманов,

Профессор ТГПУ им. Низами

Аннотация: В статье проанализировано внимание, уделяемое изучению творчества великого азербайджанского поэта и мыслителя Низами Гянджеви в узбекской литературоведении последних лет, взгляды наших ученых на переводы произведений Низами Гянджеви, сделанные в последние годы, достижения, некоторые допущенные недостатки.

Ключевые слова: Низами Гянджеви, хамса, литературовед, переводчик, поэт, литература, период

ON THE INTERPRETATION OF THE WORK OF NIZAMI

Qurdosh Qahramanov,

Nizami tdpu professor

Annotation: the article analyzed the attention to the study of the work of Nizami Ganjavi, the great Azeri poet and thinker Nizami Ganjavi in Uzbek literary studies of

recent years, the translation of Nizami Ganjavi's works in recent times, achievements, the views of our scientists about some of the allowed kamchilis.

Keywords: Nizami Ganjavi, Khamsa, literary critic, translation, poet, Literature, periodro

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasida asrlar davomida shakllangan do‘stlik rishtalari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a‘zo bo‘lishi yangi bosqich uchun asos vazifasini o‘tadi. Xalqlarimiz o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik adabiyot ilmida ham o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, so‘nggi davr adabiyotshunosligida Sharqning ikki daho shoiri – Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodini qiyosiy o‘rganishga katta e‘tibor berila boshladi. Shu jihatdan adabiyotshunos olimlar Sh.Sirojiddinov va G.Ashurovalar qalamiga mansub “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va g‘oyaviy-badiiy asos” nomli 2022-yilda chop etilgan monografiyasi xarakterlidir.

Ushbu kitob keyingi yillarda buyuk ozar shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy va hazrat Alisher Navoiy poetik olamiga xos bo‘lgan mushtarakliklar, ustoz-shogirdik maqomining yuksak darajadagi ijod qirralarini yoritishga qaratilgan, yozilish uslubiga ko‘ra o‘ziga xos ifoda tarziga ega tadqiqotlardan biridir. Mazkur tadqiqot bir qator jihatlari bilan qimmatlidir. Eng avvalo Nizomiy va Navoiy ijodi, ular yaratgan bebaho durdonalar nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, balki jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olgan durdonalar ekani asoslangan.

Ikkinchidan, kitobda Nizomiy asarlarining, eng avvalo shoir asos solgan “Xamsa” dostonlarining turkiy (o‘zbek) tiliga turli davrlarda amalga oshirilgan tarjimalari haqida ma’lumotlar beriladi. Chunonchi, Nizomiy yaratgan “Xamsa” turkiy xalqlar orasida nihoyatda mashhur bo‘lgani, uning “Xisrav va Shirin” dostoni dastlab XIV asrdayoq Qutb Xorazmiy tomonidan amalga oshirilgani, “Maxzon ul-asror” dostoni esa XV asrda Haydar Xorazmiy tomonidan tarjima qilingani xususida ma’lumotlar beriladi. Kitobda Nizomiy asarlarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari tarixi keng

ko‘lamda yoritilgan. Bu ma‘lumotlar kitobxonga Nizomiy asarlari tarjimalari tarixi haqida muayyan tasavvur hosil qilishi bilan ahamiyatli.

Tadqiqotchilar xamsachilik ana‘anasi haqida ham fikr yuritib, uning xarakterli xususiyatlarini yoritishga e‘tibor qaratishadi. Jumladan, an‘ana asosida yozilajak dostonlar “Xamsa”ning janr xususiyatlari, mavzu ko‘lamiga yaqin bo‘lishi, ayni paytda Nizomiy “Xamsa”sining takrori bo‘lmay, originallik kasb etishi lozim bo‘ladi.

“An‘anaga ko‘ra “Xamsa”dagi birinchi dostonning asosini falsafiy-axloqiy masalalar tashkil etgan. Ikkinchi-uchinchi dostonlar sevgi voqealari orqali aks ettirilgan, ijtimoiy-ma‘naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. To‘rtinchi doston sarguzashtlar bo‘lib, unda adolatli shoh masalasi ko‘ratilgan. So‘nggi doston avvalgilariga xulosa, umumlashmasi bo‘lib, unda ijodkorning ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari aks etgan”.(O‘sha manba, 25 bet).

Mualliflar yozishicha, tarixda turli badiiy saviyadagi 50 dan ortiq “Xamsa” yaratilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi yetib kelmaganligi bois asar muallifi va badiiy ko‘lami haqida fikrlash mushkul. Shuningdek, “Xamsa”ning bitta dostoniga javob yozish an‘anasi ham shakllanib, “Layli va Majnun”ga javob tariqasida bitilgan Fuzuliy asari tilga olinadi.

Monografiyada o‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy ijodini o‘rganish masalalari ham yoritilgan bo‘lib, mumtoz adabiyotda Qutb Xorazmiydan boshlab Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab ijodkorlarning fikrlari mavjudligi haqida so‘z yuritiladi. Ular nafaqat Nizomiy asarlarini tarjima qilgan yoki an‘anasini davom ettirishgan, balki uning poetik mahoratini ham yuksak qadrlashgan. Jumladan, Navoiy o‘zining “Xamsa”sining debochasida Nizomiyga alohida boblar bag‘ishlaydi, devonida uning nomi tilga olinadi, pir darajasida e‘zozlab Shayx maqomida ulug‘laydi. Davlatshoh Samarqandiy ham “Tazkirat ul-shuaro” asarida alohida bob bag‘ishlaydi, ta‘rif tavsiflaydi. Keyingi asrlarda Nishotiy, Ogahiy, Shoh Hijron va boshqalarning Nizomiyga bag‘ishlangan qarashlari haqida ham ma‘lumotlar yoritiladi. Shoirning ittifoq miqyosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan 800-yillik yubileyi ikkinchi jahon urushi tufayli 1947-yilda o‘tkaziladi. Shu munasabat bilan kitobda M.Shayxzoda so‘zboshi yozgan “Guldasta” to‘plami va V.Zohidov risolasi haqida ma‘lumotlar beriladi.

Monografiyada saksoninchi va undan keyingi yillarida Sh.Shomuhamedov, F.Sulaymonova, N.Mallayev, A.Qayumov, M.Muhiddinov, H.Homidiy va boshqalarning shoir haqidagi kuzatishlariga munosabat bildiriladi, tadqiq va talqin etiladi. Albatta bir maqola doirasida monografiya haqida to‘liq fikr yuritish qiyin. U alohida tadqiqotlarni taqozo etadi. Ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqot so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy va Navoiy ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni umumlashtirishi bilan xarakterlidir. Mazkur monografiya taqdimotining Ozarbayjonda ham o‘tkazilishi fikrimiz dalilidir.

Biz quyida Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodini yoritishga bag‘ishlangan ayrim maqolalarga ham e’tiboringizni jalb etamiz.

Adabiyotshunos H.Homidiy o‘zining “Xamsachilik kashshofi” maqolasini Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodining ayrim qirralarini yoritishga bag‘ishlaydi. Maqolada Nizomiy tarjimai holiga muxtasar to‘xtalgach, uning yigitlik chog‘idayoq ijod bilan shug‘ullana boshlagani, shoir yaratgan qasida va faxriyalar, g‘azallar el orasida mashhur bo‘lganini qayd etar ekan, tarixchi Davlatshoh Samarqandiy ma’lumotlariga tayanib yigirma ming misradan iborat devoni bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Olim Nizomiyga haqiqiy shuhratni uning shoh asari – besh dostonidan iborat “Xamsa”si keltirgani haqida shunday yozadi.

“Nizomiyga olamshumul shuhrat keltirgan asar – “Xamsa”dir. Shoir xalq og‘zaki ijodi, qadimiy voqealar, yozma manbalardan ijodiy foydalanib, hayotning dolzarb muammolarini aks ettiruvchi beshta doston yozdi va ular “Xamsa” nomi bilan kitobga jamlandi”.¹

Maqolada olim “Xamsa” dostonlarining qisqacha talqinlarini bayon etadi, ularning g‘oyasi, syujet yo‘nalishi va obrazlar tizimi haqida o‘ziga xos tarzda muxtasar sharxlar beriladi. Jumladan, “Mahzan ul-asror”ning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy xarakterda bo‘lib, muqaddima va 20 maqolatdan tashkil topgani haqida ma’lumot beriladi. Bu maqolatlarda olam va odamning yaralishi, odamiylik, ezgulik g‘oyalarining ustuvorligi haqida fikr yuritiladi. “Xisrav va Shirin” dostoni sarguzasht

¹ X.Хамиджон. Кўхна шарқ дарғалари. –Т.: 1999.-Б. 138.

asar sifatida baholanib, dostonni yozishda xalq og‘zaki ijodi, qadimgi voqealar hamda Firdavsiyning “Shohnoma”sidan ilhom olgani yoritiladi.

Maqolada “Xamsa”ning boshqa dostonlari haqida ham shu tariqa qisqacha ma’lumotlar beriladi. Olim dostonlardagi aksariyat obrazlar birinchi marta badiiy asarda mukammal sayqal topganini yozar ekan, ularning keyinchalik Sharq dostonchiligida ana’anaviy obrazlarga aylanganini ta’kidlaydi.

“Bugina emas, Xusrav Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ochilmurod Miriy kabi san’atkorlar uni yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tardi”, – deb yozadi bu haqda.

Umuman olganda ushbu maqola keng kitobxonlarga buyuk Nizomiy Ganjaviy haqida muxtasar ma’lumot berishga mo‘ljallab yozilgan.

Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon E.Ochilov Nizomiy Ganjaviy she’rlarini tarjima qilish asnosida bir turkum maqolalar, so‘zboshilar ham chop ettirdi. Jumladan, “Ko‘ngil olamiga sayohat”, “Bulbulni mot aylagan shoir”, “Nizomiy “Xamsa”sining o‘zbekcha tarjimalari”, “Nizomiyning shoh asari” kabi maqolalarida shoir hayoti va ijodi, mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tilga olinadi. “Ko‘ngil olamiga sayohat” nomli maqolasida Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi haqida keng ma’lumot beradi. Maqolada uning to‘liq ismi Abumhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad bo‘lib, 1141-yili Ganja shahrida tug‘ilgani, yoshlikdan ota-onadan yetim qolib tog‘asi qo‘lida tarbiyalangani qayd etilar ekan, uning turli ilmlarni o‘zlashtirishga ishtiyoqmandligi, Qur’onni yod olishi, fiqh, tarix, jug‘rofiya, falsafa, mantiq va adabdan ta’lim olib, ularning har birida ustoz darajasiga yetishishi haqida fikr yuritiladi. Nizomiyning tabiiy fanlarni, jumladan tabobat va ilmu nujum (astronomiya)va matematikani mukammal bilishi, bundan tashqari qadimgi yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so‘z san’ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlar tarixi, Kavkaz xalqlarining o‘tmishidan ham yetarlicha xabardor ekani haqida ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari uning Galen, Gippokrat, Zakariyo Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi tib sohasi bilimdonlarining asarlaridan yaxshi xabardor bo‘lgani bois tabiblik bilan ham shug‘illanganiga e’tibor qaratiladi. Nizomiyning bu barcha ilmlardan xabardorligi

uning ijodidagi o‘z aksini topgan bo‘lib, maqolada bundan murod SENni topish ekaniga oid qarashlari quyidagicha ifoda etiladi

Har chi az daqiqahoi hujum

Ba yakoyak nuhuftahoi ulum

Xondamu har varaq, ki mejustam

Chun turo yoftam varaq shustam.

Mazmuni: “Nujum ilmi va umuman barcha ilmlarni eng nozik nuqtalarigacha varaqma-varaqa o‘qib chiqar ekan, maqsadim ular vositasida Seni topish edi. Seni topgach, bu ilmlarning barchasidan qo‘limni yuvdim”.²

Maqolada Nizomiy Ganjaviy ijodigi ham to‘xtalib, uning nafaqat o‘z yurtida balki butun Sharq xalqlari ma’naviy hayotida katta o‘ringa ega bo‘lgani yoritiladi. Maqolada qayd etilishicha, Nizomiy shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy aqidalari davrga xos tarzda javonmardlik g‘oyalari bilan oziqlandi va ijodida namoyon bo‘ldi.

Olim Nizomiyning tarjimai holi haqida fikr yuritar ekan, uning butun umri Ganja shahrida o‘tganini ta’kidlaydi. Bir safar Iroq sultoni Tug‘rulshohning da’vatiga binoan Tabrizga tashrif buyurgani, biroq ikki-uch kundan ortiq turolmay yurtiga qaytib ketgani ma’lumot sifatida keltiriladi. Uning shaxsiy hayoti haqida muhim manbalardan yana biri Darband hokimi Boybars ibn Malik Muzaffarning 1169-yilda unga yuborilgan tuhfa qatorida Ofoq ismli bir kanizakni ham in’om etgani voqeasidir. Ofoq uning xonadonining cho‘risi emas, balki umr yo‘ldoshi, maslahatchisi, ilhomchisiga aylandi. Ofoq 1180-yili bevaqt vafot etadi. Undan Muhammad ismli o‘g‘il shoirga yodgorlik bo‘lib qoladi. Shoir eng aziz kishisi bo‘lgan bu ayol muhabbati va hurmatini bir umr xotirasida saqlab, “Xusrav va Shirin” dostonidagi Shirin timsolida uning yorqin siymosini abadiylashtiradi.³

E.Ochilov maqolada shoirni xamsachilik an’anasiga asos solgan alloma sifatida ta’riflar ekan, “Nizomiyning nomini jahonga mashhur qilgan uning besh dostonni o‘z ichiga olgan “Xamsa”si bo‘ldi. Bu dostonlar – “Mahzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini”),

² Очиллов Э. Кўнгила оламига саёхат// “Махзан ул-асроор”. Сўзбоши.–Т.: 2016 .-Б. 3.

³ Очиллов Э. Кўнгила оламига саёхат// “Махзан ул-асроор”. Сўзбоши.–Т.: 2016 .-Б. 5.

“Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) va “Iskandarnoma” (u “Sharafnoma” va “Iqbolnoma” nomli ikki qismdan tashkil topgan)dan iborat”, deb yozadi. Shuningdek, muallif maqolada shoir “Xamsa”ning Jomiy va Navoiy kabi allomalar tomonidan yuksak baholanganini ularning dil so‘zlaridan iqtiboslar keltirish bilan mustahkamlaydi.

Olim shoirning poetik qudratiga yuksak baho beradi. Ular faqat badiiy jihatdangina mukammal bo‘libgina qolmay, zamonasining yuksak bilimdoni sifatida mutafakkir olim va hayotda katta tajribaga ega bo‘lgan donishmand inson sifatida teran va purhikmat g‘oyalarni aks ettirganini ta’kidlaydi. Bunga misol tariqasida o‘zi tarjima qilgan quyidagi bir ruboyisini misol tariqasida keltiradi;

Bil, adlu adolat zafarlar sababi,

Bil, zulmu sitam barcha zararlar sababi.

Bil, xayru saxo aybu gunohni yopgay,

Pastligu xasislik kadarlar sababi

Maqolada Nizomiy Ganjaviy asarlarining so‘nggi davrlarda qilingan tarjimasi, ba’zi bir yo‘l qo‘yilgan soxtaliklar va ma’no bilan bog‘liq xato-nuqsonlar haqida ham fikr yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi paytlarda adabiyotshunoslarimiz buyuk ozar shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy ijodini o‘rganishga katta e’tibor bera boshlashdi. Xalqlarimizning asrlar davomida shakllangan do‘stlik rishtalari, adabiy aloqalari yangi bir bosqichga ko‘tarilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
4. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary

Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

5. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
6. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
7. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
8. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
9. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
10. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
11. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NİZAMİ GƏNCƏVİ YARADICILIĞINDA QADIN OBRAZLARI

Xudiyeva Mətanət Mirzəxan qızı,

Azərbaycan Respublikası Dövlət Dil

Komissiyası yanında Monitoring Mərkəzinin

baş mütəxəssisi, filologiya üzrə fəlsəfə doktoru

metanetxudiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'z asarlarida ayollar erkinligini targ'ib qiluvchi buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjavyi haqida so'z boradi. Uning ayol qahramonlari erkaklar bilan bir xil darajada turishi va hatto ba'zi hollarda turmush o'rtoqlari va aka-ukalariga qaraganda ancha oqilona va uzoqni ko'ra bilishi tahlillar bialn ochib berildi.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, asarlar, ayol obrazlari, ijodkorlik, donolik, jasorat.

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ НИЗАМИ ГЯНДЖЕВИ

Аннотация: В статье говорится о великом азербайджанском поэте Низами Гянджеви, пропагандирующем в своих произведениях свободу женщин. Его герои-женщины стоят на одном уровне с мужчинами и даже в некоторых случаях более разумны и дальновидны, чем их супруги и братья. В произведениях Низами, особенно в «Хосрове и Ширин», «Семи красавицах», «Искандернаме», проявляется чувство верности традициям и обычаям. С большой любовью изображенных Низами, каждая из этих женщин, умна и находчива. Они воплощают мужество и храбрость, привнося благородные человеческие качества в свой тонкий женский характер. Низами через женские образы принес в общество любовь, святыи семейные и жизненные ценности, главное, справедливость и милосердие.

Ключевые слова: мировая литература, произведения, женские образы, творчество, мудрость, актуально

FEMALE CHARACTERS IN THE WORKS OF NIZAMI GANJAVI

Annotation: The article talks about the great Azerbaijani poet Nizami Ganjavi, who promotes women's freedom in his works. His female heroes stand on the same level as men and are even in some cases more intelligent and far-sighted than their spouses and brothers. In Nizami's works, especially in "Khosrov and Shirin", "Seven Beauties", "Iskandername", a sense of loyalty to traditions and customs is manifested. Portrayed with great love by Nizami, each of these women is smart and resourceful. They embody courage and bravery, bringing noble human qualities into their subtle feminine character. Nizami, through female images, brought love, holy family and life values, and most importantly, justice and mercy into society.

Key words: world literature, works, female images, creativity, wisdom, relevant

Böyük şəxsiyyət, mütəfəkkir şair Nizami Gəncəvi dünya ədəbiyyatına bənzərsiz, əvəzsiz sənət inciləri bəxş edib. Nizami Gəncəvi təkcə böyük şair olmamışdır. O, həmçinin öz dövrünün görkəmli mütəfəkkiri idi. Onun poeziyası fəlsəfi və sosial düşüncə ilə zəngindir. Nizaminin poemalarını öyrənərkən biz əmin oluruq ki, o, həmçinin zamanının ən savadlı adamlarından olmuş və qədim Hindistan, Yunanıstan, müsəlman Şərqi fəlsəfəsi ilə tanış olmuşdur (7, s.4).

Şair ərəb və fars dillərini də bütün incəlikləri ilə öyrənmişdir. Əsərlərinin birində ("Yeddi gözəl"də - R.Ə.) o yazır:

İzlədim yolunu səyyarələrin,

Nə ki elmlər var, gizli və dərin,

Oxudum, xəbərdar oldum da vardım... (5, s.15, 16)

Şərqi R.Əliyev yazırdı: "Nizami antik dünya və ərəb xilafətinin tərkibinə daxil olan xalqların mədəniyyət və elmlərinin sintezləşdiyi, Azərbaycanın Yaxın və orta Şərqi mədəni və iqtisadi mərkəzinə çevrildiyi bir dövrdə yaşayıb yaratmışdır" (6, s.21).

Ərəb-fars dillərini mükəmməl bilən, bu dillərdə müxtəlif mövzularda yazılmış kitabları mütaliə edən N.Gəncəvi özü də möhtəşəm əsərlər yaradıb. Ədibin əsərləri mövzu müxtəlifliyi ilə oxucuların diqqətini hər zaman cəlb edib. Nizami lirikası elə dərin, əsrarəngiz gözəlliklərə malikdir ki, onun yazdıqları bütün dövrlər üçün aktuallığını, təravətini itirməyib. Nizami Gəncəvinin böyük ustalıqla yaratdığı qadın

obrazları və xarakterləri isə o zamankı ədəbi inkişafda intibah hadisəsi, yenilik, birincilik və hünər idi.

Dahi Nizami Gəncəvinin çoxşaxəli yaradıcılığında diqqəti cəlb edən ən mühüm cəhətlərdən biri də qadına münasibətdir. Qadına müsbət münasibət Nizami poemalarının aparıcı mövzusunə çevrilib. Nizami Gəncəvinin qadın surətlərində bir analıq əzəməti, qadınlıq mərhəməti, insanlıq sevgisi təzahür edir. Onun qadın qəhrəmanlarının əksəriyyəti ağıllı, tədbirli olmaları ilə hökmdarlara dərs verən, üstün zəkaya malik türk gözəlləri olub. Nizami Gəncəvi əsərlərində qadını həmişə yüksək mərtəbədə tutub. Nizaminin qiymətli söz xəzinəsi beş poemadan ibarət “Xəmsə” (“Sirlər xəzinəsi”, “Xosrov və Şirin”, “Leyli və Məcnun”, “Yeddi gözəl”, “İsgəndərnamə”) - nadir poetik irsində yaddaqalan qadın obrazları arasında Şirin, Məhinbanu, Nüşabə və Fitnənin çox əlamətdar, özünəməxsus yeri var.

Şair "Xosrov və Şirin"də Məhinbanu və Şirin kimi maraqlı surətlər yaradıb. Nizami Şirini həтта əsərin əsas qəhrəmanlarından biri kimi təqdim edib. Şair bu iki qadının simasında qadın - insan, qadın - ədalətli hökmdar, qadın - təmiz ad və əxlaq, qadın - ağıllı məsləhətçi, qadın - həqiqi dost, qadın - vəfalı, fədakar sevgili kimi dəyərləndirmələr ortaya qoyub.

Nizami arzuladığı ideal qadın surətini əsərin əsas qəhrəmanı Şirinin simasında yaratmışdı. Şirin elə birinci görüşdə at çapmağı, ox atmağı və çövkən oynatmağı ilə Xosrovu mat qoyur. Söhbət zamanı Xosrov Şirinin ismətli, namuslu və yüksək əxlaqa malik bir qız olduğuna inanır. Şahlıq qüruruna arxayın olan Xosrov onunla əylənmək istəyəndə Şirin deyir:

**Dünyanın yarısı əgər xoş gündür,
Yarısı yaxşı ad qoymaq üçündür...
Bir qadını yıxmaq - bu, mərdik deyil,
Mərdik göstərirsən, sən özün əyil.**

“Xosrov və Şirin”də çılğın bir gənc kimi tanınan Xosrovu atasının verdiyi cəzadan çox Şirinin eşqi və ona qarşı səbrli münasibəti tərbiyə edir. Ağıllı Şirin Xosrova məsləhət görür ki, vaxtını əylənməklə keçirməkdənsə, atasından ona qalan taxt-tacı düşmən əlindən qurtarsın.

Yaradıcılığında türk xalqlarının məişəti və adət-ənənələrinin əks olunduğu Nizami Gəncəvi əsərlərində çövkən oyunu ilə bağlı maraqlı məqamlar yer almışdır.

Nizaminin "Xosrov və Şirin"də təsvir etdiyinə görə, çövkənı at çapmaqda, qılınca oynatmaqda kişilərdən heç də geri qalmayan və şairin "Aslanın erkəyi, dişisi olmaz" deyər, şücaətini vəsf etdiyi türk qızları da oynamışlar. Nizami Gəncəvi yaradıcılığında qadınlara yüksək dəyər verərək yazır:

**Erkək tinətliyəm olsam da qadın,
Hər işi bəllidir mənə dünyanın.
Mən bir aslanam, düşünsən bir az,
Aslanın erkəyi dişisi olmaz.**

Yaxın Şərq ədəbiyyatında qadına müsbət münasibət bəsləmiş Nizami Şirin obrazını elə məharətlə yaratmışdır ki, bu obraz dünya ədəbiyyatının qadın obrazları içərisində ən şərəfli yerlərindən birini tutur.

Nizaminin yaradıcılığında böyük tarixi şəxsiyyətlərə yanlıqlarını göstərən, onları gerçəklərlə üzləşdirən ədəbi qəhrəmanlar əsasən ağıllı türk qadınlarıdır: Şirin Xosrovun, Fitnə Bəhrəmın, Nüşabə İskəndərin məhz ağıl verəni və yol göstərənidir. Başqa sözlə deyilsə, Nizami türklüyü gözəllik və mükəmməllik rəmzi kimi qəbul edir. "Yeddi gözəl"də gözəlliyi ilə türkə bənzədilən hind qızının obrazını nümunə göstərmək olar. Söy-kökünə bağlılığını, türkün yaradılışdan başqalarından fərqləndiyini, mifoloji ənənənin və qədim oğuznamələrin təsiri ilə izah edən şair hətta "Yeddi gözəl"də onun işıqdan törədiyinə işarə etmişdir.

Nizami Gəncəvinin müraciət etdiyi qadın aqlının qüdrətindən bəhs edərkən Fitnənin təmkin və mətanətindən söz açmamaq olmaz. Bu əsərində türk və tatar sözlərindən bir-birini əvəzləyən ifadələr kimi istifadə etməsi dahi şairin milli kimliyini açıqlayır. "Xəmsə"də bəhs olunan müsbət qadın surətlərinin də hamısı Qafqaz, ya da türk möhürünü daşıyır. Şair "Yeddi gözəl"də öz ağılı və cəsarəti ilə bütün gözəllərdən seçilən Fitnənin gözlərini vəsf edib onu "tatar gözlü", qıyıq gözlü» adlandırır. Eyni "qıyıq gözlü" ifadəsini şair türk gözəli adlandırdığı Türknaza da aid etmişdi. "Bəhrəmın öz kənizi ilə dastanı"nı xatırlayaq. Ov zamanı Fitnə şahı tərifləmir. Bunu görə şah dözməyib axırda kənizindən niyə onu tərifləmədiyini soruşur:

**O dedi: "Ey dar tatar gözlü,
Bizim ovu gözünə almayırsan?"**

Nizami Gəncəvi Fitnə obrazı ilə əsl kamil insan gözəlliyini saraydan kənardə axtarmağa doğru ilk gediş etmişdir. Fitnə xalqı təmsil edən ağıllı qadın obrazı, sadə,

adi insanın Azərbaycan ədəbiyyatındakı ilk və ən mükəmməl nümayəndələrindən biridir. Fitnə Azərbaycan qadınlığının abidəsidir.

Böyük Nizaminin məşhur “İskəndərnamə” poemasında təsvir etdiyi Nüşabə obrazı Bərdə hökmdarıdır. Onun ədalətli idarəçiliyi dillərə əzbərdir. Hətta bu ədalətin bərəkətindən məhsullar bol, nemətlər bəhrəli olur. Bu ölkədə yetişdirilən hər buğda min buğda yetirir. Nüşabənin açıq ürəyi, müdrikanə fikirləri, alim kimi bilicilik keyfiyyətləri var. Hətta onu sorub-soruşduran İskəndərə Nüşabə haqqında belə deyirlər:

Qadındır, erkəkdən ürəkli, qoçaq,

Dəniz incisindən təmiz və parlaq.

Nizami Nüşabəni təkcə hökmdar olaraq dişi aslan kimi hünərli, qoçaq, eləcə də ağıllı, bilici göstərmir, eyni zamanda onu qadın kimi nəcib, utancaq, abırlı bir xatun kimi də təqdim edir:

Endirdi həyadan göz qapağını,

Utandı, tər yudu al yanağını...

Sonda fikrimi onunla bitirmək istərdim ki, Nizami yaradıcılığı elə bir elm, bilik dəryasıdır ki, aparılan araşdırma və tədqiqatlar dəryadan bir damla misalıdır.

Xülasə

Məqalədə dahi Azərbaycan şairi Nizami Gəncəvinin öz əsərlərində qadın azadlığını təbliğ etməsindən, onun qadın qəhrəmanlarınının fəal həyat mövqeyi ilə kişilərlə bərabər səviyyədə dayanmasından, hətta, bəzi məqamlarda öz həyat yoldaşlarından və qardaşlarından daha tədbirli və uzaqgörən olmalarından bəhs olunur. Nizami əsərlərində, xüsusilə “Xosrov və Şirin”də, “Yeddi gözəl”də”, “İsgəndərnamə”də adət-ənənə və törələrə sədaqət hissi özünü göstərməkdədir. Nizaminin ədəbiyyata gətirdiyi qadın obrazları onun türk hünərli, türk düşüncəli sənətinin təntənəsi idi. Nizaminin böyük məhəbbətlə təsvir etdiyi bu qadınların hər biri ağıllı və hünərlidirlər. Onlar zərif qadınlıq xarakterlərinə nəcib insani keyfiyyətlər sığışdıraraq cəsarət və mərdlik təcəssüm etdirirlər. Nizami qadın obrazlarının vasitəsilə cəmiyyətə eşq donunda bir isti həyat, müqəddəs ailə və yaşam dəyərləri, ən əsas ədalət və mərhəmət gətirdi.

İstifadə olunmuş ədəbiyyat siyahısı:

1. Gəncəvi N. Sirlər xəzinəsi (bədi tərcümə)\ Fars dilindən tərcümə edənlər S.Rüstəm və A.Sarovlu. Ön sözün, izahların müəllifi və elmi redaktoru R.Əliyev. Bakı, Yazıçı, 1981-ci il, 196 səhifə.
2. Gəncəvi N. İskəndərnamə (bədi tərcümə): “Şərəfnamə” Fars dilindən tərcümə edən A.Şaiq, elmi redaktoru və ön sözün müəllifi prof. Q.Əliyev; “İqbalnamə”\ Fars dilindən tərcümə edən M.Rzaquluzadə, ön sözün müəllifi Z.Quluzadə, izahların müəllifi Ə.Cəfər, Bakı, Yazıçı, 1982-ci il, 690 səh.
3. Gəncəvi N. Xosrov və Şirin (bədi tərcümə): Tərcümə edən R.Rza. Ön sözün müəllifi akademik H.Araslı. İzahların müəllifi M.Sultanov, Bakı, Yazıçı, 1982-ci il, 402 səh.
4. Gəncəvi N. Yeddi gözəl (bədi tərcümə): Tərcümə edən M.Rahim. Ön söz. İzahların müəllifi və elmi redaktor pof. R.Əliyev, Bakı, Yazıçı, 1983-cü il, 356 səh.
5. Əliyev R. Nizami Gəncəvi. Qısa məlumat. Bakı, Elm, 1979-cu il, 95 səh.
6. Алиев Р. Поэма о бессмертной любви. Баку, Язычы, 1991 год, 182 стр.
7. Мустафаев Дж. Мироззрение Низами\ Вопросы философии. №12, 1962.
8. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
9. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
10. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
11. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
12. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
13. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
14. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
15. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.

16. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
17. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
18. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
19. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
20. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

XXI ASR: NIZOMIY VA NAVOIY ADABIY MEROSI

Ashurova Gulbahor Nurullaevna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, filologiya fanlari doktori,
Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot
markazi rahbari. Email: gulbahora777@gmail.com

Annotasiya Maqolada Nizomiy va Navoiy yaratgan "Xamsa" asarlarining mushtarak va farqli jihatlari tahlil qilingan. Asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixchi, epik janr, voqea, syujet.

Emas oson bu maydon ichra kirmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Alisher Navoiy

Hazrat Nizomiy Ganjaviy Sharq adabiyotida go'zal asarlar bitib turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga buyuk hissa qo'shdi. Nizomiy dahosi, Nizomiy siymosini biron bir mezon yoki me'yor bilan o'lchab bo'lmaydi. Nizomiy betakror asarlar yaratishi bilan birga tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixchi sifatida ham bu sohalar rivojiga "Xamsa" dostonlari ichiga singdirilgan mohiyat va g'oyalar bilan ulkan hissa qo'shdi. Uning ko'p qirrali iste'dod sohibi ekanligiga hech bir kimsa shubha qilmaydi. Men Nizomiyni azim bir dengizga qiyoslayman. Bu dengizda suzish uchun ko'proq ilm zahmatini chekish lozim.

Ozarbayjon va o'zbek xalqlari orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar uzoq va boy tarixga ega. Bugungi kunda tobora gullab-yashnayotgan Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari taraqqiyotida buyuk ozar shoiri Nizomiy Ganjaviyning merosi

muhim o‘rin tutadi.

Ozarbayjonning ulug‘ donishmand shoiri Jamoliddin Abu Muhammad Ilyos bin Zakiy bin Abulmuayyad – Nizomiy Ganjaviy turkiy xalqlar adabiyotida o‘zining tarix, din, falsafa, adabiyot, ma‘naviyat va bir qancha ijtimoiy gumanitar ilmlarning donishmand bilimdoni sifatida o‘rganiladi.

Nizomiyning hayot yo‘li va ijodi tarixi ham mutlaqo o‘ziga xos va hayajonli. U 1141-yilda Ganja shahrida dunyoga kelib, ma‘lumotlarga ko‘ra, 1209-yilda duvodan o‘tadi. Ammo qisqa davr ichida ijodkor hayotida ko‘p murakkab holatlar, uning ijodida esa qanchadan-qancha nozik kechinmalar sodir bo‘lgan. Balki shoir asarlariga o‘ziga xos teranlik va chuqur lirizm baxsh etgan omillardan biri ham ana shundadir.

Darhaqiqat, Nizomiyning tayyorlagan muhit - bu XII asrda shakllangan tarixiy sharoit, buyuk madaniy ko‘tarilishdir. Shoir asarlaridagi barcha fazilat va ziddiyatlar ham ana shu murakkab, ayrim sharqshunoslar tili bilan aytganda, Sharqdagi renessans davrining in‘ikosidir. Lekin bu fakt shoir shaxsiyatiga xos bo‘lgan boy ijodiy qobiliyat va jasoratni mutlaqo inkor etmaydi. Faqat ana shu ikki omilning uyg‘unligi tufayligina Nizomiy Yaqin va O‘rta Sharqning tafakkur va badiiyat tarixida o‘ziga xos alohida maktab yaratdi, o‘zidan keyingi fors-tojik adabiyotigina emas, balki turkiy xalqlar adabiyotiga misli ko‘rilmagan darajada ta‘sir qildi, epik janrda sonsiz xalqlarga ega bo‘ldi.

Umuman, Nizomiyning merosining Navoiy ijodiga ta‘siri shunday bir kuch bo‘ldiki, bu kuch shoirdagi ijodiy imkoniyatlarni harakatga keltirdi va qalb qa‘ridagi yashirinib yotgan ezgu umid, teran fikrlarning monand badiiy pardalarda namoyon bo‘lishga sabab bo‘ldi.

Umuman, Nizomiyning ijodining o‘zbek adabiyotiga ko‘rsatgan ijobiy ta‘siri nihoyatda barakali va rang-barang.

Bu ta‘sir goh erkin tarjima shaklida ko‘rinsa, goh ijodiy ilhomlanish shaklida namoyon bo‘ladi, ba‘zan esa bevosita ergashish tusini ham oladi. Lekin ular qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, faqat bir narsani ko‘rsatadi: qadimiy madaniy boylikka ega

bo'lgan Ozarbayjon va o'zbek xalqlari orasidagi ijodiy hamkorlik uzoq va ibratli tarixga ega bo'lib, Nizomiy ijodini ana shu aloqalar zanjirining eng muhim va bosh halqasidir.

Nizomiy ijodida insonparvarlik, oliyanoblik, sof muhabbat, mardlik, jasorat, ma'naviy kamolotga intilish kabi ezgu g'oyalar yetakchilik qiladi, bilim olish, kasb – hunar egallash, ma'rifatli bo'lish va ma'rifat ahliga hurmat va ehtirom ko'rsatishga da'vat etiladi.

Nizomiy nomi va adabiy merosi butun dunyoda ardoqlanadi. 1991-yil Yunesko tomonidan “Nizomiy yili” deb e'lon qilingan, Merkuriy sayyorasidagi kraterlardan biri, MDH davlatlaridagi qator madaniy maskanlar, shahar, qishloq va ko'chalar uning nomi bilan ataladi.

2021 yilda Nizomiy Ganjaviyning 880 yilligi, hamda Alisher Navoiyning 580 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev tomonidan Ozarbayjonda Nizomiy Ganjaviy yili deb e'lon qilinishi buyuk ijodkorga hurmat va ehtirom ramzidir. Qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishida o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari haqida gap ketganda, birinchi bo'lib turkiy tilda “Xamsa” ni yaratgan buyuk so'z san'atkorini eslaymiz. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga e'tibor berish – O'zbekistonda ham, Ozarbayjonda ham keng nishonlanmoqda. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish O'zbekiston-Ozarbayjon adabiy va madaniy aloqalarining rivojining yuksak cho'qqisi hisoblanadi.

Nemis mutafakkiri va shoiri I.Gyote o'zining sharq poeziyasiga bo'lgan yuksak ehtiromini shunday ifodalagan edi: “Sharqning yetti yuz yillik she'riyati vakillaridan faqat yetti kishinigina haqiqiy iste'dod sohibi, buyuk shoirlar deb tan olishgan – vaholanki, ular tomonidan inkor qilingan boshqa she'riyat vakillarining ko'pchiligi ham mendan ustun turadi”.

Albatta, ana shu zabardast yetti dahoning biri – she'riyatining zabardast namoyandalaridan biri, ozarbayjon xalqining jasoratli farzandi va shoiri Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiydir. Nizomiy haqli ravishda Sharq va G'arb poeziyasining eng ko'zga

ko‘ringan vakillari qatorida turadi. Uning to‘qqiz asr davomida davrning barcha sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, bugun ham jahon ijodkorlari ichida buyuk daho deb atashga huquq beradi.

Nizomiyning hayot yo‘li va ijodi tarixi ham mutlaqo o‘ziga xos va hayajonli. U 1141 -yilda Ganja shahrida dunyoga kelib, ma‘lumotlarga ko‘ra, 1209- yilda duvodan o‘tadi. Ammo qisqa davr ichida ijodkor hayotida ko‘p murakkab holatlar, uning ijodida esa qanchadan-qancha nozik kechinmalar sodir bo‘lgan. Balki shoir asarlariga o‘ziga xos teranlik va chuqur lirizm baxsh etgan omillardan biri ham ana shundadir.

Darhaqiqat, Nizomiyni tayyorlagan muhit - bu XII asrda shakllangan tarixiy sharoit, buyuk madaniy ko‘tarilishdir. Shoir asarlaridagi barcha fazilat va ziddiyatlar ham ana shu murakkab, ayrim sharqshunoslar tili bilan aytganda, Sharqdagi renessans davrining in‘ikosidir. Lekin bu fakt shoir shaxsiyatiga xos bo‘lgan boy ijodiy qobiliyat va jasoratni mutlaqo inkor etmaydi. Faqat ana shu ikki omilning uyg‘unligi tufayliga Nizomiy Yaqin va O‘rta Sharqning tafakkur va badiiyat tarixida o‘ziga xos alohida maktab yaratdi, o‘zidan keyingi fors-tojik adabiyotigina emas, balki turkiy xalqlar adabiyotiga misli ko‘rilmagan darajada ta‘sir qildi, epik janrda sonsiz xalaflarga ega bo‘ldi.

Ma‘lumki, Nizomiy Sharq adabiyoti, tarixi va og‘zaki ijodiyotining buyuk bilimdoni edi. U o‘z asarlari uchun asos bo‘lgan voqea, syujetlarning asosiy qismini ana shu bitmas-tuganmas manbadan oldi. (Shuni e‘tirof etish kerakki, ana shu syujetlarning bir qismi birinchi marta yozma adabiyotga Firdavsiy tomonidan uning mashhur “Shohnoma”si orqali kiritilgan). Ammo Nizomiyning buyuk jasorati shundaki, ana shu syujetlarga u befarq qaramadi, balki ular orasidan o‘z davrining muhim muammolari va o‘z zamondoshlari – ozarbayjon xalqining intilish va umidlarini aks ettirishga imkon beradigan holatlarnigina oldi hamda ularni yetuk badiiylik darajasiga ko‘tardi. Nizomiyni san‘atkor sifatida xarakterlaydigan eng muhim xususiyat uning hayotni bevosita kuzatishi, kishilar qalbi va umuman yaratganni, olam va odamni chuqur, atroflicha anglashi, tushunishidir. Shoir ijodidagi ana shu muhim fazilatga jiddiy e‘tibor bergan Gyote o‘zining mashhur “Farb-u Sharq

devoni”da Nizomiy dostonlaridagi yuksak ma’naviy tuyg‘ularni harakatga keltiruvchi obrazlar “shoirning tabiat va voqelikni bevosita kuzatishi jarayonida vujudga kelgan” – deb yozgan edi. Bu fikrning qanchalik haqligini Nizomiy “Xamsa”siga kirgan har bir dostonning yaratilish tarixi ham tasdiqlaydi.

Shoirning “Xusrav va Shirin” dostonining yaratilish tarixini eslaylik. O‘zining sevimli rafiqasi Ofoq (Darband hokimi cho‘ri sifatida taqdim etgan, ammo Nizomiy u bilan turmush qurgan) vafotidan nihoyatda ta’sirlangan shoir o‘z sevgilisining xotirasini abadiylashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Yaqin va O‘rta Sharqda qadimdan mashhur bo‘lgan va go‘zallik hamda vafodorlik timsoli bo‘lmish Shirinning taqdiri haqidagi afsona shoirning diqqatini o‘ziga tortadi.

Asarning yozilish sababi bayon qilingan kirish qismida, u o‘z sevgilisini eslab, shunday yozadi:

Darin afsona shart asr ashq rondan,
Gulobi talx bar Shirin fishondan.
Ba hukmi onki, on kam zindagoniy
Chu gul barbod shud ro‘zi javoniy...

(Bu afsonadan maqsad – ko‘z yoshi to‘kmoq va Shirin (ikki ma’noda) ustiga achchiq gulob sochmoq. Chunki, hayotdan erta ko‘z yumgan u go‘zal (Ofoqni nazarda tutmoqda) yoshlik paytida gul kabi hazon bo‘ldi).

Umuman, Nizomiyning hayotiy taassurotlari va chuqur kechinmalari uning jamiyat va turmush borasidagi yuksak orzulari bilan chambarchas bog‘lanib, shoir dostonlarining tub mohiyatini tashkil etadi. Zotan, Nizomiy asarlarining buyuk qudrati va ahamiyati ham ana shunda. Shuning uchun ham uning o‘lmas “Xamsa”siga kirgan bir qator dostonlari ko‘p vaqt o‘tmay, o‘zbek tiliga ham tarjima qilindi. Faqat bugina emas, u o‘z ijodi bilan Sharqda “Xamsa” chilikka asos soldi va hamda turkiy xalqlar adabiyotida o‘nlab badiiy umumlashmalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek adabiyoti tarixida ham “Xamsa” (Navoiy) kabi monumental asarning vujudga kelishi bevosita Nizomiy dahosining hayotbaxsh ta’sirini natijasidir. Shuning uchun ham Navoiy o‘z dostonlarining kirish qismida, eng avvalo, Nizomiyni o‘zining mo‘tabar ustози va ilhomchisi sifatida hurmat bilan tilga oladi:

Nizomiyki, nazm ahli ustodidur,
Aning tab’i so‘z jinsi naqqodidur,
Ki bu ganjlardur matoi aning,
Matoi ne kim, ixtiroi aning...

Umuman, Nizomiy merosining Navoiy ijodiga ta’siri shunday bir kuch bo‘ldiki, bu kuch shoirdagi ijodiy imkoniyatlarni harakatga keltirdi va qalb qa’ridagi yashirinib yotgan ezgu umid, teran fikrlarning monand badiiy pardalarda namoyon bo‘lishga sabab bo‘ldi.

Umuman, Nizomiy ijodining o‘zbek adabiyotiga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri nihoyatda barakali va rang-barang.

Bu ta’sir goh erkin tarjima shaklida ko‘rinsa, goh ijodiy ilhomlanish shaklida namoyon bo‘ladi, ba’zan esa bevosita ergashish tusini ham oladi. Lekin ular qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, faqat bir narsadan ko‘rsatadi: qadimiy madaniy boylikka ega bo‘lgan Ozarbayjon va o‘zbek xalqlari orasidagi ijodiy hamkorlik uzoq va ibratli tarixga ega bo‘lib, Nizomiy ijodini ana shu aloqalar zanjirining eng muhim va bosh halqasidir.

Nizomiy ijodida insonparvarlik, oliyjanoblik, sof muhabbat, mardlik, jasorat, ma’naviy kamolotga intilish kabi ezgu g‘oyalar yetakchilik qiladi, bilim olish, kasb – hunar egallash, ma’rifatli bo‘lish va ma’rifat ahliga hurmat va ehtirom ko‘rsatishga da’vat etiladi.

Nizomiy nomi va adabiy merosi butun dunyoda ardoqlanadi. 1991- yil Yunesko tomonidan “Nizomiy yili” deb e’lon qilingan, Merkuriy sayyorasidagi kraterlardan

biri, MDH davlatlaridagi qator madaniy maskanlar, shahar, qishloq va ko‘chalar uning nomi bilan ataladi.

1941 -yilda Nizomiy tavalludining 800 yilligi munosabati bilan Toshkent davlat pedagogika universitetiga daho shoirning nomi berilgan. 1998 -yil universitet qarshisiga Nizomiy Ganjaviy byusti o‘rnatildi. Uning ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Gaydar Aliyev ishtirok etdilar. Nizomiy va Navoiy ijodlarida o‘zining eng go‘zal va yorqin ifodasini topgan samimiy hamkorlik ikki xalq o‘rtasidagi qadimiy do‘stlik aloqalarining bir ko‘rinishi sifatida tobora mustahkamlanib, hozirgi kunda bu xalqlar ajralmas do‘stligining tarkibiy qismiga aylanib ketdi.

Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy timsoli yurtimiz ahlining ulug‘ mutafakkirlarga bo‘lgan yuksak ehtiromi, o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining azaliy qardoshligi hamda O‘zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlarining boqiy timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.
2. Алиев Р. Предисловие // Низами. Лейли и Меджнун. – М.: Наука, 1957.
3. Асадуллаев С. “Лейли и Меджнун” в фарсиязычной литературе. – Душанбе, 1981.
4. Афсахзод А. Достони “Лайли ва Мачнун”и Абдурахмони Чомй. – Душанбе: Дониш, 1970.
5. Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. –Тошкент: Фан, 1970.
6. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. – М: Наука, 1956.
7. Бертельс Е.Э. Низами и Физули. – М.: Наука, 1962.
8. Гулшани адаб. Асрҳои IX-XIII . Дар панҷ чилд. – Душанбе: Ирфон, 1975. Ч. 1.
9. Муҳаммад Гиёсиддин. Гиёс ул-луғат. Иборат аз се чилд. – Душанбе: Адиб, 1988. Ч.2.
10. Нарзуллаева С. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литературы народов Советского Востока. АДД. – Баку, 1980.

11. Низомии Ганҷавӣ. Лайлӣ ва Мажнун. Куллиёт. Чилди дуввум. – Душанбе: Ирфон, 1982.
12. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б.123.
13. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
14. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
15. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
16. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
17. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
18. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
19. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
20. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
21. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
22. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
23. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
24. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
25. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA'SIRI

Mubora Omanova,

TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada buyuk ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviyning Alisher Navoiy ijodiga ta'siri masalasi tadqiq etilgan. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko'rsatib berdi.

Kalit so'zlar: Nizomiy Ganjaviy, Xamsa, doston, ozarbayjon shoiri, adabiy aloqa, an'ana, turkiy, bob, salaflar, adabiyot

ВЛИЯНИЕ НАСЛЕДИЯ НИЗАМИ ГЯНДЖАВИ НА ТВОРЕНИЕ АЛИШЕРА НАВАИ

Оманова Мубора,

Доцент ТГПУ, PhD

Аннотация: В статье рассматривается влияние великого азербайджанского поэта шейха Низами Гянджеви на творчество Алишера Навои. На примере своей «Хамсы» Навои показал возможность выражения новой идеи даже в рамках традиционной формы, а также способы придания блеска определенным формам.

Ключевые слова: Низами Гянджеви, Хамса, эпос, азербайджанский поэт, литературное общение, традиция, турецкий язык, глава, предшественники, литература.

Asl ism-sharifi Shayx Nizomiddin Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad bo'lgan buyuk ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviy turkiy millatning benazir mutafakkiri sifatida jahon adabiyotidagi noyob poetik hodisa –xamsachilikni boshlab berdi. Garchi forsiyda bitgan bo'lsa ham, ulug' shoirning "Panj ganj"ida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgani ma'lum.

Ulug' o'zbek mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy esa "Xamsa"si bilan Nizomiy Ganjaviy boshlagan poetik an'anani yangilash barobarida yuksak taraqqiyot

bosqichiga ko'tardi. Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar muallifi professor Almaz Ulvining yozishicha, Alisher Navoiy Nizomiy an'alarini izchil davom ettirish bilan cheklanmay, turkiy adabiyotning taraqqiyot darajasini yanada yuksaltirdi. Zero, Navoiy "...butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olgan, unga buyuk hurmat bilan qaragan".

Hazrat Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida buyuk Nizomiy shayxlar qatorida zikr etgan. Nizomiyda "...zohiriy ulum va rasmiy istilohotdin bahrai tamom..." (A.Navoiy, "Nasoyim ul-muhabbat", 10-jild, 483-bet) mavjud bo'lganini ta'kidlab, uni ustoz maqomida ulug'lagan.

Nizomiy "panjasiga panja urmoq" oson emasligi haqida darsliklarda o'qiganmiz. Hamid Olimjon 1939- yilda "Farhod va Shirin" maqolasida shunday yozadi: "Navoiy o'tgan zo'r ijodiy yo'lni va u yaratib qoldirgan o'lmas asarlarni hisobga olib aytish mumkinki, Navoiy o'z xalqining Nizomiy darajasidagi zo'r arsloni bo'lib yetishdi".

Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov "Nizomiy va Navoiy ijod konsepsiyasi xossalari" maqolasida ta'kidlaganidek: "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning ijod tabiati va ijodkor tutumiga doir qarashlari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Ikki buyuk adib badiiy ijod oldiga quyidagi adabiy-estetik talablarni qo'ygan:

- 1) qalam va so'zni muqaddas bilish, uni vositai joh etishdan saqlanish;
- 2) ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma'noni mujassam etmog'i zarurligi;
- 3) badiiy asar Haq va haqiqatga tayanishi;
- 4) ijodkor o'z mustaqil yo'lidan yurishi, taqliddan yiroq bo'lishi kerakligi".

Ushbu mezonlar Nizomiy hamda Navoiy ijodi va adabiy-estetik qarashlarining mohiyatini belgilaydi.

Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170-1204- yillar oralig'ida birin-ketin 5ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj

ganj” (“Besh xazina”) deb atala boshlandi va keyinchalik “Xamsa” nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o‘tib, Xusrav Dehlaviy (1253–1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an‘anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin bu an‘ana butun Sharq dunyosiga tarqaldi va juda ko‘p xalqlarda Nizomiy dostonlari mavzusi va syujeti asosida asarlar paydo bo‘ldi. Ozarbayjon olimi G‘.Aliyev jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma va manbalarni o‘rganib chiqish asosida Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozgan 300 ga yaqin ijodkorni aniqladi va ular haqidagi ma‘lumotlarni umumlashtirib, “Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока” nomli monografiyasini yaratdi.

Xamsanavislik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o‘rin egallaydi. Bu davrdagi Nizomiy mavzulariga murojaat qilgan ijodkorlar haqida Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” (1498), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro” (1486), Humomiddin Xondamirning “Makorimu-l-axloq” asarlarida ma‘lumotlar uchraydi. Ijodkorlar guruhini xamsanavislikka bildirgan munosabatiga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. To‘liq xamsa mualliflari.
2. “Xamsa”ning ba’zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar.
3. Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar.

Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlaviy bo‘lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Navoiy o‘z “Xamsa”si misolida an‘anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko‘rsatib berdi va uning bu asari umumjahon adabiyotining yuksak cho‘qqisi bo‘lib qoldi. Navoiy “Xamsa”si ajdodlarimiz ma‘naviy holatining ko‘zgusi bo‘lib, unda o‘tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlarini, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi.

1902- yildan boshlab yillar davomida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Vaqqfiya”, “Munshaot”, “Mezon ul-avzon”, “Holoti Pahlavon Muhammad” singari asarlari, “Xamsa” tarkibiga kirgan “Farhod va Shirin”, “Sab‘ai

sayyor” kabi dostonlari hamda she’riyatidan ayrim namunalar “Tanlangan she’rlar”, “Tanlangan asarlar” nomlari ostida ozarbayjon tilida chop etilib, ozar xalqining ma’naviy mulkiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov Sh, Davlatov O., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.
2. Valixo‘jayev B., Tohirov Q. O‘zbek adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.
3. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
4. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
5. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
6. A. Yakubov, G.F.Atabaeva, “Humanizm In The Novel Of”. Актуальные Проблемы Тюркологии: Россия И Тюрко-Мусульманский Мир, 2021
7. G Atabayeva, “The sign content of “FFU” novel” Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022
8. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
9. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
10. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
11. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
12. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.

13. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
14. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
15. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

XX ASR OZARBAYJON ADABIYOTIDA GANJAVIY OBRAZI TASVIRI

*Mahbuba O'razbayeva,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ozarbayjon adabiyotining buyuk shoir va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy obrazining yaratilishi haqidagi fikrlar bayon qilindi. Iste'dodli yozuvchisi Muhammad Said O'rdubodiyning "Qilich va qalam" romanida tasvirlangan Nizomiy Ganjaviy obrazi tahlil qilinib, romandan keltirilgan misollar bilan dalillandi.

Kalit so'zlar: Nizomiy Ganjaviy, qilich, qalam, ozarbayjon shoiri, vatanparvar, shoir, urush, adabiyot, ijtimoiy hayot.

ОБРАЗ ГЯНДЖЕВИ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

*Махбуба Уразбаева,
Доцент ТГПУ им. Низами,
философия в филологических науках
доктор философии*

Аннотация: В данной статье изложены мысли о создании в азербайджанской литературе образа великого поэта и мыслителя Низами Гянджеви. Образ Низами Гянджеви, изображенный в романе "меч и перо" талантливого писателя Мухаммада Саида Ордубади, был проанализирован и подтвержден примерами из романа.

Ключевые слова: Низами Гянджеви, меч, перо, азербайджанский поэт, патриот, поэт, война, литература, общественная жизнь.

DESCRIPTION OF THE CHARACTER OF GANJAVI IN XX-CENTURY AZERBAIJAN LITERATURE

*Mahbuba Orazbayeva,
TDPU associate professor named after
Nizomi, philosophy of philology
doctor, Ph.D*

Annotation: In this article, the views on the creation of the image of the great poet and thinker Nizami Ganjavi in Azerbaijani literature were described. The image of Nizami

Ganjavi depicted in the novel "Sword and Pen" by the talented writer Muhammad Said Ordubadi was analyzed and proved with examples from the novel.

Key words: Nizami Ganjavi, sword, pen, Azerbaijani poet, patriot, poet, war, literature, social life.

Buyuk shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy nafaqat Ozarbayjon, balki butun Sharq xalqlari adabiyotining yetuk namoyandalaridan biridir. U o‘zi yaratgan bebaho xazina – besh dostoni bilan xamsachilik an’anasiga asos soldi. Nizomiy an’anasini davom ettirib “Xamsa” yaratgan shoirlar undan ilhom olib o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Nizomiydan keyin garchi xamsachilik an’ana tusini olib, ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lsada, “Nizomiy panjasiga panja urish” buyuk allomalar – Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Hazrat Navoiyga nasib etdi. Ular yaratgan “Xamsa”lar jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy oldi.

Shoir ijodi ko‘plab alloma shoirlar uchun chinakam ilhom manbai bo‘ldi. Buyuk ozar shoirlari Imomiddin Nasimiy, Human Tabriziy, Fuzuliy asarlarida Nizomiy Ganjaviyga xos ruh seziladi. Ganjaviyning “Panj ganj”ida ilgari surilgan odil va xalqparvar hukmdorlar, sof muhabbarning g‘alabasi va uning buyukligi, insoniy go‘zallik madhi Imomiddin Nasimiy, Human Tabriziy, Fuzuliy ijodining ham asosiy motivlaridan biridir. Bundan anglashiladiki, mazkur ijodkorlar Ganjaviy asarlarini, mutafakkir – Ganjaviy ijodiga xos yaratuvchanlikni, dostonlarida ilgari surilgan mavzularni chuqur o‘rgangan hamda unga ergashgan.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, nafaqat Nizomiy ijodidan ilhomlanish, balki uning badiiy siymosini yaratish borasida ham izlanishlar yuzaga kela boshladi. Bu jarayon ayniqsa, XX asr ozarboyjon adabiyotida izchil tus oldi. Shu jahatdan Muhammad O‘rdubodiy, Samad Vurg‘un va boshqa ijodkorlarning asarlari xarakterlidir. Samad Vurg‘unning “Farhod va Shirin”i, Muhammad O‘rdubodiyning “Qilich va qalam” romani, keyinchalik ozarbayjon adabiyotida yaratilgan “Vaqif” dramasi, “Nizomiy”, “Ozarbayjon”, “Fitna” kabi asarlarda Nizomiy obrazining rang-barang tasvirlarini uchratamiz. Mazkur asarlar o‘zining badiiy jihatdan mukammalligi va Nizomiy obrazini yaratishdagi o‘ziga xosliklari bilan ham ajralib turadi. Biroq bu asarlarning aksariyati o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan. Faqat Nizomiy “Xamsa”si va Muhammad O‘rdubodiyning “Qilich va qalam” romani bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz xalos. “Qilich va qalam” romani o‘zbek tiliga Nazira Aliyeva hamda Muhsin Hamidov tomonidan tarjima qilingan. Asar 1969-1970-yillarda ikki qismdan

iborat kitob shaklida nashr qilinib, romanda Nizomiy Ganjaviyning hayot yo‘li va ijodi zo‘r mahorat bilan ochib beriladi. Biz bu asarda Ganjaviyni nafaqat shoir, balki o‘z xalqining tinchligi uchun kurashayotgan vatanparvar obraz sifatida ham ko‘ramiz. O‘spirin Ilyosning hayoti notinch, urushlar muntazam davom etayotgan, hukmdorlar taxt uchun ayovsiz kurashayotgan davrda kechadi. M.O‘rdubodiy Ilyos obrazi orqali shu davr Ganja shahridagi ijtimoiy hayotni qalamga olgan. Ganja aholisining qiyinchiliklari, ularning boshiga yog‘ilayotgan doimiy fojialar, amaldorlarning soxtakorliklari va bunga qarshi oddiy xalqning isyoni mahorat bilan yoritilgan. Roman ozarbayjon hukmdori Jahon Pahlavon – Otabek Muhammadning taxtga o‘tirishi va Tabriz hamda Mog‘orani qo‘lga kiritgani haqidagi “buyuk” g‘alabasi bilan boshlanadi. Ammo xalq g‘oliblarni bayramona kutib olishga shoshilayotgani yo‘q. Ular uylaridan zo‘rlab chiqarilgan, yirtiq-yamoq kiyimdagilar kiyimlarini yangi liboslarga majburan almashtirgan, yangi kiyimi yo‘qlar uylariga qamal qilingan edi. Chopar olib kelgan xabarga ko‘ra barcha xalq yuzida tabassum bilan g‘oliblarni kutib olishi, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatishi lozim. Ammo bu g‘alaba oddiy xalqqa shodlik va bayram kayfiyatini bera olmadi. Chunki xalq o‘zaro ichki urushlardan charchagan, urushlar ularni yaqinlaridan judo qilgan: birining aka-ukasi, ota-onasi yoki qarindosh-urug‘lari urush tufayli halok bo‘lishgan; ocharchilik avj olib, ba’zi uylarda amal-taqal qozon qaynasa, ba’zi oilalarda ochlik hukmronlik qilayotgan bir davr edi. Xalqdagi bu kayfiyatni faqatgina yosh Ilyos va uning do‘sti Faxriddingina anglay oldi. Roman davomida bu ikki do‘st umidsizlikka uchragan xalqni uyg‘otishga, ularni bir maqsad sari birlashtirishga urinadi. Oddiy xalq va ilm ahliga bo‘layotgan adolatsizliklar va nohaqliklarga qarshi biri “qilich” va biri “qalam” bilan kurash olib boradi. Asarni o‘qish jarayonida kitobxonda savol tug‘iladi. Qilich ustun bo‘lishi kerakmi yoki qalam? Va bu savolga yosh Ilyos tomonidan javob beriladi. “Afsuski, men qilich va nayza ishlatish hunaridan bexabarman. Shuning uchun ham senga bir maslahat bermoqchiman. Qilich va nayza ishlatishga, kamondozlik bilan mashg‘ul bo‘lishga havasing bor ekan, shularni yaxshi o‘rgan. Men ham qalam tebratishda yuksak martabaga erishmoqqa harakat qilaman. Bularning har ikkalasi ham bizlar uchun zarurdir”.⁴ Ilyos – Nizomiy tilidan aytilgan bu jumlar asar syujeti davomida yetakchilik qiladi. Faxriddin qilich egasi bo‘lsa, Ilyos qalam sohibi. Bu ikki do‘st bir butun bo‘lib harakat qiladi. Yozuvchi shohlik uchun qilich va qalam tarozining ikki

⁴ Ўрдубодий М. Қилич ва қалам. – Тошкент.: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 8 б.

pallasidek teng bo‘lishi kerakligini, qilich qalamdan ustun bo‘lolmasligiga ishora qiladi. Qilichni mahorat bilan ishlatgan hukmdorlarning barchasi ham adolatli shoh bo‘lolmasligi, ularning g‘alabalari faqatgina Otabek Muhammadning dastlabki g‘alabasi singari murdalar ustiga qurilishi mumkinligini nazarda tutadi. Asarda hukumatning urush siyosatiga qarshi qalam bilan kurashayotgan Pir Usmon ko‘chasidagi Mahsatiy xonimning uyi amaldorlar amri bilan toshbo‘ron qilinadi. Qilich ustunlik qilib yana Ganjada tartibsizlik va zo‘ravonliklar avj oladi. Qilich qachon qalam bilan birlashsagina ezgu maqsad sari yo‘nalishi voqealar davomida anglashilib boradi.

Bilamizki, har qanday tarixiy shaxs siyмосi, tarixiy asar albatta, tarix haqiqatlariga asoslanib yaratiladi. Bu tipdagi asarlarda tarixiy voqelik qachonki badiiy haqiqatga aylansagina o‘z qimmatiga ega bo‘ladi. Muhammad O‘rdubodiy ham “Qilich va qalam” asarni yaratishda tarixiy asoslarga tayangan. Bunda eng yaxshi va ishonchli manba Nizomiy Ganjaviyning asarlari hisoblanadi. Ko‘rinadiki, yozuvchi Muhammad O‘rdubodiy ham Ganjaviyning asarlaridan ta’sirlangan va Ganjaviy obrazini yaratishda uning “Panj ganj”iga qayta-qayta murojaat qilgan. “Xamsa” dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida Ilyos – Nizomiy obrazi orqali qayta jonlantirilgan. Shunga ko‘ra Nizomiy Ganjaviy o‘zining “Panj ganj”ida ilgari surgan g‘oyalar va mavzularning aksariyati romanda Ilyos obrazida gavdalantirilgan.

Xulosa sifatida shuni e’tirof qilish kerakki, yozuvchi Ganjaviyни nafaqat buyuk shoir, balki o‘z xalqi taqdirini oldindan ko‘ra oladigan vatanparvar, uning tinch va osuda yashashi uchun kurashayotgan xalqparvar obraz sifatida tasvirlangan. Shu bois Ganjaviy go‘zal insoniy fazilatlari bilan ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўрдубодий М. Қилич ва қалам. – Тошкент.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 488 б
2. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
3. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
4. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

5. A. Yakubov, G.F.Atabaeva, "Humanizm In The Novel Of". Актуальные Проблемы Тюркологии: Россия И Тюрко-Мусульманский Мир, 2021
6. G Atabayeva, "The sign content of "FFU" novel" Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022
7. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
8. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
10. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
11. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
12. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
13. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
14. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NIZOMIY GANJAVIY ASARLARI BADIYYATI

Nigora Pardayeva,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b.,

f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Nizomiy Ganjaviy hayoti va asarlari haqida ma'lumot berilgan. Adibning so'z haqidagi qarashlari xususida mulohaza yuritilgan. Shoir hikmatlari to'g'risida ma'lumot keltirilib, ayrim hikmatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Nizomiy Ganjaviy, so'z ta'rifi, oqil, hikmatlar, nuri ziyo.

Abstract: The article provides information about the life and works of Nizami Ganjavi. The views of the writer on the word are discussed. Information about the poet's wisdom is provided, and some of his wisdom are analyzed.

Key words: Nizami Ganjavi, definition of words, wisdom, wisdom, light of wisdom.

Sharq adabiyotida bugungi kunda ham sevib mutolaa qilinib kelinayotgan "Xamsa" asarlari orasida Nizomiy Ganjaviy asarlari o'z badiyyati, tasvirlarning orginalligi hamda yangilikka boyligi bilan ajralib turadi. Nizomiy nafaqat "Xamsa" asari orqali balki, teran mazmunga ega hikmatli so'zlari orqali ham mashhurdir. Shuningdek, adib Qur'onni yod olgan, fiqh, tarix, geografiya, falsafa, mantiq va adabdan ta'lim olib, ularning har birida ustod darajasiga yetishgan. Tabiiy fanlar, xususan, tabobat va ilmi nujum (astronomiya)ni ham yaxshi bilgan. Zamonaviy ilmlardan tashqari, yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so'z san'ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlari tarixi, Kavkaz xalqlarining o'tmishidan yetarli ma'lumotga ega bo'lgan. U yetuk matematik sifatida ham e'tirof etilgani ma'lum.

Nizomiy Ganjaviyning 20 ming baytdan iborat she'riy devoni bo'lib, lirik she'rlari turli bayoz va to'plamlardan tarkib topib, jamlangan. Lekin undan ayrim parchalar: 16 qasida, 192 g'azal, 5 qit'a, 68 ruboiy va 17 bayt saqlanib qolgan, xolos. Adibning ijodining gultoj asari "Xamsa" asari bo'lib, u quyidagi dostonlarni o'zida jamlaydi: 1. "Mahzan ul-asror» ("Sirlar xazinasi", 1173 yoki 1180)da muqaddima va xotimadan tashqari 20 maqola bo'lib, har maqolaga oid 20 hikoya mavjud. Asarda shoir yashagan davrning muhim ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalari aks etgan. Keyinchalik bu asarga javoban forsiy va turkiy adabiyotlarda 40 dan ortiq dostonlar (Navoiy, "Hayrat ul-abror") yaratilgan. 2. "Xusrav va Shirin" (1181) sevgi va sadoqat mavzusida; 3. "Layli va Majnun" dostoni (1188) arab rivoyatlari asosida yaratilgan; 4. "Haft paykar" dostoni (1196) Bahrom Go'r va uning nomi bilan bog'liq voqealarga asoslangan. Asar hikoya ichida hikoya tarzida yozilgan bo'lib, ularda inson

tarbiyasi, xulq-atvori bilan bog‘liq g‘oyalar ilgari surilgan. Hikoyalarida xalq ertaklari ta’siri sezilib turadi; 5. “Iskandarnoma” dostoni (1190—1200)da Nizomiy Ganjaviy o‘zining odil va ma’rifatli shoh, komil inson, ideal jamiyat haqidagi orzularini Iskandar obrazi va xayoliy tasvirlari orqali ifodalagan.

Adib o‘zining “Mahzan ul-asror” asarida so‘z qudrati, uning ta’sir kuchi, jozibasi haqida “So‘z ta’rifida” bobida alohida to‘xtalib o‘tadi va shunday yozadi.

Oqil agar so‘z bila so‘zni topar,
Orif o‘shal so‘zda o‘zuni topar.
Ulki bilur so‘z guhari qiymatin,
So‘zda topar so‘zlaguvchining otin [1]

Misralardan ko‘rinadiki, oqil, donishmand inson so‘zni har bir narsadan ustun qo‘yadi. So‘z bilan kishilarga mehr-muhabbat ulashadi. O‘z so‘zida o‘zining bilimi, odobi, andishasini, fazilatlarini, salohiyatini bayon etadi. So‘zni e‘zozlagan, qadrlagan inson uning qiymatining nechog‘lik balandligini biladi. So‘zni tushunmagan, uning qudratini his etmagan, mohiyatini anglamagan inson unga bee’tibor qaraydi. Uning uchun so‘z oddiy harflar birikmasidek ko‘rinadi. So‘z boylikini bilmagan inson, albatta, ranj topadi. Bu haqida shoir quyidagicha fikr bildiradi.

Ul kishikim, topmadi so‘z ganjini,
Qildi habou xadar o‘z ranjini.

Keltirilgan ganj hamda ranj so‘zlari bilan shoir misra ta’sirchanligini oshirishga harakat qilgan. Ushbu qofiyaga olingan so‘zlar orqali mutlaq qofiya hosil qilingan.

Kimki nazar manzaridin yumdi ko‘z,
Qo‘ymadi meros o‘zidin g‘ayri so‘z.

Ushbu misralarda adib o‘zidan biron dono, ibratli fikr, so‘z qoldirmagan kishilar bu o‘tkinchi dunyoda tez unutilishiga ishora qilmoqda.

So‘z qudrati, uning gavhardek qimmatbaho ekanligi xususida Ganjaviy an’analarini davom ettirgan Alisher Navoiy ham qimmatli fikrlar keltirib o‘tganlar.

So‘zki xabar berur, jonga jonondin,
So‘zki nishon berur o‘likka jondin.
So‘z insonni judo qildi hayvondin,
Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin [2].

Keltirilgan misralardan shuni anglashimiz mumkinki, Alisher Navoiy so‘zni insonni ham o‘ldiruvchi, ham tiriltiruvchi kuchga ega ekanligiga, so‘z orqali inson hayvondan ajralib turishiga urg‘u bermoqda. Bu ayni haqiqatdir.

Nizomiy Ganjaviy hikmatlari ham purma’noligigi, hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Har kecha so‘nggida nuri ziyo bor,

Har bardosh so‘nggida zavqi safo bor.

Ushbu hikmatli so‘zda shoir har bir qorong‘ulik, azob-uqubat, g‘am-alam, qiyinchilik ketidan, albatta, yorug‘ kunlar, shodlik va xursandchilikka to‘la zavqli onlar kelishiga ishora qilmoqda. Shuningdek, sabrdan keyin shubhasiz, uning rohati bo‘lishiga urg‘u bermoqda. Zero, har bir bandaning boshida sinovli kunlar bo‘lishini, uni chiroyli sabr bilan yengib o‘tishini ta’kidlamoqda. Misralarda kecha-nuri ziyo, bardosh-zavqi safi so‘zlarini qarama-qarshi qo‘yish, ya’ni tazod san’ati orqali fikr ta’sirchanligini oshirishga erishgan.

Adib o‘zga insonlarning ayblarini ko‘rish, ularni muhokama qilishda har bir narsaga diqqat qaratish lozimligi, ularning nuqsonlaridan ibrat olish, uni o‘zida takrorlamaslikka chaqiradi va shunday yozadi.

O‘zgalar aybiga tetik nazar sol,

O‘z aybing ko‘rgandek undan ibrat ol.

Haqiqatan, bir inson aybini ko‘ra turib undan ibrat olmaslik, nodonlikning bir ko‘rinishidir. O‘zgalar qilgan noto‘g‘ri ishdan xulosa chiqarish, uni takrorlamaslikka harakat qilish chin insoniylik fazilatlaridan biridir.

Shoirning do‘stlik haqida ham bir qancha hikmatlari mavjud bo‘lib shulardan birida adib mana bunday yozadi.

Jonini o‘ylaguvchi xudbin do‘stingdan jonini yo‘lingga tikkan it yaxshi. [2]

Keltirilgan misralardan ma’lumki, chin do‘st hech qachon xudbinlik qilmaydi. O‘zini o‘ylab sizga xudbinlik qildimi demak, u sizga hech qachon do‘st bo‘la olmaydi. Uning o‘rniga sizga vafodor bir it boqqaningiz yaxshiroq. Zotan, chin do‘stlar har qanday vaziyatda ham, sharoitda ham, boshingizga musibat tushgan paytlarda sizni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Bu chin do‘stlik nishonasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nizomiy Ganjaviy. Mahzan ul-asror. Ziyonet. uz
2. Ziyoz.uz
3. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
4. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
5. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
6. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer

Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

7. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

8. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

9. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

10. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.

11. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,

12. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.

13. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.

14. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.

15. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI

*Go‘zal Atabayeva,
Nizomiy nomidagi TDPU
dotsent.v.b., (PhD)*

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asridagi obrazlar tahlili va genezisi, kompozitsion qurilishi, obraz yaratish mahorati, syujet va kompozitsiya butunligi xususiyatlari yoritilgan. Dostonlardagi ijtimoiy voqelikning tasvir jihatlari tahlilga olindi.

ANNOTATION In this article, the analysis and genesis of Nizami Ganjavi's images in the "Khamsa" century, compositional construction, skill of image creation, features of plot and compositional integrity are highlighted. Image aspects of social reality in the novel are analyzed

Аннотация В статье описываются анализ и генезис изображений Низами Гянджеви в веке «Хамса», композиционное построение, мастерство создания образа, особенности сюжета и композиционной целостности. Анализируются имиджевые аспекты социальной реальности в романе.

Kalit so‘zlar: So‘z san’ati, kompozitsiya, badiiy obraz, syujet, qahramon.

Ключевое слово: Слово, композиция, художественный образ, сюжет, герой

Keyword Word: art, composition, artistic image, plot, hero

Badiiy asarlar bilan tanishish, o‘rganish va tahlil qilishda asarlarni yaratilishiga sabab bo‘lgan manbalarni mohiyatini anglash asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu esa bir xalq adabiyotining boshqa bir xalq adabiyoti olamiga kirib borishidagi yana bir adabiy aloqa shakli. Adabiyot olamida boshqa millat adabiyotlarining ilg‘or tajribalariga tayanmagan holda rivojlanib, o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan birorta ham adabiy asar mavjud emas. Jahondagi adabiy jarayon jumladan, qardosh ellarning adabiyoti bilan yaqindan tanishib keng qamrovli kitobxonlar uchun asrlar davomida qimmatini yo‘qotmaydigan buyuk asarlarning yaratilishi adabiyot tarixida isbotlangan hodisa.

Masalan, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlari davrlararo davom etgan adabiy aloqalarning samarali natijasidir. Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan bu uchlikning “Xamsa”lari o‘rganilganda umumiy va xususiy jihatlari bilan farqlanadigan badiiy tahlil jarayonini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy-tarixiy davr, tuzum, adabiy muhit, poetik ifodalar, milliy va ijodiy uslubga xos individuallik singari qator obyektiv va subyektiv sabablari bor.

«Xamsa» tarkibini tashkil etuvchi besh doston alohida janr, syujet, kompozitsiya, ritm (vazn) xususiyatlarini namoyon etishi, fabula tizimi, obrazlarning tarixiy, rivoiy, xalqona asoslari turli zamon va makonlarga tegishli bo'lsa ham, toki yagona xronotop maydoni doirasida qaralmas ekan, ijodkor ilgari surmoqchi bo'lgan badiiy konsepsiyaning tub mohiyatini anglash mumkin emas. «Xamsa»dagi Xisrav, Shirin, Majnun va Layli, Iskandar obrazlari va ularning tarixiy prototiplari mavjudligi yoki badiiy to'qima ekanligi shular jumlasidandir. Ular orasidagi zamon munosabatlarini ham aniq belgilash mumkin emas. Chunki ularning ba'zilarida tarixiylik (xususan, Iskandar Zulqarnayn) xususiyati yetakchi bo'lsa, boshqalarida rivoiylik, afsonaviylik (Xusrav, Majnun, Shirin, Layli va h.k.) xos. Xo'sh, shunday ekan, «Xamsa» obrazlarini yagona tizim ostida uyg'unlashtiruvchi, bir butun badiiy xronotop tarmoqlari sifatida namoyon etuvchi asos konsepsiya nimada? Biz qaysi nazariy kriteriyga ko'ra, «Xamsa»da obrazlar tizimi, degan muammoni qo'ya olamiz? Agar bu tizim mavjud bo'lsa, qanday poetik strukturaga ega va uning asosida nima turibdi? Shunda biz Sharq-islom adabiyotiga xos poetik kriteriylarning o'ziga xosligi, xususan, «Xamsa» obrazlari tizimi, unga xos xronotop poetikasi haqida muayyan xulosalarga ega bo'lishimiz mumkin. Sharq mumtoz dostonchiligi, xususan, «Xamsa» obrazlari bilan folklordagi obrazlar to'g'ridan-to'g'ri genetik munosabatga ega. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tizimning paydo bo'lishi, tarixiy shakllanish bosqichlari, poetik vazifalarini to'g'ri belgilash uchun «oshiq», «ma'shuqa», «raqib»dan iborat uchlik obrazlar genezisi xususida muxtasar to'xtalish zarurati bor.

Bir yoki bir necha obraz tabiati, ichki semantikasi, maqomi (darajasi), xususan, xronotopik shakli va ko'lamini bevosita ishq belgilaydi. Sharq va o'zbek mumtoz adabiyoti, islom tasavvufiy timsollar nazariyasiga oid manbalarda oshiq ishqning, ishq esa oshiqning fenomenal manbasi, quvvat zahirasi ekani qayd etiladi. Oshiqning mohiyati u hosil etgan ishq maqomi bilan belgilanadi. Oshiq atrofidagi barcha shaxs, narsa va hodisalar u erishgan maqom xronotopi doirasida mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra oshiqning ma'shuqa tomon yo'li har doim undagi ishq darajasi, holati va mezonlari bilan o'lchanadi. Odatda ushbu xronotop shakllari syujet qurilishini tashkillovchi poetik komponent (motiv)lar hisoblanadi. Ammo ularning asl mohiyati syujetdan ko'ra obraz tabiatini yoritishda yorqinroq ko'rinadi. Aniqrog'i, badiiy asar tarkibidagi har qanday obrazning «hayot yo'li» shu xronotoplar oralab o'tadi. Bu xronotop maydonlarida sinaladigan qahramon o'zining kim ekani, qanday vazifa bilan dunyoga kelgani, nimalarga qodirligi va nimalarga loyiqqligini isbotlaydi. Umuman, «ilk uchrashuv», «ayriliq», «visol» xronotoplari uyg'un holatda faqat oshiq-ma'shuqa-raqib yoki bosh qahramonni emas, asardagi bir butun obrazlar tizimini uyg'un tahlil etish imkonini beradi. Hatto badiiy asardagi syujet, obraz, xarakter, portret, detal, uslub

singari boshqa muhim komponentlar ham faqat uchrashuv jarayonida (zidlash, qiyoslash, muloqot ko‘rinishida) o‘zini to‘la namoyon eta oladi. Xususan, muayyan dinamikadan kelib chiqadi. Dastlab u oddiy odamlar egallagan barcha ilmlarni egallaydi: o‘qish, yozish, hunar, harbiy ilm kabi. So‘ngra o‘z nomiga qilingan tilsim bo‘yicha harakatlanadi. Xusrav bosib o‘tadigan har bitta bosqich muayyan yo‘l, qahramonning hayotiy imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi, kamchiliklarini bildiruvchi voqealar rivojidan iborat. Xusrav mana shunday sinov yo‘llarini bosib o‘tgandan keyingina yor jamolini ko‘rishga erishadi. Xusrav ijtimoiy hayotdagi insonlar kabi kamchiliklardan xoli bo‘lmagan qahramon. Yurt boshqarish, istaklariga doimo erishish, g‘alabalari uchun sevgan insonidan ham kecha oladigan ba‘zi o‘rinlarda tuyg‘ulari haqida aniq mukammal “Ishq” deya atab bo‘lmaydigan sujetda harakatlanadigan qahramon. Qahramonlarini xarakterini namoyon etishda Ganjaviy “Xamsa” siga ta’sir etgan bir qator tarixiy yirik asarlar mavjud. Hayotiy insoniy ishq asar qahramonining yor visoliga yetishida asosiy omil bo‘la oladi. Shuning uchun bu yo‘lda chalkash, murakkab, tushunib bo‘lmaydigan jihatlar ko‘p emas. Negaki, bu yo‘lda inson tabiatidagi oliy va tuban sifatlar sinovdan o‘tadi. Bu esa obraz talqinida ayrim murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bundagi oshiq – ma’shuqa – raqib tizimi ham, ayni sababdan, ikki qatlamli harakat trayektoriyasiga ega.

“Saddi Iskandariy” asari muallifning boshqa poemalari, xususan, muhabbat dostonlaridan farq qilishi bilan birga, hajm jihatdan eng katta asari hamdir. Shoir bu asarda ijtimoiy-siyosiy voqealarni falsafiy va badiiy lavhalar bilan yoritgan. Dostonda ilmiy-falsafiy mazmun yuksak badiiy forma bilan birga beriladi, bu yerda Nizomiy qalamining kuchi o‘zini ko‘rstadi. Iskandarning harbiy yurishlari, jahongirliги tasvirlanadi. Dostonda keltirilishicha, Iskandar otasining taxtiga juda erta o‘tiradi. Ko‘p janglarda ishtirok etib, mohir sarkarda va adolatparvar shoh sifatida shuhrat qozonadi. Uzoq-yaqindagi hukmdorlar undan o‘z dushmanlarini yengish uchun yordam so‘ray boshlaydi. Iskandar tadbirkorlik bilan Chin va Hind mamlakatlarini yengadi, insoniyat osoyishtaligiga xavf yetkazayotgan “ya’juj-ma’jujlar” ustidan g‘alaba qozonadi. Iskandar donishmand shoh sifatida o‘z davrining faylasuflari bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, ular bilan olamning ibtidosi, intihosi, mamlakatni boshqarish qonun-qoidalari, muvaffaqiyat va inqirozga sabab bo‘ladigan omillar haqida suhbatlashadi, o‘zining xatti-harakatlarini sarhisob qiladi. U qayerga borsa, dastlab davlat boshqaruv usuli, idora nizomlarining adolat talablariga qay darajada muvofiqligiga e’tibor qaratadi. Shoh-u gadoning so‘zlariga quloq tutadi, maslahat va tavsiyalar beradi. Umuman olganda, Nizomiy tasviridagi Iskandarning jahongirliги faqat kuch-qudrat emas, ilm-u donish, hikmat va aql jahongirliigidir.

Nizomiy Ganjaviy asrlaridagi obraz yaratish mahorati uning sharqona qarashlari, davr siyosiy-ijtimoiy muhitiga munosabati va ta'lim olgan muhitidan kelib chiqqan holda xalq va millat manfaatlariga mos tarzda namoyon bo'lgan. Sharq mumtoz adabiyotidagi folklorga munosabat an'anasi ham o'ziga xos uslubiy mahorat bilan didaktik maqsadni birlashtirgan holda o'z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. –Т.: Фан, 1992. –Б.104.
2. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Т.: Mumtoz so'z, 2011. – 316 б.
3. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
4. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
5. Ёўлдош Қ, Ёўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 б.
6. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2006. – 546 б.
7. Pardaeveva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
14. Ёразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.

15. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

KAMOLIDDIN BEHZODNING NIZOMIY ASARLARIDAGI RANGLAR MO'JIZASI

*Iqboljon Ilhomov,
Islom Karimov nomidavgi
Toshkent davlat texnika universiteti
"Sanoat dizayn" kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta asr Sharq miniatyura san'atining shu kungacha afsonaga aylanib ketgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzod (1455-1536) ijodi haqida yozilgan. Tarixdan ma'lumki, Behzod asarlarining ta'siri O'rta Osiyo xalqlari, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlari, Ozarbayjon, Eron, Hind xalqlaridagi miniatyura chizuvchi rassomlarni ham ilhomlantirdi. Jumladan, u Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, Amir Xisrav Dehlaviyning «Layli va Majnun»(1492), Farididdin Attorning «Mantiqut tayr» (1494) va Mir Alisher Navoiyi asarlariga go'zal miniatyuralar ishlagan. Maqola musavvir Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiy faoliyati haqida yozilgan ma'lumotlarga ega.

Kalit so'zlar: Kamoliddin Behzod, xattot, musavvir, miniatyura, naqqosh, portret, rassom, hunarmand.

Аннотация: В данной статье описано творчество Камолиддина Бехзода (1455-1536), великого художника миниатюры Востока средних веков ближневосточной, ставшего легендой по сей день. В истории известно влияние произведений Бехзода, вдохновлявшие художников - миниатюристов стран Средней Азии, Ближнего Востока, Азербайджана, Ирана, народов Индии. Бехзод является основоположником портретного жанра и искусным мастером. В частности, им написаны «Хамса» Низами Гянджеви, «Лейли ва Меджнун» Амира Хисрава Дехлеви (1492 г.), «Мантикут Тайр» Фаридиддина Аттара (1494 г.). Мир Алишер создал прекрасные миниатюры для произведений Навои. Статья содержит письменные сведения о жизни и творчестве художника Камолиддина Бехзода.

Ключевые слова: Камолиддин Бехзод, каллиграф, художник, миниатюра, резьба, портрет, живописец, роспись, ремесло.

Annotation This article is written about the creativity of Kamoliddin Behzod (1455-1536), a great painter of Middle Eastern miniature art, who has become a legend to this day. It is known from history that the influence of Behzod's works inspired the miniature painters of Central Asian countries, Middle Eastern countries, Azerbaijan,

Iran, and Indian nations. Behzod was the founder of the portrait genre and a skilled master. In particular, he painted pictures "Khamsa" by Nizami Ganjavi, "Layli wa Majnun" by Amir Khisrav Dehlavi (1492), "Mantiqut Tayr" by Farididdin Attar (1494). and Mir Alisher created beautiful miniatures for Navoiy's works. The article contains written information about the life and creative activity of artist Kamoliddin Behzod.

Keywords: Kamoliddin Behzod, calligrapher, artist, miniature, carving, portrait, painter, painting, craft.

Hozirgi kunlarda mustaqil O‘zbekistonimizda uchinchi Renessans poydevori qurilmoqdaki, unda adabiyot, san’atning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda va shu bilan birga keng qamrovli islohotlar ta’lim yo‘nalishlarida olib borilmoqdadir. Chunki, o‘z kelajagini o‘ylagan har bir xalq, millat yosh avlodning fazilatlarini haqida qayg‘urishi tabiiy holdir.

Dunyo yaralibdiki, har bir millat fuqarosi inson sifatida go‘zallikka intiladi. Ulardagi shu go‘zallikka bo‘lgan chanqoqlik, insonlarni nafosat olamining yuksak cho‘qqisiga chorlaydi va shu orqali ular go‘zallikdan estetik zavq oladilar. U xoh qadimda yaratilgan xalq merosiga oid asoriy-atika yoki miniatyura, qo‘lyozma asarlari bo‘lsin albatta hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Bu merosiy asarlar barchasi tariximizning buyuk ekanligidan dalolat beradi. Albatta bu yoshlarni ona Vatanni sevishga, tarixga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularning har birini O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida g‘ururlanishini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanishni singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin - qizlarning bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida hozirgi zamon yoshlari oldiga ulkan talablarni qo‘ydilar. Yurtimiz yoshlari qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsalar, ularda turli yot illatlarga qarshi immunitet shunchalik kuchli bo‘ladi.

O‘zbekiston tasviriy san’ati o‘zining har tomonlama boyligi, salohiyati va rivojlanish tarixi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, tasviriy san’ati rivojida bir-biridagi o‘xshashlik ko‘proq realistik asarlarda sezilib turadi. San’atkorlarning oldida ilg‘or g‘oyalarning mavjudligi, ularni mukammal asarlar yaratishga undayotgani hammaga ma’lum. Biz har doim mustaqillik, ozodlik g‘oyalari haqida fikr yuritganimda, mustaqilligimizning abadiy bo‘lishi, uning kelajak avlodlarga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Nafosat dunyoning rangin bo‘yoqlarida yaratilayotgan miniatyura asarlari har bir millat va elatning tarixiy nafosati, adabiyoti, san’ati bilan bog‘liq san’at turi bo‘lib,

uning vazifasi xalqning madaniy boyligi sifatida, o'sha millat va elatni dunyoga olamshumul asarlarini tanitish, uzoq kelajakka yetkazishdan iboratligi har bir davlatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Hayotda barcha narsa o'zining yaratilish tarixi bilan qimmatlidir. Har bir yaratilgan tarixiy miniatyura asarlarida xalqning barcha madaniy boyliklari o'zining ifodasini topishi bilan birga, uning urf-odatlarini katta mahorat bilan yaratilganligiga amin bo'lasiz. Tarixdan hozirgi davrgacha bo'lgan davriylikni to'laligicha ochib berish va san'at muxlislarining ijodiy janrlar haqidagi bilimlarini yanada kengaytirishdir. Yaratilgan asarlarning o'z zamon san'ati bilan bog'liqligi, ularni janrlar asosida yaratilganligi, kompozitsiyalarini oddiy yechimdan to, murakkab yechimgacha bo'lgan chizgilardagi jarayonlarni anglash uncha murakkab emasligidadir. Qadimgi Sharq miniatyura san'ati tarixida Arab miniatyura maktabi, Turk miniatyura maktabi, Hind miniatyura maktabi, Ozarbayjon miniatyura maktabi, Eron miniatyura va Sharq miniatyura maktablarini o'ziga xosligi bilan bir - biridan ajralib turibgina qolmay, ranglarning nafisligi, uyg'unligi, obrazlar nozik chizgilarining aniqligi,



*Behzod. "Iskandarning yetti yunon donishmandi bilan suhbat". Hirot.
1494-95- yillar. Nizomiy. "Xamsa". London. Britaniya muzey qo'lyozmasi.*

asardagi insonlar va qushlarning tasvirlari, harakatlari dunyoni hayratga solib kelmoqda. Sharq miniatyura san'ati o'zining ranglarga boyligi bilan barcha davrlarda ajralib turishiga qaramay, kitob hoshiyalarida bezalishida naqshlarning paydo bo'lishi, tabiat manzarasi, u bahor, yoz va boshqa fasllar bo'lsin, undagi chizilgan asar har qanday kishini o'ziga rom etishi turgan gapdir. Musavvirlar o'z qahramonlarini

ruhiy holatdagi qiyofalarini tasvirlashda oshiq-ma'shuqlar, bazmu - jamshiddagi mehmondorchiliklar, ulardagi his-hayojon, jangchilarning, tuyakashlar harakatlardagi imo-ishoralarning to'liqligicha ochib berish, qadimda ta'rif etilgan ranglar xususiyatlari orqali aks ettirilganligidan bilish mumkin.

Qadimda insonlar o'z hayotlari haqida hikoya qiluvchi barcha hodisalar hissiyotlarini qog'ozga muhrlashga harakat qilgan. Ular o'zlarining go'zallikka intiqiligini, ko'ngil nafosatini, tabiatni, olamga bo'lgan qarashlarini turli chizgi va bo'yoqlarda rang - barang obrazlarda tasvirlaganliklari hammaga ma'lum.

Miniatyura asarlaridagi tasvirlar orqali ma'lum bir voqeani ko'rsatish, insonlarning bir - biriga hurmat bilan qarash kabi g'oyalarni ilgari suradi. Miniatyura san'ati musavvirdan nihoyatda nozik didlilikni, keng dunyoqarashni, yurak hislari orqali har bir chizgini, mazmun mohiyatini ko'ngildan o'tkazishni talab qiladigan san'at turidir. Ma'lumki, qadimda IX-XIX asarlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Ozarbayjon, Eron xalqlari bilan buyuk ipak yo'li orqali aloqada bo'lib kelganlar. O'sha davrlarda Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda madaniyat juda rivojlangan bo'lib, bu shaharlar taraqqiyot markazlari bo'lib ham xizmat qilgan. Qadimda ilm-u ma'rifat yuksak qadriyat sifatida qadrlanishi bilan birga, miniatyura bilan kitob muqovalari, sahifalari kitobning mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda bezatilgan. Miniatyuralar asosan she'rlar,



*Behzod. "Cho'milayotgan qizlar". Hirot. 1494 -yil.
Nizomiy. "Xamsa". London. Britaniya kutubxonasi.*


dostonlar, tarixiy shaxslarning tasavvurlar va ularning voqeliklarga asoslangan hayot tarzlarini haqida hikoya qiluvchi ko‘rinishlar asosida yaratilgan. Sharq miniatyura maktabi bir - birini takrorlamasligi bilan badiiy jihatdan ajralib turadi. Buyuk Sharq allomalari va adiblari Abuqosim Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida hayotda ilgari surilgan insonparvarlik g‘oyalarni tasvirlanishi ham o‘ziga xosligi bilan munosib o‘rin tutadi.

8. Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>
9. Sayfulayev B. Some Problems of Phraseology of Turkic Languages (On the Example of Eye Phraseosomatizm). <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v5i4.263>
10. Yusupov B.B. Motherland and Patriotism in the Lyrics of Tulegen Aibergenov. <https://ijssrr.com/journal/issue/view/28>
11. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
12. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
13. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11

14. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
15. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
- 16.Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
- 17.Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
- 18.M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
- 19.Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
- 20.Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
- 21.O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
- 22.Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
- 23.Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

**O‘QUV MATNLARINI MODELLASHTIRISH ASOSIDA
O‘QUVCHILAR NUTQIY RAVONLIGINI (BOG‘LANISHLARINI)
RIVOJLANTIRISH METODIKASI.**

R.D.Shodiyev,

QDU Pedagogika fanlar doktori, professor

M.E.Hamrayeva,

QDU Ta'lim tarbiya nazaryasi va metodikasi

kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqola o‘quvchilar nutqi ravonligini oshirishda o‘quv matnlarini modellashtirish asosida o‘quvchilarni o‘qitishga o‘rgatish metodikasini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shu boisdan bu mavzu tadqiqotchilar, pedagoglar va psixologlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Abstract This article discusses the formation of a methodology for teaching students to teach based on the modeling of educational texts to improve students' speech fluency. Therefore, this topic is important for researchers, pedagogues and psychologists.

Аннотация В данной статье рассматривается формирование методики обучения студентов преподаванию на основе моделирования учебных текстов для улучшения беглости речи учащихся. Поэтому данная тема важна для исследователей, педагогов и психологов.

Kalit so‘z: o‘quv matnlari, rivojlanish, metodika, modellashtirish

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa ta'lim sohasidagi tub o‘zgarishlar hech kimga sir emas. Bugungi kunda yoshlarni bir masalaga nisbatan kreativ, ya'ni bir muammoni turli tomonlama, turli xil yo‘llar bilan yechishlari, shuningdek ifodali o‘qish, nutq rivoji va fikrni aniq yetkazib berish davr talabi hisoblanmoqda. O‘quvchilarning bo‘lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma’naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog‘liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o‘qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog‘onalarga olib chiqish avvalo o‘qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas’uliyatli vazifani yuklaydi. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: Vanimizning kelajagi, xalqimizning

ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvlambor farzandlarimizning unib, o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishga bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta‘lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-detektiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

MUHOKAMA

Pedagogik faoliyat o‘qituvchining o‘quvchiga uni shaxs va intellektual jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sirini o‘z ichiga qamrab oladi. 1-sinfdan 4-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘quv matnlarini modellashtirish asosida o‘quvchilar nutqiy ravonligini oshirish bo‘yicha o‘qituvchilar metodik ishlar olib boriladi. “Yoshlikdan olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir” ga o‘xshatishgan. Shunday ekan birinchi va ikkinchi sinflarda ona tili va o‘qish o‘qitishda alohida ahamiyatga ega ongli yondashuvni, o‘zini ifoda etish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi, shuningdek o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tinglash, gapirish, o‘qish yozish, matnni tinglab tushinish, fikr almashish, ma‘lumot olish, yozma ma‘lumotlarni o‘qib, voqealarga munosabat bildirish qobiliyatlarini shakllantirish zarur hisoblanadi. Bugun bitta kitob o‘qigan bola ertaga o‘nta televizor tomosha qilgan bolani yetaklaydi. Bu rost gap va shuning uchun ushbu jumlaning va shunga o‘xshash aqlli fikrlarni bolalar ongiga chuqur singdirish, kitobga bo‘lgan muhabbatni oshirish, ularga ilm ortidan yorqin, porloq kelajak kelishligini anglatish darkor. Bugun o‘z bilimini, ma‘naviyatini boyitgan bola kitob o‘qish orqali mustaqil va erkin fikrlashga o‘rganadi, dunyoqarashi kengayadi televizorda turli ko‘ngilochar dasturlar, past darajadagi seriallar va multfilmlarni tomosha qilayotgan bolalar kitob o‘qiyotganlar uchun xizmat qiladi. Kitobxon yoshlar hayotda o‘z o‘rnini topish uchun o‘zlarida bor imkoniyatlarning barchasini ishga soladilar va bilim olishga kuchlarini sarflashadi. Farzandlarimizga bilim berish nafaqat bugungi kunning balki qadimda ota-bobolarimizning ham dolzarb vazifalaridan biri bo‘lgan. Bolajonlarimiz ertangi hayotning ma‘lum bir sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib ulg‘ayishlari, o‘qishlari Vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘shishlari bu barchamizning oliy maqsadimiz hamda burchimizdir. Bolalarni o‘qitish o‘rgatish ota-onalar bilan bir qatorda o‘qituvchi murabbiylarning ham burchlaridir. Bolalarda nutqni, fikrlashni va o‘zganing fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilish qobiliyatini shakllantiruvchi oddiy va samarali metodlardan biri bu savol-javob metodidir. O‘quvchilarga eng avvalo bog‘lanishli nutq nima ekanligini tushunib olishimiz kerak.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma‘noli qismlarga bo‘linadigan nutq –bog‘lanishli nutq deyiladi. Bog‘lanishli nutq –mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash, mavzuni yoritib olish ko‘nikmasini, inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasini, hikoya va inshoga taalluqli bo‘lgan zaruriy materiallar yig‘ishni, materiallarni tartibga solishni, fikrni adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikmalarini, yozilgan matnni takomillashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq 2-sinfda (30-40 so‘zli) matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida bayon yozishga o‘rgatiladi, 3-sinf 40-60 so‘zdan iborat matnning mazmunini jamoa bo‘lib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish, 4-sinfda esa mustaqil tuzilgan reja asosida (70-90 so‘zli) bayon yozish ko‘zda tutiladi. Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta. Bayon bolalarda adabiy nutqni to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayonda o‘quvchi kishilarning mehnatini, hayotini, tabiat manzaralarini, fan-texnika bo‘yicha yangiliklarni aks ettiradigan g‘oyalar asosida bayon mavzusi yoritib beriladi. O‘quvchilar bayon yozish orqali nutqni to‘g‘ri shakllanishiga erishsa, mantiqiy fikrlaydigan rasmlar orqali esa gaplarni bir-biriga bog‘lashni va fikrlash malakalarini oshiradi.

XULOSA

Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan rivojlanish tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir. Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta‘minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o‘z ichiga oladi. U mazmunlilik, mantiqlilik va izchillik bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o‘zlashtirganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ravonlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida so‘zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o‘rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to‘g‘ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan. O‘quv matnlarini

modellashtirish orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli ta'lim texnologiyalari bilan birga o'quv matnlarini modellashtirish asosida qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, yangi tahrirdagi Singapur ta'limi asosida chiqarilgan darsliklarimizda ko'plab matnlar, rasmlar va oynayi jahon orqali berib borilgan onlayn darslar ham o'quvchi yoshlarni tanqidiy va ijobiy fikrlashga undaydi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
3. Qosimova K,S Matchonov Ona tili o'qitish metodikasi Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik.- Toshkent."Nosir"nashriyoti 2009.
4. M.Hamroev,D.Muhammedova Ona tili.-Toshkent,2008.
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

10. Kalandarova D. "Attitude to Uzbek folklore in the research of Karl Reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
14. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
15. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA

*Feruz*a *Burxan*ova,
TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya Mazkur maqolada iste'dodli ijodkor Nazar Eshonqulning adabiy-estetik qarashlari, jahon adiblari ijodiga bag'ishlangan etyudlari talqin etilgan. Kitobda san'at, adabiyot uning inson hayotidagi o'rni, ijod, uning bosqichlari, ilhom, ijodkor shaxsi kabi badiiy ijod psixologiyasiga oid qarashlar, jahon va o'zbek adabiyoti va san'ati namoyandalarining asarlari va shaxsiyatidagi mushtarakliklar, tahlillar, adabiy etyudlar muallifning teran falsafiy mushohadalari, chuqur ilmiy-nazariy tahlillari vositasida ochib berilgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy-estetik tafakkur, Nazar Eshonqul, "Mendan "men" gacha", "Ijod falsafasi", "Kitob bandasi", jahon adiblari, muallif, etyud.

Аннотация В данной статье интерпретируются литературно-эстетические взгляды талантливого художника Назара Эшангула, его этюды, посвященные творчеству мировых писателей. В книге анализируются искусство, литература и ее место в жизни человека, творчество, его этапы, взгляды на психологию художественного творчества, такие как вдохновение, творческая личность, сходство в творчестве и личностях представителей мировой и узбекской литературы и искусства. , литературоведение автора Поясняется, что оно было выявлено посредством глубоких философских наблюдений и глубокого научно-теоретического анализа

Ключевые слова: Литературно-эстетическое мышление, Назар Эшанкул, «От меня к «Я», «Философия творчества», «Слуга книги», мировые писатели, автор, этюд.

Annotation In this article, the literary-aesthetic views of the talented artist Nazar Eshanqul, his etudes devoted to the works of world writers are interpreted. In the book, art, literature and its place in human life, creativity, its stages, views on the psychology of artistic creation such as inspiration, creative personality, commonalities in the works and personalities of representatives of world and Uzbek literature and art, analyzes, literary studies of the author It is explained that it was revealed through deep philosophical observations and deep scientific-theoretical analyses.

Keywords: Literary-aesthetic thinking, Nazar Eshanqul, "From Me to "I", "Philosophy of Creativity", "Servant of the Book", world writers, author, etude.

Adabiy jamoatchilikka iste'dodli ijodkor Nazar Eshonqulning nafaqat nasriy asarlari balki adabiy-estetik qarashlari jamlangan "Mendan "men" gacha", "Ijod falsafasi" nomli adabiy-tanqidiy kitoblari ham ma'lum. Muallifning "Kitob bandasi" nomli asarini ham shunday adabiy-estetik qarashlari sirasiga kiritish mumkin. Kitobda san'at, adabiyot uning inson hayotidagi o'rni, ijod, uning bosqichlari, ilhom, ijodkor shaxsi kabi badiiy ijod psixologiyasiga oid qarashlar, jahon va o'zbek adabiyoti va san'ati namoyandalarining asarlari va shaxsiyatidagi mushtarakliklar, tahlillar, adabiy etyudlar jamlangan. Muallifning teran falsafiy mushohadalari, chuqur ilmiy-nazariy tahlillari, ijtimoiy hayot, davr, inson ruhiyati va adabiyotdagi o'zgarishlarni anglab, uning taraqqiyoti va zavoli haqidagi xulosalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kitob kompozitsiyasi "Kitobdan kitobgacha", "Botin bilan yuzma-yuz", "Kitob bandalari", "Sahifadan tushib qolgan fikrlar" kabi boblardan tashkil topgan. Asarning kirish qismiga muallif ramziy ma'noda "Ostona so'z" deb nom bergan. Ayni shu qismda muallif mazkur kitobni yozishdan maqsadi ko'ngli va dunyoqarashi beg'ubor yosh-avlodni kitobsevarlikka undash va shu orqali inson va uning ko'ngil olamini pok saqlash, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishga chorlash ekanini bayon qiladi. Muallif insoniyatning hamma davrlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan inson mohiyatini va uning ko'ngilini qutqarish kerakligini o'qitadi. Darhaqiqat, insonning ko'ngil olamidan uzoqlashtirish, his-tuyg'u, zavqdan mahrum etish, texnokratlashtirish, "robotga" aylantirish, qalb o'limiga, o'zligidan ayrishga olib keladi. N.Eshanqul XXI asrning ko'ngilni o'ldirishga qaratilgan xuruj va tahdidlaridan, nafsning oqibatlaridan kitobxonni ogoh etadi. Bu fojiani asosiy sababi sifatida insoniyatni kitobdan, adabiyotdan, mutola zavqidan uzoqlashganida deb biladi.

Asarning "Kitobdan kitobgacha" deb nomlangan qismida Avstro-Vengriyalik adib Frans Kafkaning "Jarayon", amerikalik yozuvchi Uilyam Folknerning "Shovqin va g'alayon", irlandiyalik ijodkor Jeyms Joysning "Uliss", fransuz nosiri Marsel Prustning "Zavol topgan vaqt izidan", nemis adabiyotining ulug' namoyandasi Herman Hessening "Cho'l bo'risi", "Biser o'yini" romanlari, amerikalik adib Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz", qissasi, nemis adabiyoti vakili Tomas Manning "Sehrli tog'", "Doktor Faustus" romanlari, fransuz yozuvchisi Alber Kamyuning "Sizif haqida afsona" essesi, "Begona" qissasi, "O'lat" romanlarini, ispan yozuvchisi Migel de Servantes Saavedraning "Don Kixot" romanini, argentinalik ijodkor Xorse Luis Borxesning ijodiy-biografik olami, hikoyalari, fransuz faylasufi, ekzisteansialisti

va yozuvchisi Jan Pol Sharl Emar Sartning “Behuzurlik” romani, avstriyalik adib, essenavis va dramaturg Robert Muzilning “Qiyofasiz odam” romani, Fransiyada yashab ijod etgan argentinalik adib va shoir Xulio Kortasarning “Zabt etilgan uy”, “Tutash xiyobonlar”, “Aksolotl”, “Shayton tupugi” hikoyalari va “Katakalar o‘yini” romani, kolumbiyalik ijodkor Gabriel Garsia .Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” romani, Oruellning “Molxona” qissasi, “1984” romani, yapon yozuvchisi Yusunari Kavabataning “Mingta turna” qissasi, “Shaftoli guli”, “Bambuk sadosi”, “Ko‘zgdagi oy aksi” hiqoyalari, fransuz shoiri Sharl Per Bodlerning “Yovuzlik guli” she’riy tuplami, meksikalik yozuvchi Karlos Fuentesning “Niqobli kunlar” , “Chak Maol” hikoyalari, “Aura” qissasi, “Artemio Krusning o‘limi” romanini, qadimgi afinalik dramaturg Sofokolning “Shoh Edip” tragediyasi, amerikalik adib Devid Zelserning “Alomat” qissasi, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, avstriyalik psixolog Zigmund Freydning psixonalizmga olib kirgan yangiliklari “Tush ta’biri”, “Psixoanalizm asoslari” kabi asarlari, amerikalik nosir Xuan Karlos Onetting “O‘pqqon” qissasi, “Qisqa hayot” romani, Amerika va britaniyalik shoir, dramaturg va tanqidchi Tomas Sternz Eliotning amerikalik ijodkor Uolt Uitmanning “Maysalar qo‘shig‘i”, irlandiyalik dramaturg, shoir va yozuvchi Semyuel Barkli Bekketning “Gadoni kutishayapti”, rummyalialik fransuz dramaturgi Ejen Ioneskoning “Taqirbosh qo‘shiqchi ayol”, “Kursilar”, “Karkidon”, “Burch qurbonlari” ” pesalari, “Uzlatdagi odam” romani, nemis mutafakkiri, shoir, dramaturg, teatr rejessyori, faysasuf Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani, “Faust”dramasi, amerikalik essenavist, yozuvchi va dramaturg Tomas Kleyton Vulfning “Uyga qaytib bo‘lmaydi” romani, amerikalik adib Rey Bredberining “Mars xronikasi”, “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romanlari, fransuz ijodkori Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” qissasi, norveg yozuvchisi Knut Hamsunning “Ochlik” romani, shvesariyalik Fridrix Dyurrenmatt “Avtohalokat” qissa va dramasi, “Shahar”, “Fiziklar”, “Keksa xonimning tashrifi”, “So‘qir”, “It”, “Tunel” kabi asarlari, shved bolar yozuvchisi Astrid Anna Emiliya Lindgrenning “Uzunpaypoq Peppi” ertagi, yapon yozuvchisi Ryunoske Akutagavaning hikoyalari, anglo-irlandiyalik nosir Djonatan Sviftning “Doktor Gulliverning sayohatlari” ertak-romani, va boshqa ijodkorlar asarlarini tahlilga tortib, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, jahon adabiyoti tutgan o‘rni xususida o‘z mulohazalarini bayon etadi. Ta’kidlash lozimki, N.Eshonqul bu kabi jahon adabiyotining durdona asarlarini tahlilga tortar ekan, yozuvchilarning ijodiy biografiyasi, uslubiy o‘ziga xosligi, asarning yozishga turtki bo‘lgan omillar, ijtimoiy muhit, ijod psixologiyasi bilan mushtarak holda qiyosiy tahlillar asosida xulosalar chiqaradi.

Nazar Eshonqul F.Kafkaning “Jarayon” romani haqidagi qarashlarini bayon etishdan avval yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi va adabiyotda inson ruhidagi qo‘rquv va xavotirni tipiklashtirish darajasiga olib chiqqaniga urg‘u qaratadi. F.Kafka asarlarida voqelik va muhit qarshisida qo‘rquvga tushgan qahramonlar iztirobi, kechinmalari tasviri berilishi, adolatsiz jamiyatdan, insonni mute qilishga qaratilgan siyosatdan xavotir va qo‘rquvga tushgan va bu muhitdan begonalashgan insonning tasviri adib asarlarining markaziy qahramonlari hisoblanishi tahlillar bilan bayon etiladi. F.Kafkaning “Jazo kaloniyasi” hikoyasida insonni qul va qurbon qilishga asoslangan mashina va zobit obrazining ramziy-majoziy ifodasini beradi. Zobit o‘zi yaratgan mashinaga muhtalo bo‘lib, uning qurboniga aylangani, jazo mashinasi esa-qahramonni qurshab turgan muhitning ramzi ekanini asoslaydi. Adibni XX asr boshidagi insoniyatni xo‘rlash va jazo berishga asoslangan mafkura va siyosatdan, hali dunyoga noma’lum bo‘lgan fashistlarning konslageridagi jazolash usullari, jazo qurboniga aylanganlar fojiasidan ogoh etuvchi ruhda yozilganini bayon etadi. Shuningdek, Kafkaning “Evrilish” hikoyasidan ham N.Eshonqul o‘zining “Evolyutsiya” hikoyasini yozishda ijodiy ozuqlangan. “Evrilish” hikoyasida Grigori Zamza ertalab uyg‘onganida hashoratga aylanib qolib shu holatida vafot etsa, “Evolyutsiya” hikoyasi bosh qahramoni qo‘zichoqqa aylanib ta’qibchilar changaliga tushadi. Hikoyalarda Inson bo‘lib yashashga imkon, ehtiyoj yo‘qligi, shaxs erki, qadri toptalishi, jamiyatdagi adolatsizliklarni yoritishda har ikkala yozuvchi ramziylik orqali reinkarnatsiya hodisasidan unumli foydalangan. Shuningdek, N.Eshonqulning “Bahouddinning iti” hikoyasi bosh qahramoni voqea davomida ruhan itga yaqinlashib, so‘ng g‘ayritabiiy holatda itga aylanib ketishi majoziyashtirilgan. Mazkur hikoyada ham avvalgi hikoyalarning g‘oyaviy-konsepsiyasi, ifoda yo‘nalishiga ko‘ra uyg‘unliklar uchraydi. “Umumlashtirib qaralganda hikoyada inkor va begonalashuv jarayoni badiiy voqelanadi. Odam jamiyatdan qaytib uzlatga chekinadi. Mavjud voqelikdagi qonuniyatlar, mezonlar va taqiqlardan yuz o‘giradi”, degan fikrlarni ilgari suradi bu haqda olim”¹⁵. Demak, hikoyalardagi g‘oyaviy-konsepsiya, syujet yaratish, ramziy-majoziylik va reinkarnatsiya hodisalarini qo‘llashda N.Eshonqul va F.Kafka asarlarida mushtaraklik bor. “Jarayon” romanidagi absurd holat tasviri ham N. Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li yohud hayot suvi” romanidagi o‘z mavjudligini isbotlolmay tanazzulga yuz tutgan inson qismati bilan uyg‘un. G‘oyaviy-konsepsiya, syujet, obrazlar va ularning nomlanishlaridagi o‘xshashliklar N.Eshonqulning avstralyalik adib F.Kafkadan ijodiy ta’sirlanganini ko‘rsatadi. “Jarayon” romani syujetida ham noma’lumlik, mavhumlik sababli K. o‘ziga qo‘yilgan aybni nima ekanligini bilmay

¹⁵ Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Ф.Ғулом, 2015. – Б. 223-224.

idorama-idora sarson-sargardon kezishi tasvirlansa, N.Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li yohud hayot suvi” nomli romanida ham inson va uning o‘zligini namoyon etish, mavjudligini isbotlashdagi kurash va tanazzuli badiiy tadqiq etiladi. Har ikkala roman qahramonlarini nomlanishida ham o‘xshashliklar bor. “Jarayon”da K “Go‘r o‘g‘li yohud hayot suvi” romanida N. (Muallifning o‘z ismlari K.Kafka ismiga ishora bo‘lsa, N.Nazar Eshonqul isiga monand tanlangan bo‘lishi ham mumkin - F.B) Yozuvchilarning g‘oyaviy-konsepsiyasida ham uyg‘unlik mavjud. Har ikkala asarda ham qadrsiz insonning fojiaiy qismati qalamga olinadi. Biroq har ikkala yozuvchining uslubi turfa xil. Kafka uslubiy o‘ziga xosliga haqida to‘xtalgan N.Eshonqul : “Kafkaning tilida hech qanday obrazlar, o‘xshatishlar, mengzashlar, bezashlar, ohangga urg‘u berishlar, metofora, metonimiyalar, hissiy kechinmalar, ehtiroslar tasviri uchramaydi. Uning tili sovuq, axborot va holatni aks ettiradi, xolos”¹⁶ deya to‘xtalar ekan, u inson qarshisida turgan yovuzlikni yengib o‘tishiga ishonmasligini, insonni tahlikaga solayotgan hikmat-majozlarni yaratganini ta’kidlaydi. Shu jihatdan F.Kafka asarlaridagi tushkun ruh, absurd hayot tasviri ifodalanadi. N.Eshonqul asarlari ifoda yo‘nalishi, ramziy-majoziylik kasb etishida K.Kafka asarlariga o‘xshashlik uchrasa-da mohiyatida hayotbaxsh g‘oyalar yetakchilik qiladi. Umuman olganda, yozuvchining bir turkum asarlarida G‘arb adabiyotiga xos g‘oyaviy motivlar uchraydi. Biroq, adib asarlarida G‘arb modernizmiga xos bo‘lgan yetakchi xususiyatlar, falsafiy, ijtimoiy g‘oyalar, jumladan, absurd, ayniqsa, tushkunlik psixologiyasi yetakchilik qilmaydi. Yozuvchining G‘arb modernistlari ta’sirida yozgan asarlarda ham hayotbaxsh g‘oyalar yetakchilik qiladi. N.Eshonqul ijodining muhim xususiyatlaridan biri ham shundadir. N.Eshonqul asarlarida manzaralar, detallar, ranglar, tovushlar, hidlar, vayronalar tasviri, suratlar va boshqa poetik unsurlarning metaforiklik kasb etib, katta badiiy mazmunni ifoda etadi. Yozuvchi asarlarida tasvir ifodasidagi tiniqlik, so‘z vositasida chizilgan manzaralarning rang va hidlarigacha sezilib turishi, ortiqcha hashamdorlikning yo‘qligi, ko‘pso‘zlikdan qochish, ba’zan butun boshli jumlaning metaforaga aylantirilgani aynan unga xos tipik holat hisoblanadi.

N.Eshonqul modern yo‘nalishda yozilgan, o‘z vaqtida ta’qiqlangan irland yozuvchisi Jeyms Joysning “Uliss” romani poetikasi tahliliga ham o‘ziga xos yondoshadi. Dastaval asarning 1922- yil Fransiyada bosilib chiqmasidanoq ta’qibga duchor bo‘lgani, asar dunyo adabiyotida inqilobiy o‘zgarishlar yasagani haqida to‘xtalib, Blum obrazining yozuvchi istehzoli kinoyasi asosida yaratilganiga urg‘u beradi. Joys jahon adabiyotida birinchilardan bo‘lib, oddiy meshchanni ham xuddi Odessey kabi asarga qahramon bo‘la olishini isbotladi. Bu orqali klassitsizm

¹⁶ Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademyashr, 2022. – B. 44.

tamoyillari zid tarzda dunyo adabiyotiga yangi tamoyillarni olib kirdi. N.Eshonqulning fikricha F.Kafka Blum obrazi misolida insoniyatning barcha nuqson-u fazilatlarini, magʻlubiyati-yu, yutuqlarini ifodalay oldi, roman olam va odamga munosabatni, mavjud qarash va tushunchalarni, dunyoni oʻzgartirish qudratiga ega, dunyo adabiyotida inqilobiy oʻzgarishlar yasagan asar sifatida yuksak baholanadi. N.Eshonqul Blumni zamonaviy Odessiy deya taʼriflab, Blum va Oddessey obrazlarini qiyosiy tahlil qiladi. Odessening Troyadan qaytishdagi qahramonligi va sarguzashtlaridan Blumning uyga qaytishdagi sarguzashtlari kam emasligini yozar ekan, mazkur obrazning qahramonligini XX asrning tafakkur va yashash tarziga, qahramonlik tushunchasiga xos sarguzashtlarni boshidan kechirganida deb biladi. Roman koʻplab badiiy janr va yoʻshnalishlarning sintezlashuvidan hosil boʻlgani, inson ong-u shuurini xuddi mikroskop orqali koʻrayotgandek tasvirlangani, romanda ichki monolog eng yuqori maqomga olib chiqilgani, adib xronologik vaqtni oʻz gʻoya va konsepsiyalarini amalga oshirmaguncha toʻxtatib qoʻyganini, zamon tushunchasining chegarisini buzganini oʻrinli eʼtirof etadi. Maʼlumki, Joysning mazkur romani syujeti voqealari bir kunda, yaʼni 1904-yilning 16-iyun sanasida sodir boʻladi. Nega aynan mazkur sana tanlanganiga ham munosabat bildirib, yozuvchining biografiyasi bilan bogʻlab javob berishga, oʻz farazini ilgari surishga urinadi. Unga koʻra aynan shu sanada Joys boʻlajak rafiqasi Nora bilan tanishib oʻz vatani Irlandiyani tashlab ketishga qaror qiladi va shu kuni hayotining eng mashʼum kuni beb bilgani bois ayni shu sana tanlangan boʻlishi ehtimoli bor. Mazkur qarashda mantiqiy asos bor. Zero, yozuvchi romanda oʻz davri ijtimoiy-maʼnaviy muammolarini Irlandiyaning poytaxti hisoblangan Dublin shahrida Blumning bir kunlik sarguzashtlari, ong osti kechinmalari, xotiralari misolida ramziy tasvirlab bera olgan. Maʼlumki, neomifologizm XX asr sanʼat va adabiyotida badiiy tafakkurning eng xarakterli shakli deb hisoblaydigan tushuncha boʻlib, adabiyot va sanʼatda neomifologizm mifologizmni (mif bilan korrelyatsiyani) ifodalaydi¹⁷. Neomifologizm badiiy tafakkurning XX asrga xos shakli, mifologik syujetlar, obrazlar va ramzlarga alohida munosabatni nazarda tutadi ular koʻpaytirilmaydi, ijro etilmaydi yoki qayta yaratilmaydi va shu bilan zamonaviylik bilan bogʻliq yangi afsonalarni keltirib chiqaradi¹⁸. Demak, neomifologizmning konsepsiyasiga koʻra, qadimdan mavjud boʻlgan mif va afsonalarning syujeti, obrazlari, ramz va majozlarning yangi yaratilgan asarda sintezlashuvi va buning natijasida ijodkor qadim inson tasavvuri va muammolari bilan bugungi insonning intellekti, dard-u tashvishini muqoyasa qilib, hayot maʼnisini anglatishga urinadi. Ayni shu hol tahlilimizdagi “Uliss” asarida ham

¹⁷Бу ҳақда қаранг:https://dic.academic.ru/dic.nsf/rus_orthography/

¹⁸ <https://rus-literary-criticism.slovaronline.com/208>

uchraydi va mif-roman deb ta'riflanadi. N.Eshonqul ham mazkur jihatlarni e'tibordan chetda qoldirmaydi. "Roman tuzilishi va syujet yo'nalishiga ko'ra Gomerning "Odissey" dostoni bilan o'xshash. Aslida, Joys bu asarida XX asrning o'ziga xos "Odissey" sini -mifini yaratishni maqsad qilgan va asar ichidagi voqealar antik mifning syujet yo'nalishiga to'liq bo'ysundirilgan"¹⁹. N.Eshonqul romanni "Odissey" dostoni bilan qiyoslash asnosida, asarning uch qismdan iborat 18 bobidagi har bir voqeasining har bir antik doston boblariga qoliplashtirilgani, buning natijasida Joys antik odamning orzu-umidi va yashash tarzi, hayotdan maqsadi bilan XX asar avlodining hayot tarzi, ma'naviy olamini qiyoslab, insoniyat o'tgan mingyillikda nimalarga erishgani-yu nimalarni yo'qotgani, insoniylikni mohiyatini qay tarzda ilg'ayotgani, miqlar davridan buyon insonning ong-u shuuri o'sdimi, insonni qiynagan muammolar bugun barham topdimi yohud xali ham muammolar qurshovidami kabi savollarga istehzoli javob berishi bayon qilinadi. Dunyo adabiyotida Joys insonning murakkab ruhiyatini chuqur tahlil qilib, ifodalay olgan ruhiyat musavviri sifatida e'tirof etiladi. Joysning inson ruhiyatini aks ettirish mahorati xususida to'xtalgan N.Eshonqul inson tuyg'ulari va mayllarini xuddi ko'zgudagidek aniq aks ettirish usuli kitobxonni hayratga solishini yozadi. E'tiborlisi shundaki, N.Eshonqul asarning nuqsonlari haqidagi qarashlarga ham munosabat bildirib, asarda hayotni faqat qora tomonlarigina emas, balki yosh ijodkorlar Joysning yuksak poetik mahoratni namoyon etuvchi jihatlardan, jumladan, ichki kechinmalarni aks ettirish usuli, so'z qo'llash va voqelikka yondashuv, qahramonlar ichki dunyosiga kirish va tadqiq etish, asarga mifologik qoliplar yasash, mifologik talqinlarni singdirish kabilarda o'rganish mumkinligini qayid etadi. Ma'lumki, ijodkorning uslubiy individualligini namoyon qiluvchi omillarning orasida eng asosiylaridan bir so'z qo'llash mahorati va poetik tili hisoblanadi. Shu ma'noda Joys tili ham betakror. N.Eshonqul Joys tilini shoirona, stixiyali tildir deb ta'riflaydi. Mazkur asarda ham adib 30 mingdan oshiq so'zni ishlatgan bo'lsa, shulardan teng yarmini bir marta qo'llagani tadqiqotlardan ma'lum. Ingliz yozuvchilari G.Uells, Virjiniya Vulflarning yozuvchi poetik mahorati va romanning o'ziga xos yutuqlari haqidagi tanqidiy qarashlariga ham munosabat bildiradi. Xulosa qilib, asar hayotni faqat qora tomonlarinigina aks ettirmay, insonni azal va abad, ibtido va intiho oralig'idagi ong osti kechinmalarini yozuvchi o'zi kashf etgan murakkab, yasama tili vositasida ifodalanishini yozadi. Asarning estetik qiymati va kitobxon badiiy tafakkuri yuksalishiga xizmat qilishini faqat vaqt nomli oliy hakam belgilashi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Shu nuqtai nazardan yondoshsak "Uliss" romani 100 yillik vaqt sinovidan o'tgan, inson ruhiyatini chuqur tahlil eta

¹⁹ Eshonqul N. Kitob bandasi. – Toshkent: Akademyashr, 2022. – B. 51.

olgan, polefonik talqinlarga sabab bo'lgan murakkab asar sanaladi. Ta'kidlash kerakki, asarda kitobxonni badiiy didini sundiruvchi va mentalitetimizga yot bo'lgan ayrim ochiq tasvirlar qo'llanilgan o'rinlar bor. Bunday tasvirlar orqali adib ma'naviy tanazzulni fosh qilishga urinadi.

Kitobda XX asr jahon adabiyotining katta yutug'i sifatida baholangan fransuz yozuvchisi Valentin Lui Jorj Ejen Marsel Prust qalamiga mansub bo'lgan "Zavol topgan vaqt izidan" romani ham tahlilga tortilgan. Ma'lumki, mazkur roman-epopeya ong oqimi rivoya texnikasi vositasida assotsiativ syujet tipiga (voqelik xotira, his-tuyg'u, kesinmalar orqali ifodalanadi) asoslangani, til, tasvir imkoniyatlari betakrorligi bilan jahon adabiyotida nufuzli mavqeni egallagan. N.Eshonqul ushbu asarni tahlilga tortar ekan, asarni yozilish jarayoni, yozuvchi shaxsiga xos xususiyatlar, romanning kompozitsiya va syujeti, uslubi, badiiy tilidagi novatorlikni Prustning o'z adabiy-estetik qarashlari bilan bir butunlikda ochib berishga xarakat qiladi. 1913-yilda yetti kitobdan ("Svana bo'ylab", "Hermantlar xonadonida", "Sodon va Gomorra", "Qochoq qiz", "Asira", "Qiz chexrasiga yashiringan gullar", "Vaqt mahkumlighi") iborat epopeyani birinchi qismini o'z hisobidan chop ettirgan Prust adabiy jamoatchilikning mazkur asarga bee'tiborligiga, sog'ligi yomonligiga qaramasdan tashqi olamdan uzulib deraza va devorlarini qalin mato bilan o'rab ichki olami manzaralarini tasvir etishga kirishadi. Romanning asosiy xususiyati ham inson qalbi, hissiyot xotiralari, ong osti kechinmalarini batafsil tasvir etilgani bilan belgilanadi. N.Eshonqul bu haqda to'xtalar ekan, Prust epopeyasiga asos bo'lgan omillar haqida quyidagilarni bayon etadi: "Romanda yozuvchi idrokning eng chuqur va mantiq yetib bormaydigan qatlamlarini ochib olib, u yerdagi shuur o'zgarishini- tuyg'u, zavq, mayl, kechinmalarga aylanish jarayonini birma-bir tasvirlab berayotgan suratchiday taassurot qoldiradi"²⁰. Romanning o'ziga xosligi ham shunda. Ya'ni adib botiniy olami tasviriga asoslanadi. N.Eshonqul romanda Prustning har qanday fikr inson kechinmalari mahsuli, inson tafakkuri ana shu kechinmalar mujassami, hosilasi, tafakkurni bilish uchun uning ichki kechinmalarini o'rganish zarur²¹ degan irratsionallikka asoslangan qarashini sharqqa xos falsafa bilan bog'lab, inson qalbidagi o'zgarishlar uning tafakkurini belgilashi, qalb go'zalligi haqiqiy go'zallik degan sharqona xulosani romanga singdirilganini ochib beradi. Prustning ijod va ijodkorlikning inson hayotini mazmuni ekani haqidagi qarashlarini tahlilga tortgan N.Eshonqul romanning oxirgi kitobi "Vaqt mahkumlighi"da asar qahramoni tilidan bayon etilgan hayotning ma'nosi ijoddir, ijodsiz, ijodkorsiz insonda va uning hayotida, intilish va maqsadlarida hech qanday mohiyat va ma'no qolmaydi, ijodgina inson va hayotga ma'no bag'ishlaydi, inson faqat ijod va ijodiy

²⁰ Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 57.

²¹ Бу ҳақда қаранг: Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 58.

zavq bilangina vaqt, umr zavolidan xalos bo‘la oladi degan fikrini yozuvchining dunyoga va insoniyatga qoldirgan hayot, mavjudlikning mohiyati haqidagi xulosalaridir deb bayon etadi. Aslida, ijod-yangilik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ilohiy in‘om sanaladi. Prustning ijod-hayotning mohiyatidir degan qarashi insoniyatni yaratuvchilikka chorlovi bilan ham muhim ma‘rifiy ahamiyat kasb etadi. Prustning inson faqat ijod va ijodiy zavq bilangina vaqt, umr zavolidan xalos bo‘la oladi degan fikri romanni “Zavol topgan vaqt izidan” deya nomlanishiga ham asos bo‘lgandir, ehtimol. Zero, inson o‘z umrini faqat yaratuvchiligi, qilgan ezgu amallari bilan boqiylikka daxldor etadi.

Nazar Eshonqul asar bosh qahramon Marsel obrazini tahlilga tortar ekan, yozuvchi Marsel obraziga nafaqat o‘z ismini bergani, balki butun biografiyasini, tuyg‘u-kechinmalarini singdirganini, roman Marsel Prustning shaxsiy kechinmalari stenogrammalari, fotosuratlariga o‘xshashini tahlillar bilan asoslaydi. Aslida ham har bir asar yozuvchi tuyg‘ulari-kechinmalari mahsuli sanaladi. Biografik tahlil tamoyillari asosida asarni tahlilga tortish asarni yozuvchi shaxsi bilan bir butunlikda qayta kashf etish, haqqoniy-qiziqarli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Muallif shaxsiyatini chuqurroq o‘rganish, uning dunyoqarashi, orzu-armonlari, istak-intilishlari, tuyg‘u-kechinmalarini qay tarzda badiiy asarda voqealanishi tadqiq etish, badiiy asarni yozilish jarayoni, g‘oyani tug‘ilishiga asos bo‘lgan omillar, ijodkorning ijodiy konsepsiyasini anglash bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Biografik yondashuv nafaqat yozuvchi shaxsi va badiiy asarni bir butunlikda o‘rganishga balki muhim haqqoniy xulosalar chiqarishga ham zamin yaratadi. Shu jihatdan N.Eshonqulning epopeya tahlilidagi yondashuvlari muhim va asosli. Prustning yirik jumla tuzishdagi novatorligi sababi haqida to‘xtalgan muallif, Tolstoy, Zoliya, Folkner, Gofman kabi yozuvchilar ijodida ham bunday holat uchrashini ta‘kidlaydi, hamda qiyosiy tahlillar vositasida Prust mahoratini ko‘rsatadi. Tolstoy va boshqa adiblar yirik jumlaning tashqi detallar, naturalistik tasvirlar hisobiga boyitgani, Prust esa ichki kechinmalar hisobiga boyitganini asoslaydi. Prustning badiiy mahorati ham, yirik jumla tuzishdagi novatorligi ham inson ichki kechinmalarini har xil tasvirda aks ettira olganida, qahramon qalbida yuz beradigan dialektik holatlarning barcha qirrasini qanday yuz bersa shundayligicha tasvirlay olishida deb biladi. N.Eshonqul “Zavol topgan vaqt izidan” romani faqat kechinma va hislar, kayfiyat, mayllar va xotiralarga qurilganiga urg‘u qaratib, bu asar jahon adabiyotini yana bir pog‘onaga kutargani, uning tasvir imkoniyatlarini kengaytirganiga to‘xtalib: “Prust adabiyotni inson hayoti va faoliyati in‘ikosi degan qarashni adabiyot – inson mayllarini, kechinmalarini o‘rganuvchi fan va

bu fan inson haqida eng to‘g‘ri xulosa bera oladi degan tushuncha bilan boyitganini”²² bayon etadi. Prustning adabiyotning mohiyati haqidagi qarashlari psixoanalizmga asoslangan bo‘lib, adabiyotni insonshunoslik ilmi ekanini tasdiqlaydi. Nazar Eshonqul ham buni o‘rinli ta’kidlab Prust ushbu asar orqali psixologik roman janrini boshlab bergani, ong oqimi uslubini adabiyotga dadil olib kirganini, uning psixoanalitik uslubini keyinchalik Joys davom ettirgani haqidagi mulohazalarini bayon etadi. “Zavol topgan vaqt izidan” romanini jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri sifatida baholaydi. Asarning “Kitob bandalari” qismida o‘zbek ijodkorlari va munaqqidlarining badiiy va ilmiy merosi tahlilga tortilgan. “Sahifadan tushib qolgan fikrlar” bo‘limida esa N.Eshonqulning adabiy-estetik qarashlari falamga olingan. Umuman, mazkur kitob Nazar Eshonqulning jahon va o‘zbek adabiyotining bilimdoni, chuqur ilmiy-tanqidiy tafakkur sohibi ekanidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. BURKHANOVA, F. The Use Of Myths And Legends In Creation Of Story In Modern Uzbek Prose. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(2), 2795-2800.
2. The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons //Journal of critical reviews, 2020. – №5. – Б. 1631-1641
3. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. –Б.354.
4. Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Ф.Фулом, 1989. – Б. 262.
5. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akadernashr, 2010. –Б. 400.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2018. – В. 480 б.
7. Эшонқул Н. Сайланма II.– Тошкент: Akadernashr, 2022. – Б. 576.
8. Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akadernashr, 2022. – В. 416.

Интернет сайтлари:

9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v47kHwYAAAAJ&citation_for_view=v47kHwYAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
10. <https://rus-literary-criticism.slovaronline.com/208>
11. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
12. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР

²² Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akadernashr, 2022. – В. 61.

13. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
14. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence // Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
15. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
16. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
17. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
18. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
19. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
20. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
21. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
22. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
23. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida)

Dilafro‘z Qalandarova,

*Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek adabiyoti
va uni o‘qitish metodikasi kafedrasasi dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada epik janrlarning eng yirigi hisoblangan doston janrining xorijda tadqiqi etilishi, jumladan nemis olimi professor Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni versiyalari tadqiqiga bag‘ishlangan mulohazalari haqida so‘z yuritilgan.

Abstract: This article talks about the study of the epic genre, which is considered the largest of the epic genres, including the comments of the German scholar Professor Karl Reichl on the research of the versions of the epic “Alpamish”.

Kalit so‘zlar: epik janr, doston, tarjima, tadqiq, variant, versiya, qiyosiy tahlil.

Keywords: epic genre, epic, translation, study, variant, version, comparative analysis.

Mashhur nemis olimi, akademik Karl Rayxlning o‘zbek xalqining mashhur qahramonlik eposi – “Alpomish” dostoni haqida e‘lon qilgan o‘nlab ilmiy maqolalari, kitoblari alohida e‘tiborni tortadi [1, 2, 3, 4, 5.]. Xususan, uning 2001-yilda yaratgan “O‘zbek qahramonlik eposi” – “Alpomish”: tadqiqot, matn, tarjima” (Das uzbekische Helden epos Alpomish: Einführung, Text, Übersetzung) nomli yirik monografiyasi, “Turk eposi: an‘ana, shakllar, poetik struktura” (“Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура”) nomli monografiyasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek dostonchiligining shoh asari – “Alpomish” dostoni tadqiqiga bag‘ishlangani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, yana olimning “Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure” kitobining Story – Patterns deb nomlangan oltinchi bobining uchinchi faslida “Alpomish and return of the hero” (Alpomish va qahramonning qaytishi) va “Transformations in Space and Time” nomli “makon va zamon” masalasi o‘rganilgan o‘ninchi bobining ikkinchi faslida ham “Alpomish” dostonining turli davrlarda yozib olingan variantlari haqida alohida fikr yuritilgan.

Doston yuzasidan qilingan tadqiqotlar doirasida Karl Rayxlning “Qahramonning qaytishi: Alpomish, Arastu va epos” (“The Return of the Hero: Alpomish, Aristotle and the Oral Epic”) nomli ilmiy maqolasi ancha e‘tiborli bo‘lib, uni ayrim qisqartirishlar bilan ingliz tilidan Gulhayo Mahamadaliyeva tarjima qilgan va “Yoshlik” jurnalining 2018-yil 6-sonida e‘lon qilgan [6.]. Maqola “Alpomish” dostonining paydo bo‘lishi,

tarqalishi, undagi ayrim an'anaviy motivlarning genezisi va mazmun-mohiyatiga hozirgi G'arb olimlarining hamon qiziqib qarayotganini dalillashga xizmat qiladi.

Karl Rayxl o'z ilmiy faoliyati davomida "Alpomish" dostoni bilan bog'liq quyidagi ishlarni amalga oshirdi:

1. "Alpomish"ni aslyatdan (o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq, uyg'ur, tojik tillarida) o'rgandi.

2. "Alpomish" variantlaridan birini o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qildi.

3. "Alpomish" dostonini vatani Germaniyada chop qilib, ilmiy jamoatchilik, keng kitobxonlar ommasini ushbu doston bilan tanishtirdi.

4. "Alpomish" dostoni bilan bog'liq poetik an'analarni, dostonning badiiy qurilishini, uning ijrochilari mahoratini ilmiy tadqiq etib, xulosa va natijalari yuzasidan ilmiy maqola hamda monografiyalar yaratib, xorijiy folklorshunos olimlar hukmiga havola qildi.

Buning uchun u dastlab "Alpomish" dostonining 1982-yilda chop etilgan Leningrad nashriga tayanib ish yuritgan. Uning "Бесмертный памятник узбекского народа", ya'ni "O'zbek xalqining o'lmas yodgorligi" nomli kirish maqolasini nemis tiliga tarjima qilib, "Turkologiya materiallari" to'plamida 1984-yilda nashr qildirgan.

Olimning "O'zbek qahramonlik eposi" "Alpomish": tadqiqot, matn, tarjima" (Das uzbekische Helden epos Alpomish: Einführung, Text, Übersetzung) monografiyasiga "Für Arthur Hatto" (Ustoz ham do'st) – "Ustoz otangdan ulug'" maqoli epigraf qilib olingan. Sababi shuki, mazkur kitobda T.Mirzayev aytib o'tganidek, "Alpomish" dostoni misolida xalq baxshilarining ustoz-shogirdlik munosabatlari, baxshilar epik repertuarining shakllanishi va boyib borishi masalalari tadqiq qilingan. Shu ma'noda monografiyaga yuqoridagi epigraf juda mos tanlangan va o'ziga xos muhim ramziy ahamiyat kasb etgan.

Monografiyaga tadqiqot obyekti sifatida dostonning taniqli baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan varianti bilan Saidmurod Panoh o'g'li varianti tanlab olinib, tahlilga tortilgan. Shundan Saidmurod Panoh o'g'li varianti dostonning qirqdan ortiq varianti orasida eng qisqa, badiiy jihatdan birmuncha yuksak bo'lganligi uchun tarjima qilishga tanlangan va monografiyaning maxsus bir bobi uning o'rganilishiga bag'ishlangan.

"Alpomish": tadqiqot, matn, tarjima" kitobida quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan:

- a) o'zbek xalq epik an'alarining o'ziga xos xususiyatlari;
- b) baxshining o'zbek xalqining madaniy hayotidagi o'rni;
- v) dostonning kompozitsion qurilishi;
- g) dostondagi yetakchi motivlar talqini;

d) dostonning versiya va variantlari tahlili.

Karl Rayxl "Alpomish" doston variantlarining jonli ijrosida, epik matn tilida har bir hududga xos bo'lgan kuy, sheva xususiyatlari va baxshichilik an'analarning mavjudligini urg'ulaydi. O'z tahlillari jarayonida epik matnda ishlatilgan ayrim so'z va iboralarning izohiga ham alohida e'tibor bilan yondashadi. Dostondagi an'anaviy doimiy takrorlanib keluvchi misralarning epik matndagi o'rnini atroflicha tahlil etadi.

11. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence // Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

12. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
13. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
14. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
15. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
16. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
17. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
18. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
19. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
20. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NIMCHA SO‘ZINING TURLI XIL SHEVALARDA TURLICHA ISHLATILISHI

*Zarifa Norqobilova,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,
Mohira Jabborova,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda faqatgina bir kiyimning O‘zbekistondagi viloyat va tumanlar kesimida nomlanishi haqida ma’lumot berilgan. Hozirda bu kiyimning zamonaviy variantlari ko‘p. O‘zbekistonda bu kiyimni tikib sotish bilan mashhur bo‘lgan tumanlar ham yetarlicha. U tumanlarda bu kiyimning har xil variantlari bor. Maqolamizda keltirilgan har bir so‘z atroflicha o‘rganilib, izohlarni ham talab etishi mumkin. So‘zlarning kelib chiqishi ya’ni etimologiyasini tahlil qilish yoki leksik-semantik jihatdan tavsiflash ham ushbu maqolamizda keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Sheva, nimcha, durracha, ipak, paxta, kamzul, kurtacha, sinacha.

Kirish

Sheva tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi – sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanadi. Azal-azaldan shevashunoslik fani qiziq va bahs-munozarali hisoblanadi. Jumladan qipchoq, qarluq hamda o‘g‘uz lahjasida uchraydigan turli shevalarga oid so‘zlarning etimologik hamda leksik-semantik tahliliga to‘xtalamiz. Ushbu maqolada faqatgina bir kiyimning O‘zbekistondagi viloyat va tumanlar kesimida nomlanishi haqida ma’lumot berilgan. Hozirda bu kiyimning zamonaviy variantlari ko‘p. O‘zbekistonda bu kiyimni tikib sotish bilan mashhur bo‘lgan tumanlar ham yetarlicha. U tumanlarda bu kiyimning har xil variantlar bor. Quyida shu so‘zlar bilan tanishib chiqamiz.

Nimcha (نیمچه -yarimta; kalta kiyim) – ko‘ylak ustidan, kostyum, kamzul ichidan kiyiladigan yengsiz va yoqasiz kalta va ixcham kiyim (asosan, xotinlar kiyadi). Egnida uzun qizil shohi ko‘ylak, kimxob nimcha, boshida shaftolirang yorqin tovlangan ipak durracha (Oybek, Tanlangan asarlar).

Bu kiyim yengsiz, belgacha uzunlikda yoki undan ham ozgina uzunroq bo‘ladi. Astar ichida ingichka paxta to‘shab tikilib qoviladi. Ba’zilar esa paxtasiz ham bo‘ladi. Endi bu kiyimimizning shevalarda nomlanishi haqida gaplashamiz.

Nimcha- Jizzax viloyatining Arnasoy, Baxmal, Zomin tumanlarida, Toshkent shahrida, Namangan shahrida, Qashqadaryoning Qarshi shahrida, G‘uzor, Nishon tumanlarida, Farg‘ona viloyatida, Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida, Qumqo‘rg‘on, Angor tumanlarida, Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanida, Andijon viloyatining Asaka tumanida, Buxoro shaharda, Samarqand viloyati Toyloq tumanida;

Guppicha- Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Qamashi, Yakkabog‘, Kitob, G‘uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida, Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanida (gupicha), Termiz shahrida, Oltinsoy tumanida;

Jakt, jilitka- Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida;

Jaket - Xorazm viloyatining Urganch shaharida, Xonqa, Yangibozor tumanlarida, Surxondaryoning Termiz shahrida, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanida ham jaket deb yuritiladi.

Jalabka- Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida;

Guppacha- Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanida;

Jolobka- Xorazm viloyati Xonqa tumanida;

Jallabka – Xorazm viloyati Xiva tumanida;

Kurtacha- Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘, G‘uzor tumanida;

Kultacha - Qarshi Beshkentda;

Kuttacha – Qarshi tumanida;

Qovmali kamzul- Farg‘ona viloyati Buvayda tumanida, Marg‘ilon shaharda,

Askarcha– Surxondaryoning Termiz shahrida;

Kaltacha – Jizzax viloyati G‘allaorol, Baxmal tumanida, Jizzax shahrida, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om tumanida;

Kamzulcha – Toshkent viloyati Bekobod tumanida, Samarqand viloyati Toyloq tumanida, Buxoro viloyatida;

Sinacha – Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida, Navoiy viloyati Xatirchi tumanida,

Kamzul – Andijon viloyatining Izboskan, Asaka tumanida, Namangan shahrida, Norin tumanida, Farg‘ona tumanida;

Kamzur – Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida;

Nimta – Samarqand viloyati Payariq, Ishtixon, Qo‘shrabot, Pastdarg‘om, Toyloq tumanida, Jizzax viloyati Baxmal tumanida, Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanida;

Choponcha – Jizzax shaharda, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida;

Yengsiz – Shahrisabz tumanida;

Qovma kamzil - Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahrida;

Guppi - Qumqo‘rg‘on tumanida, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida; Nukusda qadimda.

Paralon – Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida;

Tartibcha- Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanida;

Ichik- Buxoro shahrida;
Ichakcha- Buxoro viloyati G'ijduvon tumani, Navoiy viloyatida;
Belcha- Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida;
Nimtana – Jizzax viloyati Baxmal tumanida;
Beyingcha – Buxoro viloyati Shofirkon, G'ijduvon tumanida;
Mastakcha- Samarqanda viloyati Tayloq tumani
Bezirkafka- Samarqand viloyati Toyloq tumanida, Namangan viloyati Norin tumanida;
Pantalon- Qahqadaryo viloyati G'uzor tumanida;
Ichakcha – Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida;
Qo'ltiqcha - Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida
Guppi – Qahqadaryo viloyati Kitob tumanida;
Jiletka- Toshkent viloyatida;
Beyeng chopon- Navoiy viloyatida shunday nomlamadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shevashunoslik, ayniqsa bir so'zning turli shevalarda turlicha ishlatilishi biz filologlar uchun juda qiziq hisoblanadi. Bu esa, so'zning asl ma'nosini topishga va tahlil qilishga chorlaydi. Chunki, har qanday tushunarsiz bo'lgan so'z tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Negaki, shevalar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni oddiy fuqarolar, ya'ni ko'pchilik bilmasligi mumkin. Bizning yuqoridagi maqolamiz ana shunday muammolarga yechim berishda ahamiyatli hisoblanadi.

1. Chet elliklar uchun mutlaqo notanish hisoblangan shevaga oid so'zlarni lug'atini berish.

2. Shevaga oid so'zlarni lug'atini berishda lahjalarga e'tibor qaratish, ya'ni alohida-alohida shaklda 3 ta shevani tartib bilan keltirish. Bu lug'atlar orqali bizning yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijlik mehmonlarda uchrayotgan tushunmovchiliklar bartaraf etilardi. O'zbek shevalarini o'rganishda G'ozi Olim Yunusov, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishayev, O.Madrahimovlar katta hissa qo'shdilar.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. M. Vohidov «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanma T.: «O'qituvchi» 1982-yil 602 bet
2. A. V. Petrovskiy va boshqalar. «Umumiy psixologiya» darslik T.: «O'qituvchi». 1992-yil 334 bet
3. P. I. Ivanov. «Umumiy psixologiya» darslik T.: 2007-yil 480 bet.
4. E. G'oziev. «Psixologiya» darslik. «O'qituvchi» nashriyot matbaa ijodiy uyi T.: 2008-yil 167 bet.

5. N. Egamberdieva «Ijtimoiy pedagogika» darslik T.: «A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi» 2009-yil 303 bet.
6. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, M. A‘zamova «Maktabgacha pedagogika» T.: “Ma‘naviyat” 2013-yil 683 bet.
7. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
8. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
9. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
10. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
11. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
12. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
13. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
14. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
15. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
16. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
17. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
18. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
19. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

NISHOTIYNING “HUSNU DIL” DOSTONIDA AXLOQIY –TA’LIMIY G’OYALAR TASVIRI VA TAHLILI.

*Zarifa Norqobilova,
O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi
Aziza Toshboyeva,
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya Mazkur maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni haqida fikrlar yuritiladi. Taklif va mulohazalar keltiriladi. Doston qahramonlari Fuod (arabcha, ko‘ngil) Husn, Aql, Ishq, Nazar, Himmat, Sabr, Vafo, Hayol, G‘amza, Raqib, Nomus kabi ramziy timsollar orqali muallifning axloqiy-ta’limiy g‘oyalari ifodalangan. Qolaversa, bu asar mumtoz adabiyotimizdagi eng durdona asarlar sirasiga kiradi. Inson tuyg‘ulari o‘rtasidagi bahs-munozaralar, tortishuvlar va oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi tasvirlari asarni qiymatini oshirib beradi, hamda kitobxonni zeriktirmaydi, aksincha fikrlashga, halol mehnat qilishga, sabrli bo‘lishga chaqiradi. Ana shunday qiziqarli va mazmunli asarlar yoshlarni yanada mushohada qilishga chorlaydi. Hozirgi zamonda dolzarb masalalardan biri sifatida o‘qitish va ta’lim jarayonida mumtoz adabiyotimizga qiziqish uyg‘otish, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois bu asarni Mumtoz adabiyotda komil inson talqini faniga ham ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarimizda darslarimizda tahlil qilish orqali yoshlarni mehr oqibatli, mehnatkash, halol va mard bo‘lishga o‘rgatish, komil inson g‘oyalarini insoniy yaxshi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib olganmiz.

Kalit so‘zlar: Xorazm, doston, asar, meros, lirika, mazmun, mohiyat, ”Husnu Dil”

Annotation This article offers opinions about the life of Nishati Mohammadniyaz and the Husn Dil saga.

Keywords: Khorezm, epic, work, legacy, text lyrics, content, essence, "Husn Dil"

Абстрактный В этой статье представлены мнения о жизни Нишати Мохаммаднияза и саге о Хусн Диле.

Ключевые слова: Хорезм, эпос, произведение, наследие, текст песни, содержание, суть, Хусн Дил

KIRISH

Nishotiy haqida fikr yuritar ekanmiz, uning hayoti va ijodiga to‘xtalishimiz maqsadga muvofiqdir. U XVIII asrda Xorazmda yashab ijod qilgan. To‘liq ismi Muhammdniyoz Nishotiy. Taniqli o‘zbek shoiri, liro-epik she’riyat taraqqiyotida alohida o‘ringa ega. Xorazmda 1701- yilda tug‘ilgan. Ijodiy merosidan lirik she’rlari va “Husnu Dil” dostoni yetib kelgan. Yirik “Husnu Dil” dostoni Buxoroda 1778-yilda

yozilgan. Nishotiy Buxoroga kelgan, gʻariblik va muhtojlikda yashagan. Adabiy merosi “Husnu Dil” dostoni, “Qushlar munozarasi” manzumasi hamda 1500 misra sheʼr — 38 gʻazal, 14 muhammas, 1 qasida va musaddasdan iborat.

Muhammadniyoz Nishotiyning asarlari haqida maʼlumot beradigan boʻlsam uning yirik asari “Husnu Dil” dostoni Buxoroda 1778-yil yozilgan. Sheʼrlari “Gʻazaliyot va muxammasoti Nishotiy”, “Bayozi mutafarriqa”, “Bayozi majumai ashoir” kabi manbalarda jamlangan. 1903-yilda Muhammad Yusuf chokar tomonidan koʻchirilgan. Yana bir asari “Qushlar munozarasi” asari ham allegorik-majoziy xarakterga ega boʻlib, 300 misradan iborat. Shoir 14 ta qushning oʻzaro bahs-u munozaralari, orqali oʻz qarashlarini bayon etadi. Nishotiyning hayoti va ijodiga oid dastlabki izlanishlar Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining aʼzosi V.Abdullayev qalamiga mansubdir. Olim oʻzining yirik tadqiqotida Xorazmda yashab ijod etgan Vafoiy, Andalib, Nishotiy kabi shoirlarning ijodini oʻrganadi. V.Abdullayevning Nishotiyga atab yozgan asarlari mavjud boʻlib bular: “Nishotiy va uning “Husnu Dil” dostoni (1955), “Nishotiy va Xoskor” (1960) kabi asarlari mavjud. Nishotiyning lirik sheʼriyatga ham boshqa olimlar tomonidan qiziqish paydo boʻladi. Ayniqsa, Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni boshqa olimlarning diqqatini oʻziga jalb etadi. Jumladan professor I.S. Braginskiy oʻzbek-tojik adabiy aloqalarini oʻrganishga bagʻishlagan ishida XVII-XIX asrlar adabiyoti haqida fikr yuritib “XVIII asar Xorazm adabiyotining atoqli vakillaridan biri Nishotiydir. U Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy sheʼrlaridan taʼsirlanib, muxammaslar yozgan” – deb shoir ijodiga yuksak baho beradi. Bu doston Buxoroda 1778- yilda yozilgan “Husnu Dil” sarguzashtining syujeti Sharq adabiyotida mashhur boʻlib, Yahyo Saboq Fattohiy, Abdurahmon Mushfiqiy tomonidan ham shu nomda asarlar yozilgan. Doston 62 bobdan 15584 misradan iborat. Doston qahramonlari Fuod (arabcha, koʻngil) Husn , Aql, Ishq, Nazar, Himmat, Sabr, Vafo, Hayol, Gʻamza, Raqib, Nomus kabi ramziy timsollar orqali muallifning axloqiy taʼlimiy gʻoyalari ifodalangan.

Nishotiy “Husnu Dil” dostonida oʻzini Xorazmdan ekanligini aytib oʻtgan. “Husnu Dil” dostoni XVIII asar oʻzbek adabiy tili tarixida muhim oʻrin egallagan, sheʼriy qissa sifatida baholanadi. 1960- yilda Oʻzbekiston badiiy adabiyot nashriyoti Nishotiyning “Tanlangan asarlar” ini birinchi marta nashr etdi. Toʻplam uni nashrga tayyorlagan, V.Mirzevning kirish soʻzi bilan boshlanib, “Husnu Dil” dostonidan parchalar hamda shoirning lirik sheʼrlaridan namunalarni oʻz ichiga oladi. 1967- yilda Nishotiyning “Tanlangan asarlar”i ikkinchi marta katta hajmda nashr etildi. Unda shoirning “Husnu Dil” dostoni toʻliq holda va lirik merosida namunalari berilgan.

Nishotiy “Husnu Dil” dostonini yaratar ekan, u XV- XVI asrlarida yashab ijod etgan mashhur fors-tojik shoirlari Fattohiy va Mushfiqiyning “Husn Dil” syujetidagi

asarlardan ilhomlangan va ijodiy foydalangan. Muhammadniyoz Nishotiy ijodiga doir qarashlar V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimov, M.Tursunov, B.Valixo‘jayev, M.Abduvohidova, Ayyomiy, I.Abdizovalarning tadqiqotlarida uchraydi. Ammo ularda “Husnu Dil” orifona mazmunda emas balki dunyoviy real borliq haqidagi asar sifatida tekshiriladi, dostonning zohiriy ma’nolari borasida so‘z yuritiladi. Asar qo‘llanmalari nusxalari, matini shoir hayoti va ijodiga ko‘proq urg‘u beriladi.

Xulosa

Bu asar mumtoz adabiyotimizdagi eng durdona asarlardan hisoblanadi. Inson tuyg‘ulari o‘rtasidagi bahs-munozaralar, tortishuvlar va oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi tasvirlari asarni qiymatini oshirib beradi, hamda kitobxonni zeriktirmaydi, aksincha fikrlashga, halol mehnat qilishga, sabrli bo‘lishga chaqiradi. Ana shunday qiziqarli va mazmunli asarlar yoshlarni yanada mushohada qilishga chorlaydi. Hozirgi zamonda dolzarb masalalardan biri sifatida o‘qitish va ta’lim jarayonida mumtoz adabiyotimizga qiziqish uyg‘otish, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan bu asarni xazina desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asar o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishotiy “Husn Dil” dostoni
2. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
3. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
4. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
5. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
6. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
7. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
8. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

9. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
10. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
11. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
12. О‘разбайева М. XX аср озарбайжон адабиётida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
13. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
14. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

RUHIY TANAZZUL YOKI NAFSGA QURBON RUHNING CHEKINISHI

*Feruz*a Qurbonova,
“TIQXMMI” MTUNING
QARSHI IRRIGATSIYA VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI
feruzaq42@gmail.uz

ANNOTATSIYA : Ushbu maqola milliy istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yuz bergan sifat o‘zgarishlari nasrda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligidan boshlab yaratilgan nasriy asarlarning eng muhim va o‘ziga xos xususiyatlaridan biri insonning botiniy olami, ichki dunyosi, uning ma`naviyatiga katta e`tibor qaratilganligidir. Insonning ichki olamidagi fikrlar jangini, uning talotumlarini, topish va yo‘qotishlarini odatda, bir inson taqdirini butun jamiyat bilan uyg‘unlikda aks ettiradi.

KALIT SO'ZLAR: huquqsizlik, erksizlik va iqtisodiy-ma`naviy talonchilik, nafs.

ABSTRACT: In this article, the qualitative changes that occurred in Uzbek literature during the period of national independence are clearly reflected in the prose. One of the most important and distinctive features of the prose works created since the last decade of the last century is that great attention is paid to the inner world, the inner world of a person, his spirituality. It usually reflects the battle of thoughts in the inner world of a person, his upheavals, gains and losses, the fate of a person in harmony with the whole society.

KEY WORDS: lawlessness, lack of freedom and economic and spiritual robbery, lust.

ANNOTATSIYA: В данной статье качественные изменения, произошедшие в узбекской литературе в период национальной независимости, ярко отражены в прозе. Одной из важнейших и отличительных особенностей прозаических произведений, созданных начиная с последнего десятилетия прошлого века, является то, что большое внимание уделяется внутреннему миру, внутреннему миру человека, его духовности. Обычно он отражает борьбу мыслей во внутреннем мире человека, его потрясения, приобретения и потери, судьбу человека в гармонии со всем обществом.

Ключевые слова: беззаконие, несвобода и экономический и духовный грабеж, похоть.

Xalq dardi, millatning tashvishlari, oddiy mehnatkash odamlarning hayotini chuqur bilmay turib, umuminsoniylik, oliyjanob tuyg‘ular haqida gapirish hech qachon o‘zini oqlamaydi. Inson qalbiga doir asarlargina odamlar yuragidan joy olishga qodir. “Adabiyotning shodligi ham, tashvishi ham “men”ning quvonch-u alamlari bilan birga – shular orasida yashaydi. Munaqqid “men”i adabiy hodisalarimiz uchun bamisoli keng maydonga aylanadi.

Bag‘ri keng “men”ga naqadar og‘ir! Bag‘ri keng “men”ni tushunish naqadar qiyin!.. murakkab yoki fenomen shaxslarni tushunmoq nahot murakkab yoki fenomen shaxslargagina nasib etsa?!²⁷

Haqiqatdan ham, muallif o‘zi yozayotgan voqelikda yashay olsagina, o‘sha voqea-hodisani o‘z ruhiyatiga ko‘chirib, undan larzaga tusha olsagina, kitobxon ruhiyatida yangi bir mintaqa yarata oladi. “Men”– X.Do‘stmuhammad asarlarining bosh qahramoni, u o‘zining barcha asarlarida voqelarni bayon qilishni emas, balki inson qalbini taftish qilishni lozim topadi. Qahramonni oq yoki qora rangda emas, inson sifatida tasvirlaydi, shuning uchun uning asarlarida qahramonlar xato qiladi, nimanidir tushunmaydi, ojizlik qiladi... bularning barchasi hayotga real munosabatdan kelib chiqadi, natijada asar qahramonlari kitobxon bilan tezda til topishadi. Yozuvchi o‘zligini tanishga urinayotgan insonni hayot yo‘llarining turli chorraha va kesimlarida, turli holatlarda tasvirlar ekan, ularni oqlash va qoralash yo‘lidan bormaydi, voqelikka aralashmasdan kuzatuvchi, gohida roviylikni ma`qul ko‘radi eng muhimi, yashayotgan har bir inson turfa xil fikrlardirю Ana shu fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligida. Insonlarning kelajagi ularning fikrlariga bog‘liq. Negaki, fikr xatti-harakatga aylanadi, har bir inson o‘z harakatlari uchun taqdirlanadi yo, aksincha, jazoga tortiladi. Hamma narsaning asosida fikr yotadi. Yozuvchi shuning uchun insonning ichki olamidagi fikrlar jangini, uning talotumlarini, topish va yo‘qotishlarini odatda, bir inson taqdirini butun jamiyat bilan uyg‘unlikda aks ettiradi. Uning yozishicha: “O‘z “men”ini tushunib etish insoniyatni halokatdan asrab qoluvchi buyuk go‘zallikni anglashga va his qilishga olib keladi. So‘z san`ati ustalari bu muqaddas vazifani amalga oshiruvchilar safining oldida boradilar”.²⁸

Yozuvchi badiiy ijodning mohiyatini va o‘zining vazifasini mana shunday tushunadi va shu aqidaga og‘ishmay amal qiladi.

Zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotining yutug‘i sanalgan mashhur asarlarning qahramonlari o‘zining ichki ziddiyatlarga boyligi, iymon-e`tiqodi, o‘z-o‘zi bilan kechadigan kurashda matonat, irodasi bilan ajralib turadi.

²⁷ X.Дўстмуҳаммад. Қалбнинг маърифатли қирралари.// Ёшлик. 1987. 12-сон, 69-б.

²⁸ X.Дўстмуҳаммад. Англаш лаҳзалари.// Ёшлик. 1983. 61-б.

Turli uslubiy-g'oyaviy tajribalarni dadil qo'llayotgan bu avlod, milliy nasrda jiddiy va e'tirofqa loyiq natijalarga erishmoqdalar. Bu holat kichik janrlarda, ayniqsa kuzatiladi. Mazmun va shakldagi o'xshashlik, an'anaviylikdan chekinish, ruhiy-psixologik tahlilning turli usullarini qo'llash o'z samarasini bermoqda. X.Sultonovning «G'ulomgardish», E.A'zamovning «Bog'bolalik Ko'kaldosh», X.Do'stmuhammadning «Jajman», N.Otaxonovning «Oq bino oqshomlari», O.Otaxonovning «Uchinchi qavatdagi sariq deraza», N.Eshonqulovning «Maymun yetaklagan odam», SH.Hamroyevning «Suratdagi ayol» kabi hikoyalarida ma'naviyatsizlik, milliy mahdudlikdan tortib totalitar tuzum asorati sifatida qonqonimizga singib kelayotgan mutelik, boqimandalik, ma'naviy qaramlik, o'z hayotiga nisbatan loqaydlik, milliy mafkura ruhida o'sib-unayotgan yangi avlod va o'z-o'zini izlayotgan xur fikrli shaxs ruhiyatigacha tasvirlangan.

Adabiyotshunos H.Karimov istiqlol davri muammolarining inson tabiati, ma'naviyati, ruhiyatidagi badiiy ifodasi to'g'risida fikr yuritar ekan, absurd odam, mistitsizm, ruhiy tanazzul yoki uning o'limi, nafsga qurbon vujudda ruhning chekinishiga alohida e'tibor qaratib shunday yozadi: “Yana shunisi muhimki, ular bu illatlarni jamiyat muhitga bog'lashmaydi, bunga shular aybdor deb bilishmaydi, balki barchasiga insonning o'zi sababchi deb qarashadi. Ya'ni iymon va e'tiqodning susayishi deb biladi”²⁹

Jahon, ayniqsa, Ovro'pa va Lotin Amerikasining eng ilg'or adabiy tajribalaridan ijodiy o'rganishda o'sayotgan hikoyachiligimizda obyektiv tasvir va tahlilga qurilgan an'anaviy yo'llar bilan birgalikda ko'proq ramziy timsol va ishoralar, ruhiy bayon yo'llaridan foydalanish kuzatila boshlandi. X.Do'stmuhammad huquqsizlik, erksizlik va iqtisodiy-ma'naviy talonchilik tarixini bozorda paydo bo'lgan yeb-tashib to'ymas noma'lum maxluq - Jajmanga olomonning munosabati shaklida qayta yaratdi. Jajman hamma savdogarning narsasiga emas, aynan savdoda g'irromlik, xaridorlar haqiga xiyonat qilayotganlarning moliga zarar yetkazadi. “Ma'no jihatidan qissaga tatiydigan” “Jajman” hikoyasi haqida adabiyotshunos G.Sattorova “milliy xarakter yaratishda yetakchilik” qilishini ta'kidlaydi.³⁰ D.Quronov esa hikoyadagi maxluq-Jajmanning bozor ahli fikrini bayon etish uchun qo'l kelganligiga e'tibor qaratadi. X.Do'stmuhammadning ayrim qahramonlari asardan-asarga ko'chib yuradi. Fozilbek, Qadriya, jajman kabi obrazlar yozuvchining “Beozor qushning qarg'ishi”, “Jajman” singari bir necha asarida uchratamiz. Ayni shu hol Murod Muhammad Do'st hikoya, qissa va romanlarida ham kuzatiladi. G'aybarov va uning o'g'li singari aynan bir obraz orqali yozuvchi o'z falsafiy kontseptsiyasini ilgari suradi. X.Do'stmuhammad ham,

²⁹ Каримов Х. Истиклол даври адабиёти. Т.: Yangi nashr, 2010. 276-б

³⁰ Сатторова Г. Миллий характер ва бадий талкин. Т.: Фан, 2007. 45-б.

Murod Muhammad Do'st ham o'zlarining sayyor qahramonlari zimmasiga asar g'oyasini yuklaydi. Buning o'ziga xos bir jihati, kitobxon ularni yaxshiroq yodda saqlaydi va ularni o'zaro taqqoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.Sh. O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir"// Xalq so'zi, 2017 yil, 4 avgust. Do'stmuhammad X. Istiqlol va adabiyot // O'zbekiston adabiyoti va san'ati.– T, 1993. – 6 avgust.
2. Do'stmuhammad X. Kontsepsiyani yangilash uchun... // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – T, 1990. – 16 fevral'.
3. Do'stmuhammad X. Tavbadan tozarishgacha... // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – T, 1990. – 13 mart.
4. Milliy uyg'onish. – T.: Universitet, 1993.
5. Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
6. To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001. –166 b.
7. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
8. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
9. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
10. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
11. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
12. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
13. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

14. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
15. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
16. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
17. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
18. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
19. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

CREATION OF DIVINE TRADITION AND "HAMSA" IN ORIENTAL LITERATURE

Bakhtigul Umirzaqova,

Uzbekistan State University of World Languages

(UzDJTU) student

Abstract: The article analyzes the opinions that in the literature of the East there is a tradition of rudeness, rudeness is a literary tradition that has a long history and gradual improvement in the literature of the peoples of the Middle and Middle East, as well as the creation of Alisher Navoi's "Khamsa".

Key words: world literature, oriental literature, Nizami Gyangavi, Azerbaijani literature, peace, heritage, poet, "Khamsa," work, tradition

Alisher Navoi is a great poet of the Uzbek people, a thinker, as well as one of the unequal figures in world literature. His name and legacy are also the names and legacies of the great "dictionaries of world literature, Bashkir spirituality, artists Homer and Dante, Rudaki and Firdavsia, Nizomy and Dekhlaviy, Saadiy and Jomiya, Shakespeare and Balzac, Pushkin and Tolstoy. This is eternal death.

Alisher Navoi devoted all his activities and creativity, heart and consciousness, adult life to a person, the struggle for his happiness, well-being and well-being, peace and prosperity of a country and countries, the prevention of mutually exclusive wars, as well as improvement, science, the development of art and literature, alalhusus, cultural, educational and spiritual.

Navoi became a great humanist, a wise, statesman, an artist of the unequal word, who founded the Uzbek literary language and brought national literature to the top, created smart works, led the cultural life of our time, was a close adviser, sponsor and was a coach-mentor who brought up many talented students, found endless convictions and recognition. This, of course, required a lot of work and strength, knowledge and diligence, and at the same time tolerance. In the person of our great grandfather Navoi, we see that these qualities are fully reflected, and we recognize them. Therefore, despite the fact that the nations have passed many centuries, Navoi will be proud of his works.

Alisher Navoi is primarily a great poet. From childhood until the end of her life, she finished lyric poems, leaving a rich lyric heritage. At the same time, he is a great epic poet-Dostonnavis. Having accumulated a lot of creative experience in lyrics, he became widely known in Navoi, Movarounnahra, Hurosan and other countries. In a short period of time, in 1483-1485, he created the "Hamsa," consisting of five dostans.

As you know, rudeness is a literary tradition that has a long history and gradual improvement in the literature of the peoples of the Near and Middle East. This tradition was led by the outstanding Azerbaijani poet and thinker Nizami Ganjavi (1141-1209). His "Khamasa" became a great literary event not only in Azerbaijani literature, but also in the literature of the Near and Middle East. The creation of "Hamsa" has become a true literary tradition. But the creation of "Hamsa" was not just one of five. On the contrary, with name, genre, weight, world of themes, scale of content, world and structure of images and other features, the great word and thinking had to correspond to the Nizas, that is, "Hamsa." Also, the newly elected "Hamsa" Nizami was supposed to become a new, original "Hamsa," which is not a repetition, or an imitation copy of "Hamsa," but is directly related to time and earth, and, in a word, was supposed to be a new step in the development of verbal art. It turns out that the creation of "Hamsa" would require a lot of work, responsibility and potential from its author. Binobarin, although about twenty poets created hamsa, none of them could match the great hamsanavis Nizami. Only three poets were recognized as the great hamsanavis and claimed a place among Nizami Ganjavi.

It is known that the tradition of animal husbandry received a wide color, especially in the 15th century. By this time, a number of poets had tried to create "Hamsa." We can say that the creation of "Hamsa" was a great test for both them and for individual peoples. Alisher Navoi says that in "Macolis un-nifois," several poets created monumental works for "Hamsa" or some of his friends. In particular, Mavlon Ashraf wrote "Hamsa," but this work did not reach us; Mavlon Ali Ahiy created several friends characteristic of "Hamsa"; Mavlon Secretariat proceeded to write "Hamsa," but was unable to complete it. Or Mavlon Fasoh Rumi Nizomi, following "Maxzan ul-vervor." Khoja Hasan Khizr in response to "Laili and Majnun" wrote "Zayd and Zainab" and so on. Unfortunately, none of them was able to create the ideal "Khamasa" for various life reasons and partial reasons and could not take a worthy place among Nizami and Khussrav Dekhlaviev. But by the 15th century, two great children of the two peoples at once became Hamsanavists. One of them was the great poet and thinker Abdurahman Zhomiy, the second - Alisher Navoi.

As you know, the era has set new big and responsible tasks for Uzbek classical literature of the 15th century. Admittedly, one of them was the creation of "Hamsa" in Uzbek. This was insisted on by the growing need of Uzbek readers, the development of the Uzbek literary language and Uzbek literature. For such a big, honorable and responsible work, Alisher Navoi took. Navoi believes that the people need to create a work in his language, which will be characteristic of him....

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq,
Kerak sher ollida ham sher jangi,
Agar sher o'lmasa, bari palangi...

According to Navoi, Nizami is a real lion of poetry. It is not that easy to meet him. However, Navoi became a true lion, comparing it to a lion. Nizami took a worthy place. In a short time, that is, in more than two years, Alalhus created more than 51 Egyptian pentathletes. In 1483, he created "Khairat ul-abror," in 1484 - "Farhad and Shirin," in 1484 - "Leili and Majnun," in 1485 - "Sabai Sayer" and finally - "Saddi Iskandari."

Literature used:

1. Alisher Navoi. Collection of perfect works. 20 volumes. J. 7. - T.: Science, 1991.
2. Mukhiddinov M. "Khamsa." Armugan Navoi. "See also:: Category: Dead - T.: 2000.
3. Mallayev N. History of Uzbek literature – Tashkent: Kafolat print company, 2021. – 540 p.
4. Omanova M.A. The traditional motives in the plot and composition of realistic novels // “Theoretical & Applied Science” International Scientific journal Philadelphia, USA. 2019. - P. 412-415. (Impact Factor - 8.7).
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

12. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.

13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,

14. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.

15. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.

16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.

17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

FARHOD – KOMIL INSON TIMSOLI

Amriddin Ikromov,

*TDTU akademik litseyi Yoshlar bilan
ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy orzusidagi komil inson mavzusi yoritilgan. Shaxs yetukligi badiiy asar qahramonlarining xarakteriga singdirilgani ushbu maqolada o'z aksini topgan. Olamga va odamga ezgulik qilishga, yaxshi ishlarni amalga oshirish uchun doim tayyor KOMIL INSON ta'riflangan.

Alisher Navoiy o'z zamonida buyuk edi. U bizning zamonimizda ham buyuk, bu buyuklik keyingi davrlarda ham o'tib boraveradi. Buning boisi adib yaratgan ulkan merosdagi ilmiy, ma'rifiy haqiqatlar va badiiy kashfiyotlar salmog'i bilan izohlanadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Avvalo, Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir".³¹

Mutafakkir shoirimiz asrlar mobaynida necha-necha avlodlarni tarbiyalab kelmoqda. Adib qoldirgan ulkan ta'lim va tarbiya maktabi faqat badiiy jilosi bilangina emas, ma'rifiy bilim berishi, aqliy tarbiyaga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, yosh-avlodning dunyoqarashini behad kengaytirishi bilan ham, ularning atrof-muhitga, olamga va odamga xayrixohlik bilan qarashni o'rganishlariga, ezgulik qilishga, yaxshi ishlarni amalga oshirish uchun kamarbasta bo'lishlariga turtki berib turishida ham tengsizdir.

Necha asrlar o'tsa hamki, biz hamon Alisher Navoiyni buyuk inson sifatida yaxshi ko'ramiz, uning har bir ijodidan, asarlaridan bahramand bo'lamiz. Ayniqsa, uning ustozlari asarlaridan ilhomlanib qisqa vaqt ichida yozgan, Husayn Boyqaroning tahsiniga sazovor bo'lgan "Xamsa" ning dostonlarini necha asrlar o'tsa hamki o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Har bir dostonning mazmun-mohiyati, asosiy g'oyasi insonga qaratilganligi bilan xarakterlidir. "Navoiycha, inson yuksakdagilarning yuksagi, baland martabalilarning baland martabalisi, go'zallarning go'zali, qudratlilarning qudratlisi, qimmatlilarning qimmatlisidir".³²

Navoiy insonni turli tomondan o'rganadi, uning turli jihatlarini tadqiq etadi. "Xamsa"dagi besh doston mutlaqo bir-birini takrorlamagan holda insonning rang-

³¹ Birinchi Prezident Islom Karimovning Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. Ma'rifat, 2001 yil 25 avgust.

³² V.Zoxidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. Toshkent, O'zbekiston, 1970.

barang xislatlarini ko‘z oldimizda bir-bir namoyon etib beradi. Ular orasida “Farhod va Shirin” dostoni o‘ziga xos o‘ringa ega.

Navoiy buyuk ish oldida aslo cho‘chimaydi, qo‘rqmaydi. Aksincha, sabot va matonat ko‘rsatib, ulug‘ muddaolarni amalga oshirish uchun jur‘at topa biladi.

Navoiy har doim yangilik, kashfiyot tarafdori. Tabiatan ana shu xislatlarga ega bo‘lgan adib boshqalar aytgan so‘z, fikrni takrorlab yurishni haqiqiy fikr egalariga nomunosib deb biladi:

Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay,

Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.

Ya‘ni, axir boshqalar nazm qilganni takrorlash senga yarashmaydi. Eldan orqada qolib ot choptirish ham, odamlar bosib o‘tib ketgan yo‘ldan yugurib yurish ham senga ep emas. Shuning uchun Navoiy bu dostonga yangicha yondoshadi, uning syujeti va kompozitsiyasini o‘z ko‘nglicha tuzadi.

Chin mulkinging shohi shunday ulug‘ xon ediki, uni xon emas, xoqon deb atasa ham bo‘laverar edi. Ammo, mana shunday ta‘rifu imkonlar egasining farzandi yo‘q edi. Biroq podsho yaxshilik qilishdan bir nafas ham chekinmaydi, xalqqa, ayniqsa beva-bechoralarga rahm-shafqat ko‘rsatadi, “atosizlarg‘a ham atoliq” qiladi. Nihoyat, oilada farzand tug‘iladi.

Navoiy farzandli bo‘lgan ota ruhiyatini juda mahorat bilan chizib beradi. Farzandga Farhod deb nom beradilar:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,

Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,

Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,

Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab.

(Ishq unga dono Farhod ismini qo‘ydi. Bu ismning harflari kelib chiqishi ham besh qismga bo‘lindi. Besh so‘zning boshida bittadan harfni ajratganda: “firoq”dan “f”ni, “rashk”dan “r”ni, “hajr”dan “h”ni, “oh”dan “o”ni va nihoyat “dard”dan “d”ni sevgi ustozlari bir-biriga birlashtirganda “Farhod” ismi tarkib topdi).

Alisher Navoiy talqinidagi Farhod favqulodda iste‘dod egasi. Maktabga borganining birinchi kuniyoq u abjad hisobini to‘liq o‘rganib oladi. Uch oyning ichida savodini to‘la-to‘kis chiqaradi. Shu yilning o‘zidayoq Qur‘oni karimni yod oladi. Mana uning iqtidoriga oid boshqa qirralar:

Agar bir qatla ko‘rdi har saboqni,

Yana ochmoq yo‘q erdi ul varoqni.

Ne so‘z nikim o‘qib ko‘ngliga yozib,

*Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib.
O'qib o'tmoq, uqub o'tmoq shiori
Qolib yodida safha, safha bori.*

U har bir saboqni bir marta ko'rsa, o'sha varaqni boshqa ochib o'ltirmas edi. Nima so'zni o'qisa, ko'ngliga, faqat ko'ngliga emas, hatto jon lavhasiga naqshlanib qolar edi. U o'ziga o'qib o'tish bilan birga uqib o'tishni ham shior qilib olgan. o'qiganlari hammasi sahifama-sahifa yodiga o'rnashib borar edi.

Farhod harbiy ishda ham kamolotga erishadi. U o'n to'rt yoshga yetganida nihoyatda bilimdon, kamtar, lekin dardmand bo'lib shakllanadi. Farhod doim qayg'uli holda, xafaroq yurar edi. Xoqon farzandining ko'nglini yozish niyatida to'rt qasr va to'rt bog' bino qiladi. Ular yilning to'rt fasliga moslanadi. Qurilish ishlariga Mulkoro rahbar edi. Me'mor (Boni), naqqosh (Moniy), tosh-taroshlar (Qoran) ishlarini kuzatib yurgan Farhod ulardan shu hunarlar sirlarini o'rganadi.

Farhodga xos yana bir xislat bor. U – undagi chuqur mantiq, hodisalarning asl mohiyatini bilishga bo'lgan tabiiy intilish. Shuning uchun ham u yuqoridagi ustalardan mahorat sirlarining sabablarini surishtiradi, ularning tub mohiyatini anglab yetadi. U qaysi bir ishga, kasb-hunarga mayl-rag'bat paydo qilsa, o'sha ishda mohir ustoz darajasiga yetadi.

Farhodning jismoniy kuch-qudrati hayratli darajada baland. Ammo u o'z kuchiga ishonib har narsani qilavermaydi. Uning har bir xatti-harakatlari aql tarozosi bilan o'lchanib amalga oshiriladi.

Farhod tabiatiga kamtarlik, mehnatsevarlik, mardlik, jasorat, poklik xos. U qat'iyatli, bir ishga kirishsa, uni oxiriga yetkazish uchun astoydil jiddu jahd ko'rsatadi. Ammo ota hurmatini biror daqiqa e'tibordan chetda qoldirmaydi. Jumladan, yunon safariga ketish oldidan o'z otasidek ko'rgan Mulkoroga iltimos qiladiki:

*Kerakkim aylasang Xoqonga taqrir,
Mening ollimg'a kelturganni taqdir.
Atolik haqqi chun bordur aroda,
Ijzat istaram bu mojaroda.*

“Mening oldimga taqdir qo'ygan bu ishlarni Xoqonga tushuntirib bersang. Oramizda uning otalik haqqi bo'lgani uchun mojarolarga sabab bo'lgan bu ishda uning ijizatini so'rayman”.

Ota-onani hurmatlash – farzandlar burchi. Alloma nazarida, yaxshi farzand, eng avvalo, ota-ona ko'nglini olmog'i kerak. Chunki ota-ona olqishi farzandlarni saodatga yetaklaydi, ularni baxtiyor qiladi. Bu haqda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida shunday satrlarni uchratamiz:

Bu ikkining xizmatini bir bil,

*Har necha ifrot esa, taqdir bil.
Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.*

*Ikki jahoningga tilarsan fazo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun-kunungga aylagali nur fosh
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Ya'ni, ularning har ikkisiga birday xizmat qil, ularni o'zaro barobar deb bilgin, xizmatlari har qancha chegaradan oshsa ham, loyiq bo'l. Ota uchun boshni fido ayla, ona uchun esa bor vujudingni sadaqa qilgin. Agar sen ikki olamda ham ro'shnolik topmoqchi bo'lsang, ularning har ikkisini ham rozi qil. Otang bilan onangni kecha va kunduzingni yoritib turuvchi oy hamda quyosh deb bilgin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning birgina "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazidan ko'p narsani o'rgansa arziydi. Farhoddagi kamtarlik, mehnatsevarlik, mardlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, o'zgalardan o'z yordamini ayamaslik, kibrga berilmaslik, o'z yoriga vafodorlik, ota-onaning hurmatini joyiga qo'yish, har bir aytgan so'zidan chiqmaslik, ularni tirigida xizmatlarini qilish haqidagi fazilatlarni komil inson darajasidagi Farhoddan har bir yosh-avlod o'rganishida ota-onalarning ham, ustozlarning ham bosh vazifalaridan biriga aylanmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
4. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
5. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

6. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
7. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
8. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
9. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
10. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
11. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

SA'DULLA SIYOYEV IJODIY FAOLIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Mehrinoz Ne'matova,
TDPU talabasi*

Annotatsiya: Maqolada Sa'dulla Siyoyevning ijodi va hikoyalari haqida ma'lumot beriladi. Adib hikoyalaridagi obrazlar ham ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Ijodkorning ayrim hikoyalari tahlil etilib, xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Sa'dulla Siyoyev, hikoya, Avaz O'tar, mavzu, obraz, tahlil.

Annotation: The article provides information about the works and stories of Sadulla Siyoyev. The characters in the writer's stories are also discussed about their characteristics. Some stories of the creator are analyzed and conclusions are drawn.

Key words: Sa'dulla Siyoyev, story, Avaz O'tar, theme, image, analysis.

XX asr o'zbek adabiyoti nazmi va nasri rivojiga katta hissa qo'shgan serqirra ijodkorlaridan biri Sa'dulla Siyoyevdir. Yozuvchi dastlabki she'r va hikoyalari bilan o'tgan asrning 50-yillari ikkinchi yarmidan adabiyot sahnida ko'rina boshladi. 1970-yilda adibning "Qasam ichmagan yigit" nomli birinchi hikoyalar to'plami chop etildi. Shundan so'ng ijodkorning "Sadag'ang ketay" (1972), "To'ylar muborak" (1975), "Oy borib, omon keling" (1976), "Og'ir vaznli janjalkash", "Erkaklar uchun ertaklar", "Yorug'lik" (1986), "Avaz" (1987), "Beparvo bo'lmoqchiman" (1990) kabi roman, qissa va hikoyalar kitoblari bosilib chiqdi. Adib asarlari mavzu rang-barangligi, obrazlar xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Yozuvchining "Avaz" asari o'zbekning mard o'g'loni, haq gapni hayiqmay aytgan, baytlari bilan zamonaning kajraftorining teskari aylantirishga harakat qilgan ijodkor Avaz O'tarning hayot yo'liga bag'ishlanib, avtobiografik asarlar sirasiga kiradi. Adib asarga konkret voqelikni olib kiradi. Tarixdan ma'lumki, Avaz O'tardek shoirning shoh xonadonida kaltaklanib, o'ldirilganligi o'tmishdagi qonli, sirli voqelikka ishora qiladi. Yozuvchi mavzu sifatida esa aynan shuni tanlaydi. O'z zamonasida Feruz taxallusi bilan tanilgan shoh va shoir podshohning asl qiyofasi va xarakter belgilarini chizishda yozuvchi uning atrofidagi shoir ahli va oddiy fuqarolardan mohirlik bilan foydalanadi. Yozuvchi asarning boshidan oxirigacha konfliktidan foydalanadi. Shohlik shavkati uni qonxo'r, har qanday maqtovlarda osmonlarga olib chiqib qo'ygan, qo'lidagi qilich, og'zidan chiqadigan gap bilan ko'plarining hayot tizginlarini osongina uza oladigan (Sharif tarroning kaltaklanib, shafqatsizlarcha o'ldirilishi) qilib tasvirlanganda, shunga qarama-qarshi ravishda uning she'riyat odami ekanligi, haftada bir marotaba mushoira kechalarini

uyushtirishi, shoir ahlini oldida yig'ib, she'r ilmiga ko'ngil qo'yganligi, qo'liga qalam olib she'r mashq qilishdagi konflikt, podshohning har dam o'zgarib turuvchi kayfiyati bilan oddiy xalqning chor-nochorlikdagi turmushi, podshoh tutayotgan siyosat bilan aytayotgan gapidagi turlichalik, ya'ni xalqni to'q yashashga ishontirib, ochdan o'ldirishi kabilar. Bular asarni o'qishli, kitobxonni fikrlashga undovchi konfliktlardir.

Yozuvchi har bir obrazga alohida to'xtaladi va o'sha obrazning shoh xonadoniga kelguncha va undan keyingi hayoti, jamiyatdagi tutgan o'rni (bu yerda oddiy dehqondan tortib, shoh xonadonida xizmat qiluvchilar ham nazarda tutilgan), siyosat haqidagi shaxsiy tushunchalarigacha berib borib, kitobxonga shoh xonadoniga nisbatan ulkan qarshilik harakatini tayyorlab boradi. Kitobxonga kayfiyatni yuqtiradi. Shoirlarning kattasi, o'zi istamasa-da majburan shoh oldida bo'lib, uning qarorlarini kesishga arziri gap aytolmay, qalbi nohaqliklarga qarshi tursa-da, og'zidan bir og'iz so'z chiqara olmagan Tabibiyning hayot yo'li; bir umr shoh xonadonida kotib bo'lib ishlab, oxiri bir parcha non so'ragani uchun kaltaklanib o'ldirilgan, mayitni ko'mishmoqchi bo'lishganda bir parcha bo'z topisholmagan Sharif tarroning hayot yo'li; podshoh o'ylamay aytgan so'zi bilan xalqining keyingi achchiq hayotini bashorat qilganda, xalqidan-da xarob nom bilan siylagan Xonaxarobiyning umr yo'li, nochor xalqning bir vakili bo'lmish, ranjiganini ham shodligini ham sezdirmaydigan, suyunsa, xaxolab kulmaydi, dard cheksa-da oh-voh qilmaydigan, sukutni a'lo ko'radigan Mutribning umr yo'llari bu qismlatlarda siyosatning oddiy xalq bo'yniga tushgan yukini ko'rish mumkin.

Asardagi markaziy obraz-Avazning hayot yo'li esa bevosita yuqoridagi shaxslarga bog'lanadi. Avazning tabiatini yozuvchi ta'riflashga harakat qilmaydi. Uning aytgan so'zlarida, dialoqlarda, voqealikka bo'lgan munosabatida aynan xarakter belgilarini ko'rish mumkin. Avazning ko'ksidagi yolqin shoh tomonidan shunday o'chiriladiki, uning cho'g'i undan keyingi necha-necha shoirlarning ko'zlarini qamshtirdi! Asardagi eng katta yutuq bu - yozuvchi o'sha davr voqealigini boricha olib chiqadi. U Feruzning donishligiga tahsinlar o'qib oddiy xalqni qoralamaydi. U Avazning shaxsiyatini chizishda o'zidan sifatlar qo'shmaydi. Qahramonning ruhiyatini tasvirlashda dialoqlardan keng foydalanib, obraz va undagi xarakter haqida o'quvchiga oson tushuncha beradi. Asarning tili sodda, o'qishli. Garchi asar tarix voqealigi bilan bog'langan bo'lsa-da, asardagi tarixiy so'zlar o'quvchiga tushunarli holda, izohi bilan yetkaziladi. Bu o'quvchini o'sha davr voqealigiga osonlik bilan olib kiradi. Asar bir nafasda o'qiladi. Asarda yana nozik she'r ilmi, san'atlar, mushoiralardagi tahlillar, jamiyatning oddiy fuqarosidan tortib, shoh xonadonida xizmat qiladigan vazirigacha she'r ilmini bilishi bayon etiladi.

Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni saralaydi, to'qiydi va yaxlit bir narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlari ko'rsatishda ham yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sa'dulla Siyoyevning asarlarida yozuvchi, o'zining nafaqat eng sara asarlari bilan balki, o'zining badiiy publististik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabt etganligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. "Fan", Toshkent – 1978, I jild.
2. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. Toshkent, "Fan", 1982
3. Sa'dulla Siyoyev. Avaz. "Yosh gvardiya". Toshkent – 1987.
4. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
- 11.M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Educationtechnological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
- 12.Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,

13. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
14. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

NODIRA HAYOTINI O‘QITISHDA INTERFOAL METODLAR

Mohinur Xo‘jamurodova,

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotasiya: Maqolada Nodira hayoti va ijodi haqida ma’lumot beriladi. Shoiraning asarlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish xususida mulohaza beriladi. Shoiraning ayrim asarlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nodira, she’riyat, interfaol metod, kompyuter texnologiyalari, tahlil, xulosa.

Abstract: The article provides information about the life and work of Nadira. Consideration is given to the teaching of the poet's works on the basis of new pedagogical technologies. Some works of the poet are analyzed.

Key words: Nadira, poetry, interactive method, computer technology, analysis, conclusion.

O‘zbek adabiyoti tarixida XIX asrning birinchi yarmi o‘ziga xos ijodkorlarni kamolga yetkazganligi bilan ajralib turadi. Bunday ijodkorlardan biri Nodiradir.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga adabiyot, milliylik va buyuk tariximizning olim-u ulamolar, shoir-u shoiralar hayot yo‘li, ijodiy faoliyati haqida kengroq ma’lumot berish dolzarb masalaga aylangan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1, 2 b]. Shubha yo‘qki, ana shunday yoshlarni tarbiyalashda san’at, til va adabiyot muhim o‘rinda turadi. Nodira ijodiy merosi ham bu borada yosh avlodning barkamol o‘sishi uchun ma’naviy ozuqa bo‘la oladi, albatta.

Nodira g‘azallarida vatanga, oilaga, farzandga muhabbat, do‘stlik, sadoqat va vafotimsollari aks etgan. Nodiraning she’riy merosi bir nechta devonlarining qo‘lyozmalari orqali yetib kelgan. O‘zbekcha she’rlariga Komila, forsiy g‘azallariga Maknuna taxalluslarini qo‘llagan. Uning 10000 misraga yaqin asarlari yetib kelgan. Shoiraga g‘azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlarda ijod qilgan. Asarlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil an’analarini davom ettirib, g‘azallarida firoq, dard iztiroblarini samimiy bayon qiladi.

An’anaviy o‘qitish metodikasida Nodira hayotini o‘qitish. An’anaviy o‘qitish metodikasi axborotlashgan zamonda biroz eskirib qolgan usullardan hisoblanib, o‘qitishda o‘quvchini ruhlantira olgan holda dars jarayonlarini tashkil etish maqsadga

muvofiq. Bunda shoironing hayoti va uning o‘z davrida millati, xalqi uchun qayg‘urishini, insoniy fazilatlarni yuqori cho‘qqisini aks ettirgani asarlarda namoyon ettirganini tushuntirish lozim:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.
Qildi choki piroqan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglumda zaxmi ishq pinhon oqibat.
Ahdu paymonlar qilib erdi, vafo qilg‘um debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yalg‘on oqibat... .*

An’anaviy o‘qitishda bu misralar oddiygina so‘zlar orqali bayon qilinadi, xolos.

Kompyuter texnologiyadan foydalangan holda shoira ijodini o‘qitish metodi.

Nodira ijodini kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda o‘rgatish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimida adabiyot darslari, xususan, Nodira hayoti va ijodini o‘rganishda adabiy materiallarni kengroq o‘rganish imkonini beradiganda texnologiyalaridan foydalanish ommalashib bormoqda. Shoira asarlarini bu interfaol metodlar orqali o‘qitish elektron axborot tizimini boyitishdan boshlanadi, bular ma’ruza matnlari - bunda ma’lumot kalendar-tematik rejasi asosida ma’ruza matni beriladi. Ma’ruza matnida talaba ushbu asar va yoki hayot faoliyatni o‘rganishi uchun zarur bo‘lgan barcha mavzular qamrab olinadi. Unda har bir mavzu uchun tayanch so‘z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Media fayllar, audio, video materiallar - mazkur blok dars mavzusini yorituvchi mp3 formatidagi audiorolik, swf yoki avi formatidagi videoroliklardir.

Shoira g‘azallari mashhur hofizlar tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan. Ulardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchi ijodiy fikrlashini, estetik didini o‘stiradi. Shuningdek, shoironing hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari asosida ishlangan roliklardan namunalar ko‘rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir. Turli xil ilovalarda shoironing hayot faoliyati va uning she’riy to‘plamlari aks ettirilgan holatda, asarning muxtasar mazmuni kiritilsa o‘quvchi tomonidan faol qabul qilib olinadi.

Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik bilan insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Shoira uchun ishq, go‘zallik, undan zavqlana bilish kerak. Ishqning nash‘asini ham, dardini ham kuyib, yonib kuylash, his qilish sharafdir. Shoira “Otash ast” radifli g‘azalida shunday yozadi:

*Dar kalomam nest, Maknuna, ba g‘ayr az suxtan,
Daftaram majmuai dog‘u kitobam otash ast.*

Mazmuni:

*Men Maknunaning soʻzlarida kuyishdan boshqa narsa yoʻq,
Daftaram dogʻ toʻplamiyu kitobim otashdir.*

Nodiraning ishq-muhabbat mavzusidagi sheʼrlarida shu muhabbatni yuksak pogʻonada tutib turuvchi vafo va sadoqat hislari ham ulugʻlanadi:

Boʻlsa to umru hayotim boqiy,
Meni ilgimduru domoni vafo [3, 25].

Nodira inson qalbida yuksak axloq-odob choʻgʻi boʻlmas ekan, u ishq-muhabbatni qadrlay olmasligini taʼkidlaydi va “beadab kirma muhabbat dashtigʻa deya taʼkidlaydi.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, buyuk ajdodlarimiz, shoirlarimiz asarlarini kelajak avlodga turli usullarda, uslublarda yetkazib berish, oʻquvchilarni ular yashagan muhitga xayolan boʻlsa-da, olib kira olish asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq soʻzi. 2016-yil 16-dekabr.
2. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T. Moliya. 2003.
3. Pardayeva N. Anbar Otin adabiy merosi: koʻlami, oʻrganilishi, qayta baholash zarurati.-INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART. Xalqaro soʻz sanʼati ilmiy jurnali. 2020.
4. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

10. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
14. О'разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

DILSHODI BARNO LIRIKASIDA IJODIY INDIVIDUALLIKNING AKS ETISHI

*Maftuna Rustamjanova,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi
Ilmiy rahbar: N.Pardayeva,
f.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya Maqolada Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan biri Dilshodi Barno she‘riyati hamda uning o‘ziga xos jihatlari haqida mulohaza yuritilgan. Ayrim she‘rlari tahlil maydoniga olib kirilib, ijodkorning millat va Vatan sog‘inchi, xotin-qizlarning teng huquqli, ilm-u savodli bo‘lish yo‘lidagi istaklari xususida mulohaza bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Dilshodi Barno, lirika, obraz, timsol, she‘r, tahlil, xulosa.

Abstract: The article discusses the poetry of Dilshodi Barno, one of the bright manifestations of the Kokan literary environment, and its specific aspects. Some of his poems are brought into the field of analysis, and comments are made about the artist's longing for the nation and the Motherland, women and girls' wishes for equal rights, knowledge and literacy.

Key words: Dilshodi Barno, lyric, image, symbol, poem, analysis, conclusion.

Adabiyotimiz tarixida ayol ijodkorlarning ham samarali ijod qilganliklari ma‘lum. Dilshodi Barno ijod maydoniga XIX asrning birinchi choragidan boshlab qadam qo‘ydi. Har bir shoiraning ijodida o‘ziga xos uslubi, yo‘nalishi bo‘lgani kabi Dilshodi Barno ham o‘z ijodiy individualligiga erisha olgan shoiralardandir. Shoira she‘rlarida zulmdan ezilgan xalq dardini, mahzun ayollar nolasi-yu fig‘onini bayon etadi. Hayotning turli-tuman g‘am-anduhlarini ifoda etishga harakat qildi. Uning tojik va o‘zbek tilida yozilgan asarlari bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Ularni bir-biridan ustun qo‘yish qiyin, chunki shoira har ikki tilni mukammal bilganligi uchun ikkala tilda ham chuqur, mazmunli asar yozadi. Qalbidagi so‘zlarni mohirona bayon etadi.

Shoiraning g‘azal va she‘rlarini o‘qib, o‘rganib tahlil qilar ekanmiz, o‘z davrida birga ijod qilgan shoiralarda uchramaydigan bir holatni kuzatamiz. Masalan, Nodira va Uvaysiy ijodida sevgi-muhabbat, yor, ishq, vafo, jafo timsollari uchraydi, ammo Dilshod va Anbar otin ijodlarida ularga nisbatan ancha kam yoki deyarli uchramaydi,- deya olamiz. Balki, bunga davr va muhit ta’siri sababdir. Chunki shoira Nodira va

Uvaysiyga qaraganda oddiy hayot kechirgan, asira bo‘lib, turmush qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan. Qolaversa, u xalq ichida yurib, jamiyatning dardini tinglab ahvolini kuzatgan. Shohona hayot, saroy muhitida katta bo‘lgan Nodira va Uvaysiy ijodlarida esa ishq, muhabbat obrazlari birlamchi o‘rinda turadi.

Asarlarida xotin-qizlarning ozodligi, ularning teng huquqli bo‘lish istagi asosiy o‘rin tutadi. Jamiyatning yarmini tashkil etgan xotin-qizlar ozodligi, erki va ularning bilimli, ma‘rifatli bo‘lishlariga alohida e‘tibor qaratadi. Ularning hech bo‘lmaganda savodli bo‘lib yetishishi uchun harakat qiladi va buni quyidagi she‘ri orqali bayon etishga harakat qiladi.

Kel, diloromim, g‘azal yoz, payraviyat olsun avj,
Ilmdin baxs ber, bir oz aql-u farosat olsun avj.

Bu sa‘y-harakatlarning natijasini keyinchalik mashhur shoira bo‘lib tanilgan Anbar otin va boshqa iqtidorli talabalari asarlaridan ham bilib olishimiz mumkin. U o‘zining “Tarixi muxojiron” asarida: “Anbaroy ilm mushohada qilish paytidan boshlab xalq ahvoli va hukmron tabaqalarning yetishmovchiliklarini sinchiklab, ko‘p fikr yuritar edi”- deb eslaydi. Shoira faqat she‘rlarida xotin-qizlarni basavod, farosatli bo‘lishga chorlabgina qolmay, buning uchun qo‘lidan kelgancha ancha sa‘y-harakatlar ham qiladi. U ellik bir yil maktabdor bo‘lib, a‘lo avsat hisobida 23 toliba tutib, 891ta qizni savodli qilgan. Albatta, bu ijodkorning Vatan oldidagi burchi hamda jamiyatga qo‘shgan ulkan xissasidir.

She‘rlarining ko‘pchilik qismi xotin-qizlarga nido qilib, savod chiqarib, o‘qib ilm olishi hamda kelgusi avlodga ta‘lim-tarbiya berish haqida shaxsiy fikr va mulohazalari bilan targ‘ib qiladi.

“Dilshod g‘azallarida shaxsiy muhabbat hayotga, el-yurtga bo‘lgan muhabbat, erkka bo‘lgan intilish bilan qo‘shilib ketadi. Bu jihatdan ham shoira ulug‘ Navoiyga izdosh bo‘lib qoladi”[4,27 b]

Agar Barno g‘azalxon bo‘lmog‘ istar,
Navoiy pir deb niyat erur farz.

Shoira she‘rlarida lafziy va ma‘naviy san‘atlardan mohirona foydalanadi. Qalbidagi so‘zlarni nozik dur-u gavharlar bilan bezab, boyitib qog‘ozga tushiradi. U ba‘zi she‘rlarida kitobni o‘ziga do‘st, ustoz, hamdard, hamdarmon deb bilib, undan o‘zga najot yo‘qligi, kitob o‘qiganlar orasida ma‘rifat ilmini tarqatuvchi gapdonlar chiqar deydi. Hattoki, kitob o‘qigan, ilm oluvchi inson “shayx tasbexidin afzal, ilm takror etguvchi, shaxs unvonig‘a loyiq ilm izhor etguchi”, -ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, aslida ham shunday. Ilmdan boshqa najot yo‘q. Zero, hadisi sharifda bejizga “Ilm o‘rganish har bir musulmon uchun farzdir” deyilmagan.

Shuningdek, ijodkorning vatanparvarlik ruhidagi she'rlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tug'ilib o'sgan joyi O'ratepaning sog'inchi, bolaligi o'tgan shirin, yorqin xotiralarni eslab qalam tebratgan. "Xotimai muntaxabul-ashor" nomli masnaviysi avtobiografik tarizda yozilgan bo'lib, unda shoira o'z ismidan boshlab tug'ilgan joyi, yili, bolalik davri, Qo'qonga qanday kelib qolganligi, Umarxonning zolimligi va hakazolar to'g'risida birin-ketin tasvirlab yozadi. Bu kabi tasvir unsurlari "Tarixi muxosara" she'rida ham uchraydi.

"O'ratepaga xatti mushtoqona" g'azali XX asrning boshlarida yozilganga o'xshaydi. Sababi she'rda shoira bizda hukmronlik o'zgardi, keldi bu o'rus, qolg'an umringizda andak begumon xush bormisiz?"deya boshdan oyoq "xush bormisiz?" radifni takrorlaydi. Unda davr, ijtimoiy muhit o'zgarib borayotganligi, ba'zi tabaqa vakillarining tili birligi va yana bir qancha muammolarni aytib o'tadi. Lekin bu xiraligini bartaraf etish kerakligini aytib, g'azalning bir misrasida "Oxkim, ahli ilmdin futur ketdi, vo darig'!" deb kuyunadi. Shoira she'rlarining har jabhasida ilmima'rifatni ko'ramiz.

Bir muxammasida Farg'ona vodiysining boy tabiatini kuylab, mavjud imkoniyatlarni el-yurt manfaati uchun xizmat qildirishga qodir kuchlarning paydo bo'lishini orzu qiladi

Tog'din irmoq shirillab Norindek daryo bo'lur,
Ko'p norinlar qo'shulib ulkan Sirdaryo bo'lur,
Agar suvni eplasang tuprog'I kimyo bo'lur,
Giyohsiz yotgan sahro mushti to'tiy bo'lur,
Qani sohibi aqilki, suvni cho'lg'a burguday.

Shoira hamisha yurt bilan hamnafas bo'ldi. "Yorsiz, urug'siz, ulovsiz chorikor", suvsiz cho'llarda ekin ekib qiynalgan xalq g'ami bilan yashadi. Dilshod "Boqmadi" radifli muxammasida zamonasidan shikoyat qilib, shariat peshvolarining o'z nafslari yo'lida dinni qurbon qilishi pora olib haqni nohaq deyishlariga istehzo bilan qaraydi. "Malah" radifli muxammasida yana yurt, xalq taqdiri yo'lida qayg'urgan fidokor, vatanparvar sifatida maydonga chiqadi. Unda O'rta Osiyo dehqonchiligida ekinlar ustiga vaqti-vaqti bilan quyundek yopurilib keluvchi chigirtkaning dehqonchilikka yetkazadigan zarari haqida so'z boradi" [4, 83 b]. Dehqonlar uchun ofat bo'lgan chigirtka jafosi shoira qalbini yaralaydi:

Do'stlar: yovruldi kam-kam o'lkaga vaboyi malah,
Mulki Farg'ona yerig'a yopushti baloyi malah,
Bog'lar yaprog'i qolmay, yemirdi poy malah,
Yerlarda ekinni qurutti tiri jafoyi malah,

El ichra bo'ldi musibat bu kornamoyi malah.

Yetuk shoira, muallima Dilshod otin o'zining sermazmun, uzoq yillik umrini badiiy ijodga bag'ishlash bilan birga o'z she'riyatida va otinlik faoliyatida ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlarini o'rtaga tashladi. U yoshlarning ilm olishiga, ahli ilm bo'lmishlarga jiddiy e'tibor beradi va ilm olish uchun esa katta mehnat qilish kerakligini, qobiliyat egasi bo'lish zarurligini uqtiradi. U bu haqda mana shunday degan edi:

Ko'zimning nurini to'qg'um kitob ersa sarih,
Vujud bobida yozilg'ondek bob ersa sarih.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, shoira she'rlarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, davr muammosi, xotin-qizlarning savodli, bilimli bo'lishi, xon va amaldorlarning zulmidan jabr chekkan xalq dardi kabi qator mavzular qalamga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonova N. Buyuk o'zbek ayollari. - Toshkent: 2016.
2. Пардаева Н. Анбар Отин лирикасида бадий-эстетик идеал масаласи. - ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ. Хива. 2023. № 8/4.
3. Qodirova M. Husainova F. Sharq klassiklari merosidan. Toshkent: 1981. O'zbek Fanlar akademiyasi.
4. Qodirova M. XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. –T. : Fan. 1977.
5. Xudoynazarova D. XIX asr shoiralari ijodida badiiy san'atlar jilosi. "Pedagogika" jurnali №2. 2002.
6. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
7. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
8. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
9. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
10. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

11. Kalandarova D. "Attitude to Uzbek folklore in the research of Karl Reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
12. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
13. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
14. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
15. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
16. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
17. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
18. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

OYBEK IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Xonigul Bektemirova,

TDPU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybek ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, asarlari, ijodiy mashaqqatlari, lirik shoir hamda yozuvchi sifatida qoldirgan ijodiy merosi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oybek, shoir, lirika, doston, XX asr, o‘zbek adabiyoti, ijod, roman, obraz

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizda ko‘lamli islohotlar, o‘zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birgalikda ma’naviy hayotimizni qaytadan isloh qilishga e’tibor kuchaydi. Milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularga bo‘lgan hurmatni yanada oshirish tufayli insonlarni yetuk kamolotga yetgan insonga aylantirish, jamiyatni yanada rivojlantirish davlat oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Insonda ma’naviyatni, axloqni, estetik tuyg‘uni shakllantirishda albatta adabiyotning o‘rni benihoyadir. Ma’rifatparvar shoirimiz Cho‘lpon “Adabiyot yashasa – millat yashar” degan fikrlari adabiyotning nufuzi va badiiy so‘zning qiymatini bildiradi. Shu jihatdan ma’naviyatni, adabiyotni yuksalishiga munosib hissa qo‘shgan yozuvchi va shoirlarning o‘rni katta. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek XX asr o‘zbek adabiyotining milliy iftixor va g‘ururidir. Oybek lirik shoir hamda romannavis hisoblanadi.

Oybek shaxsiyati uning adabiy merosi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ijodkor yashagan davridan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Mirkarim Osimning Oybekning ijodiga bag‘ishlangan “Oybek va uning she‘rlari” nomli maqolasi “Tong yulduzi” devoriy gazetasida chop etilgan. Shuningdek, Oybek tavalludining 100 yilligi munosabati O‘zbekiston Milliy universiteti nashr ettirgan “Millatni uyg‘otgan adib” nomli maqolalar to‘plamini Oybek bo‘yicha qilingan salmoqli tadqiqotlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Oybekning hayoti va ijodini o‘rgangan olimlar juda ham ko‘p. Shu olimlarning ichida Homil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Ulug‘bek Hamdam kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik.

Oybek ijodi o‘zgacha xoslikga ega, serqirra ijodkor. “Oybekning serhosil, o‘tkir ijodkorligini bizning adabiyot tarixida kimga o‘xshatish mumkin?” savolga G‘afur G‘ulom: “Oybekning o‘ziga, faqat Oybekni o‘xshatish mumkin” – deya javob berib, uning iste’dodini yuksak baholagan edi.

Oybek adabiyot sohasida o‘z o‘rnini egallashi uchun juda ko‘p mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Oybek o‘tgan asrning 20-yillarida adabiyot olamiga lirik shoir

sifatida tanilgan. Oybekning ilk she'rlari va she'riy to'plamlarini texnikumda o'qib yurgan chog'larida yozgan edi. Oybekning birinchi matbuotda e'lon qilgan she'ri "Cholg'u tovushi" deb atalgan. Shundan so'ng shoirning "Armug'on", "Tuyg'ular", "Ko'ngil naylari", "Mash'ala" kabi she'riy to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi. Oybekning she'rlari o'sha davrni kuylovchi, dardli bir nido kabi edi.

Oybek bolaligidanoq haqiqatga talpinib adolatni izlab yashaydi va she'rlariga ham shu ruhni baxshida etadi. Adib XX asr 20-yillarda faqat izlanishda bo'lib she'riy to'plamlar bilangina cheklandi. Tinmay izlanib, kamolatga intilib 30-yillarda adabiyotning xilma-xil janrlarida ijod qilishga kirishdi. Bu davrdagi ijodining asosiy qismini dostonlar tashkil etadi. "O'ch", "Dilbar – davr qizi", "Cho'pon qo'shig'i", "O'rozning baxti", "Baxtigul va Sog'indiq", "Kamonchi", "Qahramon qiz", "Temirchi jo'ra" kabi bir qator sermazmun dostonlar yaratdi.

Aynan 1941-yilda "Qutlug' qon" romani nashr etilguniga qadar Oybek lirik shoir sifatida gavalangan [2; 268]. Oybek iste'dodli shoir, adib, tarjimon, adabiyotshunos sifatida o'z o'rmini topdi. Biroq bunday natijalarga erishish aynan adib yashagan davrda shu darajada yuksalish juda ham qiyin edi. Oybek o'z iste'dodi bilan butun hayoti davomida xalqi va vatanning ravnaqi uchun tinimsiz xizmatda bo'ldi. Oybek juda serg'ayrat va qiziquvchan edi, o'zini tarjimashunoslik va tanqidchilikda ham sinab kordi. Oybek faqat o'zbek adabiyotini emas, balki, jahon adabiyoti va boshqa xalqlarning adabiyoti va adiblarining ijodi bilan qiziqib tanishganini uning ilmiy maqola va tarjimalarida bilib olishimiz mumkin. Uning ijodiga nazar solsak, Muqumiyy, Chexov, Pushkin, Shevchenko, o'zbek klassik adabiyoti va antik dunyo adabiyoti kabi qator masalalar uchun maqolalarini uchratishimiz mumkin. Oybekning ijodida biz uchun o'rnak bo'la oladigan fazilati bu uning ijodiy dadilligidir. Bunga misol sifatida uning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" degan risolasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yozuvchining "Qutlug' qon" romanida XX asrdagi o'zbek xalqining taqdiri tasvirlangan. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham o'ta tahlikali va fojiali kunlarda, g'urbat yutib kechirilgan hayotda "Qutlug' qon"day go'zal va o'lmas bir asarni yaratdi. Oybek nosir, tanqidchi, adabiyotshunos, va tarjimon ham edi. Oybekning asarlarida milliy ruh, milliy g'urur, milliy an'ana va o'zlikni anglashni kabi tuyg'ular ufurib turadi.

Yozuvchi har bir obraz orqali davr muammosini yoritgan. Romanning bosh qahramoni Yo'lchi halol, mehnatkash, oqko'ngil, sodda va or-nomusli inson sifatida tasvirlangan. Yo'lchida insonparvarlik, vatanparvarlik, mehribonchilik, fidoyilik kabi xislatlar juda ham yorqin va mohirona yoritilgan. Onasiga va singlisiga mehribonchiligi, sevisigi sodiq qolishi, xalqi va vatani uchun fidoyilik va jonkuyarlik

tuyg'ularini ko'rishimiz mumkin. Obrazlarning faqatgina xarakterlari yoki xislatlarigagina emas, balki ularning tashqi ko'rinishlarida ham haqiqiy mard o'zbek yigitlarining qiyofasini tasvirlagan. Romanga ilk yozilgan davrida adabiyotchilar uni iliq kutib olmagan bo'lsa-da, ammo adabiyot ishqibozlari tomonidan zavq-shavq bilan kutib olingan edi. Oybek tarixiy voqealarni badiiy bo'yoqlar bilan mohirona yoritib beradi. Sevimli shoiramiz Saida Zunnunova ham ustoziy Oybek va uning mahoratini juda chiroyli tarzda ifodalaydi. "Oybek haqida bir gap aytish ham qiyin, ham oson. Osonligi shuki, Oybekning ijodidan bahramand bo'lmagan kishi kam. Uning kitoblari ko'p yoshlarni shoir qildi, yozuvchi qildi. Qiyinligi shuki, Oybek teran fikrli faylasuf yozuvchi. U haqida gap aytmoq uchun o'zidek dono, o'zidek zukko bo'lish kerakdek tuyuladi. Kechalari "Qutlug' qon" sahifalariga tikilib xayolga tolganlarim, Gulnor bilan birga yig'laganlarim hali-hali esimda".

Oybek o'zining samimiyligi, sofdilligi bilan insonni o'ziga tortib kelgan. Oybek haqo'yligi va iste'dodi bilan o'zbek adabiyotida salmoqli o'rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Oybek va Zarifa. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2003.
2. Qodiriy A. Diyor Bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 268 bet.
3. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007.
4. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

11. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
14. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA OTA-ONAGA BO‘LGAN HURMAT-E’TIBORNING E’TIROF ETILISHI

Mohira Qobilova,

TDPU talabasi

Ilmiy rahbar: Mubora Omonova,

TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada Kaykovusning “Qobusnoma” asari XI asrning tarbiyaviy mo‘jizasi, asardagi insonlarga xos bo‘lgan fazilatlar va farzandlarning ota-onalari oldidagi burch va majburiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Annotation: Kaykovus work “Qobusnoma” is an educational miracle of the 11th century. The article talks about the characteristics of people in the work and the duties and obligations of children towards their parents.

Kalit so‘zlar: Ota-ona, ilm, farzand, insonparvarlik, haqshunoslik, burch, kamtarlik, hurmat va izzat.

Keywords: Parents, science, child, humanitarianism, honesty, duty, humility, honor and respect

“...Nedinkim, sen ota-onanga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga ota-ona daraxtga o‘xshaydi” (Kaykovus)

Har bir elat milliy merosi bilan umuminsoniy qadriyatlarni bog‘lagan holda muqaddasdir. Har bir millatning o‘ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyalash, milliylik asosida yosh avlodga yetkazish doimo dolzarb jarayonlardan biri bo‘lib kelgan.

Inson barkamolligiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir manbaalarga O‘rta Osiyo va jahon ma‘rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalash, o‘qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

XI asrning 80-yillarida Tabariston hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Kaykovus tomonidan fors tilida yozilgan va “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. “Qobusnoma” shu asarning o‘zbekcha tarjimasidir. Shohlar avlodidan bo‘lgan Kaykovus qalamiga mansub ushbu asar Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan mashhur asar hisoblanib, bu asarning boshlanmasi mumtoz adabiyotda an‘anaga aylangan Allohni tanimoq zikri va Payg‘ambarlar hilqati mavzusiga bag‘ishlangan boblar bilan boshlanadi. Aslida, asar Kaykovus tomonidan o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab yaratilgan bo‘lsa-da, bu asar Sharq va G‘arb xalqlarining barcha avlodlari uchun komil

inson bo‘lib yetishishi va mukammal hayot tarzi yaratishlari uchun katta dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari qirq to‘rt bobdan iborat. Bular, Parvardigori olamni tanimoq zikrida, Ota-ona xaqini bilmak zikrida, Hunar afzunligi, Baland qadr va oliy ta‘b bo‘lmoq bayoni zikrida, Suxandonlik bilan baland martabali bo‘lmoq zikrida, Qarilik va yigitlik sifati zikrida, Farzand parvarish qilmoq zikrida.

Yozuvchi otaning burchi yana o‘z farzandiga adab ham ilm o‘rgatishdadir deb ta‘riflaydi. “Bir soatlik ilm, bir kunlik ibodatga teng”³³. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir ota-onaning farzandi haqqini bajargani deb hisoblaydi. Zero, bunga o‘xshash ma‘lumotlar hadislarda ham keltirilib o‘tilgan. Ya‘ni ota-onaning farzand oldidagi burch va haqlaridan yana biri farzandlarga yaxshi ism qo‘yishlikdir.

Darhaqiqat, har bir ota-ona farzandi sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, o‘qib ilm o‘rganishi, hunarli bo‘lishi, jismonan hamda ma‘nan yetuk bo‘lishi uchun doim sa‘y-harakatda bo‘lmog‘i lozim.

Muqaddas ota-onalarning farzandi oldidagi haq va burchlari bo‘lganidek, farzandlarning ham o‘z suyangan tayanch tog‘lari, ota-onalari oldida burch va amallari borligi tog‘risida Kaykovus o‘z asarida ta‘riflab bergan. “Ey farzand, bilg‘ilkim, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadir. Ota-onani nima uchun hurmat qilurman deb ko‘nglingg‘a kelturmag‘il, bilg‘ilki ular sening uchun o‘limg‘a ham tayyor turadurlar. Har farzandki, oqil va dono bo‘lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqqini ado qilmoqdin xoli bo‘mag‘usidir.”

Ular shunday zotki, ularning haqlarini ikki dunyoda ham ado qila olmaymiz. Onalarimizni jannatdagi rayhon guliga qiyoslaydigan bo‘lsak, otalarimizni esa Kab‘atullohga tenglashtirsak arziydi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari o‘z davri uchun ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘lib, insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Kaykovus ota-ona haqini ulug‘lar ekan, uni barcha narsadan ham yuqori qo‘yadi. Bu borada dinimizda ham aytib o‘tilgan. Ota-onani rozi qilmoq, Allohni rozi qilmoq bilan tenglashtiriladi. Asarda keltirilishicha, Amir almo‘minin Alidan farzandda ota-onaning haqi qancha deb so‘raganida shunday javob beribdi: “Haq taolo bu adabni Rasulning ota-onasi o‘limida ko‘rguzdi. Nedinkim, bu hazrat ota-onasining hayotning ayyomin topsa erdi, ularni o‘zidan ilgari tutmoq, ularning haqini bilmoq va ularga farzandlik yuzidan tavoze‘ ko‘rguzmoq vojib bo‘lur erdi”. Yuqorida o‘gitan Ota-onaning hayotlik paytida haqini

³³ A. Navoiy., Mahbub ul-qulub.

ado etishlik va qadrlash, ularning martabalarini yuqori tutish kerakligi hamda buni Rasul ota-onasining o'limida anglab yetganini anglashimiz mumkin.

Ota-onalar doimo o'z farzandlari haqida qayg'uradilar, jon dili bilan parvarish qiladilar. Inson ota-onasiga qanday muruvvat ko'rsatsa, kelajakda uning ham farzandlari ota-onalariga shunday muruvvatli bo'lishadi. "Zinhor meros olmoq xirsi bila ota-onang o'limini tilamag'ilki, ularning rizqi bila sening rizqing yetishur" Ota-onalar bolsa ham, Alloh taolo har bir insonning rizqi borligini aytib o'tadi.

Kaykovusning adabiyotimizga va milliyligimizga qo'shgan xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan barcha zamonlarda ham o'z qiymatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kobusnoma. Kaykovus. Dolimov S., Dolimov U. – T.: O'qituvchi, 2011. 24-25-b.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
4. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

10. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
14. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDA IFODALANGAN RANGLAR TASVIRI TAHLILI

Mirzoxidova L.B

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
Uzluksiz kasbiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolvida “Qutadg‘u bilig” dostonida ranglar orqali ifodalangan majoziy tasvirlar tahlilga tortilgan bo‘lib, oq, qora, qizil, yashil, sariq ranglar orqali ifodalangan ramziy tasvirlar tahlil qilignan.

Kalit so‘zlar: majoz, rang, tasvir, istiora, ramziy obraz, majoziy tasvir.

Аннотация: В данной статье анализируются тропы, выраженные через цвета в эпосе «Кутадгу Билиг». А также символические образы, выраженные через белый, черный, красный, зеленый, желтый цвета.

Ключевые слова: метафора, цвет, образ, метафора, символический образ, тропы.

Abstract: In this article, figurative images expressed through colors in the epic "Kutadgu Bilig" are analyzed, and symbolic images expressed through white, black, red, green, yellow colors are analyzed.

Key words: trope, color, image, metaphor, symbolic image, figurative image.

Rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar yaratish insoniyat badiiy tafakkurining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Xalq qadimgi e‘tiqodlarini, mifologik tasavvurlarini ranglar orqali ifodalagan: oq rang – mardlik, yengilmaslik, tinchlikning ramzi, qora – dushman, o‘limning, qabrning (Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida qora yer – qabr (QB.704) ramzi, qizil - tinch-totuvlik, sog‘lik, yorug‘ kunning ramzi (O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida). Qadimgi ibtidoiy davrda odamlar biror narsaning mohiyatini tushunib yetmasdanoq, uni rangidan ilg‘ay olgan, turlicha ranglardan qanchalik foyda yoki zarar ko‘rishiga qarab, narsalarni shunday atagan va ranglarni qaysidir ma’noda ezgulik (Axura Mazda, Mitra) yoki yovuzlik (Angro Manyu, Axriman) timsoli deb bilganlar.

Demak, qadimgi turkiy adabiyotda ranglar majoziy turkiy poeziyada Kultegin yodnomalarida ko‘rina boshlangan bo‘lib, bu yodnomalarda oq turkiy xalqlar o‘rtasida yaxshilikning, qora esa yomonlik, yovuz kuchlarning majoziy sifatida ishlatilgan. «Qutadg‘u bilig», «Devonu lug‘otit turk» asarlarida ham oq, qora, qizil, yashil, sariq kabi bir necha ranglarning ramziy tasvirlarda o‘z ifodasini topganligini ko‘ramiz. B.To‘xliyev «Qutadg‘u bilig»da tasvirlangan ranglarni tahlil etar ekan, asarda ranglarga yuklatilgan ma’nolar ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi[1;34], ranglar bilan

aloqador bo'lgan predmet, hodisalarni chuqur mushohada qiladi, aloqadorlik sabablarini aniqlaydi, ranglar anglatgan majoziy ma'nolar ildizi qadimgi miqlarga borib taqalishini aytadi va bu ma'nolarning mohiyatini yorqin talqin qiladi. Haqiqatan ham, dostonda ifodalangan ranglar mavzu ko'lamiga qarab bir-biriga zid ravishda turli xil ko'chma ma'no, fikrlarni berishga xizmat qildirilgan. Buni tahlilda yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin.

«Qutadg'u bilig»da rang tasviri bilan bog'liq majoziy ma'no, majoziy obrazni ifodalab kelgan baytlarni kuzatar ekanmiz, bunda shoir ko'pincha oq va qora, qizil va yashil ranglarni o'zaro qarama-qarshi qo'ygan holda ma'lum ijobiy va salbiy xususiyatga ega bo'lgan majoziy fikrlar va obrazlar tizimini yaratadi. Masalan, qora bosh (ipor-yipar) va oq bosh (kofur-kafur) (QB. 720, 936), qora quzg'un – qora quzg'un va oq qush tusi – qug'u (QB.216, 828) yoshlik va keksalikning ifodasini anglatib keladi: qizil qizg'u e'lar bolur yab yashil - qizil qizg'in yuzning yam-yashil bo'lishi (QB.390) (ramziy sifatlash, majoziy mursal) esa tiriklik va o'limning ramziy ifodasini anglatishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, dostonda oq rangi anglatgan majoziy ifodasiga ko'ra quyidagi guruhlarga aratish mumkin:

- 1) tinch-totuv, farovon hayotni ifodalab kelgan tasvirlar;
- 2) insonning qay toifaga kirishini anglatib keluvchi tasvirlar;
- 3) QUSHLARGA oq va qora rang ottenkalari yuklatilgan holda ifodalangan tasvirlar;
- 4) yaxshi xulqli insonlar tasviri.

Asarda Bug'roxondan oldingi hukmdorning qanday siyosat yuritganligi quyidagi baytda ajoyib tarzda o'z ifodasini topgan. Bunda shoir mashaqqatli hayotni tul xotin (tashxis) obrazi orqali yoritadi:

Tymən yildə bəry tul erim tyləs

Bu tul toni suchlub θryњ kedtim as. (QB.74)

Mazmuni: Tuman yildan beri ma'yus tul edim,

Endi bu tullik kiyimini echib oq libos kiydim.

Qadimdan ma'lumki, eri o'lib, boshiga musibat tushgan ayol tul hisoblangan. U azadorligi uchun ham qora kiyinadi. Uning qiyofasida g'amginlik hukmron bo'ladi. Bir necha yillardan beri ma'yus tulligi, endi tullik kiyimini echib, oq libos kiyishining sababi Bug'roxonning taxtga kelishi, endi hayot tarzi butunlay o'zgacha, ya'ni ahillik, samimiylik, mehr-oqibatlilik, farovon turmush tarzi hukm surayotganining ramzi sifatida tasvirlangan. Bunda Bug'roxondan oldingi hukmdor yuritgan siyosatdan xalq og'ir, mashaqqatli hayot kechirganligi ma'lum bo'ladi. Demak, tul – qora hayot, azob-

uqubat, g'am-tashvish majozi, oq libos (ramziy sifatlash) esa aksincha – yaxshilik, yorug'lik, samimiylik, farovon hayot ramzi sifatida ifodalangan.

Dostonda oq va qora ranglari insonni tabaqalashtirish belgisiga ham aylangan. Bu ranglarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (tazod, ramziy sifatlash) orqali ma'lum ijtimoiy-falsafiy majoziy tarzda aks ettirilgan. Qora-mehnatkash, oddiy fuqarolarning majozi. Oq-martabali, ulug' kishining (ramziy sifatlash) majozi sifatida ifodalangan:

Qara qul qarasi bolur beg θryњ

Qarali θryњli adirtti kθryњ. (QB.348)

Mazmuni: Qora bu qullar qorasidir, beg esa oqdir,

(Yaratuvchi) qora bilan oqni farqladi ko'ring.

Bundan tashqari, qushlarga oq va qora rang ma'no ottenkalari yuklatilib, «Qug'uqa qatilmaz kθry tur yug'aq, qara qush θryњ qush bila kəd yiraq», «Nazar sol yug'oq oq qushga aralashmaydi, Qora qush oq qushdan juda ham yiroqdir» (QB.630), yaxshi va yomon (ramziy sifatlash, majozi mursal) xulqli odamning majoziy obrazi ifodalangan.

Dostonda oqqush ramziy obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir baxt-omad, orzuga yetishish, martabaga erishishni «oq qush» tutish ramzi orqali beradi. Jumladan, B.To'xliyev shunday yozadi: «...bu obraz turkiy xalqlarning juda qadimiy urf-odatlarini hamda tasavvur-etiqodlari, ishonchlari bilan aloqador. Oqqush obrazi tilak-maqсадlarni ro'yobga chiqarishda vosita ramzi sifatida amal qiladi»[2;49]. Dostonda oqqush baxt va omad ifodasi: «Ujuz tutma erdəmni θrgən og'ul, Bu erdəm yorig'i θryњ qush-teg ul. θryњ qush quti-teg bu erdəm quti, Yuri qush atag'il sen erdəm ati (QB.474). Qadrsiz tutma, san'at hunarni o'rgan, o'g'il, Bu san'at, hunarning ravishi oqqushdekdir. San'at-hunarning istiqboli oqqush istiqbolidek, Kel, sen san'at-hunar otini qush deb atagin; kun chiqishi, tong otishi: «Tug'ardin yashiq bash θtyrdi θry, qug'u qirtishi boldi dunya tolu» (QB.802) (ramziy o'xshatish), «Sharqdan quyosh boshini yuqori ko'tardi (tashxis), butun dunyo oqqush tusini kasb etdi» (ramziy sifatlash) kabi majoziy tasvirlarni ifoda etishi bilan birga, salbiy xususiyatga ega bo'lgan qarilikning: «Qug'u qondi bashqa yelildi yashim»(QB.828), «Boshga oqqush qo'ndi-etildi yoshim», «Sachim bodli chiњqur tθsi-teg shatut» (QB.828), «Sochim shunqor patidek kulrang tusga kirdi», «Saqal boldi sinqur tyisi-teg shashut»(QB.836), «Soqol shunqor patidek kumushrang bo'ldi» (ramziy o'xshatish, ramziy sifatlash) ham ramzini ifodalab kelgan.

Qora rang majozi. Badiiy adabiyotda qora rang ko'pincha yovuzlikning ramzi sifatida keladi. Adabiyotshunos olimlar I.Haqqulov va A.Abdurahmonovlarning tadqiqotlarida qora rang qadimgi turkiylarda ulug'lik, balandlik, kattalik belgisi

sifatida ishlatilganligi haqida fikr bildiradi[3.17;4;21]. «Qutadgʻu bilig»da bu rang juda koʻp qoʻllanilgan ranglardan sanaladi. Asarda qora rang asosan yaxshilikning oʻrniga yomonlik (QB.348), goʻzallikning oʻrniga xunuklik (QB.336), yorugʻlikning oʻrniga qorongʻulik (QB.512,596), obroʻning yoʻqolib, hurmatsizlikning (QB.770) kelishini, shu bilan birga yoshlik (QB.198), oddiy, avom xalq (QB.348, 353,510, 646...), qabr (QB. 550, 646, ...) kabi majozlarni ifodalab kelgan ramziy sifatlardir.

Qora soʻz va soʻz birikmalari orqali ifodalangan majoziy tasvirlarni quyidagi guruhga boʻlib oʻrganishimiz mumkin:

- 1) yoshlik – keksalikni ifodalab keluvchi tasvirlar;
- 2) hurmatsizlik, yovuzlik, oddiy xalq maʼnosini anglatuvchi tasvirlar;
- 3) oʻlim – qabrni ifodalab kelgan tasvirlar;
- 4) quyosh qaytib, olamga qorongʻulik tushishini ifodalab kelgan majoziy tasvirlar.

1. Qora bosh – inson umrining ramzi. Misrada qora bosh insonning yoshligi maʼnosida ham qoʻllanilmoqda. Chunki bunga sochning qoraligi asos boʻlmoqda. Qora boshni yeyish – yosh umrni xazon qilishdir. Qora qilgʻi – bu yomon qiliqli, johil odamning ramzidir (ramziy sifatlash, tashxis, majoziy mursal). Johil xulqli odam oʻzining ana shu yomon xulqi bilan oʻz umrini qisqartiradi. Demak, inson soʻzlayotgan soʻzini oʻylab, chuqur mushohada qilmasdan soʻzlagan soʻzidan boshiga malomatlar orttiradi va umrini qaritadi:

Qara qilqi teʼsiz yava sʼzləgən
Yava sʼz turur bu qara bash yegən (QB.198).

Mazmuni: Qora odati, tengi yoʻq behuda soʻzlashdan iborat,
Qora boshni egan narsa behuda soʻzdir.

Ushbu baytda esa kuni qorayayotir soʻz birikmasi orqali – keksalikning ramziy ifodasi berilgan:

Өkyndi ayur bardi esiz kynym
Tiriglik tygədi qararur tynym (QB.828).

Mazmuni: Oʻkindi, aytdi: Esiz kunlarim oʻtib ketdi,
Tiriklik tugadi, kunim qorayayotir.

Maʼlumki, Sharqda kun chiqishi tugʻilish, hayot boshlanishining ham majoziy boʻlib, kun botishi esa hayotning tugashi ramziy ifodasi sifatida keng qoʻllanilgan.

2. Qora rang dostonida yuzi shuvut boʻlish, yaʼni odamlar oldida hurmatsiz boʻlishning (majoziy mursal) ramzini ham anglatib kelgan:

Evəklik biliñ-ul qamugʻqa yavuz
Qali bolsa begkə yyzi boldi boz (QB.336).

Mazmuni: Shoshqaloqlik barcha narsaga yovdir,
Agar bu begda boʻlsa, uning yuzi qora boʻladi.

Otunqa qatilma fasaddin yira
Bu ekki qiliqdin bolur er qara (QB.770).

Mazmuni: Tuban ishga aralashma, fasoddan uzoqlash,
Bu ikki qiliqdan kishi qora bo'ladi.

Insonga yovuz niyat bilan munosabatda bo'ladigan kishi uning yovi bo'ladi. Demak, shoshqaloqlik bilan qilingan ishlar yaxshi natija bermaydi va bu shoshqaloqlik qilgan insonning hurmatini, obro'sini tushuradi, uyatga qo'yadi. Ana shu xususiyati bilan shoshqaloqlik insonning dushmani sifatida baholanadi. Tubanlik va fisqu fasod ham insonlarning yuzini erga qaratadi. Hech qachon tuban, fasodchi kishilar xalq orasida qadrlanmagan, aksincha, past nazar bilan qaralib, doim tahqirlangan.

3. Dostonda qabr – qora yer qa'ri, kul rang yer osti, bo'z yerning kovagi tarzida poetiklashib kelgan baytlar juda ko'p uchraydi:

Neky asg'i axir qara yer uti
Aniñ tyshnəki-ul yag'iz yer θti (QB.550).

Mazmuni: Foydasi nima, oxiri qora yer qa'rida,
Uning tushar eri bo'z erning kovagidir.
Baqa kθrgil emdi yag'iz yer qoyi
Ne yañlig' kishi kirdi tolmay oyi (QB.702).

Mazmuni: Endi kulrang er ostiga nazar solgin,
Qanchadan-qancha odamlar kirdi o'pqoni to'lmadi.

4. Dostonda qorong'u tushishi, ba'zi o'rinlarda qorong'ulik ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lgan tasvirlar juda ko'p bo'lib, bunda adib qora zangi, zangi yuzi, qora yuzbog'i, qora soch, qora qosh, qora xabash, osmon qora ko'ylagini yirtdi (tun oxirlab, tong otishi), ko'mir rangini bog'ladi, jin yuzi, qosh o'ymoq, qora qush pariga to'ldi, zulmat pardasi kabi bir necha xil ko'rinishdagi so'z birikmalaridan unumli foydalangan holda original tasvirlar yaratgan. Bunda jonlantirish san'ati vositasida olam, osmon, quyoshga inson xatti-harakatlari ko'chirilgan. Tasvir yaratishda ramziy sifatlash, ramziy o'xshatish, majozli mursal kabi vositalardan foydalanilgan:

Yashiq yandi yerka kaqurdi bashin
Yaruq dunya meñzi qarardi eshin. (QB.512)

Mazmuni: Quyosh qaytdi, boshini erga yaqinlashtirdi,
Yorug' jahon yuzi zulmat pardasi bilan qoraydi.
Yashiq badi yyzkə qara yz bag'i,
Ajun boldi bytry qara yer tug'i.
Gyjək byrdi rumi qizi otru yyz,
Qara sach bodug'u ajun toldi tyz.
Tygəl zañi yuyzi uruni qaliq

Uchar tindi qodti yurig'li yuriq. (QB.726)

Mazmuni: Quyosh yuziga qora yuz bog'i bog'ladi,
Butun olam qora yer yopig'i bilan qopladi.
Rumiy qizi yuziga kokilini tushurdi,
Butun olam qora soch rangi bilan to'ldi.
Osmon butunlay zangi yuziga o'rindi.
Uchar (qushlar) tindi, yuruvchi(lar) yurishini qo'ydilar.

Dostonda boshqa ranglar singari qora rang orqali majoziy tasvir yaratish ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu rangning barcha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir-biriga qarama-qarshi ma'no ifodalovchi juda ko'p ramziy tasvirlar yaratishda rang va atrof-muhit, ijtimoiy hayot o'rtasidagi munosabatlar inobatga olingan.

Yashil rang tasviri. Yashil rang yoshlikning «Kθrēmish kθrək erdi oshbu θzym, Ajal tuti eltyr ne asg'i sθzym» (QB.218), «Men yashnagan barg kabi edim, Ajal tutdi, olib ketayotir, so'zlarimdan na foyda», yangilikning, tiriklikning, yaxshi odamning «Yashil suv qizil otqa bolmas qonuq»(QB.370), Yashil suv qizil olovga qo'noq bo'lmaydi» (QB.371), muqaddaslikning ramzi bo'lish bilan birga, o'z navbatida, bunga teskari o'limning ham ramzini ifodalab keladi: Qizil qizg'u eħlθr bolur yab yashil. Qizil qizg'in yuzlar yam-yashil bo'ldi (QB.391).

Qizil rang tasviri majozii. Qizil rang dostonning ko'pchilik sahifalarida insondagi ruhiy, jismoniy harakat – holatni ifodalovchi majozga aylangan.

Yuqoridagi kabi qizil rang vositasida ifodalangan majoziy tasvirlarni ham quyidagi guruhlarga ajratamiz:

- 1) hurmat-e'tibor, obro'-izzatni, xursandchilik, mag'rurlikni ifodalab kelgan tasvirlar;
- 2) uyat, minnatdorchilik, o'limni ifodalab kelgan tasvirlar;
- 3) tilga qizil rang ma'no ottenkasining yuklatilishi orqali ifodalangan tasvirlar.

Dostonda qizil rang va unga bo'z, yashil ranglarning qarama-qarshi qo'yilishi orqali turli xil ma'nolarni anglatuvchi majoziy tasvirlar ifodalangan. Jumladan, hurmat qozonish: «Yemə keçti θdlər bir ancha bu yaħ, Bu Aytoldi tapg'un qizil qildi eħ (QB.194), «Shu tarzda yana bir qancha vaqtlar o'tdi, Oyto'ldi o'z xizmati bilan yuzini qizil qildi»; xursandchilik: «Eligkə yulug' qilg'il ishlət bu nəħ, Tiləkləri bulsu qizil qilsu eħ (QB.850), «Bu narsalarni eligga fido qilgin, ishga solgin, Tilaklarini topsin, yuzini qizil qilsin»; jahl: «Yag'i kθrsə alp er qizartur meħiz (QB.388), «Botir mard yov ko'rsa, yuzini qizartiradi»; uyat: «Kesildi sθzym sen esən edgy qal,Eligkə bitig ber yuzym qilma al (QB.568), «So'zim tugadi, sen eson va yaxshi qol, Eligga maktub ber

yuzimni qizil qilma»; o'lim: tazod san'ati, ya'ni qizil va yashil ranglarning qarama-qarshi qo'yilishi orqali «Qizil qazg'u ehlər bolur yab yashil (QB.390), «Qizil, qizg'in yuzlar yam-yashil bo'ladi», «Qarishsa bodulur qizil ham yag'iz (QB.338). Minnatdorlik: «Kim ish qilsa terkin aħar bergy nəh, Oshul nəh bilə er qizil qilsa eħ (QB.390), «Kim ish ko'rsatsa, darhol unga narsa (in'om) berish kerak, Toki o'sha narsa bilan kishi yuzini qizartirsin».

Yuqoridagi misollardan shu narsa ayon bo'ladiki, muallif bir rang ostida bir necha xil ma'no ifodalashda, avvalo, tasvir ob'ektining harakat-xususiyati, shart-sharoitini hisobga olgan. Ya'ni xizmati bilan (hurmat qozonish), tilagiga etib (xursanchilik), dushmani ko'rganda (jahl), in'om olganda (minnatdorchilik) yuzini qizartirishidagi majoziy ma'no har bir bayt mazmunidan kelib chiqadi.

Dostonda insonning tilga e'tiborsizligi qizil rangida kinoyali ko'chim hosil qilgan. Bunday ko'chimda insonni aytiladigan so'zga mas'uliyatli bo'lishga chaqirish hissi bor: Qizil til qilur qisg'a yashlig' seni, Esənlik tiləsə qatig' ba ani (QB.196). Qizil til seni qisqa yoshlik qiladi, Eson bo'layin desang, sen uni qattiq bog'la. Qara bash yag'isi qizil til turur, Nechə bash yedi bu taqi ma yeyyr (QB.196). Qora boshning yovi qizil tildir, U qanchadan-qancha boshlarni edi, yana ham eydi. Qizil til qara bashqa yavlaq yag'i, Bu yavlaq yag'ig' beklə inchin (QB.430). Qizil til qora boshga ashaddiy yovdir, Bu ashaddiy yovni mahkam tut, tinch bo'l.

Tilga qizillik ottenkasining berilishi ma'lum majoziy ma'no kasb etadi. Qizil til deyilganda tilning rangi emas, balki yomon, yolg'on so'zni so'zlaydigan tilni anglatadi [118.34-36]. Demak, qizil til nodon, o'z-o'ziga ehtiyotsiz, farosatsiz odamning ramzi. Tilning qizilligiga salbiy bo'yoq yuklatilgan. Aynan qizil til qora bosh, ya'ni yosh umringga ashaddiy dushman. Agar tilingga ehtiyot bo'lmay, nimani xohlasang, shuni gapirsang, unda bu tiling orqali yoshgina umringni xazon qilasan degan fikr anglashiladi.

Sariq rang tasviri majozii. Dostonda sariq rang faqatgina azoblanish, xastalikning, yuzi shuvut bo'lish, ya'ni uyalishning, shu bilan birga, kech tushishi, ya'ni quyoshning botishi: «Qizil yuz θħi θħdi boldi sarig', Ajun boldi altun θħi-teg jahan (QB.736). Qizil yuz rangi o'zgardi, sariq bo'ldi, Jahon oltin rangidek musaffo bo'ldi» bilan bog'liq bo'lgan ko'chimlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Bu davr poeziyasida insondagi so'niqlikning belgisi sifatida sariq rangli o'simlik – za'faron so'zi ham xuddi shu rang anglatgan majoziy fikrlarni ifodalashga xizmat qilgan. Dostonda ko'p o'rinlarda qizil va sariq ranglarni o'zaro qarama-qarshi (tazod) qo'yish orqali ma'lum ko'chimlar ifodalangan. Masalan, «Tamam arg'uvun-teg qizil meħzim erdi, Bu kyn za'faron urg'in endə tarattim (QB.936). «Qizil yuzim mutloq arg'uvondek edi, Bu kun unga za'faron urug'in sepdi» (majozii mursal), «Økysh yegli

увѣлуq kѳr isgil bolur, Sarig‘ meѣzi qovdaq ati il bolur. Bog‘uzug‘ kѳdѳz tutchi igsiz yuri, Qilur ig kishiniѣ qizil eѣ ishiѣ (QB.696). «Ko‘p yeyuvchi odam dardmand bo‘ladi, Yuзи sariq, o‘zi rangpar, oti pastkash bo‘ladi. Doim tomoqni tiy, dardsiz yur, Dard kishining qizil yuzini xarob qiladi» (ramziy sifatlash), «Yuзи kѳrki qulma qilinch edgy qul, Qilinch edgy bolsa tygѳl bolg‘a ul. E kѳrklyg o‘ulug‘li muni qulmag‘il, Qizil meѣziѣi sen sariq‘ qilmag‘il (QB.670). «Yuзи chiroyni istama, fe‘lu atvori yaxshisini ista, Fe‘lu atvori yaxshi bo‘lsa, u to‘kis bo‘ladi. Ey, chiroylini istovchi, buni istamagin, Qizil yuzingni sen sariq‘ qilmagin». Misollarda qizil yuz – sog‘lom, o‘z hurmatiga ega bo‘lgan, yuzi sariq esa xasta, yuzi shuvut, ya‘ni uyatda qolgan insonning majoziy ifodasini anglatishga xizmat qilgan.

Demak, sariqlik inson umridagi so‘niqlik, tushkunlik, g‘amginlik, sharmandalikning belgisi sifatida qo‘llaniladi. Jumladan, B.To‘xliyev ham «Sharq xalqlari adabiyotida qizil yuz yoshlikning, sariq yuz esa keksalikning, ayni paytda, dard va alamga, qayg‘u-g‘amga mubtalolik ramzi», deb ta‘kidlaydi [53]. Umuman olganda, sariq rang yaxshilikka nisbatan zid ma‘no beradigan (QB.128,132,224,242) sifatlashdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dostonda rang tasviri alohida ahamiyat kasb etib, bunda ranglarning qadimda, xalq og‘zaki ijodida anglatgan ma‘nolari asosida ramziy fikrlar anglatishga erishilgan. Bu asarda ranglarning majoziy ma‘no anglatishida muallifning o‘ziga xos uslubi ko‘zga tashlangan. Ranglarga yangi-yangi ma‘nolar yuklatilib, o‘ziga xos majoziy tasvirlar yaratishga erishilgan. Asarda ko‘pincha ranglar binar sistemasi bo‘yicha qarama-qarshi qo‘yilgan holda majoziy tasvir yaratishga erishilgan.

Adabiyotlar

1. Тўхлиев Б. «Қутадғу билиг»да ранг рамзига доир//Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – №3. – Б. 34-38.
2. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 49.
3. Ҳаққулов И. Яна қора ранг талқини ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – №3. – Б. 17-24;
4. Абдурахмонов А. Алп эр Тўнга абадияти. (Қаҳрамон шахсияти ва дoston матни) – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 21-23.
5. Pardayeva N. Anbar Otin adabiy merosi: ko‘lami, o‘rganilishi, qayta baholash zarurati.-INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART. Xalqaro so‘z san’ati ilmiy jurnali. 2020.

6. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
7. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
8. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
9. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
10. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
11. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
12. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
13. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
14. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
15. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
16. О‘разбаева М. XX asr o‘zbek adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
17. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
18. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

UVAYSIY CHISTONLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Omonova Durdona,

TDPU talabasi

Ilmiy rahbar: M. Omonova,

TDPU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon adabiy muhitida shoirlar merosi, shu muhitda ijod etgan Jahon otin Uvaysiyning lirikasi va chiston janrining xususiyatlari, chistonnavislik mahorati, Alisher Navoiy ijodidan bahramand ekanligi haqidagi ma‘lumotlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, Uvaysiy, lirika, shoirlar, chiston, ijod, janr, ramz, obraz

Аннотация: В статье анализируется наследие поэтов в литературной среде Кокана, особенности лирики и чистотонного жанра Джахана Отина Увайси, мастерство чистотонного письма, а также то, что он увлекается творчеством Алишера Навои.

Ключевые слова: литературная среда Кокана, Увайси, лирика, поэты, история, творчество, жанр, символ, образ.

Qo‘qon adabiy muhitini shoirlar ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Bu davrda ijod qilgan Uvaysiy, Anbar otin, Dilshodi Barno, Nodira kabi ijodkor ayollarning lirik merosi e‘tiborga molikdir. Darhaqiqat, Qo‘qon adabiy muhitini tashkil topishi va rivojlanishida Nodiraning o‘rni beqiyos. Nodira tashabbusi bilan xonlikda bir qator islohotlar olib boriladi. Xalq, xususan, xotin-qizlar tahsil olishi uchun alohida maktablar tashkil ettiradi. Saroydagi kanizaklarini ilmi qilish maqsadida Uvaysiyning Qo‘qonga taklif qiladi. Nodira va Mahzunalar bilan bir qatorda Qo‘qon ayollar she‘riyatining namoyondalaridan yana biri Jahon otin Uvaysiydir. Uvaysiy lirik she‘rlar devonining muallifi sifatida mashhur.

Uvaysiy lirikasi haqida gap ketar ekan, uning chistonnavislik mahoratiga alohida e‘tibor berish lozim. Tuzgan devonida uning 13 ga yaqin chistoni o‘rin olgan. Chiston — Sharq she‘riyatidagi lirik janrlardan biri. Dastlab xalq og‘zaki ijodida she‘riy savol-javob, topishmoq shaklida paydo bo‘lgan. Chistonda narsa yoki hodisaning xarakterli belgilari majoziy tavsiflanib, nima ekanligini topish tinglovchiga havola etiladi. Shu sababdan Chiston “topishmoq” deb ham ataladi. Chistonda narsalarning nomlari ochiq aytilmaydi, balki ularga xos shakl, sifat va xususiyatlar qayd etiladi. Tinglovchi chiston mazmunidan kelib chiqib, unda yashiringan, nomi pinhon tutilgan narsani o‘z zehni, idroki kuchi bilan topib oladi. O‘tmishda shoirlar chiston yaratishda, asosan, 2 usul — abjad va oddiy topishmoqdan foydalanishgan. Chistonlar fard, bayt, qit‘a,

ruboiy va qisman gʻazal shaklida yoziladi, 2 baytdan 10 baytgacha, hatto undan ham ortiq boʻlishi mumkin; maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega boʻladi. Oʻzbek adabiyotida chistonning dastlabki namunalarini Alisher Navoiy yaratgan ("Qalam", "Tanga", "Miqroz", "Yumurtqa" va boshqalar).³⁴ Navoiy ijodida chistonlar hajm jihatdan anchagina katta. Uning chistonlari olti, sakkiz, baʼzan oʻn misrani tashkil qiladi.³⁵

Ul hukkayi ohkim, qilurlar gulfom,
Kim javfi paniru maskadin toʻldi tamom.
Kim oning urushturmogʻidin istar kom,
Nokom ushatqusidur oni, nokom

(Yumurtqa)³⁶

Bejizga chistonlar xalq ogʻzaki ijodida paydo boʻlmagan. Bu janr namunalari insonni topqirlikka, fikrlash qobiliyatini va aqliy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiydan farqli oʻlaroq Uvaysiy chistonlari asosan ikkilik yoki toʻrtlik shaklida yozilgan. Shu sababli uning chistonlarida hajm jihatdan qisqalik bilan birga xalqona soddalik ham koʻzga tashlanib turadi. Albatta, chiston yaratish uchun ijodkor hayot tajribasiga ega, donishmand inson boʻlishi kerak. Negaki, chistonlarda ijtimoiy falsafiy fikrlar mujassamlashadi:

Ul na qush koʻrinmaskim, shafaq bol-u pari,
Misli ul raf-raf suvoru bisangiz, yoʻqtur tani,
Voqif erur kecha-kunduz xizmatinda toʻrt gʻulom,
Qon ila ermish murassa bul chiyiston maskani.

(Qalb, toʻrt gʻulom – koʻz, ogʻiz, quloq, burun)

Uvaysiy chistonlari haqida gap ketganda uning "Anor" chistonini taʼriflamay boʻlmaydi:

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidan yoʻq nishon,
Necha gulgun, poʻsh qizlar manzil aylabdur, makon.
Sindurib gumbazni qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortigʻliq, turarlar bagʻri qon.

(Anor)³⁷

Bu chiston orqali shoira Qoʻqon xonligi va saroy ayollarining holini bayon qilgandek goʻyo. Ammo adabiyotshunos olimlar tomonidan bu chiston turlicha

³⁴ Wikipediya.uz

³⁵ Uvaysiy.Devon.–Toshkent: Oʻzbekiston badiiy adabiyoti, 1963

³⁶ Alisher Navoiy.Mukammal asarlar toʻplami.-Toshkent:Fan 1987

³⁷ Uvaysiy.Devon.–Toshkent: Oʻzbekiston badiiy adabiyoti, 1963

sharhlanganligini ham aytib o'tish joiz. Jumladan, E.Ibrohimova: "To'rt misraga sig'dirilgan katta mazmunga anor ta'rifinigina emas, balki to'rt devor orasida ovoz chiqara olmasdan faryod qilayotgan, qavat-qavat niqob orasida yorug' olamni ko'rish imkoniyatidan mahrum etilgan millionlab mahzuma, munglig' ayollarning hayoti, taqdiri mujassamlashtirilgan."- deb yozadi.³⁸ Bunda shoironing tutqunlikka qaratilgan, g'azabli isyoni mazmuni ham bor.

I.Haqqul esa, uning ijtimoiy-estetik mohiyatini yanada teranroq izohlab: "Eshik tuynugi, nishonasiz gumbaz–bu dahr, toza havolari surib olingan jamiyat. Inson farzandini qullikka mahkum etgan, mute yashashga majburan ko'niktiruvchi feodal tuzum qafaslari."³⁹- deya izohlaydi.

"Anor" chistonini Uvaysiy va Navoiyni bir-biriga bog'lab turadi. Ya'ni bu chistonni Navoiy ijodida ham uchratamiz.

Ne mijmardur, to'la axgar, vale ul mijmar andomi
Erur sun ilgidin gohe musaddas, gah musamman ham
Chiqar ravzandin axgari dudiyu bu turfakim oning
O'tig'a dud yo'qtur, mijmarig'a balki ravzan ham
O'tu mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning
Evurdi qong'a davroni mushabid, charxi purfan ham

(Anor)⁴⁰

Uvaysiy chiston yaratishda turli usullardan foydalanadi. Chistonlarining asosiy qismida savol qo'yish yetakchilik qiladi. Ya'ni jumboq asosan birinchi misraning o'zidayoq o'rtaq tashlanadi. Ayrim chistonlarida jumboq bilan birgalikda abjad hisobidan ham foydalanadi.⁴¹ (Abjad hisobi arabcha matnlarning sonlardagi qiymati hisoblanadi.)⁴²

Bog' oralab bir gule ko'rdim, ajoyib nogahon,
Yuz tani bor, yetti shoxi, o'n butoq bo'lmish ayon.
Yoproq'i o'ttiz, yigirma bandi, o'ttiz ildizi,
Ey Falotun, tab' olim, aylagaysen imtihon.

(Qizil gul)⁴³

Shoira nisbatan qisqa hajmli ya'ni ikki misradan iborat chistonlar ham yaratgan:
Ul nadurkim, bir kelin o'zi cho'tir,

³⁸ O'sha manba

³⁹ Haqqulov I. Uvaysiy she'riyati. –Toshkent: 1982

⁴⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. –Toshkent: Fan 1987

⁴¹ Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. fil.fan.diss. –Toshkent: 2020

Yetti qat parda ichida misli hur.

(Makkajo'xori)⁴⁴

Uvaysiy qisqa hajmli chistonlarining birinchi misrasida jumboq haqida xabar berilsa, keyingi misrada bevosita o'sha jumboqning sifatlari keltirib o'tiladi:

Ul nadurkim, poyi yo'q yursa boshi birla yurar,

Yurganida hok surmay, oncha ustolik qilar.

(Suv)⁴⁵

Chistonlarning boshlanishiga e'tibor qaratsak, "ul nadurkim" so'zining o'ziyoq tinglovchining diqqatini o'ziga tortadi. Bu esa jumboqni yechishda fikrni jamlashga xizmat qiladi albatta:

Ul nadurkim, ikki daryoyi ajab xunxordur,

El halokin qasdiga mavj urmishin ko'rdim bugun,

Ul na qushdurkim uyoosinda, bolalar tashqari,

Don berur vaqtidagi tolpinmishni ko'rdim bugun.

(Ko'z)⁴⁶

Uvaysiyning ba'zi chistonlari uning maktabdorlik salohiyati yuqori bo'lganligini ifodalaydi:

Ul nadurkim, sabr to'nliq, yoz yog'ochning boshida

Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida

Barcha qushlarning so'nggoki ichida,

Ul na qushdurkim so'nggoki toshida

(Yong'oq)⁴⁷

U shogirdlarini mustaqil o'ylay bilishga, narsa va hodisalarni belgilariga qarab ajrata olish malakalarining shakllanishiga, sezgir va topqir bo'lishlariga erishmoq yo'lida izlanarkan, rang-barang mavzularda chistonlar bitib, ta'lim mazmundorligini chuqurlashtiradi, samaradorligini oshiradiki, bu uning maktabdorlik faoliyatida izlanganligini, qolaversa, eski maktablarda o'z zamonasidagi ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida ayrim islohotlarni amalga oshira olganligini ko'rsatadi.⁴⁸

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.dok.diss. –Toshkent: 2020
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1987.

⁴⁴ Uvaysiy. Devon.–Toshkent: O'zbekiston badiiy adabiyoti, 1963

⁴⁵ O'sha manba

⁴⁶ O'sha manba

⁴⁷ Uvaysiy. Devon.–Toshkent: O'zbekiston badiiy adabiyoti, 1963

⁴⁸ Abiturtest.uz

3. Uvaysiy. Devon.– Toshkent: O‘zbekiston badiiy adabiyoti, 1963.
4. Haqulov I. Uvaysiy she’riyati. – Toshkent: 1982.
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
- 10.Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
- 12.M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Educationtechnological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
- 13.Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
- 14.Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
- 15.O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
- 16.Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

“DIYONAT” ROMANIDA DAVR ILLATI VA FOJIASI

Parizoda Abdullayeva,

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mahbuba O‘razbayeva,

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek adabiyoti va uni

o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahoratli yozuvchi Odil Yoqubovning “Diyonat” romani tahlilga tortildi. Romanda tasvirlangan davrning mudhish fojialari va illatlari ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: Diyonat, insof, Normurod Shomurodov, xalq, qiyinchilik, tabiat.

Diyonat inson xulqining go‘zal fazilatlaridan biridir. Shu bilan birga, u kishining har qanday holatda ham vijdonli, insofli, adolatli bo‘la olishi hisoblanadi. Diyonatli kishi shu xislati tufayli barchaning hurmatiga sazovor bo‘ladi va o‘zidan yaxshi nom qoldiradi. O‘zbek adabiyotining mohir yozuvchisi, tarixiy romanlar ustasi, tarjimon va publisist Odil Yoqubovning “Diyonat” romanida, inson hayotida diyonat, insof, imon, adolat kabi xislatlarning, tuyg‘ularning ahamiyatini, ularning o‘rnini ko‘rsatib beradi. Ushbu romanda yozuvchi nafaqat diyonatni, balki uning fonida insonlar turmushi, urf-odatlarining nozik jihatlari, davr illatlari hamda nuqsonlarini ham aks ettirgan.

Romanining bosh qahramoni sifatida Normurod Shomurodov obrazi gavdalanadi. Aynan uning butun hayoti davomida insof-u diyonatini qo‘ldan boy bermaganligi uchun ham asar shunday nomlangan. Bir so‘z bilan aytganda, domla Shomurodov umrini diyonatga, el-u yurtiga, hukumatga bag‘ishlagan edi. Shomurodov obrazi asardagi murakkab obrazlardan biridir. Aslida, u vijdonli, haqiqatgo‘y, adolatli inson. U o‘z yaqinlariga, jigarlariga hech qachon ozor berishni istamaydi, biroq nohaqlikka ko‘z yumib ketolmaydi.

Ilmiy ish qilish, dissertatsiya yozish oson va oddiy bir ish emas. Bu ishga insonlar ba‘zan yillar sarflashadi. Boisi, ilmiy ish ilm-fanga yangilik bo‘lishi va asosiysi aholining salomatligiga, manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida. Muallif aytmoqchi bo‘lgani shuki, o‘sha davrda ba‘zi bir ilmiy ishlar qay darajada insonlarga zararli bo‘lsa-da, himoyada chiroyli nutq qilinsa, yaxshi yoqlanavergan. Bu katta bir fojia. Haydarning dissertatsiyasi ham shular jumlasidan. Haydarning ilmiy rahbari Vohid Mirobidov o‘sha davrdagi ba‘zi bir domlarning umumlashma obrazidir. U shogirdining kamchliklarini bilsa-da, hech ham tashvish chekmaydi. Asarda Mirobidov og‘zidan bol tomadigan, gapirganda oftobday charaqlab ketadigan inson sifatida tasvirlangan. Ammo u shu bilan birga shuhratparast, maqtovsuyar, har qanday mehnati uchun haq talab qiladigan bir obraz. Uning xatti-

harakatlari haqiqiy ilm fidoyisining ishlariga umuman munosib emas. “Ishongandan keyin esa, mukofot haqidagi gaplar ham ro‘yobga chiqarilsa bo‘ladigan muayyan bir tadbir ekaniga amin bo‘la boshladi. Faqat kimdir bu ishga turtki bo‘lmog‘i, kimdir boshlab bermog‘i lozim, xolos. Ehtimol, bu tashabbus Otaqo‘zidan chiqar!”.[1:244] Olim odamning o‘zi mukofotni tilab olishi ilmga ham, o‘ziga ham nisbatan uyatli holat. Inson bilimiga, kuchiga ishonsa, albatta o‘zi har qanday mukofotni qo‘lga kirita oladi. Unga hech qanday tavsiya yoki muhokamaning keragi yo‘q. Yaxshi asar ham xuddi shunday.

O‘lkamiz tarixda ko‘plab mamlakatlarning hujumi va bosqiniga uchragan. Ma’lumki, bosqinchi davlatlar doimo xalqni tezroq bo‘ysundirishga intilishgan. Bu yo‘lda ko‘pgina tahdidlar va siyosatlarni amalga oshirishgan. Biroq xalqimiz bu siyosat va tajovuzlarga nisbatan qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Aholi bejizdan hukumatga qarshi qo‘zg‘almaydi, qo‘liga qurol olmaydi, bunga ko‘pincha ularga nisbatan qilingan adolatsizlik va haqsizlik sabab bo‘ladi. Ana shunday voqealardan biri 1916-yilda bo‘lib o‘tgan mardikorlikka safarbar qilish to‘g‘risidagi farmon edi. Romanda ham adib bu voqeaga murojaat qilar ekan ushbu siyosatning mudhishliklarini ko‘rsatib beradi. “Ilon yili. Ko‘klamda bir tomchi yomg‘ir bo‘lmay, dehqonlar sepgan urug‘larni ham yig‘ib ololmagan, molar qirila boshlagan bu mudhish qahatchilikda oilani ochlik-yalang‘ochlikdan asrab qolishning bitta-yu bitta yo‘li bor, u ham bo‘lsa oqposhsho e‘lon qilgan mardikorlikka borish edi”.[1:106,107] Mahalliy aholining katta qismi bu siyosatga norozilik bildirgan bo‘lsa-da, ba’zi insonlar mardikorlikka o‘z ixtiyorlari bilan borishgan. Buning sababi esa yuqoridagi parchadan ma’lum. Barchasiga sabab – muhtojlik. Erkaklar loaqal oilam uchun yengillik bo‘lar deya, bu ishga rozi bo‘lishgan.

Romanda davrning mudhish voqealaridan biri sanalgan quloqlashtirish siyosati haqida ham so‘z yuritilgan. Quloqlashtirish Turkiston aholisiga, xo‘jaligiga zarar yetkazish siyosati edi. Buning oqibatida, necha minglab aybsiz odamlar ham aybdorga chiqarildi va begona yurtlarga surgun qilindi. Ularni kuzatishga chiqqan ayollarning ahvoli esa har bir kishining ko‘nglini o‘rtab yuborardi. Quloqlarning taqdiri shu tarzda ayanchli kechgan. “1930-yilda O‘zbekistonda 750 ming dehqon xo‘jaligi bo‘lgan. Shu xo‘jaliklardan 40 mingi (qariyb 6 foizi) quloq sifatida hibsga olinib, sud qilinganlar yoki Ukraina va Shimoliy Kavkazga, O‘rta Osiyoning yangi o‘zlashtirilayotgan cho‘l tumanlariga badarg‘a qilinganlar. Agar o‘ziga to‘q o‘zbek oilalari ko‘p sonli, har biri kamida 8-9 jondan iborat bo‘lganligini e‘tiborga olsak, 1930-32- yillardagi quloqlashtirish davrida respublikamizning 350-400 ming aholisi jabr ko‘rgan”.⁴⁹ Shu sababdan ham bu voqea ko‘pchilikning qalbida nafrat va alam hislarini uyg‘otadi.

⁴⁹ Alinazar Egamnazarov. “Surgun yoki 30-yillar boshidagi quloqlashtirish qurbonlari” (1997).

Asarda Quدراتxo'ja ana shu siyosatning qurbonlaridan biri sanaladi. Domla Shomurodov ushbu obraz orqali o'zining xatolarini bir karra eslab o'tadi. "O'ttizinchi yillarning boshida hayot ikkisini yana bir to'qnashtirdi: Normurod uni quloq qildi. Qayoqqadir surgun qilingan Quدراتxo'ja suvga cho'kkan toshday bedarak bo'lib ketgan edi, elliginchi yilning o'rtalarida eson-omon qaytib keldi".[1:108] Ushbu obraz hayotida ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi. Ayolidan, oilasidan ajralib surgunlikda hayot kechirdi. Bunga esa Normurod Shomurodov sababchi bo'ldi. Shuning uchun ham uning qalbi dardga, iztirobga to'la. Bejizga yozuvchi Quدراتxo'ja ko'p ichishini asarga kiritmagan. Uning domlaga aytgan gaplari ham buni isbotlaydi. " E, o'sha, faqirdan yuzboshilikni tortib obergan og'ayning O'roz xo'roz bor-ku, xotiringdan ko'tarildimi?"[1:155] Domla Shomurodov uni surgun qilish bilan birga, mansabidan ham ayirganligi dialog orqali oydinlashyapti. Demak, Quدراتxo'ja ko'pgina adolatsizliklarga duch kelgan. Ammo Quدراتxo'ja ham ko'pgina yomon ishlar qilgandi. Bekorga domla uni quloq qilmagan edi. Shomurodov bir paytlar bu ishlarni qilgan bo'lsa-da, keyinchalik afsuslandi. Umuman olganda, Normurod obrazi sovet davriga butun hayotini bag'ishlagan fidoyi obrazdir. Aynan shu sababdan sovet davridagi adolatsizliklar, turli siyosatlar, illatlar Normurod Shomurodov nigohi orqali yoritilgan.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, avvaliga Rossiya imperiyasi, keyinchalik sovet hukumati O'rta Osiyoda ateistlikni targ'ib qilgan. Boisi, ular kommunistik mafkurani xalqimizga osonroq singdirmoqchi bo'lishgan. Boshqa tomondan esa milliy dinimizdan, urf-odatlarimiz, an'analarimizdan ayirmoqchi bo'lishgan. Bu yo'lda qator chora-tadbirlarni o'ylab topishgan, amalga oshirishgan. Mahalliy aholi shu tariqa dinidan uzoqlashtirilgan, ba'zilar ateistga aylangan. "Diyonat" romanida ham domla Shomurodovda shu xususiyatni ko'rishimiz mumkin. " Xudoga ishonmas eding, Qur'on o'qisam qahring kelmaydimi?"[1:150] Normurod Shomurodov garchi Xudoga ishonmasa-da, ayoli o'lim yoqasida turganida Unga iltijo qildi, yolvordi. Unda ateistlik xususiyatlari bor bo'lsa ham u hech qachon hech kimga yomonlik tilamadi, doimo insonlarga yaxshilik qilish payida bo'ldi. Eng muhimi, insoniylikni unutmadi.

Tabiat inson uchun bebaho ne'mat. Uni asrab-avaylash, parvarishlash insonning burchi. Agar unga biron ziyon yetsa, bu insonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ayniqsa, tog'-u toshlarning, sohillarning, o'rmonlarning musaffoligini, go'zalligini saqlovchi eng muhim unsurlar archalardir. Tog' archalari tog'ni har tomondan muhofaza etadi, turli xil zaharli gazlardan himoya qiladi, shuningdek atrofqa qaraganda insonga estetik zavq beradi. Ammo asarda shunday tabiat boyliklarini yo'q qilish holati ham kuzatiladi. Bu holat bosh qahramonimizning qattiq noroziligiga sabab bo'ladi. " Domla bu mudhish telegrammani ko'rganida o'ziyam larzaga tushib, katta

maqola yozishga chogʻlangan edi, biroq olim sifatida bu hujjatning oqibatlarini oʻrganarkan, togʻ archalarining “ boshiga tushgan boshqa koʻp qatl-u qirgʻinlar” ga duch kelib, oddiy maqola emas, butun bir kitob yozishga jazm etgandi”.[1:166] Otaqoʻzining chorva kompleksi qurish uchun archalarni nobud qilishi yaxshilikka olib bormasdi. Buni domla juda yaxshi angladi, yurti uchun, uning obodligi uchun bunga qattiq qarshilik koʻrsatdi. Basharti archalar yoʻq boʻlsa, butun iqlim, insonlar salomatligi xavf ostida qolishini taʼkidladi. Lekin oz kishilargina buni tushunib yetishdi, jiyani esa buni juda kech anglab yetdi. Normurod Shomurodov hayotining soʻnggi damlarida ham elim deb, yurtim deb yashadi. Biroq barcha insonlar uning ezgu ishlarini, adolatli fikrlarini domlaning vafotidan soʻnggina tushunishdi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, domla Shomurodov butun umrini, borligʻini hukumatga bahshida qildi. Ammo na hukumat, na insonlar, na yaqinlari uning qadriga yetishmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odil Yoqubov, “Diyonat”, roman “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent – 1998.
2. Alinazar Egamnazarov. “Surgun yoki 30-yillar boshidagi quloqlashtirish qurbonlari” (1997).
3. Hamid Ziyoyev. Toʻfon. “Sharq yulduzi” jurnali, 1992-yil, 3-son.
4. Otamirzayeva Xulkar “Odil Yoqubov romanlarida psixologik tasvir mahorati”, Science and innovation 2022 №2
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

11. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
14. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
15. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

ISMOIL GASPRALINING SHARQ-U G'ARB HAQIDAGI QARASHLARI

Abduvosit Abdumannonov,

Nizomiy nomida TDPU O'zbek tili

va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ismoil Gaspralining Ovrupo sayohatlari, Turkiston sayohatlari haqidagi xatiralari, Ovrupo madaniyati, Turkistondagi ahvol borasida yozgan maqola va asari qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Gaspirali, "Tarjimon" gazetasi, "Dorur-rohat musulmonlari", "Farangiston maktublari", "Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar", Sharq, G'arb.

Taniqli Qrim-tatar ma'rifatparvari, jadidlik harakatining asoschisi Ismoil Gaspirali o'zining ta'lim, adabiyoti, yangi usul maktablariga ulkan hissa qo'shgan namoyondalardan biridir. Shuningdek, Gasprali dunyo mamlakatlariga sayohat ham qilib, ularni xotiralar shaklida nashr qilib borgan. Bu xotiralarni Ismoil Gasprali o'z qaramog'ida bo'lgan nashrlardan biri "Tarjimon" gazetasida atroflicha yoritiladi. Bu sayohat haqida so'zlashdan avval, Ismoil Gasprali biografiyasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Chunki, muallifning Sharq-u G'arb haqidagi qarashlari uning hayot yo'li bilan uzviy bo'g'liqdir.

Ismoil Gaspirali Mustafobey o'g'li 1851 – yilning 21- martida Ovchiko'y qishlog'ida tavallud topadi. U o'z oilasida ikkinchi o'g'il farzand hisoblanib, to'rt yoshga yetganida uning oilasi Bog'chasaroyga ko'chib o'tishadi. Dastlabki ta'limini Bog'chasaroyda, Zinjirli madrasasida Hoji Ismoil degan muallim qo'lida oladi. Gasprali 10 yoshga yetganida otasi Mustafobey o'g'lini Simferopoldagi harbiy maktabga beradi, bundan so'ng Voronej harbiy maktabi, keyinchalik o'qishini Moskvada davom ettiradi. Gasprali Moskvada o'qib yurgan paytlari, Moskvada mashhur bo'lgan nashrdan biri, «Московские ведомости» gazetasi muharriri professor Ivan Katkov xonadonida istiqomat qiladi. Gasprali bu xonada turar ekan, o'z zamonasining ko'zga ko'ringan nomoyondalaridan hisoblangan ko'plab rus adabiyoti vakillarining tashriflari, suhbatlariga bevosita guvoh bo'ladi. Bu kabi holatlar bo'lajak muharrirning dunyoqarashi shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Gasprali Moskvadagi o'qishini 17 yoshida tashlaydi va Bog'chasaroyga qaytadi. Bu yillarda u bir qancha maktablarda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanadi. Keyinroq 1871 – yilda Gasprali chala qolgan bilimlarini davom ettirish va fransuz tilini o'rganish maqsadida Vena, Myunxen va Shtutgard shaharlari orqali Parij shahriga yetib keladi. Ayrim manbaalarda bu sana 1872 – yil deb aytiladi. Lekin muallifning "Tarjimon" gazetasida chop etilgan "Ramazon muborak va Yapon" nomli maqolasida "xotirimga keldi... 1871 – yili tahsilda, Parijda edim" deb yozadi. Kirimerning yozishicha, "Gasprali 1871 – 1874 – yillar orasida o'qishini tamomladi. Bu vaqt oralig'ida u fransuz tilini o'rganish bilan bir qatorda Istanbul va Parijda G'arbiy Yevropa va Usmonli turk madaniyati bilan oshno bo'ldi"– deb aytadi. Gaspralining Yevropadagi tahsili haqida ma'lumotlar juda kam, lekin keyinchalik nashr etilgan "Dorur-rohat musulmonlari", "Farangiston

maktublari”, “Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar” kabi asarlarida bu sayohatlar uning dunyoqarashiga keng ta’sir ko’rsatganini ko’rishimiz mumkin. “Dorur-rohat musulmonlari”, “Farangistondan maktublar”, “Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar” asarlari orqali Gaspralining Angliya, Fransiya, Ispaniya va Portugaliyada ham bo’lganligini ko’rsatadi. 1874 – yili Gasprali Parijdan Istanbulga keladi va amakisining xonadonida bir yil qolib ketadi. Istanbulda yashagan vatqlaridan boshlab matbuotda o’z chiqishlarini boshlaydi. Aynan mana shu paytda u Moskva va Peterburgda nashr etiladigan ayrim rus gazetalariga Istanbul va Usmonli davlati hayoti haqida “yarim xayoliy maktublar” yuborib turgan. Istanbuldagi faoliyatlarida so’ng, Gasprali Qrimga qaytadi. Qrimga qaytganida u uylanadi va kichik bir maktabda o’qituvchilik qiladi. 1880-yilda Gasprali ish yuzasidanmi Litvaga safarga boradi, Yavuz Akpinar ismli muallifning aniqlashicha, bu safarga Moskvadagi harbiy maktabda birga o’qigan Mustafo Davidovich hamrohlik qilgan. Bu safar Gaspralining faoliyatiga katta ta’sir ko’rsatadi. Litvalik musulmonlar hayoti bilan tanishgan ijodkor, qaniydi qolgan musulmonlar ham shunday “zamonaviylashsa” degan fikrga keladi. Gaspralining Ovrupo va Sharq o’lkalari haqidagi ko’plab fikrlarini, asosan, “Tarjimon” gazetasi orqali bilib olishimiz mumkin. Ismoil Gaspralining bu gazetasining asosiy o’quvchilari Rossiya musulmonlari hisoblanar edi. U “Tarjimon” gazetasida Turkistonga alohida e’tibor qaratadi. Turkistonning Rossiya bilan aloqasi, xususan, Buxoroning Rossiya bilan aloqalariga juda qiziqadi. Uning Buxoroga bo’lgan qiziqishi yaqqol sezilib turar edi, ayniqsa, uni madrasalar qiziqtirgan. Gasprali umrining oxirigacha bu madrasalarda ma’rifatchilik g’oyalarini tatbiq etish istagi bilan o’tdi.

Gaspralining Turkiston o’lkasiga safari oldidan “Tarjimon”da o’lka hayoti, tarixi, geografiyasiga oid turkum maqolalar beradi, bu bilan gazeta o’quvchilarini ushbu o’lka bilan oshno qiladi. Ayniqsa, uning Buxoro amirligi haqidagi maqolasi ancha ma’lumotlarga boy. 1893 – yilda Buxoro amiri Abdulahadxon Peterburgdan qaytishda Bog’chasaroyga keladi. Aslida Gasprali va Abdulahadxon 1883 – yildan beri g’oyibona tanish edilar. Abdulahadxon Gaspralini rasman Buxoroga taklif qiladi. Gasprali Turkiston o’lkasiga birinchi sayohatini 1893 – yilda boshlaydi. Bu safardan ko’zlangan maqsad Turkistonning haqiqiy tarixi va o’sha davrdagi ahvoli haqida bilish bo’lgan. Gaspralining yana bir maqsadi safar davomida o’z maslakdoshlarini topish va “Tarjimon”ni o’lkada keng targ’ib qilish edi. Buxoroda Gasprali maktab va madrasalar bilan tanishadi, Buxoro qushbegisi bilan uchrashadi, qozikalonga o’z kitobini hadiya qiladi. Buxoroga sayohatdan so’ng, Samarqandga yo’l oladi, Samarqandda rus va mahalliy aholi bilan batafsil tanishib chiqadi. Gasprali Samarqandga safardan ko’zlangan maqsadlaridan biri – yangi usul maktabini ochishga muvaffaq bo’ladi. Samarqand va Buxoroga sayohatlardan so’ng, Turkiston markazi hisoblagan Toshkentga keladi. Bu yerda u mahalliy ziyolilar bilan uchrashadi. Gaspralining Toshkentdagi tassurotlari Turkiston o’lkasi haqidagi tasavvurlarini butkul

o'zgartirib yubordi. Matbuotda "johil va savodsiz" degan da'volar asossiz ekanligiga amin bo'ldi. Gaspralining Turkiston haqidagi tasavvurlari shunday hosil bo'ldi.

Gasprali Ovrupo haqidagi o'z fikrlarini "Dorur-rohat musulmonlari", "Farangistondan maktublar", "Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar" kabi asarlari keltirib o'tadi. Dastlabki ikki asarning bosh qahramoni toshkentlik Mulla Abbos Usmonli davlati, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi davlatlarni kezish jarayonida o'z fikrlari bilan bo'lishadi. Toshkentdagi bir boyning o'g'li hisoblanmish Mulla Abbos otasi vafotidan so'ng, Ovrupodagi avliyolar ziyoratini niyat qilib yo'lga chiqadi. Ma'lumotiga ko'ra bir qadar ilmiy, Toshkentda madrasani yakunlagan kishi hisoblanadi. Dastlab Usmonli davlatida istiqomat qiladigan qahramon keyinchalik Germaniya orqali, Fransiyaga boradi. Uning Ovruponi ko'rgandagi hayrati ulkan. Insonlarning bu qadar taraqqiyotga erishganlaridan hayronu lol qoladi. Ilmiy yo'nalishlarida kashfiyotlarni ko'rarkan, ularni bevosita yurtidagi holat bilan solishtiradi. Ulkan binolarga ko'zi tusharkan ularni xonlar, amirlar saroylariga qiyos etadi. Bu yurt odamlarining ko'chalari, ularning ozodaligi, qonunlarga bo'ysunishi Mulla Abbosni hayratiga hayrat qo'shadi. Ovruponi o'ziga xos bo'lgan ba'zi sifatleri uni hayron ham qoldiradi, ayollarning tortinmasligi, ularning ijtimoiy hayotda erkaklar bilan tengligi masalalari haqida fikr yuritishiga sabab bo'ladi. Mulla Abbosning safarlari maktublar shaklida "Farangiston maktublari" nomi bilan chop etila boshlanadi. Bu maktublar "Tarjimon" gazetasida turkum shaklida nashr etib borilgan. "Farangiston maktublari" sayohatlaridan keyin Mulla Abbosning sayohatlari "Dorur-rohat musulmonlari" asari orqali yoritilgan. Bu kitobda Mulla Abbos qadimgi Andaluz o'lkasiga safar qiladi. Bu o'lka hozirgi Ispaniya hududidadir. Bu safardan Al-Hamro saroyi orqali o'tiladigan bir yo'l bilan Dorur-rohat o'lkasiga o'tish yo'li haqida aytiladi. Andaluz o'lkasining musulmonlar tamonidan boshqarilgan davrlari haqida ma'lumotlar aynan shu asarda aytib o'tilgan. Musulmonlarning Ovrupo taraqqiyotini boshlab berishgani tarixiy dalillar bilan isbot qilinadi. Dorur-rohat musulmonlarining holatlari haqida gap ketar ekan ularning ilm ortidan qilingan sa'y – harakatlarining natijalari ko'rsatiladi. Bu o'lka odamlari ilm-u fanda hatto Ovrupoliklardan ham ilgarilab ketishgan edi.

Gaspralining Yevropa haqidagi qarashlarini "Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar" asaridan ham bilib olishimiz mumkin. U Ovruponing taraqqiyotda ildamlab ketganini tan oladi. Odamlar yashayotgan sharoitlarini o'sha davr Turkistoni bilan qiyos etsa, anchayin ilgarilab ketgani kunday ravshan edi. Bu Ovrupo madaniyatining kelib chiqish o'choqlari qayer va bu madaniyatning asosi nima kabi savollarga Gasprali asari javob o'laroq "so'zlaydi". Bir Angliya misolida bilan esa boylar va qashshoqlar o'rtasidagi farqni aytib o'tishni ham yodidan chiqarmaydi. Taraqqiyotda cho'qqilarni egallagan Ovruponing axloq bilan bog'liq muommolari borligi o'sha davr misollari orqali jonli tasvirlanadi. "Bir tarozi olamiz-da, Ovrupoda ko'radiganlarimizni tortamiz: ajabo, hisob-kitobini qilib bo'larmikan? Rotshird singari o'n, o'n besh kishining yuz millionlarcha sarvatigami hayron qolaylik? O'n-o'n besh million aholining o'lganda

ikki arshin yeri yo‘qligigami hayron qolaylik? Londonlik bir ledining, parijlik bir xonimning tarbiya, latofat va nazakatigami hayron qolaylik? London va Parij ko‘chalarida tani va nomusini sotib yurgan ro‘yxatga olingan yuz ellik ming fohisha xonimlargami diqqat qilaylik? Bitta sigirlarining bizning o‘n sigir qadar sut berishigami ofarin deydik? Millionlarni sarf etib dunyoning har tarafiga xristianlik targ‘iboti qilishigami qaraylik? Ovrupo ichida cherkov va Injilga imon qolmaganigami hayron bo‘laylik? Inson hurriyati oti bilan qilingan urushlarnimi tomosha qilaylik? Alsos Loren bechoraning bokira qizlarini Parijda ellik frankka qadar sotilganinimi insof tarozisiga qo‘yaylik?...”⁵⁰ Gasprali Ovrupo haqida fikrlar bildirar ekan ulardan musulmon sharqiy taraqqiyot masalasida o‘rganadigan narsalarining ko‘p ekanligi tan oladi. Andaluz musulmonlaridan o‘rganlarini keyinchalik davom ettirib, taraqqiyotga qarab ketgan Ovruponing yashash turmushi insonga bir qadar havas qilgudek, lekin tabaqalar o‘rtasidagi ulkan farqlarni ko‘rar ekan, insoniylik tubanlikka qulaganini aytadi.

“Yo‘q, zavodning mehnat samarasidan bir oila yoki uch-besh oiladan tarkib topgan bir kompaniya foydalanadi. Qolgan uch-besh ming inson xuddi hayvon singari qornini to‘yg‘izish uchungina xizmat qiladi. Rohat qayoqda, birgina uyqu uchun vaqtlari qoladi! Bir soat mehnat va ochlikdan bola-chaqasigacha ko‘z ocholmaydi. Qariganidagi yo‘qsillik-chi, sog‘-omon vaqtida besh kun ishsiz qolsa, besh oygacha hisobini topolmaydi!”⁵¹

Ovruponing ko‘chalari charog‘on bir holatda, Toshkent ko‘chalari zim –ziyo, ovrupoliklar kostyum-shimlarda yurishsa, turkistonlik eshki chopon va sallalarda, yo‘g‘ingarchilikdan so‘ng hech bir qiyinchlik ko‘rmas ovrupoliklar-u, botqoqlikka botgan turkistonliklar, bular teng bo‘ladi? Gaspralining ikkala tarafga ham qilgan sayohatlari bu yurtlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan edi. Turkistonlik musulmonlariga shavqat ko‘zi bilan boqqan Gasprali turkistonlikni ilm-ma‘rifatga chorlaydi. Ovrupo haqida fikr bildirar ekan, sotsializm tarafdorlari haqida fikrlarini bildiradi, bu g‘oyaning tamoman hayoliy bir qarash ekanligini aytadi. Ilm-ma‘riftni barcha mamalakatlarning taraqqiyotining asosi ekanligi, bir millatda ikkinchi millat tamoman barcha narsalarini ko‘chirish ulkan xatoligi, tarixga boqib harakat qilish kerakligi Gasprali asarlarining asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: 2018. – 478 b.
2. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).

1 Gasprali I. “Ovrupo madaniyatiga betarona bir nazar” asaridan.

⁵¹“Ovrupo madaniyatiga betarona bir nazar” asaridan. I.Gasprali

3. Atabayeva.G.F. “Humanism in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
4. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
5. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
6. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
7. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
8. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
10. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
11. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
12. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
13. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
14. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

ABDULLA AVLONIYNING XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Nasiba Abduzoirova,

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada shoir, dramaturg, pedagog Abdulla Avloniyning she‘rlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, metod, usul, texnologiya, pedagogik, zakovat, badiiy. Abdulla Avloniy o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblanadi. U o‘zining boy ijodi – she‘rlari, dramalari, darsliklari bilan adabiyotimizni boyitib kelmoqda. Avlaniy lirikasini varaqlar ekanmiz diqqatimizni tirtgan ba‘zi o‘rinlarni aniqladik. Uning bir necha she‘rlari xalq kuylariga solingan bo‘lib folklor namunalari bilan o‘ziga xos uyg‘unlikni hosil qilgan ekan. Shulardan “Maktabg‘a targ‘ib” she‘ri aynan so‘zimizning dalilidir. Bu she‘r “Latifa” kuyiga solingan. Shuningdek, Avlaniyning “Ko‘knori va Qimorboz” she‘ri “Yig‘lama yorim” kuyiga solingan.

Barcha qildi taraqqiy bizlar uxlamaylik,

Eski odat -bid‘atni mahkam ushlamaylik.

Ichma ko‘knori, ichma, tashla past ishlarni,

O‘ynama qimor, qimorboz tashla mushlashlarni.⁵²

She‘rga “Ko‘knori va Qimorboz” sarlavhasining tanlanishi bejiz emas, ko‘knori ichgan kishi barcha narsaga beparvo ichgan dorisining ta‘sirida doim mast odamga o‘xshab yuradi: erta haqida, kelajak haqida umuman hech narsa haqida o‘ylamaydi.

Adib o‘sha davrdagi milatimiz kishilarini aynan ularga o‘xshatgan bu birinchi misradayoq anglashiladi. “Barcha qildi taraqqiy bizlar uxlamaylik” bu misra so‘zimizning dalilidir. Ilm o‘rgangan kishiga rag‘bat yo‘qligi haqida ham so‘z yuritib shu sababli xalq ongida ilm o‘rgangandan qorin to‘yishi uchun manfaat yo‘q degan fikr xalq ongiga o‘rnab qolganidan qattiq ranjiydi. Keyingi baytlarda o‘z-o‘ziga savol beradi. Adib she‘r yakuniga qarab borar ekan, dunyoda hech bir millat biz kabi notavon emasligini qilmishimiz koni zarar turmushimiz esa to‘la illat ekanidan chuqur afsuslanadi. “Yig‘lama yorim” kuyidagi “Yig‘loma yorim yig‘loma yallolashayluk to‘rta, beshta bo‘lub olibon, gulbog‘lashayluk” bayti naqorat bo‘lsa yuqoridagi she‘r uchun

Ichma ko‘knori, ichma, tashla past ishlarni,

O‘ynama qimor, qimorboz tashla mushlashlarni.

bayti naqorat vazifasini o‘tagan. She‘r ham aynan shu misralar bilan yakunlangan. Aynan shu kuyga solingan yana bir she‘r mavjud bo‘lib, millat haykaliga xitob deb nomlangan. Birinchi bayti “Ko‘knori va qimorboz” she‘ridagi kabi millatni uyqudan uyg‘otishga da‘vat bilan boshlanadi.

⁵² Abdulla Avloniy “Adabiyot yohud milliy she‘rlar”

Tur, ey millat, uyqudan, hasratlashayluk,
Ilm uyiga kirmoqg'a suhbatlashayluk.
Yotma, millat, uxlama bedorlashayluk,
Milliy ishlarg'a tur, bel bog'lashayluk⁵³

Qofiyadosh so'zlardagi ohangdorlik aynan "Yig'lama yorim" kuyidagi ohangdorlikni eslatadi. Hasratlashayluk, suhbatlashayluk, bedorlashayluk so'zlari kuy tarkibidagi yallolashayluk, gulbog'lashayluk so'zlari bilan bevosita o'xshashlikni hosil qilgan. Yana bir she'r "Munojat" she'ri esa milliy kuylarimizdan segoh kuyiga solingan. Bu kuy o'n ikki maqomning biri sanaladi. Yana uning rost maqomiga solingan she'rlari ham mavjud. Rost kuyi maqim kuylari orasida eng qadimgi ekanligi haqida tasavvurlar mavjud. Unga ko'ra rost kuyi Odam atodan qolgan. Odam ato bilan Moma Havvo jannatdan quvilgandan keyin Alloh ularning birini mag'ribga birini mashriqqa tushiradi Odam atoning Moma havvoni izlab chekkan ohu nolasi rost kuyidan o'rin olganligi haqida fikr yuritadilar. Rost maqomini "Ummul advor" maqom doiralari onasi deb hisoblaydilar. Avloniyning biz tahlilga tortgan barcha she'rlari tanlangan asarlar ruknidan olingan bo'lib u besh juzdan iborat. Barcha juzlarning boshlanishi bir xil bo'lib Allohga hamd payg'ambarlarga na't aytishdan boshlangan. Uchinchi juzning barcha she'rlarida "Hijron" taxallusi qo'llangan. Beshinchi juz "Maktab gulistoni" deb nomlangan bo'lib qolgan juzlardan farqli jihati shundaki, unda Kirilovdan qilingan erkin tarjimalar ham o'rin olgan. Avloniyning reza kuyiga solingan "To'y haqida" deb nomlangan she'ri ham mavjud. Bu she'rda A. Avloniy har bir misrada naqadar jonkuyarlik bilan xalqni ma'rifatli qilishga urungani o'z aksini topadi. Bu she'rni ijtimoiy-biografik ruhdagi she'r desak mubolag'a bo'lmaydi. Adib yashab ijod etgan davrda aynan shunday voqealar keng tus olgan. Ilm sohibi bo'lish o'rniga o'tkinchi orzu-havas ketidan chopish tobora ko'payib bormoqda edi. Qalamkash tabaqalar orasidagi konfliktga ham alohida urg'u bergan. Masalan quyidagi baytlardagi:

Kambag'al kelib to'yga kirsam, ket, nozi bor, bor-u,
Boylar kelsa, torga olib osh-u to'n tayyor -ov.
Turkistonda o'rnat qolmish to'y degan isrofa
Boylar yerlar yog'liq oshni, kambag'al ozor-ov.

"Boylar", "Kambag'allar" so'zlarini qarshilantirib oladi. Umuman Abdulla Avloniy xalq ichida keng tarqalgan va ular uchun yod bo'lgan kuylarga o'z davridagi illatlarni ko'rsatishni maqsad qilgan. Bundan asosiy maqsad uxlayotgan xalqni uyg'otish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent.: Manaviyat. 2009.
2. Qur'onov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.– 397 b.
3. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: 2018. – 478 b.

⁵³ Adabiyot yohud milliy she'rlar" 154 b;

4. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
14. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘YIN TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Bekmirzayeva Mashura,

TDPU talabasi,

Ilmiy rahbar: Mubora Omanova,

TDPU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada adabiyot darslarini tashkil etishda foydalaniladigan o‘yin texnologiyalari haqida ma’lumot berilgan va foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, metod, usul, texnologiya, pedagogik, zakovat, badiiy.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: “Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”, deb belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o‘tkazish, undagi yangi mazmunni o‘quvchilarga to‘laroq yetkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy o‘qitishning dolzarb talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘qituvchilardan ham dars samaradorligi oshiradigan, o‘quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo‘llash talab etilmoqda. Bunday talablarga javob berish uchun o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ijobiy raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladigan adabiyot darslarida **o‘yin mashg‘ulotlaridan** foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki o‘yin texnologiyasi o‘quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Adabiy ta’limda asosiy faollik o‘qituvchining o‘zida mujassam bo‘lishi kerak. Shundagina u o‘quvchilar orasidagi faollikni ta’minlay oladi.

Zakovat o‘yini. Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab auditoriyani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi. O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. O‘yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi. Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi. O‘qituvchi savolni o‘qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan, yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya etiladi.

Zakavot o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal yetishga diqqat qaratiladi.

Masalan, Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishda bu o‘yinni qo‘llash va quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Savol: Shoir she‘rlarida mumtoz adabiyotning qaysi san‘at turlaridan foydalangan. Misollar keltiring.

Javob: Ogahiy o‘z baytlarida ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni qo‘llab **tanosub** san‘atini yaratgan. Masalan:

Ne tong ko‘nglum qushi gar etsa maqsad oshyonig‘a,
Ki, sa‘yu shavqdin uchmoqda bolu par qilur paydo.

Ogahiy **iyhom** san‘ati xususiyatlaridan ham mohirona foydalangan:

Meni bemor o‘lar holatga yetganda ikki la‘lin,
So‘rub bildim alarning biri shakar, biri kavsardur.

Savol: Ogahiyning kuyga solingan mashhur g‘azali qaysi va uning matla‘si qanday?

Javob: “Ustina” radifli g‘azali Ogahiyning mashhur g‘azallaridan biridir. U ishq mavzusida, vaf va izhor uslubida bitilgan yakpora g‘azaldir. Bu g‘azal taniqli xonandalar (Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov va b.) tomonidan qo‘shiq qilib ijro etilgan. G‘azal to‘qqiz band, o‘n sakkiz misradan iborat. G‘azalning matla‘si:

Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlam uchun “nas” keltirur “nun” e‘tibor “sod” ustina.

O‘yin shu tarzda davom etadi. Savollarga to‘g‘ri javob bergan guruh g‘olib sanaladi.

6X6X6. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishsa adabiyot o‘qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyaliklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Qisqa vaqt ichida o‘quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi.

“To‘g‘ri top” o‘yini. Bu o‘yin uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror maqolning boshlanishini yozib qo‘yadi, ikkinchisi esa tartibni o‘zgartirgan holda maqolning davomini yozib qo‘yadi.

| | |
|----------------------------|----------------------|
| 1. Qari bilganni... | 1. egardan tushmaydi |
| 2. Avval o‘yla... | 2. yomon qopib |
| 3. Otdan tushsa ham... | 3. pari bilmas |
| 4. Yaxshi topib gapirar... | 4. o‘lan to‘shaging |
| 5. O‘z uying... | 5. keyin so‘yla |

“Kim biladi?” o‘yini. “Kim biladi?” o‘yinida o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh a‘zolari biror she‘rdan parcha o‘qishadi. Ikkinchi guruh a‘zolari esa

she'ning muallifini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a'zolari she'r o'qishadi. Birinchi guruhdagilar esa she'r muallifini topishadi. Har bir to'g'ri javob uchun yutuqli kartochkalar beriladi. Bu o'yinni xohlagan shoirning lirikasini o'rganishda yoki dars jaryonida o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o'tkazish mumkin. Masalan, 9-sinfda Navoiy lirikasini o'rganishda quyidagicha foydalanish mumkin:

1-guruh:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'ltirur,
G'oyati nozuklikindin suv bila yutsa bo'lur.

2-guruh: Atoiy

Bu gulshan ichra yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

1-guruh: Navoiy

O'yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o'yin o'quvchilarda she'riyatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. She'riyatga bo'lgan ijodiy yondashuvni o'stiradi, ifodali o'qish malakalarini oshiradi.

Adabiyot darslarida bunday o'yin texnologiyalarini qo'llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O'quvchilarning bunday darslarda qo'llaniladigan o'yin texnologiyalari orqali dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Eng muhimi, adabiyot darsiga, badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqish kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayeva N. Anbar Otin adabiy merosi: ko'lami, o'rganilishi, qayta baholash zarurati.-INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART. Xalqaro so'z san'ati ilmiy jurnali. 2020.
2. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
3. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
4. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
5. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

6. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
7. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
8. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
10. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
11. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
12. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
13. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
14. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

O‘TKIR HOSHIMOVNING ASARLARI TAHLILI

*Go‘zal Atabayeva,
TDPU dotsent.v.b,
Albina Andabayeva,
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanining kompozitsion qurilishi, obraz yaratish mahorati, syujet va kompozitsiya butunligi xususiyatlari yoritilgan. Romandagi ijtimoiy voqelikning tasvir jihatlari tahlilga olingan.

Annotation: In this article, the compositional construction, skill of image creation, features of the plot and compositional integrity of O‘tkir Hashimov’s novel " The things that happened in the dream " are highlighted. Image aspects of social reality in the novel are analyzed

Аннотация: В данной статье описываются композиционное построение, мастерство создания образа, особенности сюжета и композиционная целостность романа Откира Гашимова «Сон прошлых жизней». Анализируются имиджевые аспекты социальной реальности в романе

Kalit so‘zlar: So‘z san’ati, kompozitsiya, badiiy obraz, syujet, roman, qahramon.

Ключевое слово: Слово, композиция, художественный образ, сюжет, роман, герой

Keyword word: art, composition, artistic image, plot, novel, hero

KIRISH

Inson ma’naviy dunyosining boyishiga xizmat qiluvchi eng qudratli vosita bu – so‘z san’atidir. So‘z san’ati esa badiiy adabiyotning nodir namunalari orqali namoyon bo‘ladi. Bugun o‘zbek adabiyoti namunalari ham mavzu ko‘lami ham janr nuqtayi nazaridan ham boyib bormoqda. Ularning har biri milliy ma’naviyatimiz rivojiga hissa qo‘shmog‘i lozim. Buning uchun esa, ijodkor mahorati masalasiga adabiyotshunoslikda alohida e’tibor berilishi lozim. Chunki, badiiy asar real hayotning ijodkor tomonidan sayqallangan, qayta ishlangan aksidir. Yaratilgan asar esa ijodkorning uslubiy mahoratini belgilovchi omildir. Asar bevosida kitobxon ruhiyatiga, tafakkuriga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Shu ma’noda XX asr o‘zbek adabiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, o‘tgan asr nasrining zabardast vakili O‘tkir Hoshimov ijodiga murojaat qilish adabiy jarayon uchun doimo o‘rinli. U o‘zining yozgan romanlari bilan nafaqat millatimiz balki jahon kitobxonlarining sevimli adibiga aylana olgan. Ayniqsa, uning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”,

“Tushda kechgan umrlar”, “Bahor qaytmaydi” kabi bir qator asarlari o‘qirmanlar qalbidan joy olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarix sahnasi o‘z tomoshabinlari va bevosita qatnashuvchilari ongida, ba‘zan baxtdan masrur quvonchli onlari, ba‘zan o‘tmishning eng mash‘um, chirkin kunlari sahifalari sifatida yodida qoladi. O‘tgan asrning 30 -80 -yillari: “qatag‘on” qilish siyosati, Afg‘oniston urushi lavhalari va shu yillari sodir bo‘lgan “o‘zbek ishi” mojarolari... Yuqorida keltirilgan uchta katta mudhish hodisalarni o‘zida jamlab, inson va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni realistik obrazlar orqali yorqin ifodalab bergan “Tushda kechgan umrlar” romani ham tarixning eng chirkin voqealarini, uning inson ruhiyati, kelajagi, hayotiga ta‘siri haqida so‘zlaydi. Bu asarda o‘tgan asrda insonlari ishongan, e‘tiqod qo‘ygan tuzumning barbod bo‘lishi, yillar davomida suyanib, umrini shu tuzumga bag‘ishlagan insonlarning ishonchi sarob bo‘lib chiqishi O‘tkir Hoshimovning o‘tkir qalami bilan mohirona tasvir etiladi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida voqelik bir-biriga bog‘langan bir nechta obrazlar orqali ifoda etiladi. Lekin voqea bir me‘yorda bir xil tempda kechmaydi. Aksincha, turli makon va zamondan turli roviylar tomonidan so‘zlanadi. Romanning bu xilda yozilishida asarning kompozitsion qurilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiya – (campositio – tarkib, qurilish, tuzlishish) deganda badiiy asardagi bog‘liqlik va joylashish tartibi tushuniladi. U o‘zida personajlar sistemasini, epizotlarni, voqea haqidagi tartibli xabarni tasvirlash usullarining o‘zgarishini, tasvirlanayotgan detallar va ifoda tasvir vositalarining muvofiqligini, asarning qism, bob, bo‘lim, parda, ko‘rinish va shu kabilar bo‘lishini jamg‘aradi.⁵⁴ Umuman olganda kompozitsiya badiiy asarni tashkil etuvchi va intizomga bo‘ysundiruvchi kuch. Uning vazifasi biron bir narsani chetga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ayni chog‘da, uning bir butunlikka birikishini nazorat qilishdir... Uning maqsadi barcha bo‘laklarni shunday joylashtirishki, alal oqibat asar g‘oyasini to‘liq ifodalashga qodir bo‘lsin.⁵⁵

NATIJAR VA MUHOKAMA

Har qanday asar kompozitsiyasining markazini bosh g‘oya tashkil qiladi. Kompozitsiyani tashkil etuvchi barcha vositalar g‘oyaning maqsadini ochish uchun xizmat qiladi. Asardagi shunday vositalardan biri sarlavhadir. “Tushda kechgan umrlar” romanini ilk bor qo‘liga olgan kitobxon tafakkurida “qanday tush?, qaysi tush?, nega tushga aylangan umrlar?” kabi savollar bo‘lishi tabiiy. Asarni o‘qib tugatgan kitobxon esa, haqiqatan ham sarobga aylangan, hayoti, umri butunlay tushga

⁵⁴ Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004. –B.133-134

⁵⁵ Введение в литературоведение. М.: "Высшая школа", 1988. -Б184-185

aylangan insonlar haqida o‘qib, “tushda kechgan umrlar!” deyishi aniq. Demak, asar sarlavhasi o‘z vazifasini to‘laqonli bajargan. Kompozitsiyani yuzaga chiqaradigan unsurlardan yana biri, asarning kompozitsion qurilishi hisoblanadi. Diqqat bilan o‘qilganda, asar “Rustamning oxirgi kundaligidan” boshlanib, “Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlari” bilan tugaydi. Asarning boshdan oyoq bunday tuzilishi kitobxonni zeriktirmasligini, aksincha voqealar rivojiga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Jumladan, romanda tilga olingan bosh obrazlar: Rustam – komissar – Qurbonoy xolaning hayoti o‘tmishi tasviri almashib turadi. Asardagi bosh zamon 80 – yillar “Afg‘on urushi” davridan 30 – yillar “qatag‘on” siyosatiga, ulardan yana 80 – yillardagi “o‘zbek ishi” mojarolariga mohirona o‘tiladi. Hamma o‘sha yigitga yopishib, hisob so‘rayotgan vaqtida o‘sha chol, bu yigit o‘z o‘g‘li ekanligini, va bir zamonlar otasi ham bobosiga yoshlik qilib tarsaki tushirganini aytibdi. Bu chol uchun tasodif emas, duoibat ekanligini aytib tushuntirgan ekan. Oddiy farrosh tilidan aytilgan bu ertak komissarning bugungi kunini tasvirlash uchun ajoyib ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ayni kunda komissar ham, yoshlikda qilgan gunohi, aybsiz insonlarning qarg‘ishi tufayli farzandlari, oilasi rohatini ko‘rolmay yashaydi. Sevib, suyib o‘stirgan farzandi, nabiralaridan yiroqda yashaydi. Ushbu misollar orqali, adib o‘z badiiy mahoratini, qahramon yaratish usullarini namoyon etadi. Yana asar badiiyatini ochishga katta hissa qo‘shgan badiiy obraz yaratish mahorati ham borki, usiz roman syujeti to‘laqonli bo‘lmaydi. “Tushda kechgan umrlar” romanida ham shunday badiiy obrazlar bor. Ulardan biri bosh xarakter – Rustam. Bo‘y basti kelishgan, aqlli, jahli juda tez chiqsa ham mehribon. Uning xarakter sifatida ko‘targan eng asosiy xususiyati – adolatli ekani. Har yerda, har borgan joyida adolat izlashga urinadi. Adolati tufayli, adolatsiz insonlardan, adolatsiz dunyodan erta ketdi. Asardagi uning atrofida birlashgan boshqa badiiy obrazlar ham uning asardagi vazifasini ochib berishga xizmat qiladi. Shahnoza, komissar G‘aniyev, Qurbonoy xola, Mauzer, Rustamning ota-onasi, ularning barchasi asarning bosh g‘oyasini ochishga yetaklaydi. Romanning kompozitsion qurilishi va syujet tasviri bir-birini davom ettiradi, to‘ldiradi. Romanda Rustamning otasi tomonidan yuborilgan maktub ham kompozitsion qurilishda, ham qahramon ruhiyatida katta ahamiyat kasb etadi. *“O‘ylab qaragam, o‘tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ihirganu, tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush. O‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Mana endi, uyg‘onib yonverimga qaragam menga o‘xshaganlar ko‘p ekan”*⁵⁶

XULOSA

⁵⁶ hoshimov o‘. tushda kechgan umrlar. –t.:book media nashr,2019. –b.279-280.

Yuqorida asar tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, kompozitsiya va syujet asar badiiyatini ochib beruvchi eng asosiy kuchdir. Ular bir vaqtda ham bir-biridan farq qiluvchi shu bilan birga bir-birini talab qiluvchi badiiy unsurlardir. Ma'lumki har qanday asar qaysidir makon va qaysidir zamonda tasvir etiladi. Ijodkor qaysi zamonda yashamasin, tasvirlayotgan asaridagi muhitga kitobxonni jalb qila olishi kerak. O'tkir Hoshimov ham ushbu romanida vaqt masalasini ayniqsa, makon va zamon xususiyatlari aniqlik bilan yoritib olgan. Bir vatqning o'zida o'tmish va bugunni mohirona tasvirlaydi. Bugun tasvirida Rustanning Afg'on urushidagi jangi, otasining qamalishi, uylanishi va so'ngida vafoti haqida so'z borgan bo'lsa, o'tmishdagi "qatag'on" yillari, 14 yoshli Qurbonoyning otasi nohaq qamalgani, komissarning qilgan chirkin ishlari namoyon bo'ladi. Ba'zi obrazlarning tasviri esa ikki zamon o'rtasida parallel tarzda kechadi. O'tkir Hoshimov o'zbek xalqining asl farzandi va chinakam yozuvchisi sifatida o'z xalqi boshidan o'tgan eng og'ir kunlarini, tarix haqiqatlarini badiiy go'zallik bilan yoritib bera oldi. Ushbu romanni o'qigan har bir o'quvchi chuqur mushohada qilishga chog'lanadi. Shu sababli ham asar yillar o'tsa ham kitobxonlar qo'lidan tushmay mutolaa qilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
4. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
5. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
6. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
7. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

8. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
9. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
10. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
11. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

RABG‘UZIYNING ”QISASI RABG‘UZIY” ASARI HAQIDA

Soliha Mustafoyeva,

TDPU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada turkiy xalqlar adabiyotidagi diniy asrlarning eng mukammali “Qisasi Rabg‘uziy” avliyolar va anbiyolar tarixi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba’zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilganligi maqolada o‘z izohini topgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tilda, diniy asrlar, qissa, turkiy xalqlar, avliyolar va anbiyolar, madhiyalar.

“Qisasi Rabg‘uziy” Rabg‘uziyning mashhur asaridir. Rabg‘uziy taxallusi, asl ism-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li. XII asr oxiri — Xorazmning Raboto‘g‘uz mavzei XIV asr boshlarida istiqomat qilgan shoir. Raboto‘g‘uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og‘zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to‘g‘risidagi qissalarni chuqur o‘rgangan. O‘zi ham ko‘pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan.

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib nasrda rivoyatlardan, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha “Qisasi Rabg‘uziy” asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo‘g‘ul beklaridan Nosiriddin To‘qbug‘aning topshirig‘i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba’zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Qur’oni Karimdagi ba’zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Ishoq Nishopuriyning “Qisas ul-anbiyo”sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi, so‘ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma’lumot beruvchi qisqa so‘zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72 qissadan iborat. Mavzu doirasiga ko‘ra, asar qissalari juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo‘lgan Allohni ulug‘lash, payg‘ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, erk va adolat mavzulari shular jumlasidandir. Qissalar hajmi turlicha: Masalan, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat. Qissalarning ko‘pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so‘ng she’riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Bazi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqllar ham bor.

”SOLIH ALAYHISSALOM QISSASI” Asil ismlari – Solih ibn Ubay ibn Asaf ibn Fosih ibn Hom ibn Samud ibn Od ibn Eram ibn Som ibn Nuh asayhissalomdir. Od va Samud ikki shohlar edi. Som ibn Nuhning o‘g‘lonlari bo‘lgan bu ikkovidan ko‘plab zurriyodlar qoldi. Ular Od qabilasi, Samud qabilasi deb ataladilar. Hud qavmi Od qabilasining avvali, Samud qavmi esa ohiridir. Od xalqi Samud xalqidan ko‘proq edi. Samudliklar ham Odliklar singari baland bo‘ylik edi. Som va Od qavmi Hijoz orasidagi

Jahd degan joyda istiqomat qilganlar. Tog‘lar toshlarni yo‘nib, uylar qurganlar. Katta bir tog‘ning ostida ularning suvi bor edi. Hammalari butlarga siqindilar. Olloh taolo Solihni ularga yubordi. (Oyat) “Va Saum qabilasigaularning birodarlari. Solihni yubordik”. Solih ularning qavmidan edi va ularni musulmonlikka undadi, butga topinmaslikka da’vat etdi. Ey Solih, biz seni dinimizga kirar deb umid qilgandik. Endi bo‘lsa otalarimiz dinini qo‘yib, boshqa dinga kirishga undamoqdasan. (Oyat) “Sen avvalda bizning oramizda umid qilingan kishi eding”. Oyo, sen bizni ota -bobolarimiz ibodat qilib kelgan narsaga ibodat qilishimizdan qaytarmoqchisan? Va, albatta, biz seni da’vat qilib, targ‘ib etayotgan din haqida qattiq shakdamiz. Vahab ibn al-Yamaniy qissalarida rivoyat qilinishicha, Nuh xalqi to‘fondan halok bo‘lgandan keyin Nuhning uch o‘g‘ligina tirik qoldo, xolos. Nuh alayhissalom o‘g‘illariga vasiyat qilib, jahonning o‘rtasini Somga, Mashriqni Yofasga, Mag‘ribni Homga bergandi. Aytishlaricha, turklar Yofas urug‘idan, boshqalar esa Som urug‘idandir. Som urug‘iga mansub bo‘lgan Samud qavmi Hijoz yerlarida o‘rnashgandi. Ularning har bir qabilasining o‘z podshohi bor edi. Samud qavmi Makkaga ixlos qo‘ygan edi. Makkada muoviya ibn Bakr degan uch yuz ming askari bo‘lgan shoh hukm yuritiradi. Hojiz yerlaridagi podshohlar yig‘ilishib kengash qurdilar: “Dushmanlardan bizlarni himoya etuvchi bir podshoh kerak”. Xanda’ ibn Umar degan odamni o‘zlari podshoh qildilar. Shoh o‘z hukumronligini o‘rnatgach, o‘ziga bir butni yasattirda. Bu Butning ko‘zlari yoqutdan, o‘zi esa qizil oltindan edi. Butning to‘rt tarafga qaragan to‘rt yuzi bo‘lib, biri odam suratida, biri arslon suratida, biri qush suratida, biri ot suratida edi. Bu but uchun balandligi yuz tirsak, eni yuz tirsak bo‘lgan bir uy barpo qildirdi, devor tomlari aqaqdan edi. Bu uyga yuz eshik qurdirdi, ichiga bir taxt o‘rnatdi, uni qizil oltin va gavharlar bilan bezatdi, oyoqlarini aqiq, zumdar va billurdan ziynatladi. Butni turf axil kiyimlar bilan orastalab, bu taxt ustiga o‘rnatti, unga sajda qildilar. So‘ngra barcha qabilalarga odam yuborib, hamma podshohlarni o‘z a‘yonlari bilan yig‘dilar. Bu mening tangrim bo‘ladi, unga sajda qilinglar,, – dedi yig‘ilganlarga. Podshohlar binoning yuz eshigidan kirib, butga sajda qildilar. Shu pallada ilgariroq butning og‘ziga kirib olgan bir kimsa “Men sinlardan hushnudman”, – deb ovoz qildi. Bundan barchalari shod bo‘lib, sajdadan bosh ko‘tarishidi. “Har yili bir marta bunga sajda qilinglar”, –dedi Xanda’ ibn Umar amirona ohangda.

Asardagi tasvir usuli turkona qarash va qahramonlarning suhbatii tabiiy va ta’sirli ifodalangan. Ibodatning inson tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhimligi ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayeva N. Anbar Otin adabiy merosi: ko‘lami, o‘rganilishi, qayta baholash zarurati.-INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART. Xalqaro so‘z san’ati ilmiy jurnali. 2020.
2. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
3. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
4. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
5. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
6. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
7. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
8. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
10. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
11. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
12. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
13. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
14. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

UCHINCHI BO'LIM

**FILOLOGIYA VA
FANLARARO
ALOQADORLIK**

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARIDA KASBIY KARYERANI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MASALALARI

*Sojida Ashirova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Maqola mazmunida ta’limda karyera tushunchasining mazmuni va mohiyati, fanda qo‘llaniladigan karyera turlari va kasbiy karyerani hosil qilish shart-sharoitlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy karyerasini shakllantirishning mazmuni haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: karyera, professional karyera, ichki karyera, vertikal karyera, gorizantal karyera, markazga intiluvchan karyera.

Аннотация: Содержание статьи говорит о значении и сущности понятия карьера в образовании, используемых в науке видах карьеры и условиях формирования профессиональной карьеры.

Ключевые слова: карьера, профессиональная карьера, внутренняя карьера, вертикальная карьера, горизонтальная карьера, центростремительная карьера.

Annotation: The content of the article talks about the meaning and essence of the concept of career in education, the types of careers used in science and the conditions for the formation of a professional career.

Key words: career, professional career, internal career, vertical career, horizontal career, centripetal career.

Kirish

Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiiq etishda, intellektual jamiyat qurishda bugungi pedagog-tarbiyachilar asosiy ma’sul shaxslar hisoblanadi. Chunki ularning kasbiy vazifasi hisoblangan murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni ilmi, tartib-intizomli, tarbiyali qilib voyaga yetkazishdek oliyjanab mas’uliyat bor. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlar ta’lim oluvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda, yosh avlodning o‘ziga va boshqalarga, jamiyatga, davlatga va tabiatga nisbatan o‘zgarishlarni, vatanparvarlik g‘oyalarini ularning ongiga va qalbiga singdirishni ham ko‘zda tutadi. Demak pedagog-tarbiyachilar oldiga qo‘yilgan murakkab, mas’uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarishlari uchun hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirishlari uchun azaliy va zamonaviy trayektoriyalardan biri hisoblangan karyeraga ehtiyoj sezadi.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Mutaxassis T. Bazarovning ta'kidlashicha, karyera-insonning mehnat faoliyati jarayonidagi xulq-atvori va tanlagan yo'nalishi bilan bo'g'liq lavozim yoki kasbiy o'sishning natijasidir. Karyera trayektoriyasini inson o'z mehnati va xatti-harakatlarini amalga oshirish jarayonida foydalanadigan shaxsiy maqsadlari, xohish-istaklari, ustunliklari orqali quradi va uni tashkilot ichi yoki tashqarisidagi haqqoniy faoliyat xususiyatlarida shakllantiradi.

XX asrning oxiriga kelib, keng ko'lamli o'zgarishlar yuzaga keldi buning natijasida kasblarning rejalashtirilishi yoki loyihalashtirilishining imkoni paydo bo'ldi. Shu nuqtai-nazardan, kasb-hunar bo'yicha maslahatchi va martaba maslahatchisi nomli yangi kasblar paydo bo'ldi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida kattalar uchun ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida ikki yoki bir nechta mavqega ega bo'lish odatiy holga aylanib qoldi. Iqtisodchi Richard Florida bu tendensiyani umumiy va aniqroq qilib "kreativ guruh" nomi bilan qayd etgan.

1950-yil va 1960-yillarda odamlar odatda bir yoki ikkita tashkilotda bir vaqtning o'zida bir xil vazifada ishlaganlar va muvaffaqiyat tashkilot tomonidan belgilanagan. Masalan lavozimga ko'tarilish, ish haqining oshishi va boshqalar. Bunday an'anaviy karyera Donald Superning mavqe bosqichi modeli misolida izohlanadi. Superning chiziqli mavqe bosqichi modeli mansab barqarorligi, tashkiliy tuzilmalar kontekstida amalga oshirilishini taklif qiladi. Shaxslar ko'proq tashqi mukofotlarni qidirib, tashkilot boshqaruviga ko'tarilishga intilishadi.

Natijalar

Karyera –bu shaxsning o'rganishi, ish va hayotning boshqa jabhalari orqali metaforik "sayohat"i hisoblanadi. Karyera atamasining qo'llanilish usullari turli-tuman bo'lib uni aniqlashning bir qancha usullari mavjud.

Karyera muvaffaqiyati –bu mansab haqidagi akademik va mashhur manbalarda tez-tez ishlatiladigan atama bo'lib, bu shaxsni hozirgacha o'z ishi va hayotida muvaffaqiyatli deb ta'riflash mumkin bo'lgan daraja va usullarni anglatadi.

"Karyera" so'zi lotincha «*carrus*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aravaga ishora qiladi. Onlayn etimologiya lug'atida bu atama 1803-yildan boshlab "obro'", "odamning jamoat yoki kasbiy hayoti" degan ma'noni anglatuvchi semantik kengaytmani ifodalay boshladi. U 1800-yilda nashr etilgan o'nlab kitoblarning asosiy bahs mavzularidan biri sifatida o'rganilib boshlandi. Jumladan Gyotening asosiy asarlaridan birida bu atamaning "adabiy karera", "biznes karyera" va "professional karera" turlari haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Mansabni boshqarish yoki karyera rivojlanishi shaxs tomonidan martabani faol va maqsadli boshqarishni tavsiflaydi. "Karyerani boshqarish ko'nikmalari"ni o'z

ichiga olgan g'oyalar Blueprint modeli nomi bilan bir qancha rivojlangan davlatlarda ya'ni AQSh, Kanada, Avstraliya, Shotlandiya va Angliyada alohida e'tirof etildi. Blueprint modeli asosiy ko'nikmalarga hozirgi mavqei haqida fikr va mulohaza yuritishi, mehnat bozorini o'rganish, ta'lim zarurligini aniqlash karyerani o'zgartirish qobiliyati tushunchalari kiradi.

Amerikalik mashhur olim Behling va boshqalarning fikriga ko'ra, shaxsning biror bir jamoaga qo'shilish qarori uchta omildan biriga bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni obyektiv omil, subyektiv omil va tanqidiy aloqa.

Obyektiv omil ish oluvchining fikriga ko'ra ish beruvchilarning xatti-harakatlari oqilona ekanligini taxmin qiladi. Shuning uchun tanlov ishning aniq foydasini obyektiv baholashdan keyin amalga oshiriladi. Obyektiv omilning asosiy faktorlari yuqori ish haqi, imtiyozlarning ko'pligi, joylashuvning qulayligi, martaba ko'tarilish imkoniyatlari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Subyektiv omil ish oluvchining qaror qabul qilishida ijtimoiy va psixologik omillar ustunlik qiladi. Ishning holati, tashkilotning obro'si va boshqa shunga o'xshash omillar muhim rol o'ynaydi.

Tanqidiy aloqa nomzodning tashkilot bilan o'zaro aloqada bo'lgan kuzatuvlari uning qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ish beruvchining nomzod bilan qanday aloqada bo'lishi, javobning tezkorligi va shunga o'xshash omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariya tajribali mutaxassislar uchun ko'proq mos keladi. Kasbni o'zgartirish mavqe va karyera boshqaruvining muhim jihati hisoblanadi. Umr davomida shaxs ham, mehnat bozori ham o'zgaradi; ko'p odamlar hayoti davomida kasblarini o'zgartirishni kutishi mumkin. AQSh davlati tajribasidagi Mehnat statistikasi byurosi tomonidan 1979-yilda yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomadan to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, 18 yoshdan 38 yoshgacha bo'lgan shaxslar 10 dan ortiq ish joylariga ega bo'lishlari mumkin. Odamlar o'z kasblarini o'zgartirishi uchun turli sabablar bo'lishi mumkin. Bu sabablar orasida karyeraning o'zgarishi uzoq kutilgan ishdan bo'shatish natijasida yuzaga kelishi mumkin, boshqa paytlarda esa kutilmaganda va ogohlantirishsiz sodir bo'lishi ham mumkin.

Menejment sohasi bo'yicha o'tkazilgan so'rov mansab o'zgarishining quyidagi sabablarini ajratib ko'rsatadi.

- Tashkilotni qisqartirish yoki qayta qurilishi (54%).
- Yangi muammolar yoki yuzaga keladigan imkoniyatlarning qulayligi (30%).
- Yomon yoki samarasiz yetakchilik (25%).
- Menejer(lar) bilan yomon munosabatda bo'lish (22%).
- Ish yoki hayot muvozanatini yaxshilash uchun (21%).
- Hissiyotlarning tan olinmasligi natejasida (21%).

- Yaxshiroq kompensatsiya va imtiyozlar uchun (18%),
- Shaxsiy va tashkiliy qadriyatlarga yaxshiroq moslashish uchun (17%).
- Shaxsiy qobiliyatlarning tashkilot talabiga mos kelmasligi (16%).
- Tashkilotning moliyaviy beqarorligi (13%).
- Tashkilot boshqa joyga ko‘chirilishi (12%).

Muhokamalar

A. Xodjaboyev, I. Husanov “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmada bo‘lajak mutaxassislarni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashning nazariy va ishlab chiqarish nomli usullari mavjudligi bo‘lajak mutaxassislar tashkil etilayotgan darslardan o‘z mehnat faoliyatlari uchun kasbiy tayyorgarlik mezonlarini egallab borishlari mumkinligi haqida yoritilgan. Axmetjanov M. M. va boshqalar tomonidan yaratilgan “Kasbiy ta’lim metodikasi” darsligi bo‘lib bu darslikda mualliflar kasbiy ta’limi metodikasining asosiy tushunchalari, uning asosiy qonuniyatlari va ta’lim jarayoni, o‘qituvchi va talaba shaxsi faoliyatini uyg‘unlashtirish texnologiyalari, ta’lim mazmunini tanlash tamoyillari, kasbiy ta’limning tashkiliy shakllari, o‘qitish vositalari va ularning qo‘llanishi, kasbiy ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarini qo‘llash, talabalarda umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta’lim vositalaridan foydalanish texnologiyasiga tavsif berganlar [5, 496]. A. I. Avazboyev va boshq. tomonidan yaratilgan “Kasbiy pedagogika” nomli qo‘llanmada kasbiy ta’limning maqsadi va vazifalari; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida kasblar va mutaxassisliklar klassifikatsiyasi, kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga talablar. o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari; kasbiy ta’lim mazmuni, uni tanlash va tahlil qilishning ilmiy-usubiy asoslari; kichik mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish qonuniyatlari; kasbiy ta’lim sohasida xalqaro tajriba; ta’limning dual tizimi; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish to‘g‘risidagi asosiy me‘yoriv-huquqiy hujjatlar; kasb-hunar ta’limi va ta’lim muassasalarini boshqarish va shu kabi masalalar yoritilgan. Bundan tashqari G. O. Ochilova tomonidan yaratilgan “Kasbiy kompetentlik” nomli o‘quv qo‘llanma mavjud mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriyat ta’lim standartlariga mos ravishda “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari o‘quv rejasi va dasturi asosida tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma kasbiy kompetentlik, zamonaviy pedagog modeli, kasbiy kompetentlikning metodologik asoslari, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik mahoratning o‘rni va roli, ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda kasbiy kompetentlikning ahamiyati, kreativ yondashuv asosida kasbiy mahoratni rivojlantirish yo‘llari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Darsliklarda keltirilgan barcha mavzular bir-biriga mazmunan uyg‘un va uzviy yoritilgan.

Xulosa

Biz maqolaga xulosa sifatida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini baholash uchun talabalarning ichki imkoniyatlarini namayon qilishga undash va keyingi navbatda talabaning kasbiy karyeraga bo‘lgan munosabatini yaxshilash uchun yuqoridagi manbalarga asoslangan holda amaliy tajribalardan foydalanish va adabiyotlardagi ma’lumotlarni mustahkamlash ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Xodjaboyev, I. Husanov “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” o‘quv qo‘llanma T.: “Fan va texnologiya” 2007-yil 192 bet.
2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o‘quv qo‘llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet.
3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.
4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta’lim metodikasi” o‘quv qo‘llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.
5. M. T. Axmedova “Pedagogik kompetentlik” uslubiy qo‘llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.
6. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.
7. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
8. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
9. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
10. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
11. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
12. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

13. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
14. M.N. Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
15. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
16. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
17. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
18. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
19. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

OILADA SHAXS TARBIYASIGA OID AKSIOLOGIK YONDASHUVLARNING TARIXIY-TADRIJIY TAHLILI

*Muxayyo Alikulova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Maqola mazmunida oilada bola tarbiyasiga oid aksiologik yondashuvlarning tarixiy-tadrijiy tahlili bugungi kunning asosiy mavzularidan biri ekanligi haqida soʻz yuritilgan boʻlib, oila va oilaviy munosabatlar sharq allomalari va ularning asarlaridagi azaliy va asriy mavzular sirasida eʼtirof etilishi haqida manbalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: oila, oilaviy qadriyat, afsona, ertak, topishmoq, maqol, masal, doston, pand-nasihahat

Аннотация: В содержании статьи отмечается, что историко-прогрессивный анализ аксиологических подходов к воспитанию детей в семье является одной из основных тем современности, а также приводятся источники о признании семьи и семейных отношений у древних и родственных отношений. вековые темы восточных учёных и их трудов.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, миф, сказка, загадка, пословица, притча, сага, совет.

Annotation: In the content of the article, it is mentioned that the historical-progressive analysis of axiological approaches to child upbringing in the family is one of the main topics of today, and sources are given about the recognition of family and family relations among the ancient and age-old themes of Eastern scholars and their works.

Key words: family, family value, myth, fairy tale, riddle, proverb, parable, saga, advice

Kirish

Oʻrta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar eng qadimgi davrlardan boshlab paydo boʻla boshlagan. Bu masala dastlab oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalari: afsonalar, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, masallar, dostonlar mazmunida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ushbu pedagogik qadriyatlarda bola tarbiyasiga oid fikrlar oʻziga xos tarzda bayon etilgan. Shu bilan birga, qadimdan xalqimiz oilada farzandlarining odobli va axloqli boʻlib voyaga yetishlari uchun koʻplab maqollardan foydalanganlar. Bunday maqollarda bolaning axloqi oilaning ziynati, ota-onaning yuzi sifatida qaralgan. Ular bolalarga pand-nasihahat tarzida yetib kelmoqda.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Bobur, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat kabi ko'plab allomalar o'zlarining asarlarida oilada bola tarbiyasiga oid fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi davr yoshlari uchun ham katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadir.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning va oilaviy tarbiyaning rolini yuqori baholaydilar, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida ota-ona va kattalarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi ekanligini aytib o'tadilar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlarga: odoblilik, mehnatsevarlik, halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, vatanparvarlik, haqgo'ylik, insonparvarlik kabi qator fazilatlarni kiritadilar.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida shaxsning barkamolligi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ta'lim - tarbiyasini tashkil etish usullari, axloqi haqidagi pedagogik qarashlarini falsafiy qarashlariga mushtarak tarzda ifodalab bergan. Uning fikricha,

Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonlar ijtimoiy hayotda ehtiyojlarini qondirish uchun jamoaga va jamiyatga birlashadilar, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatlarni to'liq va to'liqsiz jamiyatga ajratish mumkin. O'z navbatida to'liq jamiyat ham uch turga: buyuk jamoa, o'rtacha jamoa va kichik jamoa bo'linadi. Buyuk jamiyatga - yer yuzidagi barcha joylar va yashovchi odamlar jamoasi kiritilsa, o'rtacha jamiyat - biror xalq vakillarini tashkil etadi. Kichik jamiyat - u yoki bu shahar aholisi birlashmasi hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy – ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk allomalaridan biri. Beruniyga katta shuhrat olib kelgan asari "Mineralogiya" asaridir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Uning bu kabi asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik, poklik kabi insoniy sifatlari tilga olinadi.

Ibn Sino fikricha, ayol oqila bo'lishi lozim, shundagina u erining ishonchli do'sti va hamdardiga aylanadi, bevafoqlik esa oilani barbod qiladi-deydi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasiga to'xtalar ekan, bola tarbiyasi dastlab bolaga yaxshi ism qo'yishdan boshlanishi kerak deydi.

Allomaning fikricha, bolani go'dak davridayoq turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish, u haqida qayg'urishi otaning burchidir va bola olti yoshga qadam qo'yganidan boshlab uni murakkab bo'lmagan vazifalarni bajarishga o'rgatish kerak. Ammo bu harakatni ehtiyotkorlik bilan, bolani haddan ziyod zo'riqtirib yubormasdan amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, bolaning topshiriqni bajarishga qiziqishini oshirish ham muhim hisoblanadi. Ibn Sino o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan yumshoq muomala bo'lishi.

Yusuf Yusuf Xos Hojib Balasog'uniy "Qutadg'u bilig" asarida oila masalasiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, u turmush o'rtoq tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish kerakligini, inson xulq-atvorining oilani boshqarishdagi roli, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon hayot kechirishning muhim jihatlari haqidagi fikrlari jamlangan. Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim". Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, farzandlarning ota-onani hurmat qilish, ularni e'zozlashi, aytgan so'zlaridan chetga chiqmasligi kerakligi yoshlarga pand-nasihat tarzida yetkaziladi. Shubhasiz uning bu kabi she'rlari yosh avlodda ota-onaga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalashga xizmat qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida yashab ijod etgan tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddinning "Oila" asarida oila va nikoh, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning farzand oldidagi vazifalari, farzandning ota-ona oldidagi burchlari, ayol va erkakning oila va farzandlar tarbiyasidagi roli kabi masalalar yoritib o'tilgan.

Natijalar

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham oila tushunchasiga batafsil to'xtalib o'tiladi, chunonchi: "Oila-nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari-inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi". "Oila-murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanib, ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligi, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon. Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan ijtimoiy institut hisoblanadi". Oila - bu ijtimoiy institut, ijtimoiy tuzilma va kichik guruh kabi turli xil ijtimoiy shakllanishlarning xususiyatlarini birlashtirgan ko'p qirrali ijtimoiy hodisa, shuning uchun oila turli darajalarda ko'rib chiqiladi: makro va mikro daraja. Ijtimoiy tizimning yeleменти sifatida oila ushbu tizimdagi o'rnini belgilaydigan bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi. Bunday funksiyalarga reproduktiv, sotsializatsiya, yekzistensial va iqtisodiy funksiyalar kiradi". Darhaqiqat, oila ijtimoiy

institut hisobalanadi, u shaxs uchun dastlabki ijtimoiylashuv maskanidir. Oila jamiyatni harakatga keltiradi, undagi shaxslar jamiyatdagi barcha tartib qoidalar, qonunlar, tamoyillarga bo'ysunadi va o'z navbatida ularni ishlab chiqilishiga ishtirok etadi.

Muhokamalar

Hukumatimiz va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning barcha sa'y-harakati oilalar farovonligini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, oilalar o'rtasidagi ajrimlar sonini kamaytirish, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalarga qaratilmoqda. Shunday ekan, yosh avlodning oilaga oid majmuaviy bilimlarni o'zlashtirish va oilani qadriyat sifatida chuqur anglash hamda vatanparvar, shijoatli, fidoyi, mehnatvevar, tashabbuskor kabi qator fazilat egalari bo'lishlarini talab etadi. O'z navbatida shaxsning ushbu fazilatlari oilada va oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirish natijasida tarkib topadi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra shuni ta'kidlash lozimki, oila va nikoh hamda oilada barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari qadimdanoq Markaziy Osiyoda o'z tarixiy ildizlariga egadir. Xususan, dono xalqimiz va buyuk allomalarimiz o'z qarashlarida nafaqat oilani qadriyat sifatida ulug'lab kelganlar, balki uning huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik asoslarini yaratib berganlar. Ayniqsa, ular otionalarning davlat va jamiyat uchun komil farzand yetishtirib berishda nimalarga e'tibor berishi kerakligi, burch va vazifalarini sodda, tushunarli tilda bayon qilib o'tganlar. Shuningdek, allomalar o'z asarlarida farzandlarning jamiyat va ota-ona oldidagi vazifalarini pandnomalar, hikmatlar, nasihatlar ko'rinishida yoshlarga yetkazib berishgan. Shu boisdan allomalarimizning oila muammosi va yoshlar tarbiyasiga oid yondashuvlari bugungi shiddatkor zamonda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Oxunjon "Xalq og'zaki ijodi" darslik Buxoro davlat universiteti T.: "Musiqa" nashriyoti 2010-yil 386 bet
2. M. A. Ahmedova, V. S. Xan, D. A. Alimova "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 440 bet
3. Matluba Ahmedova "Falsafa" darslik T.: "O'zbekiston faylassuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 496 bet
4. A. Madvaliyev "Pedagogika ensiklopediyasi" T.: "O'zbek tilining izohli lug'ati" davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320 bet.
5. I. Ergashev, O. M. Muxammadiyeva, M. I. Xo'jayev "Milliy g'oya: O'zbekiston rivojlantirish strategiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti 2020-yil 180 bet.

14. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
15. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
16. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
17. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence // Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
18. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
19. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
20. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
21. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
22. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
23. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 b.
24. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
25. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
26. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

ANDROGOGIKA VA ANDROGOGIK YONDASHUV TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

*Shaxlo Sattorova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola mazmunida androgogika tushunchasining mazmun va mohiyati, bu tushunchaning kelib chiqish asosi va asoschilari haqida so'z yuritilgan. Maqola mazmunida androgogika tushunchasiga asosdosh sifatida androgogik yondashuv tushunchasi va uning ilmiy mohiyati va pedagogika sohasidagi ahamiyati haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: androgogika, androgogik yondashuv, milliy tarbiya, fazilat, ezgu fazilatlar, o'zaro hurmat, ishonch, samimiylik, jamoa orasidagi ahllik

Annotation: The content of the article talks about the content and essence of the concept of androgogy, the origin and founders of this concept. In the content of the article, the concept of the androgogic approach as the founder of the concept of androgogy and its scientific essence and significance in the field of pedagogy are highlighted.

Key words: androgogy, androgogical approach, national education, virtue, good qualities, mutual respect, trust, sincerity, morality among the community

Аннотация: Содержание статьи говорит о содержании и сущности понятия андрогогика, происхождении и основоположниках этого понятия. В содержании статьи выделено понятие андрогогического подхода как основоположника понятия андрогогики, его научная сущность и значение в области педагогики.

Ключевые слова: андрогогика, андрогогический подход, национальное воспитание, добродетель, хорошие качества, взаимное уважение, доверие, искренность, нравственность в обществе.

Kirish

«Andragogika» tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog-tarixchisi A. Kapp tomonidan fanga kiritilgan. Agar «Pedagogika» so'zi bilan yonmayon, o'xshash tarzda talqin etilsa, kelib chiqishi grekcha so'zlardan (andros-erkak, odam; agogeyn-yetaklash) so'zlaridan iborat ekanligi oydinlashadi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, andragogika bu - «katta odamni yetaklash» demakdir. Ushbu termin pedagogik voqelikka dahldorligi uchun, o'qitish yordamida yetaklash haqida so'z boradi. Shunga ko'ra andragogik bilimlarning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rnini va tuzilishlarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy amaliyot sohasida andragogikani

o'zlashtirish, kattalarga ta'lim berishning mohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga oid yo'nalishlarni aniqlashtirish, bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatli munosabatlarni ko'zda tutadi. Andragogikani o'quv fani sifatida tushunish uchun, uning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rni va imkoniyatlarini belgilay olish muhim sanaladi. Ilmiy bilimlarning nisbatan yangi tarmog'i hisoblanuvchi andragogika, tiklanish jarayonini boshdan kechirmoqda. «Pedagogika» va «Andragogika» terminlarining o'zaro yaqinligi, ko'p yillardan buyon «Andragogika» tushunchasi pedagogika sohasiga yaqin tursada, kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlarini ham unutmaslik lozim. Mazkur qarama-qarshiliklar tufayli belgilanmagan. Ayrimlar uni pedagogikani bir bo'limi sifatida maktablarga pedagogika, boshlang'ich pedagogikasi kabi fanlar qatoriga qo'shadi. Boshqalar, o'qitish obyekti sanaluvchi katta odamning o'ziga xos tabiatini nazarda tutgan holda, andragogikani pedagogikadan alohida soha sifatida baholaydilar.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Mazkur nuqtai-nazar tarafdorlari andragogikaning integrativ tabiatiga alohida urg'u beradilar. Bir narsa aniqki - andragogika fanlararo bog'liklikka ega.

Andragogikaning ta'lim nazariyasi va pedagogika bilan o'zaro uzviy aloqadorligi, ularning predmetini taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Pedagogikaning umumiy tarzdagi predmeti, shaxsning pedagogik voqelikdagi shakllanish jarayonidir. Kattalarga ta'lim berish nazariyasi predmeti ijtimoiy-madaniy institut sifatida kattalarga bilim berish tizimidir. Andragogikaning o'ziga xos xususiyati esa, uzluksiz ta'lim jarayonida kattalarni o'qitish nazariyasi va metodikasi hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan barcha ilmiy izlanishlarning kesishgan nuqtasi, katta odamni o'rganish sohasiga tegishlidir. Buning uchun esa, kimni yetaklayotganini, uning o'ziga xos tabiati va xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Shunga ko'ra andragogikani, XX asrning 60-yillarida taniqli rossiyalik psixolog B. G. Ananov odamni o'rganuvchi fanlar tizimi deb atagan, ilmiy-amaliy sohalar bilan o'zaro uyg'unlik va hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi zarur deb baholagan.

Andragogika bilimlarning gumanitar sohasidir. Unda nafaqat odamni bilish, balki ijtimoiy bilimlar, ta'lim falsafasi, madaniyatshunoslik kabi sohalarga oid tushuncha va g'oyalar sintezi ham amalga oshiriladi. Shunday qilib andragogika, zamonaviy ilmiy bilimlar rivojining umumiy holatini aks ettiruvchi namuna bo'la oladi. Bir tomondan, dolzarb muammolar xususida axborotlarni umumlashtirish, ikkinchi tomondan - ularni ixtisoslashtirish va joy-joyiga qo'yish muhimdir. Shu tufayli andragogika pedagogika, kattalar ta'limi nazariyasi tarkibiy

qismiga kirishi, hamda bilim sohasining mustaqil tarmog‘i sifatida odamni o‘rganuvchi fan deb e‘tirof etilishi mumkin.

Andragogning asosiy kasbiy funksiyasi - kattalarga ta‘lim berishdir. Andragogik (ta‘lim-tarbiyaviy) funksiyani, «odam-odam» tizimida ishlayotgan har qanday mutaxassis bajara olishi shart. Uni fakultativ yoki me‘yoriy tarzda kasbiy hamda qo‘shimcha pedagogik ma‘lumot shaklida o‘zlashtirish mumkin. «Kattalarni o‘qitish» amaliyoti va nazariyasi butun jahon tajribalaridan foydalangan holda, keng ommaga kirib keldi. Bu tajribalar bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi. Buning birinchi tarixiy bosqichi «Andragogika» deb nomlanadi. Bu esa kattalami o‘qitish amaliyotidagi ilk g‘oya sifatida o‘rganiladi. Bu g‘oya 100 yil davomida uzluksiz o‘rganildi. Hususan, XIX asrning 30 yillaridan so‘ng ko‘plab Yevropa va Amerika shaharlarida ishlab chiqarish ko‘p bo‘lgani sababli kattalar o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan talab kuchaydi.

Natijalar

«Andragogika» atamasining birinchi marta qo‘llanilishi XIX asrning 30-yillarda Germaniya olimlari o‘rtasida juda katta munozaralarga sabab bo‘ldi. Bunda aholining ongini rivojlantirishga, ularni bilimli bo‘lishlariga katta e‘tibor qaratilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va boshqa chet mamlakatlarda kattalarni o‘qitish uchun kechki o‘qishlar, yakshanba kunlari o‘qish, xalq maktablari, kutubxona, muzeylar va o‘quv dasturlari tashkil etildi. XIX asr oxirida «Kattalarni o‘qitish»ga bo‘lgan e‘tiborning ortishi bilan aholining turli qatlamlarida mustaqil o‘qishga bo‘lgan harakatlar sezilarli tarzda kuchaydi va kattalarning ongini o‘stirish maqsadida aholi uchun madaniy-ma‘rifiy ishlar olib borildi.

Ushbu davrdan boshlab bunday o‘qish an‘anaga aylanib bordi va turli mamlakatlarda institutlar tashkil etildi. Buning natijasida yorqin shaxslar yetishib chiqdilar. Bunday ishlarni tashkil qilishda juda ko‘p insonlar bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shunday o‘qitish natijasida Daniyalik Nikolay Gruntvig Skandinaviyada “Xalq maktablarini” tashkil etgan.

Kattalarni o‘qitish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keldi va muammolarni hal etish uchun «qanday o‘qitish kerak? nima uchun o‘qitish kerak»? degan savollarga yechimlar izlana boshlandi. XX asr boshlariga kelib «Kattalarni o‘qitish»dagi muammolar olimlarning ilmiy ish mavzulariga kirib keldi, ya‘ni katta odamlarni o‘rganish uchun birinchi navbatda ularning ichki-ruhiy olamini, katta yoshli shaxs psixologiyasini tadqiq etish boshlandi. Shu davr nuqtai-nazaridan kelib chiqqan xolda, tadqiqotchilar insonlarni turli yoshda ham o‘ziga xos qobiliyatlari bilan o‘qiy olishlarini isbotlab bera

olishgan.

Muhokamalar

“Kattalar ta’limi” atamasi mamlakatimiz va xorij ilmiy-uslubiy adabiyotlarida o‘z o‘rnini topganiga qaramay, bizning nazarimizda mazkur tushuncha keng qamrovli, chuqur mulohaza yuritishga undaydigan tushunchalar sirasiga kiradi. “Kattalar ta’limi” deganda biz katta yoshli insonning har tomonlama kamol topishini nazarda tutamiz. Katta yoshli insonning bilimi, malakasi, ko‘nikmasini kengaytirish bilan bog‘liq har qanday ish kattalar ta’limi hisoblanadi. Ushbu atama bilan bog‘liq yana bir qiziq holat. Kimni katta yoshli deb atash mumkin? – degan mulohazaga chorlovchi fikr keladi. Ko‘pincha, katta yoshdagilar deganda 30 dan oshganlardan boshlab va xatto nafaqadagilar ham nazarda tutiladi. Ammo o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan va mustaqil pul ishlab topishni boshlagan har qanday inson katta yoshli hisoblanadi. "Qanday qilib ta’limni yanada samarali qilish mumkin va bu nima uchun zarur?" – degan savol berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Uzluksiz ta’lim zarurligini juda ko‘p buyuk pedagoglar va ma’rifatchilar ta’kidlaganlar.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki androgogika va androgogik yondashuv muammosini ilmiy-nazariy tahlil qilish, androgogika va androgogik yondashuv mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni ovriganish, androgogika va androgogik yondashuv muammosiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, androgogika va androgogik yondashuv metodikasini ishlab chiqish mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib boruvchilarning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. X. Abdullaev, N. S. Raximov, M. O. Xadayev “Katta yoshdagilarni o‘qitish markaziga: qadam-baqadam” T.: “CHASHMA” 2013-yil
2. O‘. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva “Andragogika” o‘quv qo‘llanma Namangan 2014-yil
3. Z. T. Nishanova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” darslik Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil 600 bet
4. I. Saifnazarov, A. Muxtarov, T. Sultanov, N. Nazarov, N. Raximbabayeva, X. Doniyorov, F. Usmonov “Falsafa” darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020-yil 424 bet.
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР

7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
14. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
15. О‘разбаева М. XX аср озарбайжон адабиётida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

OLIV TA'LIMDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Aziza Qobilova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola mazmunida oliy ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi bugungi kunning asosiy masalalaridan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan bo'lib, bu mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, bilim, malaka, tajriba.

Annotation: In the content of the article, it is mentioned that the method of developing the innovative competence of students of preschool education in higher education is one of the main issues of today, and the scientific and theoretical sources related to this topic are analyzed.

Key words: innovative competence, communicative competence, social competence, special competence, knowledge, competence, experience.

Аннотация: В содержании статьи отмечается, что метод развития инновационной компетентности студентов дошкольного образования в высшей школе является одним из основных вопросов современности, а также анализируются научные и теоретические источники, связанные с этой темой.

Ключевые слова: инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность, знания, компетентность, опыт.

Kirish

Pedagog olimlarning fikriga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda asosiy mezonlardan hisoblangan kompetensiyaviy yondoshuvni asos qilib olishlari foydali hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qitish va tarbiyalashda bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan bo'lajak mutaxassislarda an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Oliy ta'limda asosiy e'tiborni talabalarning bilim, ko'nikma va tajribalar egallashiga qaratish endilikda kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon pedagogikasi va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlagan holda, talabalarning turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uning uslublarga, o'qitish usullariga, pedagogik texnologiyalariga juda ko'p e'tibor berayotganligimizni sezamiz. Ammo ularda o'zlashtirayotgan bilimlarini, ko'nikmalarini, malakalarini va pedagogik

usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Muammo Oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining o'z sohasidagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda muammolarga uchramasliklari uchun ularni yangi zamon talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalashdir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi sabab ularda ham bunday holarlar uchrash ehtimolini yo'qotish. Sir emaski bugungi kundagi ko'plab o'qituvchilarni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolayapti, va ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar yetishmayapti. Ana shunday murakkab muammolar kompetensiya – kompetensiya egasi bo'lish, kompetent pedagog kabi sifatning egasi bo'lish bugungi kun pedagogikasining asosiy bahs mavzusi bo'lib qolmoqda.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Yevropa mamlakatlari o'qitish tizimida avj olgan kompetensiyaviy yondoshuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida kompetensiya masalasining dolzarbligi eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish deb topildi. Aslida Yevropa mamlakatlari va Rossiyada pedagogik kasbiy kompetensiya muammolari bo'yicha chorak asrdan buyon ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligi, ammo bu masalalarda aniq bir to'xtamga kelinmaganligi ko'zga tashlandi. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta'limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lsak, B.D.Vulfson, T.N.Kurilova, Z.A.Molkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta'limining maqsadlari haqida bilmoqchi bo'lsak, N.D.Nikandorova, V.Ya.Pili povskiy, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ta'limi bo'yicha G.G.Agapova, O.O.Borovikova, V.S.Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o'qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V.B.Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko'zga tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganayotganligini aytish mumkin.

Natijalar

“Kompetensiya” so'zi o'zbek tiliga tarjima qilinganda “layoqatli”, “munosib bo'lmoq” kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z lotincha “competere” so'zi asosida hosil bo'lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu

sohani bilish darajasi mosligi tushuniladi. A.V.Xutorskiy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya-insonning shaxsiy sifatlarining uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat olib borishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig’indisiga ega bo’lishi demakdir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o‘rni haqidagi bahslar davom etmoqda.

“Kompetentlik” tushunchasi psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda u ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini tuta olishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” darajasini anglatadi. “Kompetentlik” pedagogik nuqtai nazardan bilim, ko‘nikma va malakaga egalik, ma’lumotlilik, o‘z-o‘zini shaxs sifatida namoyon qilish, o‘zligini ro‘yobga chiqarish, o‘zining dunyodagi o‘rni anglash, yashashdan maqsadini bilish oliy maqsadi shaxsga yo‘naltirilganligi bois, o‘z imkoniyatlarini to‘laligicha safarbar qilish, atrofdagilarni tan olishi sifatlarining manbai hisoblanadi.

Muhokamalar

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion kompetentligi Oliy ta’limdagi o‘qitish, auditoriya va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonlari natejasida paydo bo‘ladi, hamda maktabgacha ta’lim tashkilotidagi faoliyati vaqtidagi pedagogik jarayonni samarali boshqarish va boshqa xilma-xil faoliyatilari davomida rivojlanadi. Shu asnoda ularning inovatorligi amaliy ishlaridagi muvaffaqiyati uning bola xatti-harakatining sabablarini qanchalik to‘g‘ri aniqlanganligiga, xatti-harakat sabablaridan kelib chiqib, aniq pedagogik maqsadni qanchalik to‘g‘ri ifodalaganligiga, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishning optimal usullarini qanchalik to‘g‘ri tanlanganligiga hamda ularni real pedagogik jarayonda mohirlik bilan qanchalik joriy qila olganiga bog‘liq. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini Oliy ta’limdagi darslar jarayonida innovatsion faoliyatga o‘rgatishning yana bir asosi hamkorlik, talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan, talabalarni va boshqalarni fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish o‘zining hamda boshqalarning «men»ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, to‘g‘ri va puxta bayon eta

olishga, ishlatishga qaratilgan «interfaol» o‘qitish usullari tez sur’atlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O‘qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar talabalar o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, talabalarni harakatchanlikka boshlab ruhlantiradi va ularni mantiqiy tafakkurini shakllantiradi. Natijada talabalar hamkorlikka, ijodkorlikka, o‘z ustida ishlashga o‘rgana boshlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ko‘zga tashlanadi. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning amaldagi innovatsion tayyorgarligida tashkiliy jihatlar, tanlangan shakllar va qo‘llanilgan metodlar juda muhim hisoblanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik uslubiy qo‘llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.
2. Elmuratova D, Misirova N. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” O‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To‘rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” T.: 2015-yil 120-bet
4. Saidahmedov N. «Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar». – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.
5. A. Musurmonova, N. J. Isaqulova, M. T. Jumaniyozova, A. SH. Jumaev «Umumiy pedagogika» II qism: o‘quv qo‘llanma 2020
6. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
7. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
8. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
9. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
10. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.

11. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
12. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
13. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
14. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
15. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
16. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
17. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
18. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

SHAXSNING XOLISTIK RIVOJLANISHI – PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Maftuna Raxmatova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola mazmunida shaxs, individ, individuallik, rivojlanish tushunchalarining mohiyati haqida soʻz yuritilgan boʻlib shaxsning xolistik rivojlanishi va uning bugungi kundagi pedagogik va psixologik muammo ekanligi va bu muammoning tadqiqot metodologiyasi, mavzuning tahlil va natijalari hamda xulosa va takliflari haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: shaxs, individ, individuallik, rivojlanish, xolistik rivojlanish, xolistik rivojlanishning pedagogik-psixologik asosi

Аннотация: Содержание статьи говорит о сущности понятий человек, личность, индивидуальность, развитие, целостное развитие личности и ее педагогической и психологической проблеме на сегодняшний день, а также о методологии исследования этой проблемы, анализе и результатах темы, а также выводы и предложения.

Ключевые слова: человек, личность, индивидуальность, развитие, целостное развитие, педагогико-психологические основы целостного развития.

Annotation: The content of the article talks about the essence of the concepts of person, individual, individuality, development, the holistic development of the person and its pedagogical and psychological problem today, and the research methodology of this problem, the analysis and results of the topic, as well as conclusions and suggestions.

Key words: person, individual, individuality, development, holistic development, pedagogical and psychological basis of holistic development.

Kirish

Shaxs jismoniy, psixik (ya'ni aqliy), hamda ma'naviy jihatdan rivojlanib kamol topib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga uning bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak sistemalarini, ichki organlari va asab sistemasini o'zgarib borishi kiradi. Shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik (tabiiy) va ijtimoiy qonuniyatlar birdek ta'sir etadi, shu bois ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanishiga uning faoliyati, hayot tarzi, yoshi, bilimi, turmush tajribasi, hatto fojiali vaziyatlar, turli kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson hayoti davomida doimo o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik

jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Zero, rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shu sababli shaxsga xos fazilatlarini to'g'ri va obyektiv baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar va shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

XVI asr falsafasida vujudga kelgan premorfizm oqimi namoyondalarning fikricha odam bolasi hali ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy borishidir. Amerikalik pedagog va ruxshunos E. Tordayk fikricha, shaxsning barcha xususiyatlarini, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, u boshqa organlar kabi tabiatdan berilgan. D. Dyunning fikricha haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritilmaydi, u odam bilan dunyoga kelgan, tarbiya uni o'stiradi. Nemis ruxshunosi V.Pteren yangi tug'ilgan bola hali inson emas deb hisoblaydi, u faqat sut emizuvchi hayvondir. Yarim yoshdan u maymunga tenglashadi. Ikki yoshda bola boshlang'ich insonlik holatiga yetadi. (yuradi,gapiradi) 5 yoshda ibtidoiy jamiyat odamlariga mos keladi, o'smirlik davrida o'rta asr ongini aks ettiradi va yetuklik yoshidagina (17,18) mavjud jamiyatning madaniy darajasiga mos ong egasi bo'ladi. Ba'zi biogenetiklar 13, 10 va hatto 8 yoshdan ham mavjud jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'la oladi deb hisoblaydi. Avstraliyalik ruxshunos K. Byuller hatto bolaning axloqi jihatidan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Bola hayotning dastlabki kunlaridan boshlab o'zini o'rab olgan muhitning ta'siri ostida o'sadi va ulg'ayadi.

Ayni vaqtda bolaga insonlarga xos xususiyat ham irsiyat yo'li bilan tug'ma o'tadi. (aqliy va jismoniy mehnat qilish) Ammo bo'lar tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhitda, odamlar yashab, ular bilan aloqada bo'lishi kerak. Chunki inson biologik mavjudot sifatidagina emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolatga yetadi. Demak shu yo'l bilan o'tgan aholining o'sishi kamol topishi uchun aqliy faoliyat,shart-sharoit bo'lishi kerak.

Natijalar

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit

inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. O‘zining xarakteri qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ana shu ruhiy xususiyatlar rivojlanib ma’lum bir bosqichiga yetgani uni mukammal, kamol topgan inson deyiladi.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv bolalarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda istedodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. [39.21-22]

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Rivojlanish - bu bir holatdan boshqa murakkabrog‘iga o‘tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o‘tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o‘tish jarayonidir.

Rivojlanish va yetilish tushunchalarini ham bir-biridan farqlash zarur. Bir qator yosh psixologiyasidagi xorijiy nazariyalar uchun yetilish - rivojlanishning muhim omili, u yoki bu yutuqlarning sababidir. Zamonaviy rus rivojlanish psixologiyasida yetilish markaziy nerv sistemasi va boshqa organizm sistemasida ketma-ket yosh o‘zgarishlarining psixofiziologik jarayoni, psixik funksiyalarning vujudga kelishi va amalga oshishi uchun sharoitning ta’minlanishi sifatida qaraladi.

Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo‘lgan xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan. Ular quyidagilar:

- ✓ sifat jihatdan o‘zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko‘tarilish;
- ✓ rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro‘y bergandan so‘ng, avval mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarni to‘laligicha ortga qaytarishning iloji yo‘qligi);

✓ progress (lot. progressus-oldinga harakatlanish) va regress (lot. regressus-orqaga ketish)-rivojlanishning yuqori darajadan quyi darajaga o'tish davri elementlarining umumlashmasi (bir sohadagi progressiv rivojlanish, boshqa bir sohadagi regress yuz berishi mumkinligini bildiradi);

✓ notekis rivojlanish (sifat o'zgarishlarining tezkor o'zgarishi, miqdor o'zgarishi bilan almashadi);

✓ zigzagsimon rivojlanish (yangilanishlar paydo bo'lganida, natijalar oldingi holatlarga qaraganda, sifat jihatdan yaxshi natija bermasligi. Masalan, bola emaklashdan tik turib yurishga o'tgan davrda, sekin harakatlanadi va jarohatlar olishi mumkinligi ham kuzatiladi);

✓ rivojlanish darajalaridan bosqichlariga o'tish (yangilanishlar paydo bo'lganda, avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar yo'qolib ketmaydi, balki yangilanishlar uchun asos sifatida saqlab qolinadi);

✓ barqarorlik ko'rsatkichi.

Muhokamalar

Bolalar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq so'nggi yillarda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan davlat ta'lim standarti" (2020-yil, 22-dekabr, 802 - son) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim", "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" kabi hujjatlarga asoslanish bola shaxsini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan davlat ta'lim standarti" maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- qisqa muddatli guruhlar;
- 7 yoshgacha bolalar mavjud bo'lgan mehribonlik uylari nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qoviyiladigan talablarni belgilash;

2. Milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

3. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

4. Kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash

Davlat talablari quyidagi sohalar bo'yicha belgilanadi:

- ❖ Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ❖ Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- ❖ Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- ❖ Bilish jarayonining rivojlanishi;
- ❖ Ijodiy rivojlanish;

Ushbu rivojlanish sohalarlari maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalar qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradi.[9.10-11]

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsining har tomonlama yetuk bo'lib rivojlanishida uning psixologik, fiziologik, individual xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti tarbiyalanuvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Bu esa o'quvchining psixik dunyosidan yaxshi xabardor bo'lishni, psixologik jihatdan kuzatishni to'g'ri tashkil qila olishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida yuqoridagi mezonlar asosida ish olib borish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. M. Vohidov «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanma T.: «O'qituvchi» 1982-yil 602 bet
- A. V. Petrovskiy va boshqalar. «Umumiy psixologiya» darslik T.: «O'qituvchi». 1992-yil 334 bet
2. P. I. Ivanov. «Umumiy psixologiya» darslik T.: 2007-yil 480 bet

3. E. G`oziev. «Psixologiya» darslik. «O`qituvchi» nashriyot matbaa ijodiy uyi T.: 2008-yil 167 bet
4. N. Egamberdieva «Ijtimoiy pedagogika» darslik T.: «A. Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi» 2009-yil 303 bet
5. F. Qodirova, Sh. Toshpo`latova, M. A`zamova «Maktabgacha pedagogika» T.: “Ma`naviyat” 2013-yil 683 bet
6. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
7. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
8. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
9. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
10. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
11. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
12. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
13. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Educationtechnological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
14. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
15. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
16. O`razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an`anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to`plami. – Toshkent. 2024 -yil.
17. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
18. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHDA MOTIVATSIYANI KUCHAYTIRISH ORQALI TALABALARNING O'Z-O'ZINI PERSONALLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL QILISH

*Surayyo Arzikulova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabani kreativ fikrlashga, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga, Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolari, talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini tashkil etishning pedagogik muammolari haqida fikr yuritilgan bo'lib mazkur muammo mavzusining tadqiqot metodologiyasi, mavzuga oid tahlil va natijalar hamda mavzuning xulosa va takliflari haqida yoritilgan. Maqola mazmunida berilgan ma'luotlardan bakalavr bosqichidagi talabalar, magistrlar va shu mavzuga oid muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: kredit, modul, kredit-modul, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikr, ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются организация самостоятельного обучения по кредитно-модульной системе, обучение студентов творческому мышлению, навыкам творческого мышления, современное состояние и существующие проблемы системы высшего образования, педагогические проблемы организации процесса самоперсонализации студентов. освещаются методология исследования, анализ и результаты темы, а также выводы и предложения по теме. Материалы, представленные в содержании статьи, могут быть использованы студентами, магистрами и специалистами, проводящими научные исследования по проблемам, связанным с той же темой.

Ключевые слова: кредит, модуль, кредит-модуль, самостоятельное обучение, критическое мышление, творческое мышление, системный анализ.

Annotation: This article discusses the organization of independent education in the credit-module system, training students to think creatively, creative thinking skills, the current state and existing problems of the higher education system, pedagogical problems of organizing the process of self-personalization of students. research methodology, analysis and results of the topic, and conclusions and suggestions of the topic are covered. The materials provided in the content of the article can be used by undergraduate students, masters and specialists conducting scientific research on problems related to the same topic.

Key words: credit, module, credit-module, independent education, critical thinking, creative thinking, systematic analysis

Kirish

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish metodikasini takomillashtirishda o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarining eng murakkab turidir, chunki u o‘z-o‘zini aks ettirish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi aniqlash, mustaqil ravishda o‘zlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq. Bunda fan bo‘yicha bilim va ularni amaliy faoliyatga aylantirish tushuniladi. Ular o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Oliy kasbiy ta’limning o‘quv jarayoniga o‘qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish bilan pedagogik salohiyat va talabaning o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish omili bo‘lib xizmat qilish imkoniyati mavjud. Bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish, o‘quv jarayonini tartibga solish doirasida va bilimlar hajmini hisobga olgan holda mutaxassislik, tanlov asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishda talabaning hayotiy tajribasini boyitish va o‘zgartirishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

N. F. Golovanov-fikriga ko‘ra “O‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati - bu mavjud bilim, ko‘nikma va rivojlanishni chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan shaxsning bilishga faol munosabati namoyon bo‘lishining kognitiv, aqliy kuch va qobiliyatlarni, intellektual darajani o‘zgartirishning obyektiv-subyektiv shaklidir. Bu talabaning o‘zi tomonidan boshqariladigan: maqsadli tizimli kognitiv; ichki motivlarga va majburiyatning yetishmasligiga muvofiq amalga oshiriladigan oldingi ta’lim shakllariga asoslangan va ularning natijasi va dialektik davomi bo‘lgan kognitiv faoliyatidir”. L. K. Markova, S. A. Suslanovlarning fikriga ko‘ra-kuzatish, anketa so‘rovi va o‘qituvchilar bilan suhbatlar uchun o‘zgartirilgan diagnostika usullari majmuasi yordamida aniqlandi. Keyinchalik, so‘rovnomalar muallifi tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat mahsulotlarini tahlil qilishdan foydalangan holda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni modelini amalga oshirishni ta’minlaydigan pedagogik shartlarning samaradorlik darajasi o‘rganildi.

A. Furmanning fikricha, kredit-modulli tizim sharoitida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘quv jarayonida uch turdagi muammoli-modulli ma’ruzalarni qo‘llash yordam beradi: ilmiy-axborot, ilmiy-loyihaviy va dunyoqarash-refleksiv.

Natijalar

Kredit - bu qandaydir kompozitsion o‘quv rejasini yoki talaba tomonidan o‘qish davomida bajargan alohida fanni (kursni) o‘rganishda talabaning o‘quv yukini o‘lchashning shartli birligi hisoblanadi. Kredit to‘g‘ri hujjatlashtirilgan eng kichik

birlik bo‘lib, ko‘pincha bir haftalik o‘qish to‘lovini bildiradi (talabaning auditoriyadagi va mustaqil ishining yig‘indisi)

Modul-o‘qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko‘nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o‘quv faoliyati, ya’ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o‘zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Bu o‘z navbatida oliy ta’limda taxsil olayotgan yosh kadrlardan o‘z sohalari bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lish bilan birgalikda o‘zlari egallayotgan sohalari bo‘yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, zarur paytda mustaqil fikr yurita oladigan raqobatbardosh kadrlar bo‘lishlarini talab qilmoqda.

Kredit modul tizimi –bu ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash;
- talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul-o‘qitish tizimiga o‘tish oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilariga bo‘lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, modulli o‘qitish tizimi bilan o‘qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi. An’anaviy oliy ta’lim tizimimiz dunyoda tan olinmaganidan keyin, biz ilg‘or standart va tizimlarni oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etishga majburmiz. Shunday ekan, yangilikka intilish, oliy ta’lim tizimini tubdan qayta isloh qilish bo‘yicha boshlangan harakatlarni davom ettirish har tomonlama to‘g‘ri qarordir.

Boloniya jarayonining qonunlariga ko‘ra, talabalarga amaliyot, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun kredit berish me‘yor hisoblanadi. Darhaqiqat, bu ma’lum bir mehnatsevarlikka ega bo‘lgan haqiqiy tarbiyaviy ishdir. Uning qiymatini imkon qadar xolisona aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shubhasiz, talabalardan tegishli ravishda ko‘p sonli manbalarni o‘rganishni talab qiladigan konspekt va kurs ishlarini yozish uchun kreditlar berilishi kerak va bu turdagi ishlarning akademik mehnat zichligi juda yuqori bo‘ladi. Kreditlar talabaga faqat o‘quv rejasida belgilangan fan bo‘yicha yakuniy nazorat shaklini (imtihon, oraliq test yoki yakuniy test va h.k.) muvaffaqiyatli topshirganlik natijalari asosida hisoblanadi.

Janubiy Koreyaning Pusan chet tillar universiteti professori Azamat Akbarov Boloniya deklaratsiyasi xususida shunday fikr yuritadi. Boloniya jarayoni odamlar bir ta’lim tizimi yoki mamlakatdan boshqasiga o‘tishi, faoliyat yuritishini osonlashtirish uchun ko‘priklar qo‘rishga harakat qiladi.

Muhokamalar

Olimlar N. Morozova, R. Nizomov, S. Trubacheva, N. Sagina mustaqil ishni o'qituvchilar tomonidan rejalashtirilgan, tashkiliy-metodik yo'naltirilgan, auditoriya ichida ham, undan tashqarida ham talabalarning individual va jamoaviy o'qituvchining rahbarligi ostida, ba'zan uning bevosita ishtirokisiz ta'lim faoliyati turlari sifatida tushunadi. Talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining roli haqida ko'plab olimlar, jumladan G. Gabay, L. Juravskaya, I. Moroz, N. Nikandrov va boshqalar bahs yuritadilar. Ta'kidlanganidek, aynan o'qituvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi, ularni bajarishdan oldin talabalarga ko'rsatmalar beradi, mustaqil ishlarning borishini nazorat qiladi, qiyinchiliklarni bartaraf etish va xatolarni tuzatishda maslahat beradi va yordam beradi, natijalarni umumlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Shuni hisobga olgan holda, o'qituvchining rollari uning talabalarning mustaqil faoliyatiga aralashuviga, bilimlarni o'zlashtirish maqsadi va darajasiga qarab belgilanadi. Demak, L. Juravskaya o'qituvchining to'rtta rolini-ma'ruzachini asosiy axborot manbai sifatida belgilaydi; rahbar yoki faoliyat tashkilotchisi; maslahatchi; moderator esa kuzatuvchi yoki hakam sifatida faoliyatni boshqaradi. So'nggi paytlarda boshqa rollar masalan, fasilitator, faoliyatning yordamchisi sifatida; ustoz, ustoz sifatida, faoliyatda yordam berish ham qayd etildi.

Xulosa

Ta'lim jarayonida talabani mustaqil ta'lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'lim masalasini qo'yilishi, yechish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholashning yo'llarini talaba tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'limda o'quv jarayoni mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'limda dars jarayoni ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallashga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'ysundirilmog'i lozim. Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va talaba muloqoti asosiy rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов Б. Ш, Хабибуллаев Р. А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма Т.: 2020 й 120 бет.
2. Ismailova Zukhra Karabayevna, Maxsudov Po‘lat Maxsudovich, Ergashev Oybek Karimovich “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” darslik Т.: 2022-yil 262 bet
3. D. Tojiboyeva, A. Yo‘ldoshev “Maxsus fanlarni metodikasi” darslik. Т.: «Aloqachi», 2009, 568 bet.
4. D.Tojiboyeva “Maxsus fanalarni o‘qitish metodikasi” darslik Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2020 yil 426 bet.
5. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
7. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
13. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
14. Ўразбаева М. Аёл характерини очишда бадий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.

15. O'razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. 2024 -yil.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
17. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

REGARDING THE MONOPROPOSITIVE STRUCTURE OF PARATACTIC DEVICES.

*Rakhima Kurbonova,
Samarkand Medical Institute,
Lecturer in the Department of Languages.
Samarkand, Uzbekistan*

Abstract: The paper presents specific views on the explanation of the theoretical foundations of the relationship of language and speech units to the statement. Just as units that act as linguistic units but have communicatively meaningful properties that are different from nominative-denotative properties are fixed as predicative units, special opinions are expressed about their propositional structure. On this basis, the sentence was noted as the most minimal of speech derivative constructions, and important views were put forward related to the definition of its structural-semantic and pragmatic features.

Key words: sentence, proposition, presupposition, word, language, speech, linguistic and speech units, theme-rhyme, structural, semantic, and pragmatic factors.

The propositional structure of paratactic devices differs from the propositional structure of a simple sentence and from the propositional structure of hypotactic devices. This was noticed to a certain extent in the process of recording the derivational features of this syntactic device. The propositional structure is manifested in the relationship between the content of the syntactic device and the real entity. Therefore, the synsemantic character of the auto semantic relationship in relation to simple sentences and the unique syntactic relationship in paratactic devices, which are different from it, also indicate this.

Today, despite the fact that linguists consider a sentence a linguistic unit, it is still interpreted as a linguistic unit to a certain extent. From this point of view, it cannot be denied that the sentence has a nominative aspect. Therefore, it is necessary to study the existing thoughts and views about its propositional nature in order to solve today's problems in linguistics and determine the plans for tomorrow's research. The main feature of a sentence as a linguistic unit is its nominative aspect, which can be described in conjunction with its propositional structure. Viewing a sentence as a speech unit is characterized by its communicative and objective modality features. It should also be said that the subjective type of modality is also important in the description of the sentence as a speech unit.

Of course, man is unique in that he has the ability to be active in nature and society as a being that embodies the physical, mental, and spiritual trinity. The possibilities that he can realize through the mind cannot be observed in any other living

being. In addition to the direct perception of existence, a person perceives it through their senses. This, in turn, is a purposeful reflection of the existing essence. Consciousness receives information about existence in the appropriate order through the senses. In many eras, consciousness was considered the basis for the distinction of man from other creatures and the basis of his organization of society. However, today it is necessary to recognize that a person differs not only in his mind but also in his spirit from those who have other signs of life. Education and the perfection of consciousness are based on knowledge.

And knowledge can serve and open the way to both good and evil. Now, distinguishing which of them is good and which is bad depends on the human spirit, spiritual education, and spiritual maturity. And the spirit is determined by the upbringing of the soul and moral norms. This is the greatest gift to mankind. The emergence of consciousness is directly related to the emergence of speech. Speech is a product of speech activity. Therefore, the emergence of any speech activity begins with emotional cognition based on intuition, which is controlled and shaped by consciousness, and its essence is realized in unity and consistency with the psyche of a person. Regarding the description of language as the field of direct occurrence of thought, we cannot deny that its main, central, and maximal unit is the word. Therefore, it is correct to confirm that the word is the name of the concept in the human mind of things, signs, actions, etc.

A person cannot satisfy the need to express his thoughts with words alone. For this, he is assigned the task of using words correctly and purposefully in speech activity. It is the performance of this task that makes it possible to determine the proposition, implement it and ultimately satisfy the communicative need, reflecting the modal relations.

It seems that any speech derivative is a communicative derivative structure in this respect. This word can be in the form of a sentence, an incomplete sentence, a simple sentence and any of its types, a complex sentence and any of its types, a paratactic or hypotactic device, and any of their types. From this point of view, they acquire a monopo- positive character.

Example: The cart creaked, and the cart driver did not stop creaking even for a moment (Cholpon. Night and day).

In the given example, the operands are in a paratactic relationship. Each of these operands does not independently provide a message expression. If that were the case, the syntactic device could have been formed as follows: The cart was creaking. Aravakash did not stop his whining even for a moment.

References

1. Adamets P. Poryadok slov v sovremennom russkom yazyke. , –Prague: Academia, 1966. -96 p. (Adamets P. Poryadok slov v sovremennom russkom yazike. , –Prague: Academia, 1966. -96 p.)
2. Alisova T.B. Ocherki syntaxisa sovremennogo italyanskogo zyzyka: Semanticheskaya i grammaticeskaya struktura prostogo predlozheniya, Knijnyy dom "LIBROKOM", 978-5-397-00784-9., 2009., 296 p. (Alisova T.B. Ocherki sintaktisa sovremennogo italyanskogo yazika: Semanticheskaya i grammaticeskaya struktura prostogo predlogeniya, Knijniy dom "LIBROKOM", 978-5-397-00784-9., 2009., 296 p.)
3. Moskalskaya O.I. Problemy system description syntax. -M., 1974, -S. 9-19; 2-e izdanie. -M., 1981, -S. 9-18; (Moskalskaya O.I. Problemi sistemnogo opisania sintaktisa. -M., 1974, -S. 9-19; 2nd izdanie. -M., 1981, -S. 9-18)
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Akhmedov A., Solikhojhaeva S. Meaningful syntax of the Uzbek language. Uz FA "Fan" publishing house, 1992, -B.28 (Nurmonov A., Mahmudov N., Akhmedov A., Solikhujhaeva S. Meaningful syntax of the Uzbek language. Uz FA "Fan" publishing house, 1992, -B.28)
5. Paducheva, E. V. Semanticheskie issledovaniya: semantika vremeni i vida v russkom yazyke; narrative semantics , E. V. Paducheva. - Moscow: Shkola "Yazyki russkoy kultury", 1996. -465 p. (Paducheva, E. V. Semanticheskie issledovaniya: semantika vremeni i vida v russkom yazike; semantic narrative , E. V. Paducheva. - Moscow: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1996. -465 p.)
6. Prokopovich N.N. Voprosy syntaxisa russkogo yazyka.–M.: Vysshaya shkola, 1974, 350 p. (Prokopovich N.N. Voprosi syntaxisa russkogo yazika.–M.: Visshaya shkola, 1974, 350 p.)
7. Shvedova N. Yu. O sootnoshenii grammaticeskoy i Mejdunarodniy sezd slavistov. Doklady sovetskoy delegatsii. -M. 1973, -S. 461. (Shvedova N.Yu. O sootnoshenii grammaticeskoy i semanticheskoy struktur predlozheniya. –Slovinskoe yazikoznanie. VII. Mejdunarodnii sezd slavistov. Dokladi sovetskoy delegatsii. – M. 1973, –S. 461.)semanticheskoy strukturi predlozhenia. - Slovinskoe yazikoznanie. VII.
8. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
9. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
10. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11

11. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
12. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
13. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
14. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
15. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
16. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
17. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
18. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
19. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
20. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING OILAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATLARINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*Dilafro‘z Rahmonova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola mazmunida maktabgacha yoshdagi bolalarning oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish mavzusi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ekanligi izohlangan bo‘lib, bu muammoning metodologik asoslari, mavzu muammosining natijalari, muammo muhokamasi hamda muammoning xulosasi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, akseologiya, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, oilaviy qadriyat, o‘yin terapiyasi, hamkorlik.

Аннотация: В содержании данной статьи даны комментарии о значении, содержании и видах понятия ценности, основной категории аксиологии, а также согласно выводам, полученным на основе изученной литературы, методы подготовки дошкольников с ценностным отношением. по отношению к своей семье и родителям.

Ключевые слова: ценность, аксеология, общечеловеческая ценность, национальная ценность, личностная ценность, семейная ценность, игровая терапия, сотрудничество.

Annotation: In the content of this article, there are comments on the importance, content, and types of the concept of value, the main category of axiology, and according to the conclusions obtained from the studied literature, methods of preparing preschool children with a valuable attitude towards their family and parents are explained.

Key words: value, axiology, universal value, national value, personal value, family value, play therapy, cooperation.

Kirish

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e‘tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, respublikamizda maktabgacha ta‘lim tizimining metodik ta‘minotini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkiloti va ijtimoiy institutlarning hamkorligini kengaytirish, innovatsion yondashuvlar asosida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish,

tarbiyalanuvchilarda mashg'ulotlar va ulardan tashqarida oilasiga nisbatan qadriyatli munosabatlarini shakllantirish uchun oila va jamiyat talablari o'rtasidagi qarama-qarshilik sabablarini aniqlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligini ta'minlash asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika va psixologiyada oila, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari dolzarb masalalar hisoblanib, mamlakatimiz olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lgan. Xususan, oilaning demografik muammolarini hal etish masalalari D.Sharipova, M.Inomova, X.Yo'ldoshev, M.Kaxxarova, oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi O.Musurmonova, X.Norqulov, oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari V.Karimova, G'.Shoumarov, E.G'oziyev, S.Tadjiyeva va pedagogik masalalari O.Musurmonova, O.Xasanboyeva, M.Inomova, X.Tojiboyeva kabi olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan.

Shuningdek, o'zbek adiblari va pedagoglari T.Malikning oila haqidagi qarashlari, xulosalari, maxsus tadqiqotlar natijalari bo'lmasada, muhim ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik manba sifatida oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchilar uchun muayyan qiziqish uyg'otadi.

Natijalar

So'nggi vaqtda ota-onaning tarbiya ta'siri tizimlilik va muntazamligi muammosi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Katta yoshli kishilarning tarbiyaviy ta'siri oilaning barcha jabhasida sezilishi kerak. Oila bolalarni tarbiyalash instituti sanaladi, shuning uchun jamiyat strukturasi davlat darajasidagi islohotchilik o'zgarishlariga ehtiyotkorlik bilan reaksiya bildirish lozim, modomiki, ularning natijalari bevosita oila turmushi darajasi, barqarorlik va tarbiyaviy noqobillikda ham aks etadi.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanish va tarbiyalanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilani qadrlash tuyg'usini shakllantirish "otasining ismi", "qadrdon yer", "ona tili", "mening oilam", "mening uyim" singari tushunchalar bilan to'ldiriladi. U hurmat va sadoqat, salomatlik, to'kinlik, ota-onani e'zozlash, kattalar va kichiklar haqida g'amxo'rlik va shu kabilar sifatida ko'riladi.

Zamonaviy sharoitlarda oilani qadrlash tuyg'usi shakllanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi roli oshib borayapti. Oilani

ardoqlash tuyg‘usi shakllanishi bo‘yicha tarbiyalanuvchilarning o‘yin faoliyati rejali tarzda tarbiya natijalariga erishish imkonini beradi. Tarbiyalanuvchilar ijtimoiy faoliyat tajribasini egallaydi; muammoli-qadriyatli muloqotga qo‘shiladi; “tarbiyachi-pedagoglar – tarbiyalanuvchilar – ota-onalar” bolalar-kattalar jamoasini yaratishadi. Bu yerda farovon turmush tarzi qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarda oilani qadrlash tuyg‘usi shakllanishi bo‘yicha tarbiyaviy o‘yin faoliyatining to‘laqonligi va mahsuldorligi aynan oilaga bog‘liq.

Muhokamalar

S. L. Frankning fikriga ko‘ra “Oilaviy meyorlar va qoidalar bu-oila hayoti barpo etiladigan qadriyatli asoslardir. Oila a‘zolarining voqelikni tushunishida oilada o‘rnatilgan qoidalarga asoslangan huquq va majburiyatlarini anglashlari muhim hisoblanadi. Qoidalar oilaga yordam beradi, unga barqarorlik baxsh etadi. Oilada bu qoidalarning yetishmasligi dilxiralik va tortishuvlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Oilaviy qadriyatlar bu ochiq, ahamiyatli bo‘lgan, oila davrasida ma‘qullanadigan va shakllanib boradigan narsadir. Muvaffaqiyat va yutuqlarni qadrlash, agar u haddan tashqari ifodalangan bo‘lsa, perfeksionizmga – hayot va faoliyatning maksimal darajada yuqori standartlariga olib kelishi mumkin”.

P.F.Lesgaftning fikricha, oilaparvar insonni tarbiya qilish, gumanistik-pedagogik nuqtai nazaridan oilani qadriyatlar tuyg‘usini kamol toptirishning yetakchi maqsadlarini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini aniqlab beradi. Bolaning ulg‘ayib borishi chog‘ida, to‘g‘ri va mahsuldor tarbiyalash uchun ijtimoiy omillar, shu jumladan, oilada bola ishonishi mumkin bo‘lgan yaqin insonning borligi yetakchi rol o‘ynaydi.

V.A.Suxomlinskiy bola hayotida onaning tutgan o‘rniga, shuningdek, oilada bolalarda ayolga, onaga bo‘lgani kabi oliyjanob munosabatni qaror toptirish masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Farzandlar tarbiyasida pedagog otaga maxsus rol ajratadi, uning roli bir so‘z bilan ifodalanadi – mas‘uliyat: ota fikr-o‘y va xatti-harakatlarni intizomli qila oladi.

H.D.Norqulovning fikricha, “zamonaviy oilalar xilma-xilligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi (tashqi qoidalar va cheklovlarga bog‘liq bo‘lmagan holda mustaqilligi), shuning uchun oilani maktabgacha ta‘lim tashkiloti bilan hamkorlikda (shu jumladan, undan tashqari tadbirlarda) jalb qilishning universal retsepti to‘g‘risida gapirish mumkin emas.

Xulosa

Tahlil natijalarini umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi aksariyat tadqiqotchilarning umumiy fikricha, o‘z tarbiyaviy sa’y-harakatlarini boshqa ijtimoiy institutlar bilan integratsiyalar ekan, oila ta’lim va jamiyat rivojining yangi sharoitlarida yaxlit pedagogik jarayonning yetakchisi sifatida gavdalanadi. Oilada bolalarni tarbiyalash majmuaviy, tabiiy tavsif kasb etadi. Bola shaxsiyatini kamol toptirishda oilaviy turmush tarzi, oilaviy tarbiya usullari, oilaviy tarbiya an’analari va qoidalari sezilarli ta’sir etadi. Bunda bola uchun shunday muhit yaratiladiki, unga ko‘ra, bola birinchi marta o‘zining ijtimoiy sifatlarini kashf etadi. Umuman olganda, tadqiqotchilarning oila tarbiya muhiti sifatida bolalarning kattalar bilan doimiy va faol muloqot qilish uchun optimal imkoniyatlarga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining betakror yaqinligiga asoslangan munosabatlar boshqa holatlarida qayta ishlanmaydigan, emotsional-psixologik mikroiklimning manbai hisoblanadi. Jamiyatda qadriyatlar o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun oila va ijtimoiy ta’lim muassasalari zamonaviy MTT tarbiyalanuvchilarida aksiologik yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarni birlashtirib, ularni kelajakdagi ota-onalar roliga tayyorlagan holda ularda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirib borish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Hasanboyeva «Oila pedagogikasi» Darslik «Aloqachi» nashriyoti T.: 2007-yil 384 bet. (149-152)
 2. G‘. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sogunov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetovalar «Oila psixologiyasi» o‘quv qo‘llanma «Sharq», T.: 2008-yil 296 bet. (53-68)
 3. O‘. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonovlar «Pedagogika» darslik «Talqin» nashriyoti T.: 2008 - 288 bet. (232-235)
 4. Matbua Ahmedova «Falsafa» darslik «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti 2006-yil 496-bet (432-440)
1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
 2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
 3. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
 4. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

5. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
6. Kalandarova D. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
7. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
8. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
9. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
10. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
11. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

O'QUVCHILARNI MUOMALA MADANIYATIGA O'RGATISH

Fariza Kamilova,

*Toshkent shahar Uchtepa tumani 123-maktab
ona tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini muomala madaniyatiga o'rgatish, nutq madaniyati, allomalarning nutq madaniyati haqidagi hikmatli so'zlaridan foydalanish usullari haqidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, madaniyat, so'z, muomala, o'quvchi, odob-axloq, hikmatli so'z, usullar

O'quvchilarni muomala odobiga o'rgatishda so'zlash chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan qonun-qoidalarni ham tushuntirib borish lozim. Xususan, ularga shirinsuxanlikning eng yaxshi alomatlaridan biri rost gapirish ekani, kishi so'zida yolg'on ishlatmasligi, rostlikni o'ziga bezak qilib olishi kerakligini uqtirishimiz yaxshi natija beradi. Bu qoidalar yoshlarni tili bilan dili bir bo'lishiga chaqiradi:

So'z aytsang rostlikni aylagil odat,
Qidirma rostlikdan yaxshiroq ziynat.
Rostlikdan yaxshiroq ziynat qachon,
Qayda ko'rdi ekan biror bilimdon.

Oqil-u fozillar qadim-qadimdan shirinsuxanlik, xushmuomalalik kishining eng yuksak fazilati ekanligini, har bir insonning tili bilan dili bir bo'lishini, so'zi bilan xulqi hamohang kelishi lozimligini uqtirib kelganlar.

Yusuf Xos Hojibning ta'kidlashicha, o'quv va bilimning tilmochi – tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezgulik til tufayli keladi. Hurmat-izzat ham obro'-e'tiborni ham kishi tili orqali topadi.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Bularning biri xushxulq, ikkinchisi ezgu so'zdir. Yer yuzida insondan qoladigan meros yaxshi so'zdir. Uning o'zi olamdan o'tib ketadi, shirin so'zi esa mangu qoladi. Umuman bugungi milliy ma'naviyatimiz talabi ham yoshlarmizni bilimdon, dono, suxandon bo'lish bilan birga, o'z qadrini biladigan, ona tilini hurmat qiladigan, uning sofligini saqlaydigan va shirinso'zlik bilan muomala-munosabatda bo'lib kishilar qalbiga ozor yetkazmaydigan shaxslar bo'lishini taqozo etadi. Mavzuimizning dolzarbligi ham ana shundadir.

So'z – tabiatning insonga bergan ulug' ehsoni, Alloh taoloning buyuk inoyatidir. So'z jon bo'lsa, ruh uning yuragi. So'zning qudrati beqiyos va cheksizdir. Agar so'zlovchi so'zni o'z o'rnida ishlatsa, undan to'g'ri va bilimdonlik bilan foydalansa, hayotning buyuk quroliga aylanadi.

Fransuz yozuvchisi Emil Jirarden: «Soʻzning kuchi behaddir. Chekinayotgan qoʻshinni toʻxtatish, magʻlubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho oʻrinli aytilgan birgina soʻz ham kifoya boʻlgan», – deb bejiz aytmagan.

Zeroki, soʻz jon gulshanida nasim, koʻngil bahrida durri-yatim, jahon gulshani ichra toza gul ekanligini gʻazal mulkining sultoni Alisher Navoiy ham xassoslik bilan quyidagicha bayon etgan:

Soʻzdurki nishon berur oʻlukka jondin,
Soʻzdurki, berur jongʻa xabar jonondin.
Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yoʻq ondin.

yoki boshqa bir asarida soʻzni bemisol qudratga ega ekanligini isbotlab, agar u jozibali boʻlsa elni ergashtirishini, moʻʼjiza yaratishga qodir ekanligini bayon etadi:

Bu bir soʻzda koʻrguzur moʻʼjiz,
Kim qilur elni nuxtai ojiz.
Jism boʻstonida shajar soʻzdur,
Ruh ashjoriga samar soʻzdur.
Boʻlmasa soʻz ajib balo boʻlgay,
Bulbuli nutq benavo boʻlgay.

Oʻquvchilarga soʻz qudrati haqida gapirar ekanmiz, uni oʻz oʻrnida ishlatish odobi, mantigʻi va yoqimli hamda jozibali qilib tinglovchiga yetkazilishi soʻzlovchiga bogʻliq ekanligini alohida qayd etishimiz lozim.

Oʻquvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning bir necha usullari mavjud. Shulardan biri ibratli soʻzlar, hikoyat va rivoyatlarni oʻrgatish va ulardan tegishli xulosalar chiqarishga daʼvat etishdir.

Ogʻziga kelganni demak nodonning ishi,
Oldiga kelganni yemak hayvonning ishi. (A.Navoiy)

Soʻz – gul, ish meva. (al-Xorazmiy)

Yaxshi soʻzla, ammo mahmadona boʻlma, ezmalik – kaltabinlikdir.
("Qobusnoma")

Qalbdan chiqqan soʻz qalbgga yoʻl topar. (Nizomiy Ganjaviy)

Odam tili bilan hayvondan ustun, ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondin battar. (Saʼdiy)

Aytilgan soʻz – otilgan oʻqdir. Uni hech qachon ortga qaytarib boʻlmaydi. Bu oʻqni otishdan avval maqsad nuqtasini shunday nishonga olish kerakki, oʻq zoye ketmasin yoki keraksiz nuqtaga tegib, xijolat bandiga giriftor etmasin. Soʻzdan soʻzning farqi

bo'radi. Aytiladigan so'zni aql taroziga qo'yib, uning barcha qirralarini o'ylab aytmoq oqil va nazokatli kishining ishidir.

So'zlamok inson ma'naviyatining o'lchovidir. Ba'zan inson go'zalligini, barkamolligini tashqi ko'rinishga yoki kiyinishga qarab baholaymiz. Aslida bu xatodir. Inson go'zalligi, uning barkamol insonligi zohirida emas botinida bo'lmog'i darkor. Inson botinini go'zallik bilan bezatuvchi omillardan biri ham so'z odobidir.

So'z inson ma'naviy husnining asosiy o'lchovlaridan biridir. U kishilarni o'ziga jalb qila oladigan, e'tiborini qozonishga undaydigan, ko'ngillarga orom va taskin beradigan, ishonch va dadillik uyg'otadigan vosita. So'z yuraklarni teshib, qablarda bitmas jarohat qoldiruvchi, dillarga vasvasa va adovat sochuvchi, insonni insondan bezdiruvchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
2. Ulfat Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. – Toshkent, «Fan», 1994.
3. Mahqumud Sattorov. O'zbek udumlari. – Toshkent, «Fan», 1993.
4. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Paradaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Educationtechnological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.

12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
14. О‘разбаева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MOBIL TELEFONDAN VA INTERNET TARMOG'IDAN FODALANISHNING O'QUVCHI RUHIYATIGA TA'SIRI

Nilufar Axmadova,,

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani

35-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashtirish kunimizda maktab o'quvchilari, o'smirlar orasida ommalashib ketgan uyali aloqa vositalari, internet tarmoqlari, turli ijtimoiy saytlarning bolalar ruhiyatiga ta'siri haqida so'z boradi. Uning o'quvchilar hayotiga, salohiyatiga salbiy ta'siri va uning oqibatlarini xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: uyali aloqa, internet, bola ruhiyati, shaxs kamoloti, salbiy oqibat, tahlil, xulosa.

Abstract: This article talks about the influence of mobile communication tools, internet networks, and various social sites, which have become popular among schoolchildren and teenagers in our day of globalization, on the psyche of children. It is discussed about its negative impact on the life and potential of students and its consequences.

Key words: mobile communication, internet, child psychology, personality development, negative consequences, analysis, conclusion.

Bugungi kunda mobil telefonlarsiz, internet tarmoqlarisiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin, chunki shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda tezkor axborot olish uchun mobil telefon, internet tarmog'ining ahamiyati beqiyosdir. Mobil telefonlarning imkoniyatlari hozirda juda kengayib borayotgani barchamizga ma'lum. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ayni vaqtda 5-16 yosh oralig'idagi bolalarning 3-8 soat vaqtlari telefon qarshisida o'tadi. Buning natijasida ularda mobil telefonga qaramlik, undan ayrilib qolish qo'rquv hissi paydo bo'ladi.

O'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari uchun mustaqil yurtimizda barcha shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilgan, ammo hozirgi kunda texnika asri sababli o'quvchilar o'rtasida mobil telefonlar, planshetlardan keng foydalanish ommalashib bormoqda. O'quvchi maktabga, eng avvalo, bilim olish, o'qish, o'rganish uchun keladi. Lekin mobil telefon o'quvchining ilm olishiga, fanlarni o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi dars jarayonida uyali aloqa vositasidan foydalanishi birinchidan, o'quvchining psixologik ruhiyatiga ta'sir etadi, bolaning agressiv holati oshadi, diqqatning chalg'ishi va zaiflashishi, dangasalik ortib borishi, aqliy rivojlanishning kechikishi, xotiraning pasayishi, muloqotchanlik sustlashi,

atrof-muhitga befarqlik, o'z dunyosi bilan atrofga nazar solish, o'zini boshqara olmaslik, tengdoshlari bilan kelisha olmaslik, ruhiy qaramlik kabi oqibatlariga olib keladi.

Ma'lumki, mobil telefon, internetning turli ijtimoiy tarmoqlariga juda mukkasidan kirib ketish bu qaramlik belgisidir. Bu holat insonni o'ylantirib qo'yadi, albatta. Telefonlarga me'yordan ortiq berilib ketish hozirda maktab o'quvchilari o'rtasida ko'p kuzatilmoqda. Uning alomatlari va asoratlari darrov sezilib qolmoqda. Sir emaski, ayni vaqtlarda maktab psixologlariga o'quvchilar ota-onalari tomonidan "Farzandim nega bunchalik mobil telefonga ruju qo'ymoqda?", – degan bir savol bilan murojaat etish hollari ko'p kuzatilmoqda. Biz maktab amaliyotchi psixologlari ularga farzandlari qo'llaridan mobil telefonni tortib olmasliklarini tavsiya etamiz, chunki o'quvchida mobil telefonga qaramlik holati kuzatilganda ushbu holat uning ong ostiga juda qattiq ta'sir ko'rsatadi. Bu esa salbiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin.

Shuningdek, ota-onalarga yana shuni maslahat beramizki, siz avvalombor o'z farzandingiz bilan do'stona munosabatda bo'ling, shundagina ko'zlagan maqsadingizga erisha olasiz. Ota-onalar farzandlariga sekin-astalik bilan mobil telefonni foyda va zararlari, uning inson ruhiyatiga ta'siri, hatto kelajagiga ham buning ta'siri borligi, bilim olishda tengdoshlaridan orqada qolishiga sabab bo'lishini turli yo'llar bilan tushuntirib borishlari lozim. Amaliyotchi psixolog sifatida ota-onalarga, farzandlarimizga, o'qituvchi va o'quvchilarga quyidagi psixologik maslahatlarga amal qilishlari lozimligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman:

– Telefonni hamda internetni o'chirib qo'yish, shunda yangi xabarlardan ogohlantiruvchi signal sizni bezovta qilmaydi. Umuman olganda, miyangizni ikki ish bilan band etmaslikka harakat qiling. Kitob o'qiyotganingizda yoki darslarni bajarish jarayonida telefonni o'chirib qo'ying. Ovqatlanib bo'lgandan so'ng, kitobni o'qib bo'lgach yoki barcha yumushlaringizni bajarib bo'lgach, telefondan foydalanishga alohida vaqt ajrating.

– Kun bo'yi turli aqliy mehnat, jismoniy mehnat bilan shug'ullaning, kundalik yumushlarni yelib-yugurib bajaring, piyoda yuring, raqsga tushing va sport mashg'ulotlari boring, ayniqsa, kechki payt faollashing o'zingizni charchating.

– Qo'l soati taqishga odatlaning. Bu telefonga nima aloqasi bor deysizmi? Zamonaviy kishilar vaqtni bilish maqsadida telefonga ko'p nazar soladilar va shu bahona virtual olamning boshqa eshiklari ochilib ketadi. Soat nechchi bo'lganini haqiqiy soatdan bilgangiz ma'qul.

Mobil telefon va internetga qaramlikka qarshi mulojalar "Raqamli parhez" deb ataladi. U texnik vositalardan voz kechish emas, balki to'g'ri foydalanishni

ifodalaydi. Zotan, taomlardan parhez qilayotgan odam och yurmaydi, balki mutanosib ravishda sog'lom ovqatlanadi. Mobil telefonlardan foydalanish va internet tarmog'idan parhez ham ular bilan uyg'un yashash va unumli ishlatish nazarda tutiladi. Qolaversa, o'z farzandalarimizga hayotni sevish, minnatdorlik hissini oshirishga yordamlashish, har bir lahzadan zavq olib yashashgagina o'rgatsak, shunda maqsadga erishgan bo'lamiz. Aslida biz farzandalarimizga eng yaqin do'stlarni mobil telefon yoki internetdan izlash kerak emasligi, balki real hayotda yonimizdagi insonlardan izlash kerakligini anglatishimiz zarur.

Mobil telefon va internetdan foydalanishda juda faol o'quvchilar real qarashlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali anglay boshlaydi. Har xil tarmoqlardagi ma'lumotlar o'z tasdig'ini topmagan, ya'ni aniq asoslanmagan ma'lumotlar o'quvchi ongiga salbiy ta'sir etadi. Shu jumladan mobil telefondan foydalanish orqali o'quvchilarda hozirgi kunda internetga qaramlikka duchor bo'lishadi. Bu internetdan foydalanishga bo'lgan xulq-atvor vayronkor g'oyalar istagi va undan ortiqcha foydalanish, internetda ko'p vaqt sarflanish hisoblanadi.

Psixolog Drepa M.I. o'smirlar orasida internetga qaramlikni quyidagi turlarga bo'ladi:

1. Obsesif veb –surfing (ma'lumotni haddan tashqari yuklash) -World Wide -da cheksiz sayohat, ma'lumot qidirish.
2. Virtual muloqotda va virtual tanishlarga qaramlik–katta hajmdagi yozishmalar, suhbatlarda doimiy ishtirok etish, veb forumlar, internetda tanishlar va do'stlarning ko'payishi.
3. O'yinga qaramlik -tarmoq orqali kompyuter o'yinlarga bo'lgan obsesif ehtiros
4. Obsesif moliyaviy ehtiyoj–onlayn qimor, onlayn–do'konlarda keraksiz xaridlar yoki onlayn auksionlarda doimiy ishtirok etish.
5. Internet orqali kino ko'rishga qaramlik.
6. Porno saytlarga qiziqishning ortishi [1, 190-bet].

Quyidagilardan ma'lumki, o'quvchilarga mobil telefondan va internetdan foydalanish etika estitikasini o'rgatish zarur. yoshlarimizga mobil telefonni foydali va zararli tomonlarini to'g'ri tushuntira olsak, biz kattalar maqsadga erishgan bo'lamiz .

Yurtimizda o'quvchilarning mobil telefonlarini tartibga solish maqsadida bir qancha qonun va chora-tartiblar ishlab chiqilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012-yil 21-mayda "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror asosida Xalq ta'limi vazirligining tegishli buyrug'i ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjatlar ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibini belgilaydi hamda o'quvchilarning sifatli ta'lim olish, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida o'quvchi yoshlarning sog'lig'ini saqlashda xavf-xatarlarini kamaytirish, ta'lim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni har bir narsadan foydalanishda, shuningdek, uyali aloqa vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlardan me'yorga amal qilgan holda foydalanishga o'rgatsak, maqsadga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Дрепа М.И. Интернет –зависимость как объект научной рефлексии в современной психологии. Гуманитарная экспертиза. 2009. №2
2. “O‘zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi qarori. 2012. 21-may.
3. <https://www.rjhas.ru>
4. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
5. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
6. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
7. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
8. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
9. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.

12. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
13. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
14. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINI TAYYORLASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Faxriddin To‘rayev,
SHDPI o‘qituvchisi
Bahromova Dilshoda,
talaba*

Annotatsiya: Maqolada yangi jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida vatanparvarlik va fuqarolik tuyg‘ularini muhim ijtimoiy qadriyat, jamiyat ma’naviy-axloqiy birligini ta’minlash, davlatchiligini mustahkamlash asosi sifatida qayta tiklash va rivojlantirish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish uchun zamonaviy pedagogika yutuqlari va o‘rganilayotgan muammoning xususiyatlarini hisobga oladigan yondashuv zarur.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, pedagogik, muloqot, oila, jamiyat, fuqaro.

Аннотация: На современном этапе развития нового общества возникает необходимость восстановления и развития чувства патриотизма и гражданственности как важной социальной ценности, как основы обеспечения духовно-нравственного единства общества, укрепления государственности. в статье наглядно показано. Для разработки теоретико-методических основ подготовки будущих учителей к воспитанию учащихся в духе гражданственности и патриотизма необходим подход, учитывающий достижения современной педагогики и особенности изучаемой проблемы.

Ключевые слова: патриотизм, педагогика, общение, семья, общество, гражданин.

Abstract: In the current stage of the development of the new society, the need to restore and develop the feelings of patriotism and citizenship as an important social value, as a basis for ensuring the spiritual and moral unity of the society, and strengthening the statehood is clearly shown in the article. An approach that takes into account the achievements of modern pedagogy and the characteristics of the studied problem is necessary to develop the theoretical and methodological foundations of preparing future teachers to educate students in the spirit of citizenship and patriotism.

Key words: patriotism, pedagogy, communication, family, society, citizen.

Bu yondashuv, bizning fikrimizcha, metodologiya va pedagogikaning o‘ziga xos ilmiy darajasiga tegishli bo‘lgan integral-faollik yondashuvidir. Ushbu yondashuvni amalga oshirish yaxlitlik, ta’lim mazmunining zamonaviy jamiyat talablariga muvofiqligi tamoyillariga asoslanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasiga tayyorlash, integrativ-faollik yondashuvini hisobga olgan holda, tizim sifatida, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning umumiy tizimining nisbatan mustaqil elementi sifatida taqdim etiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni imkon qadar atroflicha ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan fuqarolik-vatanparvarlik shaxsiyat xususiyatlarini shakllantirish usullari aniqlangan va tavsiflangan.

Bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik-vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish tajribasi amaliy mashg'ulotlar jarayonida, hayot xavfsizligi darslarida vatanparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni, tashkil etilishi va o'tkazilishi, o'z-o'zini anglash, ijtimoiylashtirish imkoniyatlarini ta'minlashda tavsiflanadi. O'quvchilarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shartlarning ikki guruhi belgilandi.

Birinchi guruhga axloqiy va psixologik tayyorlikni shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlar kiradi. Ikkinchi guruh bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasiga tayyorlashning protsessual jihatini shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlardan iborat.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlash jarayonining samaradorligini aniqlash uchun "samaradorlik" va "samaradorlik" tushunchalarining o'zaro bog'liqligini tahlil qilish kerak.

Talabalarning o'rganilayotgan tarbiyaviy ish muammosiga tayyorlik darajasini aniqlash o'quv jarayonini ilmiy jihatdan olib borish, uning jarayonini nazorat qilish va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi, bu esa o'qitish tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning maqsadi va xususiyatlarini hisobga olgan holda integrativ-faollik yondashuvi asosida belgilangan shart-sharoitlar majmuasining amalga oshirilishi ushbu tizimning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, o'rganilgan adabiyotlarga ko'ra, eksperimental tahlil quyidagilarni tavsiya qiladi:

1. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda nafaqat o'z xalqining, balki boshqa xalqlar tarixida mavjud bo'lgan barcha ijobiy masalalarga e'tibor beriladi, turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, atoqli shaxslari, fan arboblari bilan yaqindan tanishish lozim;

2. Gumanitar fanlar bo'yicha darslarda bo'lajak mutaxassisning siyosiy madaniyati va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga munosib e'tibor qaratish kerak;

3. Tarbiyaviy ishlarda oliy ta'limni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi sifatida gumanitar ta'limga munosib vaqt ajratish muhim;

4. Mashg'ulotlar jarayonida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, uning funksiyalarini, ko'p bosqichli me'yorlar tizimini, yuksak fuqarolik ongini va madaniyatini shakllantirishga, etnik me'yorlarni rivojlantirishga qaratilgan an'analarini ochib berishga alohida ahamiyat beriladi.

5. Tanlangan sohada tarbiyaviy ishlarni olib borishda maktabdan tashqari aloqa sohasi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, urush va mehnat faxriylari, olimlar bilan uchrashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq va maqsadga muvofiqdir.

6. O'quvchilarni samarali fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv va tashkiliy tadbirlarni amalga oshiriladi.

7. Vatanparvarlik tarbiyasi aniq tarixiy zaminda qurilishi, buning uchun o'lkashunoslik materialidan faol foydalanish zarur.

8. Vatanparvarlik tarbiyasi doirasida fuqarolik tarbiyasi ishlarini maqsadli olib borish, chunki Asosiy qoidalarni bilmaslik bu yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlarning noto'g'ri tashkil etilishiga olib keladi.

9. Yoshlar ongida vatanparvarlik qadriyatlari, qarash va e'tiqodlarini, MDH davlatlarining madaniy-tarixiy o'tmishi va an'alariga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

10. Yosh avlodni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash mexanizmini yarating.

11. O'quvchilarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy, tashkiliy-metodik asoslar majmuasini shakllantirish.

Shunday qilib, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida bo'lajak o'qituvchilik kasbi bo'yicha bilimlarni oshirishga, xususan, talabalarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlikni shakllantirish nafaqat tor pedagogik, balki umummilliy ahamiyatga ega, chunki intellektual yuk nafaqat insonning shaxsiy mulki.

Bilim va ta'limning mehnat faoliyatiga aylanishi katta ijtimoiy qadriyatdir, bu erda universitet pedagogikasi va uning tarkibiy qismlari: siyosiy pedagogika va gumanitar fanlar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Садохин А.Т. Культурология. Теория и история культуры./ Учебное пособие.- М., 2001.- С. 285
2. Садохин А.Т. Культурология. Теория и история культуры. /Учебное пособие. -Москва: ЭКСМО, 2007.- С. 622
3. Слостёнин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность.-Москва: Педагогика, 1997
4. Собрание сочинений К. Симонова, т. 8.- М., 1982. С. 284
5. Степанищев А.Т. История Отечества- преподавание в школе.- М.: Педагогика, 2001.- С.
6. Сухомлинский В.А. Избранные педагогические сочинения в 3-х томах.- М.: Педагогика, 1981.
7. Сухомлинский В.А. О воспитании. М.: Педагогика, 1973
8. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
9. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
- 10.Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
- 11.Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
- 12.Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
- 13.Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
14. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
- 15.M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
- 16.Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and

- literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
17. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
 18. О‘разбайева М. XX аср озарбайжон адабиётда Ганжавий образи тасвири. Низомий Ганжавий ва хамсачилик ан’анаси номли илмий конференсиya материаллари то‘плами. – Toshkent. 2024 -yil.
 19. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
 20. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

*Manzura Keldiyorova,
SHDPI o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari yangi va istiqbolli ekanligi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarni o‘qitishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalariga qo‘yiladigan asosiy didaktik talablar, axborot texnologiyalarining an‘anaviy o‘qitish usullaridan afzalliklari, texnologiya darslarida qo‘llaniladigan pedagogik dasturiy ta‘minotning asosiy turlari va qisqacha tavsiflari, ularni eksperimental tekshirish xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishlari kerakligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, uslub, innovatsiya, kompyuter, dars, pedagog, bilim.

Abstract: The article mentions that experimental work on the use of modern information technologies is new and promising. Also, the main didactic requirements for information technologies used in training future pedagogues, the advantages of information technologies over traditional teaching methods, the main types and brief descriptions of pedagogical software used in technology classes, their experimental it is noted that they should have an idea about the properties of the inspection.

Key words: information technology, method, innovation, computer, lesson, pedagogue, knowledge.

Аннотация: В статье отмечается, что экспериментальные работы по использованию современных информационных технологий являются новыми и перспективными. Также отмечены основные дидактические требования к информационным технологиям, используемым при подготовке будущих педагогов, преимущества информационных технологий перед традиционными методами обучения, основные виды и краткая характеристика педагогического программного обеспечения, используемого на технологических занятиях, их экспериментальное применение. Отмечается, что о них необходимо иметь представление. о свойствах осмотра.

Ключевые слова: информационные технологии, метод, инновация, компьютер, урок, педагог, знания.

Talabalarga birinchi darslardanoq zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ko‘lamini tushuntirish kerak. Mashg‘ulotlar va mustaqil ishlar davomida talabalar o‘zlarining individual ijodiy qobiliyatlarini ochib beradilar va kasbiy faoliyatida yangi ufqlarni ko‘ra boshlaydilar. Dastlab maktabda foydalanish uchun mo‘ljallanmagan

mahsulotlarning zamonaviy dasturlari yordamida darslarda texnologiyadan keng foydalanish mumkin. Dasturiy mahsulotning didaktik ahamiyatini izlash va aniqlash, uning maktab texnologiyalari standartlariga muvofiqligi o'quvchilarni faol o'quv faoliyatiga jalb etish, dunyoqarashini kengaytirish, xalqaro standartlarga javob beradigan, dinamik tipga ega bo'lgan yangi avlod o'qituvchisini shakllantirish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga kasbiy va shaxsiy tayyorlashning amaliy jihatlarini aniqlash (loyihaviy ta'lim texnologiyasi misolida) model va texnologiyani ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi. Modelning maqsadli komponenti bo'lajak o'qituvchini bilim, faollik va shaxsiy qadriyat yondashuvlari va o'qitishning muhim tamoyillari asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashni yo'naltiradi. Tarkib komponenti kasbiy ahamiyatga ega bilimlar majmuini (pedagogik bilimlarning zamonaviy tarmog'i sifatida innovatsiyaning dolzarbligi, uning tarixiy, nazariy va amaliy jihatlarini, bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammolari va tayyorgarligi to'g'risidagi bilimlar, uning qiymatini tushunish) o'z ichiga oladi. Protessual komponent o'quv jarayonining shakllari, usullari va vositalari (ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, davra suhbatlari, maslahatlar, konferentsiyalar; o'rganishga qiziqishni rag'batlantirish va rag'batlantirish usullari, tushuntirish, reproduktiv, muammoli, evristik va boshqalar) orqali aniqlanadi. tadqiqot usullari; rasmiy hujjatlar, o'quv va ilmiy adabiyotlar, o'quvchilar uchun o'quv va uslubiy tavsiyalar, internet), shuningdek, o'quv sharoitlari, masalan, talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning predmet-sub'ekt xususiyati, muammoli, evristik va o'rganishning tadqiqot xarakteri, o'quvchilarga nuqtai nazar huquqini beradi. Baholash va ishlash komponenti ishlab chiqilgan mezonlar, tayyorgarlik darajalari va ko'rsatkichlari, shuningdek diagnostika usullari asosida bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini diagnostika qilishga qaratilgan.

Zamonaviy jamiyatda axborotlashtirish jarayoni inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini, jumladan, ta'lim kabi keng sohani qamrab oladi. Mahalliy tarmoqlarga ham, global Internet tarmog'iga ham kirish imkoniyatiga ega bo'lgan nisbatan arzon va shuning uchun ham foydalanish mumkin bo'lgan shaxsiy kompyuterlarning o'quv jarayoni amaliyotiga joriy etilishi munosabati bilan mavjud ta'lim tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni masalasi ko'tarildi. ayniqsa keskinlashdi.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim muammolarini hal etish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidan boshlanadi. Shu munosabat bilan bo'lajak maktab o'qituvchilari va oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini nafaqat tanlangan yo'nalish (matematika, kimyo, biologiya, adabiyot va h.k.) bo'yicha fundamental bilimlarga, balki pedagogika

va psixologiyaga asoslangan holda tayyorlash nihoyatda dolzarb bo'lib qoladi. umumiy madaniyat, shu jumladan ma'lumot. Agar shaxsiy kompyuterlar paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida asosan informatika o'qituvchisini tayyorlash zaruriyati yuzaga kelgan bo'lsa, hozirda universitet ta'limining vazifasi har qanday mutaxassislik bitiruvchilarini o'z pedagogik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashgacha kengaymoqda. Ya'ni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida puxta o'qitish talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Аболин Л.М., Блинова Л. Ф. Образовательное пространство школы нового типа. - Казань: Карпол, 1997. -155 с.
2. Аболин Л.М., Сибгатуллина И.Ф., Мурысин Л.Н. Концепция школы нового типа, программа ее практической реализации. Казань: Карпол, 1995. -31 с.
3. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. М.: Наука, 1980. - 335 с.
4. Ангеловски К. Учителя и инновации.- М.: Просвещение, 1991. -159 с.
5. Андреев В.И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности. Казань: Изд-во КГУ, 1989. -238 с.
6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. Книга 1. Казань: Изд-во КГУ, 1996. - 568 с.
7. Андреев В.И. Технология экспертной оценки качества работы учителей и руководителей школ, лицеев, гимназий. Казань, 1994. - 26 с.
8. Анисимов Н.М. Инновационная культура педагога // Magister. -1998. N 3. - С. 46-55.
9. Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. М.: Политиздат, 1977. - 382с.
10. Pardayeva N. Anbar Otin adabiy merosi: ko'lami, o'rganilishi, qayta baholash zarurati.-INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART. Xalqaro so'z san'ati ilmiy jurnali. 2020.
11. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
12. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
13. Pardaeva Nigora BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Актуальное в филологии. № 3 2021/6/11
14. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary

Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).

15. Omanova M.A., Якубов И.А. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
16. Kalandarova D. “Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
17. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
18. M.N.Kadirova. The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore. International Scientific-Online Conference: Intellectual Education technological Solutions And Innovative Digital Tools. Netherlands.
19. Mashkhura Kadirova. "The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,
20. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадиий нутқнинг ўрни. *GOLDEN BRAIN*. 2023, 193-199 б.
21. О‘разбайева М. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
22. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
23. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.

